**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**«TARBIYA» FANIDAN**

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

*(kunduzgi ta’lim shakli 2 kurs talabalari uchun)*

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Bakalavr yo’nalishlari: 5120300 – Tarix

**Termiz – 2024**

Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017 yil 1 martdagi 107-sonli buyrug‘i asosida qabul qilingan yangi o‘quv uslubiy majmualarni tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma talablari asosida yaratildi. Ushbu majmua ta’lim tizimining me’yoriy-huquqiy asoslari, jumladan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, ta’lim tizimiga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi: X.Xudayberdiyev**. –“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti

**Taqrizchi: s.f.n, prof. H.M.Rasulov**

***O‘quv-uslubiy majmua Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil _____dagi __- sonli qarori bilan tavsiya qilingan.***

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

# «TARBIYA»
## FANIDAN
## O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Termiz – 2024**

# I.O‘QUV MATERIALLARI

**MA’RUZA MATERIALLARI**

## 1-mavzu: Tarbiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

**Reja:**

1. **Tarbiya –ijtimoiy fan sifatida. Tarbiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalari, metodologiyasi, tadqiqot usullari.**
2. **Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Tarbiya fanining jamiyat va olamni rivojlantirishdagi o'rni.**
3. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 31 dekabr 1059-son qarorlarida belgilangan vazifalar.**

**"Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,**
**yo najot-yo halokat, yo saodat-yo**
**falokat masalasidir".**

**Abdulla Avloniy.**

**Tayanch iboralar:** *tarbiya, tarbiyaviy jarayon, tarbiya shakllari, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi,* "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi".

### 1.1. Tarbiya –ijtimoiy fan sifatida. Tarbiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari, asosiy tushunchalari, metodologiyasi, tadqiqot usullari.

**TARBIYA**– shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir.

**Tarbiya** – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari – o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish.

Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisadir. Tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga ega. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini

bajaradigan hodisa. Lekin har bir jamiyatda tarbiya maqsadi, vazifasi, mazmuni o‘ziga xosligi bilan farq qiladi.

Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «**Tarbiya**» atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

**Tarbiya** har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

**Tarbiya** jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o‘rganilayotir. Natijada, O‘zbekistonda tarbiya fani va amaliyotida

oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.

**Tarbiya- muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda ular bilan bog’liq muammolarni o‘rganadigan fan.**

**Tarbiya ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy g’oya asosida tarbiyalashga yo’naltirilgan fandir.**

**Tarbiya fanining asosiy maqsadi**-yoshlarni baxtli-saodatli, o’z zamonininig aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarini barkamol insonlar qilib tarbiyalash borasida qaysi yo‘lni tanlamoq, nimalarga diqqat-e’tiborni qaratmoq lozim? Nima qilganda ijobiy natijaga erishiladi? Bu savollar tarbiya fanining eng muhim muammolari hisoblanadi. O‘zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma’naviy zaminlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari talabi darajasida bilim berishimiz zarur. Demak, oldimizda turgan eng muhim va dolzarb muammolardan biri - O‘zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat, elat kishilarini va ularning farzandlarini barkamol insonlar qilib tarbiyalash, mustaqil respublikamizning ongli fidoiysiga aylantirishdir. Chunki jamiyat manfaati yo‘lida o‘zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste’dodini baxshida etishga tayyor turgan yetuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoiylar bo‘lmasa, O‘zbekistonni dunyodagi eng ilg‘or davlatlar safiga qo‘shish qiyin kechadi. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru javohirga teng ma’naviy meroslari dasturilamal bo‘la oladi. Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Ismoil Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli hamda shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotlariga tayanib ish ko‘rilsa tarbiya ta’sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. O‘zining o‘tmish madaniy merosini chuqur bilmagan va e’zozlamagan odam, o‘z shajarasini, avlod-ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni, milliy istiqlolimiz, erkimiz va ozodligimiz yo‘lida jasorat ko‘rsatgan Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk zotlar, xalq qasoskorlarining nomlari, kurashlarining tub mohiyatini ilg‘ay olmaydi. Yosh avlodlarni tarbiyalash– muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalash oddiy, jo‘n ish emas. U kunlab, oylab, yillab va hatto o‘n yillab oliy maqsad yo‘lida sabr-toqat, chidam va qat’iyatlilik, irodaviy sifatlarni safarbar etishimizni taqozo etadigan insoniy vazifamizdir. Hozirgi paytda mamlakatimizda yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularning ilmiy, madaniy-ma’naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini chuqur o‘zlashtirib olishlari uchun g‘amxo‘rlik qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ertangi hayoti, porloq istiqboli nazarda tutilib,

ko‘pgina yoshlar bir qancha xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilishi fikrimizning isbotidir. Respublikamizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni hayotga joriy etish, ta’lim-tarbiyani, sog‘liqni saqlash ishlarini, umumiy tibbiyot muammolarini zamonaviy talablar darajasida olib borish, maktablarni takomillashtirish, o‘rta maxsus bilim yurtlari va oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o‘tkazish borasidagi ishlar ham madaniy-ma’naviy taraqqiyotimizda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jamiyat taraqqiyoti va shaxc kamoloti uchun bo‘lgan ma’naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, umumiy ta’lim maktablarida, xalq ta’limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan ta’lim-tarbiya yotadi.

**Tarbiya qoidalari.**

**Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

-tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi

-tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi

-tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog’liqligi

-tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning utsivorligi

-tarbiyalanuvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish

-izchillik, tizimlilik, uzluksizligi.

Umuman olganda, o‘sib kelayotgan yosh avlodni zamonamiz ruhiga mos, barkamol inson bo‘lishlari uchun, tarbiyaning tarkibiy qismlari (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik tarbiya va politexnik ta’lim) ga yangicha nigoh tashlash va o‘sha ta’limni amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqmoq lozim.

**Aqliy tarbiya.**

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo‘lib o‘quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg‘ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o‘stirishni maqsad qilib qo‘yadi. Aqliy tarbiyani shunday tashkil etish lozimki, toki o‘quvchilar aql-zakovatli, ob’ektiv dunyoni yaxlit idrok etadigan, o‘zligini tushunadigan, hayotda tutgan o‘rnini anglab yetadigan, o‘z oldida turgan vazifalarni ongli bajara oladigan, insoniy qadr-qimmatni ulug‘laydigan bo‘lishsin. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi. Hadis kitoblarida har bir mo‘min-musulmon uchun ilmning naqadar zarurligi bayon etilgan. «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» degan purma’no hadisi-shariflar so‘zimiz dalilidir. Demak, islom ta’limotida ilm eng

oliy maqsad – dunyoni bilish uchun zarurat deb uqtirilgan. Bilim dunyoni bilish doirasida cheklanmaydi, balki shaxs ma’naviyatini boyitishda ham bosh omil bo‘la oladi. Muhammad alayhissalom o‘z hadislarida - «Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo‘lsa ham o‘rganinglar... Ilm egallang. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtli daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida - zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir» deganlar. Shuningdek, Hadisi sharifda: «Ilm olmakka intilish har bir muslim, muslima uchun qarzu farz» deyiladi.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarlarida bilimni yuksak qadrlaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq darkorligi, bilimdon bo‘lish asosan tarbiya bilan chambarchas bog‘liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, shuncha yaxshiligi haqida yozadi: «Agar kimda bo‘lsa aql, ilm, zehn, uni madh etib sen, tugal er degin, ziyod bo‘lsa kimda o‘quv, uquv, aql, bilim, yomon va kichik bo‘lsa ham maqtagin».

Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida ilm orqali "Farhodning aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e’tiqodli inson bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, yoshlar aqlini o‘stirish uchun birinchi galdagi vazifa ilm olishga da’vat etishdir. Maktab o‘quv rejasida ko‘rsatilgan fanlarni egallash tabiatning va kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilib olishga imkon beradi. O‘quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirmay turib ularda ilmiy dunyoqarash shakllantira olmaymiz. Ilmiy dunyoqarashsiz aqliy tarbiya haqida gapirish safsatabozlikdan boshqa narsa emas. O‘quvchilarga aqliy tarbiya berishda birinchi galda uning fikrlash, his qilish, tasavvur, xayol va xotira qobiliyatlarini o‘stirish, ichki dunyosini ma’naviy jihatdan boyitish haqida o‘ylamoq lozim. Shu bilan birgalikda oilada, maktabda bolalarga chala-chulpa, yarim-yorti bilimlar bermay, ma’lum tizim asosida fanga tegishli bilimlar berishni tashkil etish darkor. Bir so‘z bilan aytganda aqliy tarbiya yosh avlodning mehnat qilish qobiliyatlarini o‘stiradi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

**Axloqiy tarbiya.**

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, insonlarning o‘ziga, oilasiga, do‘st-birodarlariga, jamoa a’zolariga va tabiatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq, odob qonun-qoidalari majmuasidir. Ana shu xulq, odob qonun-qoidalarini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko‘rsatilayotgan ta’sir axloqiy tarbiya deb nomlanadi. Demak, axloq kishining oilaga, mehnatga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur’oni karimdagi va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida ota-bobolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, ma’naviyatimiz durdonalari – Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sa’diy Sheroziy va boshqa siymolar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi fikr-mulohazalari hozirgi vaqtda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan, o‘sha hikmatlar yoshlarimiz tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Kattalarni

hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillik, millatidan, qat’i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi - kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom – O‘zbekiston aholisiga xos fazilatlardir.

Amir Temur Axloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan.

Imom Al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik- mana shu to‘rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo‘lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir»-degan edi. Demak, barkamol inson tarbiyasining yetakchi bo‘g‘inini tarkibiy qismi - axloqiy tarbiya-insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi mukammallikka erishtiruvchi vositadir.

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bu ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobdir. Xuddi shu ma’noda axloq kishining xulq-atvorida, e’tiqod-iymonida, yurish-turishida, kundalik turmushida, fikr-mulohazasida, mushohada va muloqotida ko‘rinadi. Axloqli inson o‘zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo‘ladi. Musohib ko‘ngilga qarab gapiradi, kishining dilini og‘ritmaydi, tashqi muomalasi bilan uning qalbini yashnatadi, muloqot odobiga rioya qiladi. Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat beradiki, jamiyatimizning kuchi fan-texnika taraqqiyoti, moddiy boyligimiz bilan bir qatorda ma’naviy boyligimiz, hayotimiz ma’nosi bo‘lmish axloqiy kamolotdadir. Ularga befarq bo‘lmasligimiz, yoshlarimizni odamiylikka chorlashimiz lozim. Oilada, maktabda, jamoat joylaridagi har bir hatti-harakat axloq nuqtai nazaridan go‘zal bo‘lsin, kishining qalbiga rohat-farog‘at baxsh etsin. Bunday xislatlarni tarbiyalovchi o‘qituvchi-tarbiyachilar esa ana shunday ezgu niyatli kasb bilan shug‘ullanayotganliklaridan faxrlansinlar.

**Jismoniy tarbiya.**

Barkamol inson tarbiyasining tarkibiy qismlaridan yana biri jismoniy tarbiyadir. Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom o‘sishlarini, baquvvat bo‘lishlarini va Vatanimiz himoyasi uchun qo‘rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol-aslahalardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o‘zining oliy maqsadi deb biladi. Ma’lumki, o‘quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o‘yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg‘ulotlari turlari vositasida beriladi. Jismoniy tarbiya vositasida o‘quvchilarga odamning anatomiyasi, fiziologiyasi va gigienasiga oid tizimli bilim ham beriladi, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bir-birini taqozo qiladi. Jumladan, bo‘shanglik, o‘z kuchiga ishonmaslik, dangasalik va boshqa axloqiy kamchiliklar kishini qo‘rqoq qilib qo‘yishi mumkin. Bunday shaxslar Vatan himoyasi uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Chunki qo‘rqoqdan hech qachon botir chiqqan emas. Lekin sotqinlar chiqqanligi haqida tarixiy ma’lumotlar bor.

Mard, jismonan chiniqqan kishi mehnatda ham o‘zini ko‘rsata oladi. Bunday sifatga ega bo‘lgan kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insofni; nomardlarda esa yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, razillik, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi illatlarni uchratish mumkin. Mard bilan nomard orasidagi tafovutni Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi: «Mard-«la’l toj ila» bong uradigan xo‘roz. G‘arazgo‘y vaysaqi, nomard makiyon. Xo‘roz ma’lum vaqtda «nido» tortganidek, mard ham o‘z paytida gapini aytadi, zaruratga qarab munosabatini bildiradi. Mard-maydon odami, u kurashib yashaydi». Xalqimizning qahramonlik, mardlik tuyg‘usi ifodalangan ko‘plab rivoyatlari, dostonlari mavjud. Ularda mehnatkash xalqning qahramonligi, el-yurt farovonligi yo‘lidagi mardliklari ifodalangan. Ana shulardan biri - «Alpomish» dostoni. Oldimizda turgan vazifa yosh avlodni jismonan tetik, xushchaqchaq, mehnatsevar, jasur, vatanparvar, axloqan pok, ma’naviyati go‘zal bo‘lishi uchun barcha faoliyatimizni safarbar etishdir.

**Mehnat tarbiyasi.**

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad, avvalo, mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o‘zi bajarayotgan ishning natijalarini ko‘rsa, his qilsa, o‘sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat - kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Donolarimiz: «Mehnat, mehnatning tagi- rohat», «Bugungi ishni ertaga qo‘yma», «Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan – tishlaydi, ishlamagan – kishnaydi», «Mehnatdan qo‘rqma, minnatdan qo‘rq», «Odamning husni – mehnatda», «Oltin o‘tda bilinar, odam – mehnatda», «Xazina g‘oyibdan emas, mehnatdan», «Halol mehnat-yaxshi odat, berur senga saodat» deb bejiz aytmaganlar. Buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandning «Dil ba yoru dast ba kor» hikmati bugungi kunda ham o‘z qadrini, qimmatini yo‘qotmagan. U kishi talabalarni madrasaga qabul qilish paytida «Biror kasbing bormu?» deb so‘rar ekanlar. Hunarsiz kishi o‘qishga qabul qilinmagan. Uning fikricha: «Agar kishi hunarli bo‘lsa, u bilimini haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan kun kechiradi, bordiyu, kasbi bo‘lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unutadi». Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik har qanday kishini, har qanday oilani buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do‘stlik, birodarlik, jamoa bo‘lib ishlash, madaniyat, barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi, kamol topadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zini, o‘z qadrini biladi, uni el-yurt ulug‘laydi. Mehnatsevar kishining porloq siymosi o‘g‘il-qizlari, nabiralari, yoru do‘stlari, hamkasblari, shogirdlari qalbida hamisha yashaydi. Ota-bobolarimiz bola tarbiyasida eng avvalo uni mehnatga o‘rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e’tibor berishgan. Farzandlarini layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar, o‘zlari namuna bo‘lganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o‘z mehnatlarini ayamasliklari,

ayniqsa, maktab o‘quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdagi mas’uliyatni chuqur his qilishlari kerak. O‘quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarini o‘z vaqtida payqab, ularga maslahatlar berib, to‘garaklarga jalb qilish orqali hayotga tayyorlashlari nihoyatda muhimdir.

**Estetik tarbiya.**

Estetika lotincha «estezio – go‘zallikni his etaman» ma’nosini bildiradi. Aqliy, axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifasi bolani tabiat va jamiyatdagi go‘zallikni idrok qilish, uni to‘g‘ri tushunish va fahmlash, qadriga yetishga, shu asnoda o‘z shaxsiy hayotining go‘zal tomonini ko‘ra bilishga, go‘zal bo‘lishi uchun kurashishga o‘rgatishdan iboratdir. Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq -atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa, rasm, ashula darslari, adabiyot va boshqa fanlar estetik tarbiyaning vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya bola tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha unga yo‘ldoshdir. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan tadbirlarda, turli xildagi anjumanlarda o‘z ta’sir kuchini namoyon qiluvchi, yosh avlodga go‘zallikni, nafosatni tushuntiruvchi, tarbiyalovchi vositadir. Dono xalqimiz «Oq bo‘lmasa bo‘lmasin, pok bo‘lsin», «Pokliging – sog‘liging», «Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l», «Sog‘ligim-boyligim», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqol va matallari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyat go‘zalliklarini ko‘ra bilishga, ularni qadrlashga o‘rgatib kelishgan. Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini bilish, go‘zal tomonlarini ko‘ra bilishnigina emas, balki botiniy go‘zallikni his qilishni ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go‘zallikning qadriga yetishga undaydi. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hokazo sifatlarda o‘zini namoyon qiladi. Mir Alisher Navoiy o‘zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go‘zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga yetishuvida xolasi Mehinbonuning tarbiyaviy ta’siri katta bo‘lgan. Natijada Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qazish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o‘sha xayrli ishlarga bosh bo‘ladi. Shirinning latofatliligi shunda ediki, u molu davlatga uchmagan. Aksincha inson bo‘lish va chin insonni sevishni baxt deb bilgan. Shirin eng og‘ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo‘lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilati minglab qizlarga o‘rnak bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolajak.

Ahmad Donish o‘z farzandlariga nasihat qilib, «Suratlaringni emas, g‘ayratlaringizni tuzatinglar» degan edi. Insonning tashqi tomoni har qancha go‘zal va chiroyli bo‘lmasin, uning axloqi buzuq bo‘lsa, u el e’tiborini qozona olmaydi. Demak, estetik tarbiya insonning go‘zal sifatlarini targ‘ib etishga, tabiat va jamiyatning nafis jihatlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

**Politexnik tarbiya.**

Ishlab chiqarish jarayonlari qonun-qoidalari bilan tanishtiradigan, shu barobarida, yosh avlodga ishlab chiqarish qurollaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadigan ta’limga politexnik ta’lim deyiladi. «Politexnika» lotincha - ko‘p texnika (pole-ko‘p), politexnik ta’lim - «ko‘p texnikali ta’lim» degan ma’noni bildiradi. U kasbiy ta’lim, kasb o‘rgatuvchi ta’lim emas. Yoki u ko‘p texnikadan xabardor qiladigan fan ham emas. Ammo politexnik ta’lim har qanday ixtisosdagi kishi uchun zarur bo‘lgan minimum bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Respublikamizning har bir fuqarosi o‘zining barcha kuch va qobiliyatlarini erkin taraqqiy ettirishga qodir bo‘lmog‘i kerak. Shu ma’noda politexnik ta’lim aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi omillardan biridir. Qolaversa, politexnik ta’lim aqliy ta’lim va tarbiya bilan shu darajada bog‘langanki, ularni ajratish kitobni darrov chetga surib, tarbiyachi talabini bajarishga kirishadi. Bunda tarbiyachiga quloq solmagan bolalarni «tarbiyasiz», «quloqsiz» deyish aslo mumkin emas. Chunki ular o‘z mashg‘ulotiga o‘ta qiziqib qolib, uni yakunlamasdan diqqatini boshqa narsaga jalb qila olmaydi. Afsuski, amalda tarbiyachilar, ko‘pincha, buni hisobga olmaslik oqibatida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Shaxsning rivojlanish holatini to‘g‘ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo‘yib kuzatish lozim.

## Iqtisodiy tarbiya

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shiddat bilan bir vaqtda o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko‘nikma, malakalarni shakllantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiya-o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo‘jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiya ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan iqtisodiy ta’lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo‘jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o‘rta biznes, ijara shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, buyujetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;

- o‘quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

- ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

- o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

- ular tomonidan tor doirada bo‘lsa-da tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga erishish.

Har qanday tarbiyada ham o‘sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to‘liq anglab yetish o‘sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas.

Bu borada o‘quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o‘rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan.

Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma’lumotlarni ilohiy kitob - Qur’oni Karimda va muqaddas kitob-Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo‘yicha alohida xodim faoliyat ko‘rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

Bu borada Forobiyning “Inson o‘z mablag‘ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi”, degan fikri o‘rinlidir.

Tejamkorlikda vaqt masalasi alohida e’tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi», degan naql bor, chunki vaqt o‘lchovlidir. Undan dunyoni o‘rganish, o‘zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu sababli ham u qadrlidir. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

O‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish yo‘llaridan yana biri - bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir.

Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o‘gitlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi. Demak, talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo‘llaridan biri - bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o‘git va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo‘lib, dars mashg‘ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

**Ekologik tarbiya**.

Ekologiya tushunchasini ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan 1866-yilda qo‘llanilgan. Olim tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun shu atamani taklif etdi. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» - uy, turar joy, makon, «logos» -fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayondir.

Ekologiya - yunoncha so‘z bo‘lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadigan fandir.

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII-XIX asrlarni qamrab oladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tadqiqotchi - olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning kishi organizmiga ta’sirini o‘rganish natijasida bu fanga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi.

Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Shu sababli, bu masala yechimiga bir, ikki davlat emas, balki o‘z atrofimizdagi olam muvozanatini o‘ylayotgan ko‘pgina davlatlar e’tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Birinchi Prezidentimizning 1993-yil 23-apreldagi “Sog‘lom avlod uchun” Xalqaro nodavlat xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni, o‘sha yili “Sog‘lom avlod uchun”ordenining ta’sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, “Ekologik ta’lim-tarbiya konsepsiyasi”ni ishlab chiqilishi mamlakatimizda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimizning ham bu boradagi faolligidan dalolatdir.

Ekologik tarbiyaga e’tibor yurtimizda oiladan, bog‘chadanoq boshlab o‘rgatilib borilgan. Hozirgi paytda umumta’lim maktablarida ham ekologik yo‘nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shular asosida litsey va maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarining olib borilishi - yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan darak beradi.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning tabiatga ta’sir etish darajasi ham shunchalik ko‘p bo‘lar ekan. Aholi sonining tez o‘sib borishi natijasida ekologik muammolar ko‘payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta’minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolarga aylanib bormoqda. Yer bag‘ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg‘ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo‘lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko‘paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechimiga bog’liq bo‘lib qoladi.

O‘qituvchining bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berishda xalqimizning o‘ziga xos milliy tarbiyasidan o‘rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to‘rt narsa yer, suv, olov, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e’tiqod qo‘yib, yozning eng jazirama kunlarida “Suv sayli” o‘tkazgan. Ota-bobolarimiz “Suv-tabiat in’omi, hayot manbayi”, deb bejiz aytishmagan.

Demak, o‘quvchi-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, marosimlar, nodir qo‘lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo‘lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog‘lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o‘rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyot darajasi undagi xalq xo‘jaligining turli jabhalariga ta’sir etadi. Bu borada o‘ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global ekologik muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo‘la olsa, mintaqaviy muammolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma’lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba’zi kasalliklarning ko‘payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

**Fuqarolik tarbiyasi.**

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obekti fuqaro sanaladi. Fuqar fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga ma’sullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish.

2. O‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.

3. O‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha’ni, or-nomusini himoya qilish hissini shakllantirish.

4.O‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5.Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6.Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e’zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish.

Yoshlarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma’lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilishi, har kim o‘z sha’ni va obro‘siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish, qonuniy, tinch mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O‘quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma’lumot berish, bu xususida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish ko‘zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo‘ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko‘zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy merosini avaylab-asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash; O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs. O‘z fuqarolariga ega bo‘lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo‘lmay, muayyan mexanizmga ega sub’ekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o‘rni qonun yo‘li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’i nazar, ma’lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko‘rsatilib o‘tilgan burchlarni bajardi.

Fuqarolik tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq o‘tmishini o‘rganish orqali milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini qaror toptirish sanaladi. Shaxs ham, jamiyat ham o‘tmishni o‘rganish, uning har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi. O‘tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma’naviy meros

g‘oyalari bugungi avlod uchun dasturilamal bo‘lishi lozim. Allomalar, xalq qahramonlari hayotini o‘rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar g‘oyalarini o‘rganish asrlar davomida ardoqlanib kelingan an’ana, urf-odat, marosimlar millatni jipslashganligidan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o‘tmishi, tarixini o‘rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘quvchilarni jalb etish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan yo‘l sanaladi.

O‘quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta’minlanadi.

Yosh avlodda fuqarolik hissi va e’tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko‘nikmalarni shakllantirib bo‘lmaydi.

Fuqarolik tuyg’usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o‘quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me’yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o‘quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi hatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi.

Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g‘oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ‘ib etib borish orqali o‘quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg‘usini bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun «Respublika bayrog‘ida nimalar aks ettirilgan?», «Respublika gerbida nimalar tasvirlangan?», «Humo qushi tasviri qanday ma’noni anglatadi?», «Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?» kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir. O‘quvchiga fuqaro sifatida o‘z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya’ni, «Bugun xalq farovonligi, Vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?», «Zimmamdagi burchni qanday ado etdim?» tarzidagi savollarga javob topishga o‘rgatish kerak.

Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta’kidlanadi. **Alisher Navoiy** quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og‘ir judolik ekanligiga urg‘u beradi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Allomaning fikrlarini rivojlantirgan holda vatandan judo bo‘lish og‘ir judolikkina emas, balki «yuzi qaroliq» ekanligini **Zahiriddin Muhammad Bobur** quyidagicha ifodalagan edi:

Tole yoqi jonimg’a baloliq bo‘ldi,
Har ishniki, ayladim - xatoliq bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlondim,

Yo rab, netayin, ne yuz qaroliq bo‘ldi.

**Abdulla Avloniy** o‘z asarlarida «vatan» tushunchasiga ta’rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligini quyidagicha qayd etadi: «Har bir kishining tug‘ilub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi, tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Biz Turkustonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskumular shimol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi».

Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilar davrasida bo‘ladi, o‘zi ko‘nikkan turmush tarzi bo‘yicha kun kechiradi, bolalikdan o‘zi ko‘nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so‘zlashadi va u shu muhitdagina o‘zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o‘ziga tanish bo‘lgan, o‘zi ko‘nikkan muhitni topa olmaydi. Shu bois garchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga safar uyushtirgan bo‘lsa-da, o‘z yurtini tezda sog‘inadi.

**Huquqiy tarbiya**

Huquqiy tarbiya o‘quvchilar o‘rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. 1993-yil mart oyida e’lon qilingan «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi»da qayd etilganidek: «Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari- Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta’limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik, ma’muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so‘zsiz rioya etish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o‘quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi” g‘oyalari jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida qimmatli nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy ta’lim va tarbiya o‘zaro bog‘liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta’lim o‘quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo‘lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil

qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

— o‘quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berish;

-o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

— o‘quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

— ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas’ullik, huquqiy faollik, huquqiy e’tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta’minlash;

— o‘quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me’yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to‘g‘ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo‘lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko‘rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

## 1.2.Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi. Tarbiya fanining jamiyat va olamni rivojlantirishdagi o’rni.

Tarbiya fani insonda jahon tajribalarida sinalgan tizim bo’lgan bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy meros, an’analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo’lgan ma’naviy-ma’rifiy tushunchalar haqida bilim, malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o’z o’rniga ega.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida tarbiya falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, mat. va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Tarbiyada va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalaniladi.

Tarbiya birinchi navbatda falsafa bilan mushtarak rivojlanadi. Chunki falsafadan ajralib chiqqan pedagogika insoniy jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlaridan ilmiy manba sifatida foydalanadi.

Bugungi kunda bir qator umumiy masalalar ishlab chiqilganki, u masalalar falsafada ham, tarbiyada ham barobar mavjud. Bular jumlasiga, tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o‘zaro aloqalar: dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta’lim

jarayonining mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan geneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi. Tarbiyaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika (axloq-odob), estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Tarbiya ijtimoiy fanlardan: tarix, ma’naviyat asoslari, milliy g‘oya va asosiy tushunchalar, pedagogika, iqtisodiyot, psixologiya va fiziologiyalar bilan ham bevosita yoki bilvosita bog‘liqdir. Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini boshqa fanlardan farqli o‘laroq, tarbiya o‘rganadi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda tarbiya ko’p tarmoqli fan hisoblanadi. Jumladan, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, siyosiy tarbiya, huquqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ma’naviy tarbiya, g’oyaviy tarbiya kiradi. Pedgogiaka fani inson tarbiyasi bilan shug‘ullanganligi sababli unga tarbiya fani ko‘maklashishi tabiiydir. Tarbiya psixologiya, huquq va tibbiyot fanlaridagi qonun-qoidalarga bevosita bog‘lanadi. Tarbiya ilmiy tadqiqot metodlarni takomillashtirishda mtematika, fizika, EHM kasb fanlar bilan bog‘liq.

Mustaqil O‘zbekistonda milliy Tarbiya fani bevosita iqtisod fani bilan bog‘lanib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish muamolarini, iqtisodiy tarbiya masalalarini uzviylik bilan amalga oshiradi. Tarbiya fanida bu ulug‘vor vazifa har bir o‘quv fanini o‘qitishda “milliy ta’lim modeli”dan kelib chiqib, har bir mavzu, tushunchalarning ta’limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi funksiyalari asoslab beriladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o’rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatni sekin-asta ko’nikmaga aylantirib borish lozim. Mehnat insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharafli mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e’tiborga olishi zarur.

Tarbiyada ma’naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o’rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

### 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosida Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarorida belgilangan vazifalar.

O‘zbekiston «Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo’ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o’zining aniq, qat’iy talablarni qo’ymoqda. Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo’lmaydi, bu ikki jarayon o’zaro uyg’un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog’lom, keng dunyoqarash va tafakkuga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo’lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni hamda ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovvut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, zarur darsliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan «Uzluksiz ma’naviy tarbiya» konsepsiyasini amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

«Uzluksiz ma’naviy tarbiya» konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori bilan qabul qilindi.

**Konsepsiya quyidagi boblardan iborat:**

**I bob. Umumiy qoidalar**

**II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari**

**III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirish**

**IV bob. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish**

**V bob. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish**

**VI bob. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish**

**VII bob. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish.**

**VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

Quyidagilar Konsepsiya chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan:

-2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash;

-ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

-tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

-homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

-aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

-ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish;

-uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish.

Qarorda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi chora-tadbirlar rejasini bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta’minlash belgilangan.

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Bu maqsadga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

-ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

-tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

-bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

-tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

-ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

-ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Konsepsiyada Uzluksiz ma’naviy tarbiya

a) davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

b) ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

s) davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etilishi belgilangan.

**Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:**

**birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);**

**ikkinchi bosqich — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;**

**uchinchi bosqich — umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);**

**to‘rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 -30 yosh, ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 -22 (24) yosh).**

Konsepsiya bo’yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining I-XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish belgilangan.

Konsepsiyada belgilanishicha oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda — hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi; ikkinchi davrda — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

Ushbu hujjatda homilador ayollar o‘qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlarini tayyorlash, ro‘yxatini shakllantirirish, tarqatish, mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma’naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o‘tkazish, oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish, ajralishlarning oldini olishda “Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida “Ota-onalik — baxt va burch” targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Oilada uzluksiz ma’naviy tarbiya xususiyatlari:

-muloqot, o‘yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, hatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasiga e’tibor qaratish;

-o‘zining va boshqalarning hatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o‘rgatish;

-ilk ma’naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

-o‘ziga-o‘zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Konsepsiyada 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlash va hududlarga tarqatish, bolalarga taklif etilayotgan o‘yinchoqlarni ma’naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sirlarning oldini olish masalalariga ham e’tibor berilgan.

Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish, buning uchun bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish, mahallalardagi “Ota-onalar universitetlari”da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish, “Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish, uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida “Yosh ota-ona kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkazish ham ko'zda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish konsepsiyasining o‘z ichiga maktabgacha 3-6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.

Ushbu bosqichda 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

-o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;

-o‘z hatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi;

-shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;

-ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;

-muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;

-o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;

-bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;

-nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishini inobatga olinish chora-tadbirlari belgilangan.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga:

-asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish;

-muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish;

-o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish;

-faoliyat va syujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

-ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish;

-kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;

-kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish;

-o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

-bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatilishi zarurligi ta’kidlangan.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg‘otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ta’kidlangan.

Bu borada yana quyidagi vazifalar rejalashtirilgan:

- Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashi tavsiyalari asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “Oilaviy”, “Bolajon” telekanallari, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

- Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo‘shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

- Mulkchilik shakllaridan qat’i nazar barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy

me’morchilik obidalari, O‘zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

- Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

- Barcha turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida “O‘zbekiston — mening Vatanim!” tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish.

-O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash.

-Tarbiyalanuvchilarda ma’naviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

- Bolalarda atrof-muhit ozodaligi, shaxsiy gigiyena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi “Ona tabiatni asraylik!” ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish.

- Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning “Bolalar dunyosi” variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish.

- Maktabgacha ta’lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, oliyjanoblik, mehr-shafqat, kitobxonlik namunalarini o‘zida aks ettirgan milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko‘rinishlari va lavhalari ifodalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi haykalchalar majmualarini o‘rnatish.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang‘ich sinflarda;

ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o‘rta va yuqori sinflarda.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

Konsepsiyada boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan quyidagi jihatlar belgilangan:

-“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

-o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar);

-muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

-bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

-o‘zining va atrofdagilarning xulqi, hatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

-kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

-bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

-o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

-ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

-xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

-kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

-vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

-muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

-o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

-faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

-tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

-milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish vazifalari ko’rsatilgan.

Mazkur hujjatda umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

-o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;

-irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

-ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

-faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

-shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

-fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

-milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

-o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

-o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

-xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;

-pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;

-ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;

-ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;

-mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya” asosida I -XI sinflar uchun “Odobnoma” , “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish, o‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan “Fazilatli avlod” va boshqa metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida buyuk ma’rifatparvar siymolar merosini targ‘ib etishga qaratilgan “O‘n ikki oy — o‘n ikki alloma” kitobxonlik oyliklarini tashkil etish, aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini o‘lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish, ta’lim muassalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish, o‘g‘il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo‘ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g‘ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo,

hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan.

Konsepsiya bo’yicha o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh;

ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh.

Bu hujjatda o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma’naviy-ma’rifiy dasturlar orqali amalga oshirish rejalashtirilgan. Unda o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

namunali, ma’naviy uyg‘unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag‘batlantirish;

yosh oilalarning hayotda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga erishish.

Konsepsiyada o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy rejalari asosida o‘quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantirish va buning uchun quyidagi jihatlar inobatga olinishi lozimligi ta’kidlangan:

-ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

-o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;

-kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;

-faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish;

-baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

-kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

- Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

-Oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

-Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid,

loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

- Oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.”Dunyoda yashamoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, boy bo`lmoq u yoqda tursin, ro`zg`or tebratish uchun ham ilm kerak”.**

**Ushbu hikmat muallifi kim?**

A. A.Behbudiy

B.A.Navoiy

S.A.Fitrat

D.Lev Tolstoy

**2.Insonning jismoniy ehtiyojlariga nimalar kiradi?**

A.Toza suv, oziq, uyqu,uy me`yoridagi harorat, dam olish mashqi.

B.Atrofdagilarni hurmat qilish,o`zini barkamol his qilish.

S.Chiroyli va tartibli hayot kechirish.

D.Jismonan va ruhan o`zini xavfsiz his qilish.

**3.Mahmud Zamaxshariy ilmdan tashqarida deganda nimani nazarda tutgan?**

A.Ilm insonlarga umrboqiy qudrat berishini

B.Dunyoning sir-asrorlaridan voqif bolishni

S.Insonning aqliy shakllanishini

D.O’zgalar bilan muomalada bolishni

**4. “Yo’qotilgan ma’rifat” kitobining muallifi kim?**

A.A.Frederik Starr"

B.M.Xorazmiy

S.Arastu

D.Endryu Marr

**5.”Tabsiri Hilol” asarining muallifi kim?**

A.Shayx Muhammad Sodiq

B.A.Navoiy

S.M Bobur

D.A.Avloniy

**6.Tarbiya fani darsliklari qaysi goya asosida tayyorlangan?**

A.Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari

B.Ozod va obod Vatan

S.Erkin va farovon hayot

D.Tarbiya-hayot-mamot masalasidir

**7.”Avesto” asarida kim qopga solinib, 25 darra kaltaklanishi haqida fikr yuritilgan?**

A. 17 yoshga kirgan yigitlar

B. 25 yoshga kirib turmushga chiqmay yurgan qizlar

S. farzandlarini yaxshi tarbiyalamagan ota-onalar

D. o’g’rilik qilganlar

**8.Tarbiya darslariga qo’yilgan talablar qaysilar?**

A.Didaktik, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik, estetik, gigiyenik

B.Didaktik psixologik

S. Psixofiziologik, estetik

D.Ilmiy, metodik, didaktik

**9.Tarbiya fani mohiyatining necha foizi nazariy va necha foizi amaliyotga asoslangan?**

A. 50% nazariy, 50 % amaliy

B. 60% nazariy 40% amaliy

S. 70% nazariy 30% amaliy

D. 20% azariy 80 % amaliy

**10.O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish to’g’risida”gi qarori qachon qabul qilindi?**

A.2020-yil 6-iyunda

B.2020-yil 8-avgustda

S.2020-yil 30-avgustda

D.2020-yil 8-sentabrda

**11.O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy tamoyilni belgilang?**

A. “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari!”

B. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish!

S. “O’zbekiston-umumiy uyimiz!”

D. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari!

**12. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi nechta bosqichdan iborat?**

A. to’rtta bosqichdan iborat

B. o’nta bosqichdan

S.sakkizta bosqichdan

D. oltita bosqichdan

**13. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasiga asosan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish nuqtalarini ko‘rsating.**

A.davlat va nodavlat ta’lim hamda ilmiy-pedagogik muassasalari; davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari

B.ilmiy-pedagogik muassasalarida

S. davlat va nodavlat ta’lim muassalarida

D.mahalla va oila institutlari

**14.Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi bosqichlari qaysi bandda to’g’ri ko’rsatilgan?**

A. oilalarda, maktabgacha ta’limda, umumiy o’rta ta’limda, ishlayotgan va band bo’lmagan yoshlar; o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’limda

B. bog’chalarda, maktablarda, kollej va litseylarda, institutlarda

S. oilada, maktablarda, kasb-hunar kollejlarida, oliy ta’lim muassasalarida

D.oilada, mahallada, bog’chalar va maktablarda, akademik litseylarda, institutlarda

**15.Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan yoshlarning tayanch kompetentsiyalari qaysi javoblarda to’g’ri ko’rsatilgan?**

A.Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mashuliyatlilik, bag’ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik

B.Jasoratlilik, tadbirkorlik, irodalilik, dovyuraklik, mehr-oqibatlilik, mashuliyatlilik, bag’ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik

S.Irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mashuliyatlilik, bag’ri kenglik, huquqiy madaniyat, sabrlilik, mehnatsevarlik

D.Halollik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mashuliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, insoniylik

16.**Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasining birinchi bosqichi qaysi davrlarni qamrab oladi?**

A. **birinchi bosqich —** oilalarda (ikki bosqich asosida: 1- bosqich — homila davri, ikkinchi bosqich — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr)

B. **birinchi bosqich —** maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr

S. **birinchi bosqich —** umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar)

D **birinchi bosqich —** oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 5 yoshgacha bo'lgan davr)

## NAZORAT SAVOLLARI:

**1.** Tarbiya nima?

**2**. Tarbiya Konsepsiyasi qachondan ta'lim tizimiga kiritildi?

3. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

**4.** Tarbiya fani qaysi fanlar bilan aloqador?

**5.** Tarbiyani nega uzluksiz jarayon deyishadi?

## 2-mavzu: Umumta'lim maktablarida tarbiya fanini joriy etishning dolzarbligi: maqsad va vazifalari. Tarbiya fanining Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi. Tarbiya fanining me'yoriy-huquqiy asoslari

**" Hayot yo'lida birinchi masala-**
**maktab masalasidir".**

**Fitrat.**

**Reja:**

1.O'zbekiston Respublikasi ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasining mazmuni va dolzarbligi.

2.Tarbiya fani Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g'oyasi asosida tadbiq etilishi, maqsad va vazifalari. Tarbiya fani muammolari, unga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Tarbiya fanining dolzarbligi va zarurati. Tarbiya fanining Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari. Tarbiya fanining me'yoriy-huquqiy asoslari.

***Tayanch so'zlar:*** *Konsepsiya, Milliy tiklanish, milliy yuksalish, an`anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv, konseptual g'oyalar.*

## 2.1.O‘zbekiston Respublikasi ta’lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasining mazmuni va dolzarbligi.

2020 yil 6-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Ushbu qaror asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish rejalashtirilgan. Qaror asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirgan holda yagona «Tarbiya» fani 1-9-sinflarda — 2020/2021 o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa — 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan.

Ushbu qarorga ko’ra umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning yaratilishini muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha tuzuvchilar guruhi tarkibi tasdiqlangan va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun **«Tarbiya» fani konsepsiyasi qabul qilingan.**

Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- «Tarbiya» fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash,

- 2020 yil 10 iyulga qadar 2020/2021 o‘quv yiliga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-9-sinflari uchun hamda 1 dekabrga qadar 2021/2022 o‘quv yiliga 10-11-sinflar uchun mo‘ljallangan «Tarbiya» fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish;

- 2020 yil 15 iyulga qadar 1-9-sinflar hamda 2021 yil 1 mayga qadar 10-11-sinflar uchun mo‘ljallangan «Tarbiya» fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish bo‘yicha istisno tariqasida deklaratsiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish;

- «Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yangi o‘quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etish va ularning joylarga yetkazilishini ta’minlash;

-2020 yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar «Tarbiya» fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv dasturlari va darsliklar asosida umumta’lim maktablaridagi «Boshlang‘ich ta’lim», «Milliy g‘oya va huquq», «Tarix» va

«Dinshunoslik» mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida «Tarbiya» fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

-malaka oshirish kurslari davomida «Tarbiya» fanidan tayyorlangan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan o‘tkazish belgilangan.

-«Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni nashrga tayyorlash va chop etish (darsliklarni nashrga tayyorlash, chop etish va yetkazib berish, tuzuvchilarga haq to‘lash) bilan bog‘liq xarajatlar darslik va o‘quv-metodik majmualarning umumiy narxiga kiritish.

«Tarbiya» fanidan darsliklar va o‘quv majmualarini xarid qilish va yetkazib berish xarajatlari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-sinf, Mehribonlik uylari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlari o‘quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar farzandlarini hamda o‘qituvchilar uchun «Tarbiya» fanidan darsliklar, multimedia ilovalari va o‘quv-metodik majmualar nashr etilishi, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta’minlash — O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan, o‘quvchilarni ijara asosida darsliklar bilan ta’minlash — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Xalq ta’limi vazirligi 2020-2023 yillarda respublika oliy ta’lim muassasalarining «Boshlang‘ich ta’lim», «Tarix» (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha), «Tarix o‘qitish metodikasi», «Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili», «O‘zbek tili va adabiyoti», «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi», «Pedagogika va psixologiya», «Dinshunoslik» va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)», «Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)» ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilariga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarni ko‘rish va mazkur ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab tegishli o‘zgartirishlar kiritishi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish uchun kadrlar tayyorlanadigan yangi ta’lim yo‘nalishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflarni kiritishi belgilab qo’yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida «Tarbiya» fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarini ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunlari, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan hujjatlari, xususan «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi va qonun konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Yoshlar-2030» strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi.

Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan «Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlar «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari», «Ma’naviyat asoslari», «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o‘rganilgan, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilingan.

Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog‘lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo‘l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o‘quv kurslari dasturlarini birlashtiradi.

Konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarning negizi hisoblanadi. Konsepsiya «Tarbiya» fanini o‘rganish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

**Konsepsiyaning dolzarbligi va zarurati**

1. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

2. Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan «Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, «ommaviy madaniyat»ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Bu, o‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

**Konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari**

Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashdagi asosiy prinsiplar quyidagilar hisoblanadi:

milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;

ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;

sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;

ochiqlik va shaffoflik;

tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

Huquqiy asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari «Tarbiya» fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo‘shma qarorlarini ishlab chiqish;

ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;

«Tarbiya» fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

Ilmiy-metodik asoslari:

shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;

«Tarbiya» fani malaka talablari, o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini shakllantirish;

«Tarbiya» fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;

«Tarbiya» fani o‘quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo‘naltirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

Fanning tarkibi, mazmuni, o‘quv-metodik ta’minoti:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o‘qitish talablari quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi zarur:

boshlang‘ich sinf (A2), to‘qqizinchi sinf (A2+), o‘n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olishi lozim;

har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash;

bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimiga «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;

o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining ko‘p asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo‘ravonlik, terrorizm va ekstremizm g‘oyalari targ‘ib etilmasligini tushuntirish;

shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma’rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish.

O‘quv-metodik majmuaning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablar:

o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

«Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari» prinsipi mazmun va mohiyatini o‘quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish;

o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;

faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;

mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, teran ma’rifatlilik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o‘zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratadi:

o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko‘nikmalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

umumta’lim fanlarining o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

O‘quv-metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari:

mazkur fan bo‘yicha o‘quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to‘g‘ri tarbiya yo‘liga yo‘naltirish, zarur bilim va hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko‘mak ko‘rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma’naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy quyidagi o‘quv-metodik majmualar kompleksini talab qiladi:

o‘quv-metodik majmua ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o‘rta ta’limining zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi;

mavzularning mazmunan izchilligi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligi.

**2.2.Tarbiya fani “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida tadbiq etilishi, maqsad va vazifalari. Tarbiya fani muammolari, unga an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Tarbiya fanining dolzarbligi va zarurati. Tarbiya fanining Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari. Tarbiya fanining me’yoriy-huquqiy asoslari.**

Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O‘zbekiston deya atalmish go‘zal va betakror mamlakatning o‘z o‘rni va nufuzi, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li borligi qalbimizga iftixor bag‘ishlaydi. Shu bois ham Mustaqillik biz uchun benihoya qadrlidir. Qadrli narsa esa osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Vatanimiz tarixi bir necha ming yillar bilan bo‘ylashadi. Bu diyor jahon tamaddunining tamal toshini qo‘ygan, ilm-fani, san’ati, madaniyati, ulkan madaniy-ma’naviy merosi, olimu fuzalolari bilan dong taratgan. Shu bois yaqin o‘tmishda qariyb bir asr davomidagi mustamlaka davri, ungacha ham haq-huquqlari poymol etib kelingan xalqimiz ruhini hech qanday kuch so‘ndirolmagan. Shu nuqtai nazardan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991 yillarda Navro‘z bayrami qayta tiklangani, Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e’lon qilingani xalqimizning asriy orzu va armonlari ro‘yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo‘lidagi dastlabki yirik qadamlar bo‘ldi.

Milliy davlatchiligimizni barpo etish yo‘lidagi zalvorli qadam sifatida Mustaqillikning dastlabki yillarida dastlab uning kafolati bo‘lmish Konstitutsiya qabul qilinganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa etib belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ko‘ppartiyaviylik muhiti qaror topdi, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirildi, sud-huquq tizimida, ommaviy axborot vositalari, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o‘chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Muhtaram yurtboshimiz nutqida ta’kidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko‘tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo‘layotgan katta o‘zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga

oshirilayotgani, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o‘ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me’moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

Sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohalarida bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlarning barchamiz guvohi bo‘lib turibmiz.

Shu o‘rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumta’lim maktablarida 11 yillik tizim tiklanganini, maktab ta’limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. So‘nggi uch yilda 35 ta yangi oliy o‘quv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, e’tiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekani sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir.

Ertangi kelajagimiz bo‘lmish yoshlar kelgusida ana shu ulug‘vor ishlarning munosib davomchilaridir. Shu nuqtai nazardan, yangi o‘quv yilining ilk – “Mustaqillik” darslarida istiqlol yillarida, ayniqsa, keyingi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar, Harakatlar strategiyasida belgilangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya, Prezidentimiz nutqi mazmun-mohiyati xususida o‘quvchi-yoshlarga keng tushunchalar berildi, ularning fikr-mulohazalari tinglandi. Quvonarlisi, yoshlar Yurtboshimiz nutqining har bir satrida hayot borligini, har bir so‘zida O‘zbekistonimizning yuksak taraqqiyotiga qaratilgan aniq maqsad borligini teran anglab yetdi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, barchamiz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosiy dasturilamalimizdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

**Ta’lim-tarbiyada milliy yuksalish.** Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan, ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar, keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta’limning joriy etilgani yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayishida, ular tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xo‘sh, nega ushbu islohot o‘quvchilarning darslarga ishtiyoqini oshirayapti, ularning tarbiyasini nazorat qilishga yaxshi samara berayapti?

Xalqimiz 11 yillik ta’lim sistemasi qayta tiklandi, ilgari holat qaytdi, deb sayoz fikrlamasliklarini xohlardim. Chunki ushbu islohot chuqur o‘ylangan va ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirishga xizmat qiladigan puxta reja asosida amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta’lim uzluksiz 11 yillik ta’lim negizida amalga oshirildi.

11 yillik ta’limning joriy etilishi munosabati bilan tezkor davr talabidan kelib chiqqan holda olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar hamda keng jamoatchilikning fikriga tayanib, 10-11-sinflar uchun 12 ta umumta’lim fani bo‘yicha o‘quv rejalari qaytadan tayyorlanib, ularga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 11-sinfda kasb ta’limi orqali 50 ga yaqin kasbni o‘rgatish bilan birga, “Tadbirkorlik asoslari” fani ham o‘qitiladi. O‘quv dasturlari asosida 10-sinf o‘quvchilariga umumta’lim fanlaridan 18 nomdagi darsliklar 7 tilda, jami 9 million 53 mingdan ortiq tirajda chop etilib, joylarga yetkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 10-11-sinf o‘quvchilarining ta’lim olishi bilan birga, ularga kasb-hunar o‘rgatish, yoshlarning qiziqish va qobiliyatini nazarda tutgan holda kelajakda ularni ta’limni davom ettirishi yoki egallagan kasbi bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etildi. Kasblar ro‘yxatini tayyorlashda hududlarning sharoiti hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari inobatga olinib, mutasaddilar va ish beruvchi tashkilotlar mutaxassislari bilan birgalikda, real vaziyatni xolis baholagan holda ish olib borildi. Ya’ni 11-sinf o‘quvchisi maktabni tamomlagandan keyin egallagan hunari bo‘yicha o‘z ishini topa olishiga jiddiy e’tibor qaratildi.

Oilada va kundalik turmushda hamisha zarur bo‘lgan kichik tibbiy hamshira, oilaviy kichik hamshira, tarbiyachi yordamchisi, ijtimoiy soha kichik mutaxassisi, dasturchi, tarmoq boshqaruvchisi, veb-sayt dizayneri, kompyuter grafikasi mutaxassisi va shu kabi boshqa kasblarning o‘rgatilishi jamiyatga, ham davlatga bir xil naf keltiradi. E’tiborlisi, joylarda tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida kasblar murakkabligiga qarab 1 yoki 2 yil davomida o‘rgatiladi va mehnat bozoridagi ehtiyojga ko‘ra kasblarning turi o‘zgarib turadi.

10-11-sinf o‘quvchilariga haftasiga bir kun 6 soatdan 2 yil davomida kasbiy ta’lim o‘qitiladi. Bitiruvchilarga o‘rta ma’lumot to‘g‘risida attestat bilan birga kasb malakasi bo‘yicha davlat namunasidagi diplom beriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda kasblarga bo‘lgan qiziqishni oshirish, kasblar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzluksiz yetkazish maqsadida ular umumta’lim maktablarining 1-sinfidan boshlab kasbga yo‘naltirilib boriladi. 8-9-sinflarda esa kasbga yo‘naltirish alohida fan sifatida o‘qitiladi.

Ilgari 9-sinfni tamomlayotgan o‘quvchilarda qaysi kollejda o‘qishni davom ettirish borasidagi savol ko‘ndalang turardi. Ba’zilari majburlikdan u, yoki bu kollejlarga “adashib” borib qolardi. Oxir oqibat ularning bilim olishida, ham tarbiyasida salbiy holatlar paydo bo‘la boshlardi. Bu esa, o‘z navbatida, voyaga yetmaganlar orasida turli huquqbuzarliklar, jinoyatlar ortishiga sabab bo‘ldi.

O‘quvchilar 11 yillik ta’lim sistemasida chuqur bilim oladi, bu ertamiz egalarining bilimli, kasb-hunarli bo‘lib ulg‘ayishi, ma’naviyati, odob-axloqi, bo‘sh

vaqti ustidan mahalla-ko‘y va jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishiga keng imkoniyat yaratdi.

2020 yil 14-oktyabrda O’zbekiston Xalq ta’limi vazirining “Tarbiya fani uchun umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim Standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug’i qabul qilingan. Ushbu buyruqga ko’ra:

- Tarbiya fani uchun umumiy o’rta ta’limning DTS
- Tarbiya fani bo’yicha umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilariga qo’yiladigan malaka talablari tasdiqlangan.

Malaka talablari:

- 1.Tarbiya fani bo’yicha UO’T muassasalari o’quvchilariga qo’yiladigan malaka talablari UO”T DTSning negizi hisoblanadi va tarbiya fanini o’rganishning bosqichlari, ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.
- 2.Malaka talablari asosida o’quv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun tarbiya fani bo’yicha nazorat baholash ko’rsatkichlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o’rta ta’lim tizimida tarbiya fanini o’rganish bosqichlari:

- A1 -Maktabgacha ta’lim- tarbiya fanini o’rganishning boshlang’ich darajasi
- A2- UO’Tning 4-sinf bitiruvchisi- tarbiya fanini o’rganishning tayanch darajasi
- A2+ UO’Tning 9-sinf bitiruvchisi- tarbiya fanini o’rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
- B1-UO’Tning 11-sinf bitiruvchisi- tarbiya fanini o’rganishning umumiy darajasi.

Tarbiya fanining DTSini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslangan:

- O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
- “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni
- Kadrlar tayyorlash “Milliy dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi 2017 yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli qarori
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020 yil 6-iyuldagi 422-sonli qarori.

Tarbiya fani bo’yicha DTSning maqsadi:

- Ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Tarbiya fani bo’yicha DTSning vazifalari:

▶ Tarbiya fanini o’qitish jarayoniga umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl va usullarini joriy etish;

▶ Tarbiya fanini o’qitish jarayoniga zamonaviy va pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

▶ Tarbiya fani orqali kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

▶ Tarbiya fani va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholashning tartibini belgilash.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.** Qachon O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

A. 2020 yil 6-iyulda
B. 2019 yil 23-sentabrda
C. 2018 yil 25-yanvarda
D. 2017 yil 24-oktabrda

**2.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirgan holda yagona qanday fan joriy qilingan?

A. Tarbiya
B. Shaxs va jamiyat
C. Ma’naviyatshunoslik
D. Milliy g’oya

3.**Quyidagi fikrlar muallifi kim?**

**“Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir”.**

A. Sh.Mirziyoyev
B. I.Karimov
C. M.Behbudiy
D. A.Avloniy

**4.Qarorda «Tarbiya» fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash qaysi organning vakolatiga kiritilgan?**

A O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining
B.O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligining
C. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining
D. Vazirlar Mahkamasining

**5. Qachongacha 2020/2021 o‘quv yiliga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-9-sinflari uchun «Tarbiya» fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish rejalashtirildi?**

A. 2020 yil 15 iyulga qadar
B. 2020 yil 30 avgustgacha
C. 2020 yil 1-sentabrgacha
D. 2020 yil 1-avgustga qadar

**6. 1-9-sinflar hamda 10-11-sinflar uchun mo‘ljallangan «Tarbiya» fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish bo‘yicha istisno tariqasida deklaratsiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish kimning zimmasiga yuklatildi?**

A.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining
B.O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligining
C. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining
D. Moliya Vazirligining

**7.Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashdagi asosiy prinsiplari qaysilar?**

A) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish; sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish, ochiqlik va shaffoflik, tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

B)tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

C) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ongli vatan’arvarlik ruhini rivojlantirish; sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish, ochiqlik va shaffoflik, tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish

D) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

**8.Umumta’lim muassalarida ”Tarbiya” fani Konsepsiyasining maqsadi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?**

A)Umumta’lim muassasalari o’quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar, yuksak mahnaviyatni singdirish, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangicha tashkil qilish

B)Ta’lim tizimi o’quvchilarining yoshini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyatni singdirish, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangicha tashkil qilish

C)Umumta’lim muassasalari o’quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangicha tashkil qilish

D)Umumta’lim muassasalari o’quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyatni hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangicha tashkil qilish

**9.Maktablarda “ Tarbiya” fanini o’qitishni tashkil etish Xalq ta’limi vazirligining qaysi buyrug’i bilan belgilangan?**

A)10 iyul 2020 yil, XTV – 161

B)10 aprel 2020 yil, XTV - 102

C) 20 sentabr 2006 yil, XTV -229

D)29 avgust 2019 yil, XTV -282

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Tarbiya fanining huquqiy asoslarini ayting.
2. «Tarbiya» fani Konsepsiyasi qaysi qaror asosida tasdiqlangan?
3. Ushbu Konsepsiyaning printsiplari nimalardan iborat?
4. Tarbiya fanini joriy etishda qaysi xorijiy davlatlarning tajribalari o’rganilgan?
5. Qachon 11-yillik ta’lim yana qayta tiklandi?

**3-mavzu: Tarbiya fanini o‘qitishning ilmiy, diniy, badiiy va falsafiy asoslari. Uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy kamolotiga oid fazilatlarni shakllantirish. Ma`naviy-ma`rifiy ishlarning takomillashuvi-tarbiyaning asosi**

**Reja:**

1. Milliy tarbiyaning ilmiy, falsafiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy asoslari. A. Avloniy, A. Fitrat, M. Behbudiy, I. Ibrat asarlarida tarbiya masalalari.
2. Ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda tarbiyaning o‘rni. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-sonli

“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar.

**Adolat-oxiratda najot,**

**Dunyoda-saodat boshidir.**

**Ali ibn Abu Tolib.**

***Tayanch so‘zlar:*** Ma`naviy-ma`rifiy, shaxsning ma’naviy kamoloti, milliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy muhit, ijtimoiy-ma’naviy muhit, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi, tarbiyaviy fikrlar.

### 3.1. Milliy tarbiyaning ilmiy, falsafiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy asoslari. A.Avloniy, A.Fitrat, M.Behbudiy, I.Ibrat asarlarida tarbiya masalalari.

**«Avesto» tarbiyaviy manba sifatida. «Avesto»** asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g’oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma’lumotlarga ega bo’lamiz. « **Avesto** » diniy xarakterga ega bo’lish bilan birga, o’zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan.

Zardushtiylik dinining g’oyalari xususida so’z borganda, ularning to’g’rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o’tish lozim.

Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, yer, chorva, daraxt hamda o’simliklar ulug’lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o’tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo’limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar–tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g’oyalariga ko’ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo’lishi Adolat o’lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo’lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo’riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko’makchisi sanalgan inson saxovatli bo’lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo’l-yo’riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

«Yaxshi fikr» iborasining mazmuni o’zida ilohiy qonun ruhidagi g’oyalarga ega bo’lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko’rsatish, muhtojlarga ko’maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo’lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do’stlik va totuvlikda

yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o'ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

**«Avesto»**dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo'1sa, ular qadimgi zamon kishilarining axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo'lib tushadi. Fikr, so'z va ishning birligi ibtidoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasawurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan, Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlari uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi-urug'chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi.

Xulosa qilib aytganda, **«Avesto»** asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida

uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bolishiga olib kelgan.

**Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar.**

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jamiyat a'zolari, xususan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «Urxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq bitigi» («Ta'birnoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy

bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar» ham deb ataydilar. O'ziga xos xat (yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VII-VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Bu yodnoma yoshlarni o'z elini sevish, do'st va ittifoq bo'lib yashash, vatan va xalq manfaati uchun kurashga tayyor turish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Turk xoqonlari Bilga xoqon hamda Kul tegin jasoratlari haqiqiy vatanparvarlik hamda jasoratning ibrat namunasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, Urxun-Enasoy yodgorliklari, garchi yo'nalish nuqtai nazaridan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham,

ularda bayon etilgan fikrlar o’sha davrda amal qilingan axloqiy qoidalar va talablarning mohiyatidan birmuncha xabardor bo’lishga munosabatlar mohiyati asosan qushlar va hayvonlar obrazlari orqali ochiladi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror topgan ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan.

**Islom va islom manbalarida ta’lim-tarbiya.**

VII asr birinchi yarmida Islom g’oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o’z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi.

Arab istilochilari VIII asrning o’rtalariga kelib Movarounnahrni to’la zabt etishga

erishdilar. Arab xalifalari bosib olingan mamlakatlarda istilochilik siyosatini olib borar ekanlar, tobe xalqlar ustidan madaniy ustunlikka erishishga harakat qildilar. Chunki arab xalqi VII-asr boshlarida o’ziga xos madaniyat va adabiy tilga ega bo’lib, notiqlik san'ati hamda she'riyatni yuksak darajada qadrlar edilar.

«Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo’lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. «Qur'on» 114 suradan iborat, ularning 90 tasi Muhammad alayhissalom Makka shahrida, 24 tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bolganligi to’g’risida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. «Qur'on» g’oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaydi. Shunga ko’ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'on» g’oyalarining ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so’z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishishida qay darajada muhim o’ringa ega ekanligiga amin bo’lamiz.

Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va birbiriga mehr-muhabbat ko’rsatishga undaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmati insonning ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo’lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug’ qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Islomiy g’oyalar odamlarni yaxshilikka da’vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ’ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda er yuzini obod va go’zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ’ib etadi.

Buni biz «Qur'on»ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo’ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm o’rganishga da’vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo’lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar».

Ko’rinib turibdiki, islom dini ta'limotiga ko’ra, bilim va aqliy kamolot inson yetukligining asosiy mezoni sanalgan. «Qur'on»da insonda tarkib topishi kerak bo’lgan oliy xislatlardan yana biri sadoqat deb ta’lim beriladi.

Har bir jamiyatning ravnaqi shu jamiyatda yashayotgan kishilarning o’z vatani va xalqiga bo’lgan sadoqatiga ham bog’liqdir. Zero, sadoqat bor joyda ishonch, e'tiqod mavjud bo’ladi. Jamiyat a'zolarining vatani hamda xalqiga nisbatan sadoqatli bo’lishlari jamiyat ravnaqini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. «Qur'on»da sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida, rostgo’ylik ma'nosida ham talqin etilgan. Sadoqat o’zgalarning omonatiga xiyonat qilmaslik, bergan va'dasiga vafo qilish kabi holatlarni ham ifoda etadi. Shunga ko’ra, Olloh musulmonlarni bir-birlariga sadoqatli bo’lishga undagan: «Ey mo"minlar, Ollohdan qo’rqingiz va iymonlarida sadoqatlilar bilan birga bo'lingiz», - deyiladi «Tavba» surasining 119-oyatida.

«Qur'on»ning bir qancha oyatlarida shirinsuxanlik, to’g’ri so’z va muomala madaniyati borasida so’z yuritiladi. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islom dini g’oyalari yaratilgunga qadar ham shakllangan bo’lsada, biroq Islom talimotigina uning asl mohiyati, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini to’la ravishda ochib berdi. Kishilarida shirinso’zlilik, madaniy muomala ko’nikmalari taraqqiy etgan mamlakatlardagina ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot ro’y beradi. Shirinso’zlilik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligi ko’rsatadi, uning obro’sini oshiradi, elning hurmatiga sazovor qiladi.

Shu bois «Qur'on»da har bir insonning shirinso’z bo’lishi ham o’zi uchun, ham jamiyat uchun foydali ekanligiga alohida ta'kidlanadi. Boshqa oyatda esa, Olloh kishilarni so’zlashganda past ovoz bilan so’zlashga undaydi: «Kishilarga chiroyli so’zlar so'zlangiz» («Baqara» surasi, 53oyat).

So’zlashganda ochiq yuzli bo’lish, qo’pollik qilmaslik, xushmuomala bo’lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga eltuvchi yorug’ yo'1 sifatida talqin etiladi. Haqiqatan ham so’zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. Keltirilgan misollardan ayon bo’lmoqdaki, muomala madaniyati barcha davrlarda ham insoniylikning eng ulug’ sifati tarzida talqin etilgan. Zero, xalqaro maydonda davlatlar o’rtasidagi diplomatik aloqalarni o’rnatishda ham muayyan davlatning rasmiy vakili sanalgan elchilarning so’zlashuv madaniyati qoidalarining mohiyatidan nechog’li xabardor bo’lishlari hamda ularga qat’iy amal qila olishlari nihoyatda muhimdir.

Kishilarning bir-birini hurmat qilishi, o’zaro do’stlik aloqalarini mustahkamlash kelishmovchiliklarning oldini olishda, xullas, komil insonga xos bo’lmagan pastkashliklardan saqlanishda katta ahamiyatga ega.

«Qur'on»da insonning ruhiy va ma'naviy kamolga yetishishiga to’sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan yana biri – g’azabdir, deb ko’rsatiladi va u ruhiy razolat sifatida talqin etiladi.

Zero, g’azab kelganda aql qochadi, inson o’z irodasini idora qilolmay qoladi, o’z manfaati va obro’sini himoya qilaman, deb johillik qilib qo’yish mumkin. G’azab inson salomatligiga ham zarar etkazadi. Shuning uchun islom ta'limoti insonni aql bilan ish ko’rish, insof egasi bo’lish, bosiqlik bilan o’z hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi. Chunki g’azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan hatti-harakat johillik belgisi bo’lib qolishi mumkin.

Islom ta'limotida o’zini boshqara olish quvvatiga ega bo’lishgina emas, kechiruvchilik xislatiga ega bo’lish ham muhim ekanligi aytiladi. Ana shunday inson ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan shaxs bo’la oladi.

Islom ta'limotida hasad eng qabih xislat sifatida qoralanadi, «qur'on»da insonning axloqiy kamol topishida bekorchi gap-so’zlardan yiroq yurish, mayda va behuda gaplarga vaqt ketkazmaslik, ulardan o’zini chetga olish kabilarni bajarish farz ekanligi ta'kidlanadi.

«Qur'on»da boylik emas, haqiqat va yaxshilik abadiydir, deyiladi.

Islom ta’limotida ilgari surilgan g’oyalardan yana biri va uning eng muhim tarkibiy qismi poklik va tozalikka rioya qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, islom va uning asosiy ta’limoti mujassamlashgan Qur'oni Karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so’z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to’plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o’rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo’lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan.

**Imom Ismoil al-Buxoriy**. «Sahih» yo’nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida «Amir ul-mo'minin», «Imom al-muhaddisiyn» («Barcha muhaddislarning peshvosi») degan sharafli nomga sazovor bo’lgan.

Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi ta'limotdir. Shu sababli Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ’ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning «Aljome' as-sahih» asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo’lsa, «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o’rtasida o’zaro munosabatlarni tashkil etish chog’ida amal qilinishi lozim bo’lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma’lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 hadisni o’z ichiga oladi.

**Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.** Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo’lib, bu fazilatlar sirasiga o’zgalarga mehr-oqibat ko’rsatish, saxiylik, ochiq ko’ngillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo’lish, ularga g’amxo’rlik

qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bir qancha hadislar mazmunan insonni saxovatli bo'lishga undaydi. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi yo'lida mehnat qiladi, atrofdagilarni o'zi ega bo'lgan ne'matlardan bahramand etadi.

Xulq-odob haqidagi hadislarda ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sanalgan illatlar qoralanadi. Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlarga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, yemoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan.

Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tqazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi fikrlar mujassamlangan.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchi, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. «Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'1 qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir». Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiyaga oid fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, drammaturg, muallim A.Avloniyni (1878-1934) alohida ta'kidlash mumkin. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shgan va ta'lim-tarbiyaga oid "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" singari asarlar yozib qoldirgan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek klassik pedagogikasining namunasi hisoblanadi. A.Avloniy ushbu asarida tarbiyaga "Tarbiya-"Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir", deb ta'rif beradi.

Uningcha, axloq ilmining asosi tarbiyadir. Bolaning salomat bo‘lishi va saodati, tanini pok tutmog‘i, yoshligidan maslagini tuzatmog‘i, yaxshi xulqlarni o‘rgatmog‘i, yomon xulqlardan saqlab o‘stirishi uchun yaxshi tarbiya zarur. U: “Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujididagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur”,-deydi. A.Avloniyning maslahatiga ko‘ra tarbiya jarayonini bola tug‘ilgan ondan boshlash, unining vujudini quvvatlantirish, fikrini nurlantirish, axloqini go‘zallashtirish, zehnini ravshanlantirib borish kerak. U tarbiyani kim, qaerda amalga oshirishi xususida ham bir qancha tavsiyalar beradi va tarbiyaga mas’ullarni quyidagicha taqsimlaydi:

1. Uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir, deb hisoblaydi.

2. Maktab, madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumatning vazifasidir, deydi.

A. Avloniy asarda tarbiya qaysi onalarning, qaysi otalar, muallim va mudarrislarning vazifasi?, degan savollarni qo‘yadi va ularga shunday javob beradi:

- “Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar? Bu so‘z kishining yuragini ezadi, bag‘rini yondirdi.
- “Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avvalo ularni o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur”.
- “Qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o‘qimagan, “usuli ta’li” ko‘rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o‘zlari dorilmualliminlarda o‘qimaklari, so‘ngra dars bermaklari lozimdur”.
- “Mudarrislarga na dersiz desak, qaysi mudarris? Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o‘z vazifalarini bilib, nafslaridan kechib, zamonga muvofiq ravishda darslarini isloh qilib, imtihon birla o‘qutmaklari lozimdur”. Mana shu so‘zlar har kimni “Al-isloh” demakga majbur qilur. Bo‘lmasa hukumat-chi? desak, “xayr, hukumat hammaning otasidur. O‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim”. Behbudiy «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari muallifi. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham,

malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911 yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913 yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pe’sa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa”, deb yozgan edi.

«Padarkush» – o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o‘ylamagan boyning Toshmurod ismli o‘g‘li bor. O‘g‘li o‘qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg‘onib, ularni sezib qoladi. Lekin boyni o‘ldirib, pulini olib ketadilar. Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?! «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnaga qo‘yildi. «Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilet yetmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi», deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914 yilning 27-fevralida A.Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi) binosida o‘z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvar qori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun» deb yozadi.

M.Behbudiy milliy til masalasiga katta e’tibor qaratdi. Birgina uning «Oyna» jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning

hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913 yil avgust, birinchi nishona sonidayoq, «Ikki emas, to‘rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi. Farzand niholga o‘xshaydi. Agar u o'z vaqtida, yaxshi parvarish qilinmasa, to’g’ri o’smay qolishi mumkin. Ota-onaning asosiy vazifasi esa, bolaga chiroyli tarbiya berish, yaxshi inson qilib voyaga yetkazishdir.

Luqmoni Hakimdan “Nega o’g’lingizga juda ko’p nasihat qilasiz?” deb so’rashdi. U zot: “Keksalarning yoshlarga qilgan nasihati xuddi ko'chatlarni voyaga yetkazadigan bog’bon kabidir. U vaqt-vaqti bilan ko'chatlarning ortiqcha shoxlarini kesadi, ular atrofidagi begona o’t-o’lanlarni tozalab tashlaydi. Xullas, uning mustahkam bo’lib o’sishi uchun bor kuch-quvvatini sarflaydi. Agar shunday qilsa, nihol yaxshi o’sib, unadi. Zero, u hosilga kirgach, mevasi asaldek shirin bo’ladi. Aks holda, bog’bon beparvo bo’lib, ko’chatlarning ortiqcha shoxlarini kesmasa, ular baland o’sib, yaxshi hosil bermaydi. Natijada, bunday niholdan bog’bonga foyda yo’q", deya javob bergan ekan.

**Abdurauf Fitratning ta ’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.**

Abdurauf Fitrat zullisonayn yozuvchi sifatida Alisher Navoiy an’analarini davom ettirib, o‘zbek va fors-tojik tillarida mukammal asarlar yarata oldi. Fitratning «Rahbari najot» asari to'la ravishda ta’lim-tarbiya masalalariga bag’ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga haqida bo’lib , bu masalalar hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Fitrat qarashlarida ota-onaning o‘z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari uchun: 1) jismoniy tarbiya- salomatlik; 2) aqliy tarbiya - sog'lom fikrlilik; 3) axloqiy tarbiya axloqi sano, ya’ni axloqiy poklikka e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi.Asarning «Bola tarbiyasi» masalalari bobida qu yidagilar ko'rsatib o'tiladi.

«Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiy alash hayotiy vazifalardan hisoblanadi. Ma’lumki, dunyo kurashning umumiy maydoniga o'xshaydi va bu maydonning pahlavon-lari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u o'z saodatini ta'minlashi uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo'qdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun uch xil ov quroliga ega bo’lish kerak: 1 ) salomatlik; 2) soglom fikr (nuqsonsiz fikr, ya’ni yuqori iste’dod); 3) axloqi sano (oliy darajali axloq. ya’ni axloqiy poklik).

Fitrat «Har bir kishi shu uch quroldan birisiz maydonga kirsa, albatta. mag’lub bo’lishi tabiiydir», deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bularning birontasi kam bo’lsa, yetuk kishi tarbiylab bo'lmasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a’zosiga aylanishi uchun g‘amxo’rlik qiling»,deydi. Bundan tashqari bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo‘lida bo‘lishini ta’kidlab o'tadi: «Bolalarni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a’zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tonionlama barkamol inson bo’lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi»,-deb uqtiradi.

Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib, tarbiyalanishiga alohida e’tibor beradi: «Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a’zosi salomat va quvvatga ega bo’lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a’zolaridan biriga xalal tegsa, u kishi ishdan qo’lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Bizning farzandlarimiz ilm olishlari bilan birga, ularning badan tarbiyasiga ahamiyat berishimiz lozimdir».

Fitrat bolalaming toza, ozoda bo’lishlari, tabiat gozalliklaridan estetik zavq ola olislilariga ahamiyat beradi va deydi: «Havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go'daklani hamma vaqt sof havoga, bog'-chorbog’larga olib chiqish lozimdir. Farangdagi shaharlarning har taraflarida bolalar uchun chorbog’lar, havo maydonchalari yaratilgan. Bulardan tashqari, ularning maktablarida bolalar tanaffus vaqtlarida max-sus maydonchalarda turli o'yinlar o'ynaydilar.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o‘rin tutishini ham aytib o‘tadi. Ota-onalariga o‘z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo’lishlarini maslahat beradi, harakat har bir kishi uchun, ayniqsa,bolalar uchun zarurdir; shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yi nlar bilan mashg'ul qilish foydalidir; bolalarni o'yindan man etishning foydasi yoq’dir; ularning doimo bir joyda o'tirishlari, harakat qilmasliklari ularning badanlari zaif bo'lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o'z bolalarini oyinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo

bolalarning o yinlari
odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak. Fitrat
bu harakatli o'yinlar bolaning aqli, farosati, ilmi rivojlanishiga va to'g'ri axloqiy
tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o'yinlar orq
ali
bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiys
i,
bolani jismonan chiniqtiradi, deb biladi.
Fitrat yana bolalarning sog'lom, jismonan yetuk bo'lishlari uchun
tozalikning ahamiyati juda kattaligini tushuntirib o'tadi: «Nazofat
(tozalik) va pokizalik kattalar uchun qanchalik lozim bo'lsa, kichik bolala
rga
ulardan ko'ra o'n baravar zarurdir. Uning zarurligining ikki jihati bor
Avvalo, bolalar kattalarga nisbatan oldinroq xastalik qobiliyatiga ega.
Shuning uchun ifloslik har qanday bemorlikni keltirib chiqaradigan
manba bo'lib, ifloslik kattalarga nisbatan bolalarga o'n barobar ziyon
yetkazadi.
Ikkinchidan, ular yoshlikdan pokizalikka o'rgatilsa, pokizalik bora-
bora ularning odatiga aylanadi. Aksincha, yoshlikdan ifloslikka o'rgatilsa
katta bo'lganda bam shunday odatga o'rganadilarki, bu kishilarning
nafratiga sazovor bo'ladi».
Murabbiy bolalarga shaxsiy gigiena qoidalarini o'rgatishni alohida
ta'kidlab o'tadi: «Ota-onalar va muallimlar bolalarni har kuni yuzlarini
sovunlab yuvdirsinlar, og'iz va tishlarini tozalab yuvdirsinlar, doimo
liboslarini nazorat qilsinlar, mumkin qadar bolalarni chivin va pashshalar
bo'lmagan joylarga o'tkazsinlar, chunki bu hasharotlar turli kasalliklarni
tarqatuvchidirlar».
Abdurauf Fitrat tarbiya haqida shunday deydi: "Tarbiyasi go'zal farzand yaratganning ne'matidir. Yaxshi tarbiya insonning baxtu-iqboli omilidir. Ba'zi fe'lu atvor tug'ma bo'lsa-da, yaxshi xulq ko'pincha shakllantiriladi".
Kevinroq Fitrat fikr- aql tarbiyasi to'g'risida, ya'ni aql rivojlanishida
muhokamaning o'rni haqida mulohaza yuritadi.
Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o'qish, o'rganish qobiliyati uni
saodatmand qiladi. Insonning komil
aqli yaxshilik muhokamasidir. Muhokama nima? Muhokama
ikki qismga bo'linadi: birinchisi ma'lum bo'lgan hukm, voqea va hodisalar;
ikkinchisi, noma'lum voqea va hodisalardan xulosa chiqarilishidir.
Masalan, «Vatan xizmati vojibdir»(shartdir). Bu hukm noma'lumdir. Bu

hukmga yana boshqa ikki ma’lum hukm lozimdir, ya’ni: «Vatan bizning valine'matimizdir» (saxovatmandimiz, ne’matlar bilan ta’minlovchimizdir). «Har bir valine’mat(oliyhimmat inson)ning Vatan uchun xizmati vojibdir», bas, «Vatan xizmati vojibdir», degan hukm yuqoridagi ikki mal’um vaziyatlar bilan ochiladi. Demak, muhokama uch qismdan tashkil topib, avvalgi hukm noma’lum bo’lib, qolgan ikki qismi avvalgisini to’ldiradi va va ziyati ma’lum deb, ataladi. Iinson muhokama orqali kamolotga yetadi. Muhokamaning aniq va ravshan bo’lishi uchun uch narsa zarur bo’lib hisoblanadi: 1. lsobot. 2. Istiqomat. 3. Sur’at.

Isobot ma’lum vaziyati hukmning to‘griligiga, bexatoligiga aytiladi. Istiqomat ma’lum voqea-hodisalaming, hukmning barqarorligi, sur’ati esa to'xtovsiz, tezlik bilan tartib berilishi,demakdir. Avvalo, bolalarni isobot sohibi bo'lishlarida, bir voqea va hodisa ustidan fikr yuritganlarida ularga to'g'ri, bexato ma’lumotlar beraylik. Chunki fikr, ularni xatolarga, xatarli yo’llarga olib borishi tabiiydir. Asossiz muhokama bolalar tarbiyasiga katta ziyon yetkazadi. Kevin bolalarni istiqomat sohibi qilib fikr yuritishlariga ahamiyat berishimiz kerak, ularni ma’lum vaziyatlarni noma’lum vaziyatlardan to‘g‘ri, aniq ajrata oladigan holatda tarbiyalash lozim, ya’ni har bir masala sohasidagi ma’lumotlarni tushunmasliklari uchun bolalarni muhokama qilishga odatlant irish kerak, yomonning yomonligini, yaxshining yaxshiligini muhokama orqali tushuntiring, doimo shunga diqqat qilingki, bolalar hech narsani ko’r-ko‘rona taqlid sifatida qabul qilmasinlar.

Fitrat bu fikrlari bilan bolaga to’liq aqliy ta’lim berish uchun mana shu yuqoridagi ijtimoiy, ilmiy, dunyoviy fanlarni maktab dasturlariga kiritish kerak, degan xulosaga keladi. Va jadidlar bilan ochgan yangi usul maktablarida iloji boricha shu fanlarni ham bolalarga o‘rgatadi. Fitrat maktablarda bolalarga nisbatan qo’llaniladigan tan jazolarini butunlay qoralaydi, unga qarshi chiqadi. Bolani tayoq zarbi bilan yaxshi inson qilib tarbiyalab bo‘lmasligini tushuntirib beradi.

Fitrat o'quvchi shaxsini hurmat qilish zarurligini, unga nisbatan insoniy munosabatda bo’lish, qilgan gunohlarini o‘ziga to‘g‘ri, yaxshi so‘z bilan tushuntirish kerakligini, shunda u ham o'qituvchini hurmat qilishini uqtiradi.Fitrat yana bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo’lishi, bolaga qiyin lik qilmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yo juda qiyinlik qilsa u bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi.

Fitrat o‘sha vaqtdagi Samarqanddagi ibtidoiy maktablar ishiga yaxshi baho beradi,

ayniqsa Shakuriy maktabiga: «Samarqandliklar ikki-uch ibtidoiy maktabga ega, ularning eng yaxshisi Shakuriy maktabi.Garchi bu maktab unchalik taraqqiy etgan bo'lmasa-da, har holda mudir va muallimlarning olijanob himmatlaii soyasida qisqa vaqt ichida rivoj topib, kamolotga yetishiga umid bog'lasa bo' ladi».Fitrat inson kamolotga erishishi uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doimo oldiga maqsadlar qo'yishi va unga yetishish uchun kurashish kerakligini, hech bir baxt yoki boylik inson intilmasa o'z-o'zidan kelmasligini uqtirib o'tadi.

Fitralt bilim va iqtidor inson uchun zarur ekanligini, u mana shu bilimi va aqli bilan dunyodagi barcha maxluqlardan ham ustun turishini, shuning uchun inson doimo bilim olishga va o'z bilimini oshirib borishga intilishi kerak. Fitrat pedagog olim sifatida maktablar, oliy o'quv yurtlari uchun bir qancha darslik va amaliy o'quv qo'llanmalari yozadi, adabiyot nazarivasiga, o'zbek adabiyoti va san'at tarixiga juda katta hissa qo'shdi. U yaratgan ilmiy ishlar: «Qutadg'u bilig», «Adabiyot qoidalari», «Ahmad Yassaviy hikmatlari», «Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida

tekshirishlar», «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash» ,

«Muhammad Solih», «Aruz haqida», «Abulqosim Firdavsiy», «Ertaklar va haqiqatlar», « 0'zbek shoiri Turdi». «Tilimiz», «O'zbek tili sabolari», « 0' zbek musiqasi to'g'risida», « 0'zbek rnumtoz musiqasi va uning tarixi», «Sharqda shaxmat» va boshqalar. Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy,

Muhammad Solih, Turdi, Bedil, Mashrab kabi ijodkorlarning badiiy meroslariga oid ilmiy ishlar. Bu ishlarning nomidanoq ko'rinib turibdiki, adabivotimiz, san'atimizning bugungi kunda biz tadqiq etishga kirishmoqchi bo'lib yurgan muammolarini Fitrat bundan 60-70 yil ilgari hal qilib bergan. U yana fors-tojik shoirlari Firdavsiy, Umar Hayyom ijodi haqida ham tadqiqotlar olib boradi. Uning bu ilmiy ishlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Fitrat axloqiy tarbiyani bolalar eng avvalo o'zi yashayotgan atrof-muhit, ko'chadagi bolalardan olishlarini ta'kidlab o'tadi. Olim ijtimoiy mihitning bola tarbiyasidagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatib, bolalarni suvga o'xsbatib: « S u v qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitda har qanday odat va axloqmi qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni

oilalaridan, ko'chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar» . Bu fikrlar bilan Fitrat yana bola tarbiyasi bilan faqat maktab emas, balki avvalo oila va jamoatchilik shug'ullanishi kerakligini ko’rsatadi. Ayniqsa, axloq tarbiyasida oilaning, ota-onaning o’rni juda katta ekanligini qayta-qayta ta’kidlaydi.

Fitrat bolaning axloqiy tarbiyasida maktabdagi boshqa bolalaning katta ta’siri borligini ko'rsatib, maktabdagi axloqi yomon bolalarni tezda tuzatish choralarini topish lozimligini «maктablardagi badaxloqlikda mashhur bo’lgan bolalarni agar ularni tuzatish iloji bo’lmasa, maktabdan chetlashtirish maqsadga muvofliqiigini ta’kidlab o‘tadi. Chunki u bola o'zining yomon axloqiy sifatlarini boshqa bolalarga ham o'tkazmasligi uchun shunday chorani ko’rish lozim», deb hisoblaydi Fitrat.

U axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasigagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmasliklarini juda to’g’ri harakat, deb biladi. Yana u bolalar axloqiga zararli bo'lgan, yoshiga mos kelmaydigan kitoblarni bolalarning o'qishlariga ruxsat bermaslik kerak,- deydi.

Fitrat o‘z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ozodalik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shafqatli bo’lish, o'z manfaatidan xalq manfaatini yuqori qo’yish g'oyalarini ulug’laydi. Vijdonsizlik, poraxo’rlik, ikkiyuzlamachilik, boshqalarni ezish evaziga boylik to'plash, xalqqa zulm o‘tkazish kabi jihatlar esa qoralanadi.

Abdurauf Fitrat o'zining butun hayoti davomida milliy mustaqillikka erishish va mustamlakachilikka qarshi kurash, Ovrupo ilmi, texnikasi, madanyatidan o'rganish muammolarini tinimsiz targ‘ib qilgan siymolardan biri sifatida barcha kishilarga, eng awalo, yoshlarga ibratdir. U 1905-1906-yillari jadidchilik oqimining ko’zga ko'ringan tarafdori sifatida, so‘ngra o'zining «Hind sayyohi», «Rahbari najot» singari asarlari orqali ma’rifatparvar va yozuvchi sifatida musulmonlarni, eng avval, yoshlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, eng muhimi, o'zligini tanishga, fan-texnikani rivojlantirish uchun g‘avrat bilan o'qish-o'rganishga undaydi.U yoshlarni yangi jamiyat qurishga da’vat etadi.El-yurtning baxti, saodati, istiqloli uchun kurashishga chorlaydi. «Xalq baxti uchun kurashmgan yoshlarni bo'shang, jasoratsiz», deb tushunadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Ishoqxon Ibratdir. U ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri, sayyox, kalligraf, naqqosh, otashin publisist va ilg‘or pedagogdir. Ibratning asli ismi Ishoqxon,

otasining ismi Junaydulladir. Ibrat uning adabiy taxallusi. Ishoqxonning o‘ziga “Ibrat” taxallusini olishning boisi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma’rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va kishilarni zamon ilmidan, ilg‘or madaniyatdan, ta’lim-tarbiyadan o‘rnak olishga chaqirdi. Shuning uchun ham o‘ziga “Ibrat” taxallusini tanladi. Ishoqxon 1279 hijriy (1862 milodiy) yilda Namangan yaqinidagi To‘rqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ildi. Uning otasi Junaydullaxo‘ja Sunnatillaxo‘ja o‘g‘li ancha bilimli sohibkor bog‘bonlardan edi. U adabiyotga, she’riyatga ancha ixlos qo‘ygan va “Xodim” taxallusi bilan birmuncha she’rlar bitgan kishi bo‘lgan. Onasi Huribibi, o‘z davrining o‘qimishli, oqila ayollaridan bo‘lib, o‘z uyida qishloq qizlarini o‘qitardi. Huribibi ham adabiyot ixlosmandi bo‘lib, u ham she’r yozgan. Lutfiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab kabi buyuk shoirlarning asarlarini mutolaa qilish bu xonadon uchun sevimli mashg‘ulot hisoblanardi. Oiladagi bunday hayotiy vaziyat Ishoqxonda adabiyotga muhabbatning erta paydo bo‘lishi uchun asosiy omil bo‘ldi.
Ishoqxon Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatni davom ettirdi va Yevropaning Istambul, Sofiya, Afina hamda Rim singari markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Qobul, Arabistonning Jidda kabi yirik shaharlarida istiqomat qildi. Arabistonning Makka shahridan Qizil va Hind dengizlari orqali Hindistonga keldi. 1892—1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlari Bombey va Kalkuttada yashadi. Ishoqxon Ibrat u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arbail lisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. U chet ellarda o‘sha yerlik xalq hayotini, madaniyati va san’atini o‘rgandi. Sharq mamlakatlariga yevropaliklar orqali kirib kelgan Yevropa madaniyati, tili va san’ati bilan yaqindan tanishdi. “Lug‘ati sitta-al-sina”, “Jome’ xutut”, “Tarixi Farg‘ona” kabi ilmiy asarlari uchun materiallar to‘pladi. U bu davrda Sharq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb xalqlari tillarini ham bilish zarur, deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgandi.
Rus tili bilan bir qatorda yaqin sharq va g‘arb tillarini ancha mukammal bilgan Ishoqxon Ibrat bu muhim masalada ham o‘z xalqiga yordam qo‘lini cho‘zdi. U olti tildagi: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta-al-sina” nomli mukammal lug‘at kitobini yaratdi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay bo‘lsin uchun rus so‘zlarini arab yozuvi bilan beradi. Ma’lumki, rus va Yevropa so‘zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Ishoqxon Ibrat bu murakkab ishni muvaffaqiyatli hal qildi. Ishoqxon Ibratning mazkur “Lug‘ati sitta-an-sina” asari bir necha yillik sarguzashtlardan so‘ng 1901 yilda Toshkentda nashrdan chiqdi. Mazkur lug‘at ilg‘or pedagoglar tomonidan ochilgan usuli

savtiya maktablarida ham rus tilini o‘rganishda birdan-bir darslik qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Ishoqxon Ibrat ancha mukammal “Jome’ul xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarda muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi piktografik yozuvlardan, to so‘nggi davr eng mukammal yozuvlarigacha bosib o‘tilgan tarixiy taraqqiyotni yoritib berishga harakat qildi. Olimning mazkur asari anchagina katta hajmda- 132 betdan iborat bo‘lib, 1912 yilda o‘zining bosmaxonasi “Matbaai Ishoqiya”da nashr qilindi. Ishoqxon Ibratning jahon xalqlari tarixiga bag‘ishlangan mazkur “Jome’ul xutut” asarining nashr etilishi, o‘zbek matbaachiligi madaniyati tarixida, yozuvlar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.
U o‘zining “Tarixi madaniyat” asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy tarixiy, lingvistik, pedagogik asarlar va 30 yillik poetik ijodining majmui bo‘lmish “Devoni Ibrat” she’rlar to‘plamini yaratdi. Ishoqxonning tilshunoslikka oid “Lug‘ati sitta-al-sina”, “Jome’ul xutut” asarlaridan tashqari tarixshunoslikka oid “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat” va “Mezonul zamon” ilmiy asarlari bizgacha yetib kelgan. Ishoqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezonul zamon” asarlarida ham o‘zining pedagogik-ma’rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. Ishoqxon o‘zining chet el sayohatida texnika va madaniyat rivojlangan ulkan shaharlarda bo‘ldi. U Turkiston shaharlari ham vaqti soati yetib madaniy shahar qatoridan o‘rin olishiga ishondi. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo‘li ilm-fandan, o‘qish-o‘rganishdan deb bildi. Ishoqxon Ibrat 1886 yilda eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg‘or bo‘lgan maktabni ochdi. 1907 yilda esa ikkinchi marta qishloq bolalari uchun eski maktablardan butunlay farq qiluvchi bepul yangi usuli savtiya maktabi ochdi. Bu maktabda o‘z farzandlari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonlarni ham 25 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. Maktab o‘z uyida, yorug‘ derazali xonaga joylashgan bo‘lib, u yangicha o‘quv qurollari — parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangandi, o‘qish-o‘qitish ishlarini bo‘lsa, u o‘zi tuzgan dasturi asosida olib bordi. Ishoqxon o‘z maktabida o‘zining “Lug‘ati-sita-al-sina”, “San’ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy” asarlaridan, Turkistonda rus-tuzem maktablarining asoschisi va bunday maktablar darsliklarining birinchi avtori S.M.Gramenisskiy uch qismdan iborat “Kniga dlya chteniya” (O‘qish kitobi), rus-tuzem maktablarining birinchi o‘zbek o‘qituvchisi va bu maktablar uchun o‘zbek tilida darslik yaratgan Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Ali Asqar ibn Bayramali Kalininning “Ta’limus soniy”, Namangan rus-tuzem maktabining o‘qituvchisi M.M.Oraqulovning 1887 yilda nashr qilingan “Samouchitel” russkogo yazo‘ka dlya russko-musulmanskix shkol” kabi darslik va qo‘llanmalaridan foydalandi. Ishoqxon yangicha ta’lim-tarbiya tizimining nihoyatda katta afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi

erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi metodlariga tayanadi. Ishoqxon o‘z maktabiga haftalik dars jadvalini joriy qildi. Ishoqxon ilg‘or o‘qituvchi sifatida bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda o‘qituvchiga nisbatan nafrat uyg‘otuvchi tan jazosiga birinchilardan bo‘lib barham berdi. Ishoqxon faqat maktabda emas. oilada ham bolani kaltaklab tarbiyalash o‘ta noto‘g‘ri usul ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ishoqxon Ibrat ilg‘or pedagoglar orasida birinchi “qaldirg‘ochlardan” bo‘lib, 1914 yilda To‘raqo‘rg‘onda rus maktabi ochdi va uni “Uchitel” nomi bilan atadi. Bu maktabda 1916 yilgacha To‘raqo‘rg‘on va qo‘shni qishloqlardan 30 nafar o‘quvchi tahsil ko‘rdi. Ibrat bu maktabiga rus o‘qituvchilarni ham jalb qildi, o‘zi ham o‘qituvchilik qildi. Maktab 1916 yilda yopildi. Ishoqxonning husnixatga, xat-savod chiqarishga bag‘ishlangan “San’ati Ibrat”, “Qalami Mirrajab Bandiy” risolasi, “Ilmi Ibrat” nomli she’rlar to‘plami, yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan “Jome’ul xutut” kabi ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan risola va kitoblari o‘zi tashkil qilgan matbaada nashr etildi. Namangan matbaasi mahsulotining kun sayin ortib borishi shahar va qishloqlarda kitob do‘konlari va kitob bozorlarining birmuncha ko‘payishiga sabab bo‘ladi. 1910 yildan boshlab Namangan shahrida 13 ta, Chustda 2 ta, Popda 2 ta, Yangiqo‘rg‘onda 1 ta kitob do‘koni ochildi. Bu do‘konlarda asosan “Matbaai Ishoqiya”da nashr qilingan kitoblar juda arzon narxlarda sotilar edi. Ma’rifatparvar Ishoqxon xalqning bilim saviyasini yanada oshirish niyatida kutubxona tashkil qilishga kirishadi, u yana tashabbusni o‘z qo‘liga olib o‘z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qildi va uni “Kutubxonai Ishoqiya” deb ataydi. Ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanuvchi Yusuf Xos Hojibga tegishli “Qutadg‘u bilig” asarining Namangan nusxasi, deb nom olgan nodir qo‘lyozmasi “Kutubxonai Ishoqiya”ga mansubdir. Ibratning ma’rifatparvarlikka oid faoliyatining tub mohiyati shundaki, uning xoh ilm-ma’rifatga chorlovchi she’rlarida, xoh publisistik, xoh ilmiy asarlarida, xoh amaliy faoliyatida bo‘lsin, inson taqdiri birinchi o‘ringa olib chiqiladi. U o‘z ijodida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi ilm-fanni, texnikani kuylaydi. Shu nuqtai nazardan uning “Tarixi chofxona”, “Madaniyat haqida masnaviy”, “Turkiston ahliga xitob”, “Gazeta xususida”, “Tabrik Namangandin”, “Qalam”, “Tarixi manzumai vagon Ibratdin yodgor”, “Muhammasi Ibrat” kabi she’rlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Shoir bu she’rlarida ilg‘or fan-texnika, madaniyatning otashin kuychisi sifatida maydonga chiqib, mamlakatni, xalqni qoloqlikka yetaklovchi amaldagi qonun-qoidalarni keskin fosh qiladi. Ishoqxon xotin-qizlar ozodligi, ularning erkaklar bilan bir qatorda ilm olishlari, mehnat qilishlari uchun kurash olib bordi. 1919 yilda uning tashabbusi bilan

Namanganda o‘zbek ayollari uchun birinchi marta yangi maktab ochildi va Ishoqxonning taklifi bilan Husain Makayevning raviqasi Fotima Makayeva o‘zbek ayollariga dars bera boshladi. Ishoqxon Ibrat ayollar, yoshlar o‘rtasida maktabning ahamiyati, ilm-fan yutuqlari haqida suhbatlar, ma’ruzalar uyushtirib turdi. Ishoqxon Ibrat bu davrda ijodiy ish bilan bir qatorda jamoat ishlari ham olib bordi. U qishloqni obodonlashtirish, maorif, madaniyat, ta’lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashda faol qatnashdi. Maktablar ochish, malakali o‘qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirish, yoppasiga savodsizlikni tugatish, xalq farzandlarini maktablarga tortish ishlarida faol ishtirok etdi. Ishoqxon Ibrat 1937 yilda 75 yoshida vafot etdi. Ijodkor xalqimiz fan, texnika, madaniyat, adabiyot hamda pedagogikamiz taraqqiyoti tarixidagi ulkan xizmatlari uchun To‘raqo‘rg‘on tumani markazidagi 44-o‘rta maktabni uning nomi bilan atashga qaror qildi. Ma’rifat darg‘asi, otashin shoir, olim va mohir o‘qituvchi, shubhasiz, ana shunday tahsinga loyiqdir, albatta. U ta’lim-tarbiya sohasida ziyoli pedagoglar ishlashini xohlagan. Bunga o‘zi ham amal qilib, ilg‘or pedagogika yutuqlariga suyanadi. Ibrat maqolalarining yana birida millatni jaholatga sudrayotgan illatlarni, ya’ni ilmsizlikni qattiq qoralaydi. Beilm, befikr, beparvolik va madaniyatsizlik kishilarni, mamlakatni halokatga olib kelishini izohlaydi. Behuda sarf-xarajatlar, isrofgarchilik ta’lim-tarbiyaning, ilmning yo‘qligidan paydo bo‘layotganini tushuntiradi. Ilmsiz kishi asossiz devor ekanligi, asossiz devor g‘oyatda bee’tibor ekanini ta’kidlaydi. Ma’rifatparvar pedagog Is’hoqxon Ibrat gazeta nashr qilishga muvaffaq bo‘la olmadi, ammo o‘z uyida ancha boy kutubxona tashkil qildi va uni «Kutubxonai Is’hoqiya» deb atadi. Kutubxonada turk, tatar, o‘zbek tillarida adabiyot kitoblari mavjud bo‘lgan. Kitoblardan qishloq aholisi unumli foydalangan. Ibrat asarlarida inson kitob mutolaasi tufayli dunyoqarashi o‘sishi, ma’naviy jihatdan yuksalishi alohida ta’kidlangan. Yoshlarning kitob o‘qishlarini Is’hoqxonning o‘zi nazorat qilib borgan. Adabiyotshunos olim Ulug‘bek Dolimov ma’lumotiga ko‘ra, O‘zFA ShI Qo‘lyozmalar fondida saqlanuvchi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining Namangan nusxasi deb nom olgan nodir qo‘lyozmasi “Kutubxonai Is’hoqiya”ga mansub bo‘lgan. “Kutubxonai Is’hoqiya”dagi kitoblar sonini ortib borishida “Matbaai Is’hoqiya”ning o‘rni katta edi. Bu matbaada chop etilgan kitoblarning deyarli hammasidan bir necha nusxa “Kutubxonai Is’hoqiya”ga topshirilar edi. Kutubxonada o‘sha davrda chop etiladigan turli gazeta va jurnallar ham bo‘lgan. Afsuski, bu kutubxonadagi ko‘plab nodir kitoblar 1918-1920 yillar hamda 1937 yildagi qatag‘on davrida yo‘q qilingan. Olimning “Lug‘ati sitta al-sina” (Olti tilli lug‘at) asari 53 sahifadan iborat. Lug‘atda mingdan ortiq faol so‘zlar joy olgan. Ibratning bu asari o‘z davrida katta ahamiyat kasb etgan. Asar eski o‘zbek yozuvida yaratilgan bo‘lib, o‘sha davr keng xalq ommasiga tushunarli tarzda

yozilgan. Lug‘atda o‘zbekcha so‘zlarning qarshisida arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha so‘zlarning tarjimalari berilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan ma’naviy qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlarning bir qismi sanaladi. Hozirgi kunda xalqimiz tarixida yoshlarni tarbiyalash va ularni bilim olish, jamiyatda o‘z kasbining mahoratli egasi bo‘lib, mamlakat rivoji uchun hissa qo‘sha oladigan ruhda tarbiyalash qonuniyatlari, qoidalari va usullarni o‘rganuvchi pedagogika, tarbiya fanining ravnaq topishi yo‘lida namunali xizmat qilgan olimlarimiz, jadid pedagoglarining hayoti va pedagogik faoliyatlarini o‘rganish muhim vazifalardan biri sanaladi. Mana shu jihatdan olib qaralganda, Is’hoqxon Ibrat yoshlarni ilm-ma’rifat egallab, ezgu nom qoldirishga chorlagan avlodimizning buyuk vakilidir.

Demak, Is’hoqxon Ibratdek fan fidoyisi, zahmatkash pedagog haqida uning salohiyatli mehnatlari yuzasidan ma’lumotlarga ko‘proq ega bo‘lish uchun Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida barpo etilgan Is’hoqxon Ibrat majmuasi tarkibidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab hamda Is’hoqxon Ibrat muzeyiga tashrif buyursalar, ziyoli vatandoshimizning ruhini shod qilgan bo‘ladilar. Umuman olganda, Ibrat bobomizning asarlarini nashrga tayyorlab, kitobxonlarimizga taqdim etish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Ma’rifatparvar, fidoyi shoir Is’hoqxon Ibratning barchamizga ibrat bo‘la oladigan umr yo‘llari xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish va boyitishda muhim ahamiyatga ega.

**3.2. Ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda tarbiyaning o‘rni. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar.**

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, jahonda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g‘oyalar ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo‘shilib qolish holatlari hamon uchramoqda. 2019 yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4307-sonli qarori qabul qilingan. Unda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-

xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida quyidagilar respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

-Aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

-Oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, «mahalla-tuman-viloyat-respublika» prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

-«Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

-Tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish;

-aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

Ushbu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Qarorda respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutgan holda, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritishi belgilangan. Unda quyidagilar e’tiborga olinishi ta’kidlangan: ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari;

-bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllari;

-ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish mexanizmlari;

-tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi;

-ma’naviy tarbiyani shakllantirishning homiladorlik davridan boshlanishi va tarbiyaning har bir bosqichdagi o‘ziga xos xususiyatlari;

-ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutgan holda, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi loyihasini ishlab chiqishi va Respublika kengashiga kiritishi nazarda tutilgan:

-hududlardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini xonadonma-xonadon yurib aniqlash, tizimli monitoring va tahlil qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish shakllari;

-tahlil natijalarini «mahalla-tuman-viloyat-respublika» prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasida aks ettirish tartibi;

-ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga doir tavsiyalar;

-aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo‘naltirilgan innovatsion metodlarni yaratish, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmi. Mazkur qarorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda Markazning hududiy bo‘lim va bo‘linmalari xodimlari, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar uchun mas’ul xodimlarini Markaz huzuridagi «Ma’naviyat targ‘ibotchisi» ta’lim muassasasida tizimli ravishda o‘qitish amaliyotini joriy etishi zarurligi ta’kidlangan. Bundan tashqari qaror bo‘yicha O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga: «Madaniyat va ma’rifat» telekanalini Markaz, uning hududiy bo‘lim va bo‘linmalari faoliyatini yoritish masalalari bo‘yicha Respublika kengashining bosh axborot hamkori etib belgilash;

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko‘rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilish vazifalari yuklatilgan. Qaror asosida Markaz, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy uyushmasining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan «Ma’naviyat fidoyisi» ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklif ma’qullangan. Qarorga ko‘ra

Markaz huzurida «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta’sis etilgan.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4307-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilingan?**

A. 2019 yil 3 mayda

B. 2019 yil 23-avgustda

C. 2020 yil 6-iyulda

D. 2020 yil 15-iyulda

**2. Ushbu qarorda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida asosiy vazifalar qaysi organning zimmasiga yuklatigan?**

A.Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining

B. Barcha davlat tashkilotlarining

C. Ta’lim tizimining

D. Davlat va nodavlat tashkilotlarining

3. **Qarorda respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va «Oila» ilmiy-**

**amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda uch oy muddatda qaysi hujjatni ishlab chiqishi va Vazirlar Mahkamasiga kiritishi belgilangan?**

A. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi loyihasini

B. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining “Yo’l xaritasi”ni

C. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish bo’yicha tadbirlar rejasini

D. «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkilotining ish rejasini

**4.Mamlakatimizda Ma’naviyat va ma’rifat Markazi huzurida «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida qachon ta’sis etilgan?**

A. 2019 yil 3 mayda

B. 2017 yil 2-iyunda

C. 2000 yil 15-dekabrdda

D. 2017 yil 26-iyunda

**5. Qaysi qaror asosida Markaz, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy uyushmasining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan «Ma’naviyat fidoyisi» ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklif ma’qullangan?**

A. 2019 yil 3-maydagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4307-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

B. 2020 yil 6-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Qaror bo’yicha “Ma’naviyat fidoiysi” ko’krak nishoni kimlarga berilishi nazarda tutilgan?
2. «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) asarlarining muallifi kim? (M.Behbudiy)
3. A.Avloniyning tarbiyaga oid qaysi asarlarini bilasiz?
4. I.Ibratning tarbiya to’g’risidagi fikrlaridan misollar keltiring.
5. ”Ikki emas, to’rt til lozim” maqolasining muallifi kim?

## 4-mavzu: Zamonaviy tarbiyashunoslik muammolari. Tarbiyaning globallashuv jarayonidagi vazifalari. Zamonaviy sharoitda tarbiyaviy jarayonlar va uni tashkil etish yo‘llari.

**Reja:**

1. Zamonaviy tarbiyashunoslik muammolari. Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish.
2. Tarbiyaning globallashuv jarayonlaridagi vazifalari. Globallashuvning shaxs hayoti va faoliyatidagi o‘rni. Zamonaviy sharoitda tarbiyaviy jarayonlar va uni tashkil etish yo‘llari.

**O`z hayot tajribasini har**
**Tomonlama boyitmagan**
**Odamning tarbiyasi-behuda.**
**R.Golbah.**

**Tayanch iboralar:** Zamonaviy tarbiyashunoslik, ilmiy-texnologik, globallashuv, globallashuv jarayoni, globallashuvning shaxs hayotidagi o’rni.

### 4.1.Zamonaviy tarbiyashunoslik muammolari. Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish.

XXI asrda insoniyat fan-texnik yutuqlarini qo‘lga kiritishda muvaffaqiyatlarga erishayotganligi bilan o‘ziga xosligini namoyon etmoqda. Dunyoning ilg‘or mamlakatlari kundan-kun ilmiy-amaliy kashfyotlarni jadallashtirmoqda. Yirik ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan AQSh, Yaponiya, XXR, Rossiya, Angliya, Germaniya kabi davlatlar eng ilg‘or texnologiyalarni ishga solib, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshiryapti. BMT, JST (Jahon savdo tashkiloti), NATO, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi keng imkoniyatlarga ega nufuzli boshqaruv tizimlari dunyoning u yoki bu mintaqasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarda bevostia yoki bilvosita ishtirok etishmoqda. Jahon miqyosidagi muammolar globallashuv jarayonida bir tomonlama hal etilishi darajasidan allaqachon yuqorilab ketdi. Hech kim, hech bir davlat masalalarga bir tomonlama yondasha olmaydi. Ilg‘or, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan texnik qurilmalar inson ongi mahsuli sifatida Yer sharini, kosmosni, atrof -olamni to‘liq nazorat ostida ushlash imkoniyatlariga erishmoqda.

O‘tgan asrlarda voqea-hodisalar o‘tmish sifatida tarixdan joy oldi. Yangi fikr, yangi ong kelajak sari yangicha ko‘rinishda dadil qadam qo‘ymoqda. Jahon xalqlari dunyoda tinch-totuv, barqarorlik, hamjihatlik, yakdillik tamoyillari asosida demokratik jamiyatlar tashkil etib yashashga intiladi. Umumbashariy an’analarni saqlab qolish, ularni asrab-avaylash, urf-odatlar, jadal odimlash, ijtimoy-iqtisodiy komillik sari rivojlanishni davom ettirish yer yuzida istiqomat qilayotgan yetti millarddan ziyod kishilarning umumiy istagi. Yer kurrasining o‘tmishi ko‘plab bo‘hronlar, urushlar, qon to‘kishlarga guvoh bo‘ldi. Aql-zakovat sohibi bo‘lgan inson oldida bugungi globallashuv davrida hayotni bilan birga, ota-bobolarimizdan meros qolgan ma’naviy boyliklarni ertangi kelajak avlod uchun saqlab qolish vazifasi ko‘ndalang turibdi.

Yer sharining, bashariyat tamadduning taqdiri insoniyat o‘z o‘tmishidan qanday xulosalar chiqara olayotganiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Tuzilayotgan rejalar, yaratilayotgan doktrinalar inson hamda globallashuv manfaatlariga naqadar mos kelishi joriy islohotlarning pirovard natijalari qanday yakunlanishini belgilab beradi. Insoniyat o‘z tamaddunini asrab-avaylab qolishi uchun nimalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lmog‘i kerak? -degan masala o‘ta muhim va dolzarbdir. Albatta, globallashuv butun dunyoda ro‘y berayotgan, ortga qaytmaydigan jarayon. Boshqa mamlakatlar qatori biz uchun ham zaruriy. Lekin u biryoqlama bo‘lmasligi kerak. Globallashuv milliy o‘zlikni yo‘qotish degani emas!

Dunyo tamadduni turli xalqlarning o‘ziga xos an’analari, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari bilan go‘zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli. Lekin qaysidir davlat yoki davlatlar, qaysidir xalq yoki

xalqlar globallashuvni o‘z mentalitetidan kelib chiqib, o‘zgalarga tiqishtirishi kishilik jamiyatiga to‘g‘ri kelmaydigan holat hisoblanadi. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdan jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarga shikast yetkazishi, xalq o‘z ildizidan ayrilgan “omma”ga, millat o‘z qiyofasini yo‘qotgan “manqurt”ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday xatarga yo‘l qo‘ymaslikning chorasi bitta: o‘zgalar qadriyatini kamsitmagan holda o‘z qadriyatlarimizni mahkam turib himoya qilishimiz va lozim bo‘lsa jumlai jahonga ko‘rsatishimiz kerak.

Globallashuv jarayonida kishilik jamiyati erishgan globallashuv tarixi, hozirgi kuni, yutuq va kamchiliklari, bosib o‘tilgan tarixiy uzoq yo‘ldan olingan falsafiy xulosalarga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga ertangi kunimiz farovonligi yo‘lida nazariy qarashlarning ahamiyatli jihatlariga nazar solinadi. “Odamlar olovga o‘xshaydi, degan edi donishmandlardan biri, issig‘idan bahra ol-u kuydirishidan ehtiyot bo‘l”. Taraqqiyot mevalari ham xuddi shunday, undan qo‘rqish emas, faqat to‘g‘ri foydalana bilish kerak. Qanday maqsadda qo‘llasangiz, o‘sha tarafga yetaklaydi. Yurtimizda boshlangan barcha ezgu ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad-davlatimiz salohiyatini oshirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, ozod va obod Vatan poydevorini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan.

Yoshlarimizning o‘qib-o‘rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, sog‘lom va ma’naviy yetuk avlod bo‘lib voyaga yetishi yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Har yili millatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini o‘ylab hamda yoshlarimizning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zamonaviy maktab va kollejlar qurilmoqda, ular eng so‘nggi rusumdagi o‘quv-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanmoqda.

Shunday ekan, davlatimiz farzandlarimiz istiqboli uchun muttasil qayg‘urayotgan bir paytda “globallashuv” bahonasi ostida tarbiyani izdan chiqaruvchi, ma’naviyatini kemiruvchi har qanday yot ta’sirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda kechayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sog‘lom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo‘lsin qo‘ldan boy bermaslik- bugun suv va havodek eng muhim zaruratga aylangan.

Globallashuv tushunchasiga aksariyat hollarda insonning jamiyat moddiy, ma’naviy, xo‘jalik sohalaridagi o‘zgartiruvchilik faoliyati va uning yakunlari sifatida qaraladi. Hozirgi kunda globallashuv to‘g‘risida ko‘plab fikrlar mavjud. Abu Nasr Forobiy fikricha “har bir inson tabiatiga ko‘ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun kurashadi. Bunday yetuklikka shahar jamoasi orqali erishiladi”. Amerikalik professor S.Xantington “globallashuv” tushunchasini “rivojlangan” ma’nosida qabul qilishni taklif qiladi. Aslida globallashuvning tub mohiyatiga e’tibor bersak u qandaydir utopik qarashlar samarasi emasligi ham, yoki reaksion

ruhdagi jangari-fantastik yondoshishlar mahsuli emasligi ham aniq ko‘rinadi. Yer shari G‘arb va Sharq globallashuvi ta’siri ostida o‘zining bugungi qiyofasiga keldi. O‘rta asrlarda fan-texnika yutuqlaridan harbiy maqsadda foydalangan yevropalik hukumdorlar jahon mamlakatlari, xalqlari boshiga og‘ir musibatlar solgani tarixda ma’lum. Birinchi, ikkinchi jahon urushlari insoniyat boshiga qancha og‘ir kunlar solganini hamma biladi.

Globallashuv jarayonida madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida urushlar paydo bo‘lishi to‘g‘risida fikrlarga borilganda ham bu fikr qanchalik globallashgan jamiyat vakili fikri ekan, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Sharq globallashuvida qadimgi Xitoy tamadduniga asos solgan Konfutsiy ta’limoti, Daosizm, neokonfutsiychilik kabilar, islom ilohiy dini ta’limotidagi insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan muqaddas oyatlar yoki hadislardagi globallashuv mujassamligi hayratlanarli.

Globallashuvning taqdirini o‘zaro urushlar, dunyoga hukumron bo‘lish g‘oyasi, mintaqalarda yakka hokim bo‘lib olib o‘z manfaatlari uchun boshqa kuchsiz davlatlarni, xalqlarni talon-taroj qilish usullari emas, balki insoniyat taqdiri haqida qayg‘urib, hayot ne’matini kelajak avlodlarga taqdim etish yo‘lidagi hamjihat intilishlar hal qiladi. Globallashuv darajasi shu ijtimoiy qurilma ichida muayyan shaxs, insonning kamol topishi uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bilan belgilansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XXI asr globallashuvida inson omiliga e’tibor ortib bormoqda. Odam muloqot quroli sifatida tildan, mehnat qurollari yaratish uchun aql va qo‘llaridan, yaratgan qurollaridan yaxshilik yo‘lida foydalanish uchun ong va tafakkurdan foydalandi. Inson globallashuv bosqichlaridan pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilar ekan, fikrlarini yangilik, yaxshilik yaratishga qaratadi. Ixtiro etgan narsalari ezgulik maqsadiga ishlatilishini istaydi. Inson o‘z fitratidagi yaratuvchanlik xislatini tark etmaydi u o‘z yurtini, shahrini, qishlog‘ini, uyini madaniylashtirib, go‘zallashtirib yashashni istaydi. Vatanparvarlik hislarini davom ettiradi.

O‘zi yashab turgan mamlakat qonunlariga hurmat ruhida munosabatda bo‘lish fuqarolarga tinchlik, xotirjamlik, ijodiy kamolot beradi. Inson davlat organlari, ijtimoiy jamiyatga yaxshi munosabatda bo‘lib, o‘z farzandlariga ham farovon turmush qurish sharoitlarini yaratish va o‘rgatish yo‘lida mehnat qiladi. Jamiyat a’zolarining bir maqsad sari intilishlari shu jamiyatda barqarorlik va yuksalishiga zamin yaratadi. Globallashuvlar tarixi o‘rganilar ekan, ko‘p hollarda insonning ma’lum globallashuvga qo‘shgan hissasi haqida to‘xtalinadi. Qadimgi Rim imperiyasi, antik madaniyat, Vizantiya, Mesopotamiya, qadimgi Misr madaniyati, qadimgi Xitoy tamadduni, Yevropa uyg‘onish davri globallashuvi va hokazolar.

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti insonga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Inson bugunga kelib nafaqat globallashuvlarga hissa qo‘shuvchi individ, balki globallashuvlardan o‘z ehtiyojlariga kerakligini olish va uni ijodiy takomillashtirishga tomon qadam tashladi. O‘z islohotlarida sotsializmga bozor-tadbirkorlik instrumentlarini joriy etgan Xitoy (XXR) tarixan uncha katta bo‘lmagan davrda dunyodagi ilg‘or mamlakatlar oldingi qatoriga o‘tib oldi, o‘z fuqarolarining turmush darajasini bir necha barobarga yaxshiladi. Bunday globallashuvlar namunalarini Singapurda, Malayziyada, Janubiy Koreyada ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda AQSh, Yaponiya, Yevropa davlatlari tajribalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan besh tamoyil prinsiplari olg‘a surilganligi inson va jamiyat munosabatlariga yangicha ruh kiritdi. Prezidentimizning maqsadi xalqning boy-badavlat bo‘lishi uchun tadbirkorlik, ishlab chiqarish imkonlaridan unumli foydalanish kerakligi haqidagi fikrlari amalda to‘g‘ri ekanini isbotlab turibdi.

**4.2.Tarbiyaning globallashuv jarayonlaridagi vazifalari. Globallashuvning shaxs hayoti va faoliyatidagi o‘rni. Zamonaviy sharoitda tarbiyaviy jarayonlar va uni tashkil etish yo‘llari.** Dunyo globallashuv jarayonlari natijasida yaxlit bir media makonga aylanib qoldi. Hozirda ma’lumotlarni olish, uzatish va tarqatish juda oson. Lekin bu axborotlarni tahlil qilish, saragini va puchagini ajratish qiyin masala bo‘lib, bu yosh avlod tarbiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyo globallashuv jarayonini tahlil qilgan sotsiolog olim Entoni Giddens aytadiki: “An’ana va odatlarning hayotimizga ta’siri kundan-kun kamayib bormoqda, bu ijobiy jarayon, zero u insonga shu paytgacha erishilmagan shaxsiy erkinlikni beradi”. Bu so‘zlar zamiridagi xavfni anglash qiyin emas. Globallashuv sharoitida ijtimoiy muammolar, xususan oilada farzand tarbiyasidagi muammolar ham hozirgi kunda o‘z dolzarbligini butun bo‘y basti bilan namoyon qilmoqda. Hozirda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning tub mohiyatiga teran nazar solish ularning oiladagi farzand tarbiyasida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Ota-onalar tomonidan farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi quyidagi o‘rinlarda namoyon bo‘lmoqda:

-yosh oilalarni mustaqil yashashga intilishlari natijasida o‘zbekona oilaviy qadriyatlarni keyingi yosh avlodga yetib bormayotganligi;

– ota-onalarda oilada farzand tarbiyasi haqida yetarli bilim, ko‘nikma va tajribalarning shakllanmaganligi;

– iqtisodiy muammolarni hal qilishni asosiy ustuvor vazifa deb belgilab olish va natijada farzand tarbiyasiga e’tibor qaratmaslik;

– farzand tarbiyasiga kam vaqt ajratish yoki tarbiyani asosan onalar va ta’lim-tarbiyachilar zimmasiga yuklash;

-maktabgacha bo‘lgan davrda bolalar ta’lim va tarbiyasiga yetarlicha e’tibor qaratmaslik;

– maktab davrida bolalar ta’limi va tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanmaslik, birga dars qilish va turli tarbiyaviy mavzularda suhbatlashishning kamligi;

– farzand tarbiyasining o‘z holiga tashlab qo‘yilishi, uning ichki dunyosiga kirib bormaslik, kelajak rejalari bilan qiziqmaslik va hayotga to‘g‘ri yo‘naltirmaslik;

– ota-onalarda turli yoshlarda oilada farzand tarbiyasiga doir rejalar, bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning yetishmasligi.

Har bir oiladagi farzand tarbiyasi faqatgina shu oilaning muammosi bo‘libgina qolmay, balki butun jamiyatning muammosi sifatida qaralishi kerak. Qadimdan bekorga “Bitta bolaga yetti mahalla ota-ona” deb aytishmagan. Farzand tarbiyasi bilan ota-onalar, o‘qituvchi-pedagoglar, qo‘ni-qo‘shni, mahalla va butun jamiyat shug‘ullanmog‘i lozim bo‘lib qolmoqda.

Globallashuv “ommaviy madaniyat” deb ataladigan o‘zining ijtimoiy ta’sirini asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilib bormoqda. Bu holat yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga juda katta ta’sir qilmoqda. Bunday holatlarda farzand tarbiyasiga e’tibor qaratilmasa, uni to‘g‘ri yo‘naltirilmasa bola tarbiyani oiladan emas, ko‘chadan, internetdan va boshqa manbalardan ola boshlaydi va bu juda yomon oqibatlarga olib kelishi hozirgi holatimizda oilada farzand tarbiyasi taqlidiy xarakterga ega bo‘lib, bolalar ota-onalariga har bir ishda taqlid qilishga harakat qilishadi. Shuning uchun ota-onalar farzand tarbiyasiga oid manbaalar bilan muntazam tanishib borishlari va ushbu usullarni o‘z oilasida tatbiq etib borishlari lozim.

Oilada farzand tarbiyasi haqida Imom G‘azzoliyning “Ihyou ulumud-din” kitobida bunday deyiladi: “Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, uning ustida o‘saveradi, dunyo va oxiratda saodatli bo‘ladi, ota-onasi hamda odob, ta’limtarbiya berganlar barchasi savobga sherik bo‘lishadi. Agar yomonlikka undalsa va hayvon kabi bo‘sh qo‘yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo‘ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi”.

Ota-onalar farzandlariga badan tarbiyasi, ruhiy tarbiya, aql va fikr tarbiyasi, axloqiy tarbiya, iroda tarbiyasi, so‘zlas huv tarbiyasi va mehnat tarbiyasi kabilarni muntazam ravishda o‘rgatib, tushuntirib, o‘rnak bo‘lib, tarbiyalab borishlari lozim. Yana ijtimoiy odoblarni o‘rgatib tushuntirib borishlari, salomlashish, so‘zlash, ovqatlanish, kiyinish, jamoat joyida o‘zini tutish, suhbatlashish, qo‘shnichilik va kasb-kor odoblari kabi odoblardan boxabar bo‘lib borishlari tadkirdorliklarini

ko‘rib borishlari kerak bo‘ladi. Bitta daraxtni parvarishlab hosilga kirishini yillab kutilgani singari oilada farzand tarbiyasi ham muntazam va uzluksiz ravishda yillar davomida bajariladigan jarayondir.

Globallashuv jarayonida farzand tarbiyasida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

– ota-onalar farzand tarbiyasi eng muhim jarayon ekanligini yaxshi anglashlari va bunga barvaqt kirishishlari lozim;

– ota-onalar farzand tarbiyasi eng sharafli ish ekanligi, farzandni kelajakda millatga, ota-onasiga va jamiyatga manfaat keltiradigan inson qilib tarbiyalash lozimligini yaxshi anglab yetishlari kerak;

– ota-onalar farzandlar o‘rtasida adolatli bo‘lishliklari ularda kelajakda hasad, ko‘rolmaslik, boshqalarga nisbatan dushmanlik hissi kabilarni paydo bo‘lmasligini bilishlari kerak;

– ota-onalar farzandlariga mehr-shafqatli bo‘lishlari va ularni suyub erkalashlari ularda ham mehr-muruvvat tuyg‘ularini hosil qiladi;

– farzandlar bilan hamisha ochiq chehra bilan muloyim muomalada bo‘lish, har bir ishda shaxsiy namuna bo‘lish lozim bo‘ladi;

– farzand tarbiyasida muqaddas dinimiz asoslari, milliy urf-odatlar, o‘zbekona mentalitet g‘oyalarini hisobga olish lozim;

– ota-ona farzandlari bilan muntazam birga bo‘lishga harakat qilishlari, yoshlar turli mashg‘ulotlarni birga o‘tkazishlari, hazil-mutoyiba qilib turishlari hamda nutqini o‘stirishga e’tibor qaratishlari lozim;

– farzandlarni qarg‘ash va kaltak vositasida tarbiyalashga harakat qilish ularni faqat oiladan bezdirishga xizmat qilishini anglab yetish lozim;

– bolalar sho‘xlik qilib, gapga quloq solmasa yoki biron ishni xato qilsa, boshqalar oldida uyaltirmay, xoli holda nasihat qilish, masalani yaxshi va yomon tomonlarini tushuntirish lozim;

– farzandlarda “bo‘sh vaqt” tushunchasi deyarli bo‘lmasligiga harakat qilish, doimo ularni biror ish, topshiriq, ilm olish yoki sport bilan shug‘ullanish bilan band qilish lozim;

– hazillashib ham yolg‘on gapirmaslik va doimo va’daga vafo qilishga o‘rgatib borish lozim;

– yoshlikdan biror hunarga o‘rgatib borish, hunar o‘rganish bo‘yicha shogirdlikka berish lozim;

– ota-ona farzandini ilm olishiga alohida e’tibor qaratishi, eng yaxshi sarmoya kelajakka qo’yilgan sarmoya ekanligini anglab yetishlari, buning uchun barcha zaruriy va tashkiliy ishlarni qilib borishlari lozim;

– ota-ona farzand tarbiyasi va ilm olishiga zaruriy bo‘lgan barcha choralarni hozirlashlari va ularni uzluksiz ravishda ma’lum bir reja asosida amalga oshirib borishlari lozim.

– globllashuv jarayonida bolani turli “axborot xurujlari”dan asrab, ularga qarshi “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirib borishlari lozim bo‘ladi.

Oilada farzand tarbiyasi uzoq vaqt davom etadigan va har bir ota-ona uchun muntazam ravishda bajarib borishlari lozim va shart bo‘lgan ishlardan bo‘lib, ayniqsa hozirgi globallashuv davrida bu masala juda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1. Kim “globallashuv” tushunchasini “rivojlangan” ma’nosida qabul qilishni taklif qiladi?**

A. S.Xantington
B. M.Veber
C. E.Giddens
D. P.Sorokin

**2. “An’ana va odatlarning hayotimizga ta’siri kundan-kun kamayib bormoqda, bu ijobiy jarayon, zero u insonga shu paytgacha erishilmagan shaxsiy erkinlikni beradi”, fikri kimga taalluqli?**

A. Entoni Giddens
B. G.Moska
C. M.Behbudiy
D. Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li

3. **“Har bir inson tabiatiga ko‘ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun kurashadi. Bunday yetuklikka shahar jamoasi orqali erishiladi” fikrining muallifi kim?**

A. Abu Nasr Forobiy
B. I.G’azolliy
C. A.Navoiy
D. A.Cho’lpon

**4. Kimlar farzand tarbiyasi eng muhim jarayon ekanligini yaxshi anglashlari va bunga barvaqt kirishishlari lozim?**

A. ota-onalar
B. O’qituvchilar
C. Tarbiyachilar
D. Butun jamiyat a’zolari

**5. O‘rta asrlarda fan-texnika yutuqlaridan qanday maqsadda foydalangan yevropalik hukumdorlar jahon mamlakatlari, xalqlari boshiga og‘ir musibatlar solgan?**

A. harbiy
B. siyosiy
C. iqtisodiy
D. ma’naviy-ma’rifiy

**NAZORAT SAVOLLARI**

1. Globallashuv jarayoni tarbiya jarayonlariga qanday ta’sir ko’rsatdi?
2. Globallashuv jarayonida farzand tarbiyasida nimalarga e’tibor qaratish lozim?
3. I.G’azzoliy tarbiyaga jid fikrlarini qaysi asarida bayon qilgan?
4. Bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun qanday choralar ko’rish kerak?
5. ”Axborot xurujlari” deganda nimani tushunasiz?

## 5-mavzu: Tarbiya fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy bitiklar, sharq allomalari merosi, diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanish.

**Reja:**

**1.Tarbiya fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish. Ta’lim va tarbiya jarayonida sharq mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.**

**2.Tarbiya fanidan dars jarayonlarida badiiy va diniy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.**

**Donishmandlik bizga hayot So`qmoqlarida ulug` saodatdni Hjzirlab inom etuvchi vositadir.**

**Abu Ali Ibn Sino.**

***Tayanch so‘zlar****: xalq og’zaki ijodi, tarixiy bitiklar, badiiy, diniy adabiyotlar, sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi.*

## 5.1.Tarbiya fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish. Ta’lim va tarbiya jarayonida sharq mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.

Inson qadimdan atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli hatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg‘ularni so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslarda ifodalashgan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topganlar. Yigitlar, qizlar muhabbati qo‘shiqlarni to‘qiganlar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari, ularning g‘aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi.

Bugungi kunda biz ularni “xalq og‘zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz. Ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Er To‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma’nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari tushuniladi. Me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me’morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo‘shiq, ertak, dostonlarni folklor namunalaridir. “Folklor” atamasini talaffuz qilganimizda xalq og‘zaki ijodini tushunamiz. Xalq iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy zaruratdan kelib chiqib, yosh avlodni tarbiyalash muammolari dastlab xalq og‘zaki ijodiyoti, xalq pedagogikasi, yozma yodgorlik va pandnomalarda, mutafakkir va ma’rifatparvarlarning asarlarida bosh mavzu bo‘lib, komil inson shaxsini shakllantirish uchun zaruriy hodisa sifatida talqin etilgan. Xalq og‘zaki ijodiyotida tarbiya bosh masala sifatida tavsiflangan bo‘lsa, tarbiya va odob, vatanga cheksiz muhabbat, adolat, insof, botirlik, mehnatsevarlik, bilimdonlik kabi g‘oyalar tarbiya vositasi tarzida qo‘llanilgan. «Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas», «Vatanga kelgan iymonga kelar». «Bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki», «Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratli bo‘lar» kabi xalq maqollari bevosita tarbiyaga daxldordir. Hadis ilmida tarbiyaning inson kamoloti uchun cheksiz muhabbat, ilmiy tuyg‘u kabi sifatlarning izohi ham beriladi.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz», «Otaga itoat qilish-tangriga itoat qilishdir» va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalq og‘zaki ijodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi inson uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ma’naviy, axloqiy sifatlarni qamrab olgan bo‘lib, ularni tarbiya orqali amalga oshirish nazarda tutiladi.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmli va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan nodir asarlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib yetishishlariga undagan. Ma‘naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi juda ko‘p mutafakkirlarning, donishmandlarning tarixiy va adabiy asarlarida yuksak mahorat bilan bitilgan, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo‘lib qo‘shilgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlarda yaratilgan hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol, g‘azal, ruboiy, masnaviy va boshqa ko‘rinishlarda ta‘lim-tarbiya va kasb-hunar o‘rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to‘g‘risidagi fikrlar bizning zamonamizgacha ham yetib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo‘lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o‘rgata borish, kattalar mehnatini e’zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o‘rgatish oilaning diqqat markazida bo‘lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta‘lim bilan birga hunar o‘rgatishga bog‘lab davom ettirish lozimligini alohida ta‘kidlagan. Ulug‘ mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchkovlik bilan o‘rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan. O‘z-o‘zidan ravshanki, serqirra faoliyat murakkab mehnatni, chuqur bilimni talab qilish barobarida hunarmand ustalar orasida ixtirochilikning keng tarqalishiga zamin yaratgan.

Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atit turk” asarida ―Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so‘zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o‘rganib, amalga oshir”,- deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e‘zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z saltanatida yirik mehnat taqsimoti negizida mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqqan hunarmandchilik – to‘qimachilik, yog‘och va tosh o‘ymakorligi, gilam to‘qish, sopol, metall buyumlar tayyorlash kabi sohalarni yanada rivojlantirishga hamda dehqonchilik, chorvachilik va savdoga katta ahamiyat qaratgan. Shu sababli ijtimoiy hayotda yangidan-yangi kasb-hunarlarning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratilgan, ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘yilmagan. Ajdodlarimiz o‘z asarlarida yoshlarning kasbiy mehnat ta‘limi va tarbiyasiga juda katta etibor berganlar. Ular kasb-hunar ta‘limiga talim va tarbiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar va uni aqliy, jismoniy va ma’naviy tarbiya bilan birga olib borish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarga qobiliyatlarini va moyilliklarini hisobga olib, jiddiy o‘ylab mehnat turini tanlash to‘g‘risidagi pand va

nasihatlarini ko‘rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy ta‘lim oluvchilarning individual, o‘ziga xos qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini ta‘kidlab, “Insonlar tabiatan teng bo‘lsalar ham, ammo ularga turli fazilatlar berilgan”, deydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, buyuk allomalar va mutafakkirlar kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, pedagogik-psixologik jihatlariga, ota-ona, maktabning roli, kasb tanlashda yosh avlodning hayot, mehnat yo‘lini mustaqil tanlashiga alohida e‘tibor 6ilan qarashgan. Bolani hunarga yo‘llashda uning qiziqish, moyilligi, qobiliyatini o‘rganish, bunday holatda ularning onglilik, izchillik va vorisiylik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini qayd etgan.

Xullas, bu kabi misollar ajdodlarimizning kasb tanlash nazariyasini shakllantirishga munosib hissa qo‘shganidan dalolat beradi. Umumta‘lim maktablarida kasbga yo‘naltirish jarayonida ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan unumli foydalanish ijobiy samara berishi shubhasizdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga tariximizdan ko‘p misollar keltirish mumkin. Al Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” , Sa‘diyning “Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Davoniyning —”Axloqi Jaloliy” kabi asarlarida sog‘lom va barkamol insonni shakllantirish mazmuni, yo‘llari, shakllari hamda usullari yoritiladi.

Ming yilga yaqin davrlardan beri 49 xalqni ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanma bo‘lib kelayotgan ’’Qobusnoma’’ asari hozirgi o‘zgarishlar davrida insonni ma‘naviy kamolotga yetkazishda muhim o‘rin kasb etmoqda. XII asrning 82-83 yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab “Nasihatnoma”sini yaratdi va uni bobosi podshoh Shamsulmaoniy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi. Bu asar juda ko‘p sharq va g‘arb tillariga tarjima qilingan. 1860 yilda “Qobusnoma” asari birinchi marta buyuk o‘zbek shoiri va mutaffakkiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. Ushbu asar muqaddima va qirq to‘rt bobdan iborat. Muqaddimada asarning nomlanishi va G‘ilonshoh shajarasi xususida yozib: “Ey farzand, ikki tarafdan sening asling va nasabing pokdur va ulug‘dur”,- deydi. Kaykovus “Qobusnoma” asarida ilmni uchga bo‘ladi: biror kasb-hunarga bog‘liq ilm, ilm bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat. Ilm olish yo‘liga kirgan toliblarga hamma vaqt parhezli va qanoatli bo‘lish, bekorchilikdan o‘zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo‘lish, kitob o‘qishga berilish, ilm yo‘lida qayg‘u hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun uni takrorlab borish, ilmda haqiqat uchun kurashish, oz so‘zlab, ko‘p tinglash haqida gapiriladi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini aytib, uni mol-dunyodan ham yuqori qo‘yadi. “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa say‘ ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lgandan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur, nedinkim, aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bilan aql o‘rganib bo‘lmas. Bilgil, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvda oqmas, inson odobi ham aqlning belgisi ya‘ni, al adab – suratil aql”, deb xulosa chiqaradi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahral-ulum”, “Kachko‘li sultoniy”, “Jovidonixirad”, “Bistusehikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob-as-solihin”, “Turkiy guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq, tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy hamda axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

Tarbiya borasida Sa’diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

**Minbarning poyida tursa ham eshak,**
**Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam.**
**Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.**
**Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsa ham.**

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Alixon to‘ra Sog‘uniy tarbiya xususida shunday yozadi: “Yolg‘iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta’lim-tarbiya ta’siri ko‘z oldimizda ko‘rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O‘qitish-o‘rgatish bu yon tursin, suhbatni o‘zi ham, suhbatdoshlarga o‘t bilan suvdek tez o‘tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo‘ldoshlariga qarab baho beriladi”.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta’lim va tarbiya tufaylidir.

Quyidagi satrlarda alloma tarbiyani kimga berishni ham bilish kerakligini ta’kidlab, tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishga, uning qonun-qoidalariga amal qilishga ham chorlaydi. Tarbiya fanidan inson tarbiyasi muammolarini asosiy maqsad qilib, barkamol shaxsni shakllantirishga zamonaviy pedagogika fani yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan foydalanish va ijodiy yondoshishni talab etadi. Bu talab ajdodlarimiz g‘oyalariga suyanib, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur:

-Tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibga ta’sir etuvchi omil bo‘lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;

-Inson kamolotini harakatlantiruvchi kuch, qarama-qarshiliklarni mavjudligi uning shaxsiy hayotida namoyon bo‘ladi;

-Inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqish uyg‘otish va uni e’tiqodga aylantirish lozim. Chunki insonning jamiyatda bo‘lgan munosabatida, tevarak-atrofda kechayotgan voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi;

-Tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlar bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshirilishini ta’minlash demakdir.
-Tarbiya jarayonining qonun, qoida, tamoyil va metodlarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismi chuqur, atroflicha o‘rganadi.

## 5.2.Tarbiya fanidan dars jarayonlarida badiiy va diniy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy davrlarda tarbiyaviy jarayonlarini o‘zlashtirishda muhim omil. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan tarbiya darslarida foydalanishda o‘quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o‘qituvchi bayonining ko‘rsatmaliligini ta’minlaydi, uni aniqlashtiradi, o‘quvchilar tarbiya haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Badiiy adabiyotning ro’li bilan tugamaydi. Ma’lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o‘sha ijtimoiy hodisaning, shaxs tarbiyasining mohiyatinii fodalaydi. O‘qituvchi bayonida

badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonning ta’sirchan bo‘lishini ham ta’minlaydi, o‘rganilayotgan voqealarga, ayrim shaxslarga nisbatan o‘quvchilarda xayrixoxlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg‘ularini tug‘diradi.

Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og‘zaki ijodiy asarlar afsonalar, dostonlar, qo‘shiqlar, masallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko‘pida voqelik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo‘ladi. Voqelikni ob’ektiv suratda tasvir qilgan asarlar, yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan taqdirda uzoq o‘tmishdagi odamlarni, ularning xulqi, o‘zaro munosabatlarini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqid g‘alviridan o‘tkazib foydalaniladi.

Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o‘z zamonidagi jamiyatning g‘oyasini aks ettiradi va buni o‘quvchilarning tushunib olishlariga, ijtimoiy hayotdagi ayrim hodisalar va shaxslarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga o‘quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi ro’li bilan ham aniq misollarda tanishadilar.

Qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarbiya darslarida foydalanganda, o‘quvchilarni bu asarlarga tanqidiy ko‘z bilan qarashga o‘rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o‘tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligi, ulardan o‘sha davrlarda bo‘lib o‘tgan voqealarga oid ba’zi ma’lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Belletristik (tahrirlangan) asarlarga -tarixiy romanlar, tarixiy mavzularda yozilgan povestlar, o‘rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o‘rganish asosida yozilgan bo‘lib, ularda o‘tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Belletristika tarbiya fani uchun hujjatli manba bo‘la olmasa-da, o‘quvchilarga o‘tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy roman va povestlarni o‘qish natijasida o‘quvchilarda tarixga qiziqish uyg‘onadi. O‘rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarbiya darslarida ko‘pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Belletristika bayon qilinayotgan o‘quv materialini aniqlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi.

O‘qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta’lim-tarbiya jihatidan qimmati tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e’tiborga olishi kerak. O‘qituvchi tarbiya darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

a) o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimi dasturida ko‘zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;

b) tarixiy arboblar va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining ro’lini ko‘rsatishga;

v) muhim tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan joylarni va u yerlarning aniq sharoitini tasvirlashga bag‘ishlangan asarlarni tanlaydi. O‘qituvchi o‘z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o‘qishlari ustidan doimiy nazorat olib boradi. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati. Badiiy adabiyotning qimmati o‘quvchi voqelikni adibning iste’dodi darajasida idrok etishga, uni ko‘zi bilan ko‘rishga, uning shaxsi orqali, ma’naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg‘a surgan o‘z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi. O‘quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat kuzatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg‘a surgan ta’lim-tarbiyaviy g‘oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o‘rgangan taqdirdagina uning mohiyatini to‘liq, chuqur anglab yetishi muqarrar.

Badiiy asarni to‘g‘ri tanlay bilish ham asar g‘oyasini ta’lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o‘zlashtirishning muhim omillaridan biri bo‘lib, uni tanlashda ma’lum mezonlarga asoslaniladi, ya’ni badiiy asarning yuksak g‘oyaviy-badiiy qimmati, adib ijodida asarning xarakterli o‘rni (asosan yuqori sinflarda):

Asarning yaratilgan va o‘rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o‘quvchi yoshiga mosligi, munosibligi;

Badiiy asarning o‘quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o‘quvchida qiziqish uyg‘otishi;

o‘quvchining ma’naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.

Proza yo‘lida yozilgan asarlar hayotning keng va ob’ektiv manzarasini tasvirlashi, ma’naviy qadriyatlar mohiyatini atroflicha ochib berishi, poeziyada bunday tasvirga keng imkoniyat yo‘qligi, dramatik asarlarda esa voqelik yozuvchi nutqi orqali emas, balki obrazlarning hatti-harakati, so‘zlari orqali ifodalanishi bilan farq qiladi.

Adabiy turlar o‘rtasidagi bunday farqlar ularning tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham farqlanishiga olib keladi. Mazkur janrlardagi asarlar o‘quvchiga birinchidan, o‘tmishning madaniy merosi, bu merosning rang-barangligi, o‘zbek xalqining takrorlanmas iste’dod egalari bo‘lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma’lumot beradi. Ikkinchidan, o‘quvchining o‘zligini anglashi uchun boy ma’naviy oziq beradi. Uchinchidan, o‘zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma’lumotlarni egallashga muvaffaq bo‘ladi. To‘rtinchidan, sharq xalqlari, o‘zbek xalqi ruhiy holati, axloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmonnavozlik, iymon-e’tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma’lumot olishga muyassar bo‘ladi. Masalan, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, jasurlik ("Shiroq", «To‘maris»), xalqparvarlik, sevgida sadoqat («Alpomish», «Tohir va Zuhra», «Yusuf va Zulayho», «Farhod va Shirin»), jangnoma xarakteridagi dostonlarda o‘tmish qahramonlar, tarixiy va hayotiy haqiqatning kuylanishi («Shohnoma», «Jangnomai Jamshid»), pandnoma xarakteridagi dostonlarda

kishining kundalik hayotida amal qilishi lozim bo‘lgan xulq-atvor mezonlari diniy va dunyoviy axloq qonun-qoidalari ("Qutadg‘u bilig","Saddi Iskandariy«), qissalarda («Badoe’-ul vaqoe’», «Qissai Yusuf va Zulayho», «Qissa sulanbiyo», «Qissai Rabg‘uziy» va h.k.) sharq xalqlarining turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko‘proq o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari o‘quvchiga ma’naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida sharq xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqining o‘tmishi, qadriyatlari, axloq-odob mezonlari haqida atroflicha ma’lumot berish imkoniyatiga ega. Shaxsni badiiy adabiyot vositasida ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta’sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir.

Mumtoz adabiyot namunalari mazmunidagi chuqur falsafiylik, farosatlilik o‘quvchini uzoq o‘tmishga sayohat qildiradi. Mualliflar o‘z davrlarining turmush tarzlarini, hayotiy muammolarini, falsafiy ildizlarini badiiy ifodalashga, shu usuldan foydalangan holda xalqning moddiy va ma’naviy hayotini biroz bo‘lsa-da, tashvishli masalalardan, bezovta kechinmalardan yiroqlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar.

Islom ta’limotiga ko‘ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonat bo‘lib, ular bu omonat haqida mas’uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e’tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsonidir. Ota-ona farzandining birinchi murabbiyidirlar.

“Qur’oni karim”da oila ahliga e’tiborning qanchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi:

“**Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlaringizni va ahli-oilalaringizni o‘tini odamlar va toshlar bo‘lgan do‘zaxdan saqlangizki, u** (do‘zax) **ustida qattiq dil va qattiqqo‘l, Alloh o‘zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o‘zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur**” (Tahrim, 6-oyat)

Har qanday tarbiya, xususan nasihat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi – bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota va onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e’tibor bermagan kishi oradan yillar o‘tgach, uysiz, oilasiz qoladi.

Bu xususda Alloh taolo Tahrim surasida **“Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlaringizni va ahli oilalaringizni do‘zaxdan saqlangiz”**,- deb ogohlantiradi.

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo‘riqlaydigan go‘zal axloq va yaramas yo‘ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko‘proq himoya qilmog‘i kerak. Odobu tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o‘rgatish, yomonliklardan qaytarish, to‘kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg‘otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi.

Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo‘ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta

tarbiyalash yo‘li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko‘p mehnat sarf qilishga to‘g‘ri keladi.

Farzandlarning kelajakda go‘zal axloqli va chiroyli tarbiyali bo‘lishida ota-ona farzandi haqiga qiladigan xayrli duolarning o‘rni beqiyosdir. Chunki duo ibodat maqomida. Alloh taolo har bir ishda O‘zidan yordam so‘rashimizni yaxshi ko‘radi. Bundan tashqari, ota-onaning farzandi haqiga qilgan duosi mustajobdir. Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan hadisi sharifda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam):

“Uch kishining duosi qabuldir: otaning farzandiga qilgan duosi, mazlumning duosi va musofirning duosi”, deganlar. Ota-ona bunday ne’mat va imkoniyatdan unumli foydalanishi va farzandlarining kelajakda solih va tarbiyali inson bo‘lib kamol topishini Allohdan so‘rashi lozim. Hatto payg‘ambarlar ham yaxshi farzand so‘rab duo qilishgan. Jumladan, Ibrohim surasining 35-oyatida bunday deyiladi:

«(Ey Muhammad!) **Eslang, Ibrohim aytgan edi: “Ey Rabbim! Bu shaharni** (ya’ni, Makkani) **tinch qilgin, meni va avlodlarimni sanamlarga sig‘inishdan yiroqqilgin!”»**

Yana Oli Imron surasining 38-oyatida bunday deyiladi:

**«O‘sha joyda Zakariyo Rabbiga iltijo qilib, dedi: “Rabbim, menga (ham) o‘z huzuringdan pok zurriyot ato et! Darhaqiqat, Sen duoni eshituvchidirsan”».**

Ota-ona farzandi haqiga yomon duo qilib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lishi kerak. Chunki, yuqorida aytganimizdek, ularning farzandlari haqiga qilgan duolari qabuldir. Abdulloh ibn Muborakdan rivoyat qilinishicha, uning oldiga bir ota o‘z o‘g‘lidan shikoyat qilib keladi. Shunda Abdulloh ibn Muboraku otadan, siz o‘g‘lingiz haqiga yaxshi duo qilarmidingiz yoki yomon duo qilarmidingiz?,- deb so‘raydi. Ota esa yomon duo qilishini aytadi. Shunda Abdulloh ibn Muboraku odamga o‘g‘lingizni o‘zingiz buzgan ekansiz, deb koyiydi. Demak, bolaning kelajakda komil inson bo‘lib yetishishi yoki johil bo‘lishiga ota-onaning duolari katta ta’sir qilar ekan.

Tarbiya haqida Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumud-din» kitobida bunday deyiladi: «Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, uning ustida o‘saveradi, dunyo va oxiratda saodatli bo‘ladi, ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya berganlar barchasi savobiga sherik bo‘lishadi. Agar yomonlikka undalsa va hayvon kabi bo‘sh qo‘yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo‘ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi».

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) bunday deganlar: “Avlodlaringizni,

**birinchidan,**“ Allohni sevadigan qilib tarbiyalanglar...” Chunki Alloh taolouni yo‘qdan bor etib, ota-onani uning dunyoga kelishiga sabab chiqildi. Va ularning qalblariga farzand mehru muhabbatini soldi. Agar Alloh taolo farzand muhabbatini qalbga solmaganida, uni bag‘riga bosmasdi, rahm-shafqat qilmasdi, ko‘chaga

tashlab ketgan bo‘lardi. Shuning uchun farzand Alloh taoloni sevib, unga shukrlar qilishi lozim.

**ikkinchidan,** “Allohning Rasulini sevadigan qilib tarbiyalanglar”. Chunki Alloh taolo Rasulullohni (sollallohu alayhi vasallam) xalq orasidan tanlab olib, xalqqa Payg‘ambar qilib yuborgan. Qur’oni karimning Anbiyo surasi 107-oyatida ul zotni **“Biz sizni (butun) olamlarga rahmat qilib yuborganmiz”**,- deyilgan. Payg‘ambarimiz insonlarga ota-onasidan ham mehribonroq bo‘lgan, dunyodagi barcha yaxshiliklarni o‘rgatgan zot, butun dunyo ahlining ustozi sanaladi.

**uchinchidan,**“Allohning kitobini sevadigan qilib tarbiyalanglar...”. Chunki bu kitob insoniyatni hidoyatga chorlaydi.

Bu uchta talab inson farzandiga o‘rgatilishi lozim bo‘lgan qoidalardan sanaladi.

Tarbiya bir necha xilga bo‘linadi: badantarbiyasi, ruhiy tarbiya, aql va fikr tarbiyasi, axloqiy tarbiya, iroda tarbiyasi, so‘zlashuv tarbiyasi, mehnat tarbiyasi va boshqalar.

**Badantarbiyasiga** bolani jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, tozalik va poklikka o‘rgatish (zamonaviy qilib aytganda – sanitariya-gigiena), sport va badantarbiya mashqlariga ko‘niktirish kabilar kiradi. Bolasining sog‘lom bo‘lishini orzu qilgan ota-onalar ular bilan ko‘proq ochiq havoda sayr qilishlari, suzish, chavandozlik, kurash o‘yinlari, merganlik kabi mashg‘ulotlarga safarbar qilishlari lozim.

Islom dini inson hayotining faqat ruhiy, ma’naviy kamolotiga e’tibor beribgina qolmay, ayni vaqtda uning jismoniy jihatlariga ham jiddiy e’tibor qaratadi. Ulamolar ruhiy va moddiy hayotni xuddi narvonning ikki zinapoyasiga o‘xshatishadi. Ya’ni, ikki taraf baravar – teng bo‘lishi uchun harakat qilish lozimligi uqtiriladi. Insonning e’tiqodi kuchli bo‘lishi bilan birga badani, jismi ham sog‘, chiniqqan, har qanday mashaqqatlarga bardoshli bo‘lmog‘I lozim. Bu xususda Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam): “Kuchli mo‘min kishi Alloh huzurida kuchsiz mo‘mindan yaxshiroq va mahbubroqdir”, deganlar *(Imom Muslim rivoyati).*

Avval qayd qilganimizdek, yurtimiz yoshlari o‘rtasida sport turlari bo‘yicha turli musobaqalar o‘tkazish an’ana tusiga kirgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Universiada”, o‘rta maxsus va kasb hunar ta’limi maskanlari talabalari orasida “Barkamol avlod” o‘yinlari hamda o‘rta maktablarning o‘quvchilari orasida “Umid nihollari” musobaqalari o‘tkazilishi an’anaga aylangani va ular yoshlarimizning sog‘lom voyaga yetishlarida nechog‘li ahamiyatga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin.

**Ruhiy tarbiya** vazifasi bolaning maqsadi, e’tiqodi, diyonati, imonini shakllantirish, uning chin insoniy fazilatlarini kamol toptirish; hissiyotga beriluvchan va ta’sirchan bolalarda haqiqatni ko‘ra bilish, jasurlik, matonat kabi xislatlarni shakllantirish, aksincha, diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar yordamida ularni mayin hissiyotli qilib tarbiyalashdan iborat. Bolani ruhiy tushkunlikka tushishdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan himoyalashda bunday tarbiyaning ahamiyati katta.

**Aql va fikr tarbiyasini** yaxshilash uchun bolaning fikrlashi, zakovati, xotirasi va mushohada qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, unga turli ibratli ertak va hikoyalar so‘zlab beriladi, zarur bilim va ma’lumotlar yodlatiladi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko‘rgan narsasi haqida so‘raydigan, ularni tekshirib, sinab ko‘radigan, tinimsiz savollar beradigan bo‘ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsala bilan, tushunarli, sodda qilib javob qaytarish kerak.

**Axloqiy tarbiya** berish uchun, eng avvalo, ota-ona farzandiga axloq va odob bobida o‘rnak ko‘rsatishi, odobdan muntazam saboq berib borishi kerak bo‘ladi. Chunki odob oxirat ne’matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bu fikr barcha dinlarda birday tasdig‘ini topgan. “Qur’oni karim”da ham, Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) hadislarida ham odob-axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan.

**“Qur’oni karim”da:**

**«Yer yuzida kibrlanib yurma! Chunki sen** (oyoqlaring bilan) **zinhor yerni tesha olmaysan va uzunlikda tog‘larga yeta olmaysan».-deyiladi.** *(Isro, 37).*

Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) bir hadislarida:

“Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”, deb marhamat qilganlar *(Imom Muslim rivoyati).*

Kishi o‘g‘il-qizini kichik yoshdan tarbiyalab, odob bermog‘i kerak. Bola ma’lum yoshga yetgach, unga ba’zi narsalarni qabul qildirish qiyin kechadi. Bunda oila boshlig’i oila a’zolarining ba’zi ayblarini kechirishi kerak bo‘ladi. Zaif va kichiklar ayb qilishlari mumkin. Shuning uchun ularni qo‘rqitishdan ko‘ra kechirish yaxshiroqdir.

Shuningdek, bolalarni kamsitmaslik, ularning odoblilarini ibrat o‘laroq misol qilib keltirish, kattalarning bola oldida o‘zlarini yaxshi, odobli tutishlari, so‘kinmasliklari va urishmasliklari juda muhimdir. Ota-ona o‘zlari odobsiz bo‘lishsa, bolalarini odobli qilaman deb urinishlari also samara bermaydi. «Kishining dini do‘stining dini kabidir» hadisiga muvofiq, bolaning ulfat va do‘stlari kim ekaniga alohida e’tibor qaratish kerak.

**Iroda tarbiyasidan** maqsad farzandingizni irodasi kuchli shaxs qilib kamol toptirishdir. Bunda bolaga o‘z nafsi bilan kurashish, shaxsiy orzu va ehtiyojlarini jilovlash yoki zarur bo‘lsa, ulardan voz kecha olish, o‘z manfaatlarini boshqalar va jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik kabilar o‘rgatiladi . Taomilda, bolaning qaysarlik davrida (to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha) olib boriladigan iroda tarbiyasida biroz qattiqqo‘llik, chidam kerak bo‘ladi, ammo ayni damda sevgi, mehribonlik, samimiylikni ham his etib tursin.

**Mehnat tarbiyasi** berish uchun bolaga halol kasb bilan kun ko‘rish haqida nasihatlar qilinadi, mehnatga muhabbat uyg‘otish uchun bolaligidan unga turli mayda yumushlar buyurib turiladi. Turli kasb-hunarlar o‘rgatiladi, agar bunga o‘zi qodir bo‘lmasa, biror ustozga beriladi.

Bola qalbiga yoshligidanoq iymon, e’tiqod urug‘larini sepish, unga Parvardigorimizni va Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi vasallam) tanitish hamda sevdirish lozim. Chunki imoni, diyonati, vijdoni bo‘lmagan bola johil, nodon,

yovuz, jamiyat va el manfaatlarini nazar-pisand qilmaydigan xudbin kimsa bo‘lib o‘sadi. Davlatimiz va millatimiz uchun bunday nokaslar emas, balki qalbi toza, uyg‘oq, ilmli va mo‘min insonlar zarurdir. Bolani shu yo‘sinda tarbiyalash hammaning muhim vazifasi bo‘lishi kerak. Yurtboshimiz «Biz farzandlarimizni Imom Buxoriy hadislari, Yassaviy hikmatlari, Termiziy o‘gitlari, Naqshband ta’limoti asosida tarbiyalashimiz kerak», deganlaridek, farzandimizni Allohdan qo‘rqadigan, jamiyatga foyda keltiradigan, xalqiga xizmat qiladigan diyonatli inson etib tarbiyalashimiz kelajakda uning komil inson bo‘lib ulg‘ayishiga zamin bo‘ladi.

Ota-onalar farzandlari bilan muomala qilishda adolatli bo‘lishlari, birini boshqasidan, o‘g‘illarni qizlardan yoki aksincha, ajratmasliklari kerak. Sovg‘a berishda, lutf va mehribonchiliklar ko‘rsatishda, erkalash va iltimoslarini bajarishda barcha farzandlarni teng ko‘rish lozim. Chunki ular orasida sovg‘a-salomda tenglik yo‘qolsa yoki birini koyib, uning yonidagi ikkinchisi maqtab erkalatilsa, aka-uka yoki opa-singillar orasida bir-biriga hasad qilish va ko‘rolmaslik kelib chiqadi. Tadqiqotlar natijasida bolalarda hasad, ko‘rolmaslik va birovga nisbatan dushmanlik hissini tuyish kabi yomon tuyg‘ular shakllanishiga oilada farzandlar o‘rtasidagi adolatning yo‘qolishi ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Payg‘ambar (sollallohu alayhi vasallam): «Alloh taolo o‘rtalaringizda adolat qilishingizni yaxshi ko‘rgani kabi farzandlaringiz orasida ham adolat qilishingizni yaxshi ko‘radi», deganlar.

Agar bolalarga atab biror narsa olib kelsangiz, tarqatishni eng oldin qizlardan boshlang. Chunki qiz bola ta’sirchan, ko‘ngli nozik, salga xafa bo‘lib qoladigan bo‘ladi. Payg‘ambarimizdan (alayhissalom) bunday hadis bor: «Kim qiz bolalarni xursand qilsa, Allohdan qo‘rqib yig‘lagandek bo‘ladi, kim Alloh taolodan qo‘rqib yig‘lasa, Alloh taolo uning badaniga do‘zax o‘tini harom qiladi».

Farzandlarga mehr-shafqatli bo‘lish, ularni suyub erkalash, hamisha ochiq chehra bilan muloyim muomala qilish, zaruriy ehtiyojlarini qondirish, har jabhada ularga shaxsiy ibrat ko‘rsatish, Alloh taolo bergan omonat bo‘lmish o‘g‘il-qiz farzandlarni gunoh va yomon ishlardan qaytarib turish ota-onaning muhim vazifalaridandir. Har bir ota-ona farzandlarining turli buzuq aqida va nojo‘ya oqimlarga kirib qolmasligi uchun ularga Ahli sunnat val jamoa aqidasi, Imomi A’zam (rahmatullohialayh) mazhabi ta’limoti asosida tarbiya berishlari zarur.

«Tarbiyani qachon boshlash kerak?» degan savol azaldan yosh ota-onalarning boshini qotirib keladi. Bu savolga esa bir rivoyat bilan javob qaytarish to‘g‘riroq bo‘lur edi. Bir kishi donishmand huzuriga kelib: «Farzandimga necha yoshidan tarbiya berishni boshlashim kerak?» deb so‘rabdi. Donishmand: «Farzandingiz necha yoshda?» debdi. «Ikki yoshga kirdi», javob qilibdi boyagi kishi. Shunda donishmand: «Siz tarbiya berishda ikki yilga kechikibsiz», degan ekan.

Ammo bolaga tarbiya va odob berishda shoshqaloqlik yaramaydi. Bitta daraxtni parvarishlab, hosilga kiritish uchun bir necha yil kutish kerak bo‘lganiday, bir farzandni komil tarbiya va axloq bilan ziynatlash uchun ham ko‘p yillar kerak. Tarbiya ota-onadan va murabbiy-ustozlardan uzoq vaqt chidam, bardosh, sabr va fidoyilikni talab etadi.

Turmush qurgan er-xotin oldida eng sharafli va muhim ish: farzand ko‘rish va unga kelajakda millatiga, ota-onasiga, jamiyatiga manfaat keltiradigan qilib,

munosib tarbiya berish vazifalari turadi. Barchamizga ma’lumki, bugungi kun yoshlari bizning merosxo‘rlarimiz va kelajakda hayotning barcha sohalarida boshlangan katta-kichik ishlarimizni davom ettiruvchi o‘rinbosarlarimizdir. Har bir davrning o‘ziga xos tabiati va sharofati bo‘lganidek, fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan asrimizda yoshlar tarbiyasi ham alohida o‘ziga xoslik kasb etadi.

Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham ko‘payib borishi zarur. Yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, birinchi navbatda har bir ota-onaning muqaddas burchlaridan hisoblanadi.

Har bir inson o‘z farzandi yaxshi, barkamol nasl bo‘lib yetishishini orzu qiladi. Katta bo‘lgach, jamiyatda o‘ziga munosib o‘rin egallab, Vataniga sodiq, elu xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo‘lishini niyat qiladi.

Lekin hamma ota-onaning ham o‘z farzandlariga mehr-oqibati va tarbiyaviy munosabati bir xil bo‘lavermas ekan. Ayrimlar bola tarbiyasi xususida juda beparvolik qilishadi. Ular uchun bu dunyoda faqat o‘z shaxsiy yumushlari, moddiy mablag‘ to‘plash yo‘lidagi tashvishlari birinchi o‘rindagi vazifa-yu, oila a’zolarining axloqiy tarbiyasi bilan shug‘ullanish ikkinchi darajali ish ko‘rinadi.

Onalarning farzand tarbiyasidagi burchlari

Onaning burchlaridan yana biri farzandga mehribonlik ko‘rsatib, uni aziyat beradigan turli narsalardan saqlagan holda, vaqtida oziqlantirib, yuvib-tarab, toza kiyintirib, kasal bo‘lishiga yo‘l qo‘ymay, parvarishlashda erinchoqlik yoki dangasalik qilmay, doimo hushyor va xabardor bo‘lishdir. Lekin, afsuski, barcha onalar ham o‘z farzandlariga onalik mehrini baxsh etavermaydilar. Shunday ayollar ham bor, ular o‘z bolalarini bekordan-bekor bolalar uylariga topshirib yuboradilar.

Musulmon odobiga doir «Ma’naviy ziyofat» kitobida keltirilgan bola tarbiyasidagi eng muhim jihatlarni esga olsak, foydadan xoli bo‘lmas.

Farzandlarga mehribonlik, rahm-shafqat ko‘rsating, ular bilan yumshoq muomalada bo‘ling, sababsiz tergamang. Tez-tez ularni quchoqlab, bosh-ko‘zini mehr bilan silab turing.

Ular bilan muntazam birga bo‘lishga harakat qiling, mashg‘ulotlar o‘tkazing, o‘yinlariga aralashib turing, hazil-mutoyiba qiling, nutqini o‘stirish bilan shug‘ullaning.

Ularni also qarg‘amang, yomon so‘zlar bilan so‘kmang, yomon duo qilmang. Chunki bu narsalar fasodga yo‘liqtirib, oilangizga faqirlik keltiradi. Aksincha, yaxshi duolar qilib, ularga imon-e’tiqod, insof, yaxshiliklar tilanadi.

Bolasini kaltak vositasida tarbiya qilishni o‘ylaganlar qattiq adashadi. Chunki farzand yaxshi so‘zning gadosi, yomon gapirish, kaltaklash bolani oiladan, ota-onadan bezdiradi, xolos.

O‘n yoshga yetgan o‘g‘il va qiz bolalar alohida yotqiziladi, chunki aksincha holat fitnaga sabab bo‘lib qolishi mumkin.

Bolalaringizga ularning qurbi yetmaydigan xizmat va topshiriqlarni also bera ko‘rmang. Chunki buni bajara olmay, yolg‘on gapirishlari, hiyla izlashlari, hatto ota-onaga osiy bo‘lib qolishlari mumkin.

Ota-ona qaramog‘idagi bolalariga o‘zi yegan ovqatni yediradi, o‘zi kiygan kiyimlarni kiydiradi, ehtiyojlarini qondiradi.

Quyida marhum ustoz, taniqli olimlarimizdan Salohiddin Muhiddinning farzand tarbiyasi borasidagi maslahatlari:

«Yosh farzandlarni ovqatdan oldin va keyin qo‘l yuvishga, ovqatlanishni «Bismilloh» bilan boshlashga, o‘ng qo‘l bilan yeyishga, yeb bo‘lganidan so‘ng yaratganga shukr aytishga odatlantirishingiz lozim. Shuningdek, o‘ng qo‘l bilan yozish, kiyim kiyganda o‘ngidan boshlash, uyga o‘ng oyoq bilan kirish, har birishni «Bismilloh» bilan boshlashga ham o‘rgating.

Bolalarga tozalikka rioya qilish, tirnoqlarini olish, kiyimlarini toza-pok saqlash, tahoratxonaga kirish-chiqish tartiblaridan ta’lim bering.

Farzandlarga xoli holda, uyaltirmay, boshqalar oldida sharmanda qilmay nasihat qilishingiz lozim. Ba’zan sho‘xlik qilib, gapingizga quloq solishmasa yoki biror ishda xato qilishsa, ularni urmay-so‘kmay, tushuntirishingiz zarur. Juda iloji bo‘lmay qolganida ikki-uch kun gaplashmay qo‘ysangiz, kifoya.

Iloji bo‘lsa, bolalarning har qaysisiga alohida-alohida o‘rin solish, agar imkoniyati bo‘lsa, qiz va o‘g‘il bolalarning xonalarini bo‘lak qilib berish ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘g‘il-qizlaringizni ko‘chaga iflos chiqmaslikka, hovli tashqarisiga va ko‘chalarga odamlarga aziyat-zarar beradigan axlat, iflos narsalarni tashlamaslikka o‘rgating.

Farzandlaringizning kimlar bilan do‘st va hamsuhbat bo‘lishlariga e’tiborli bo‘ling, ko‘chada sababsiz, bemaqsad turish va yurishlariga, sizdan so‘ramay, uzoq vaqt biror mashg‘ulot bilan shug‘ullanishlariga yoki olis joyga ravona bo‘lishlariga ruxsat bermang.

Farzandlarni uyda va ko‘chadagi tanish-notanish odamlarga «Assalomu alaykum» deb salom berishga, qo‘ni-qo‘shnilarga yaxshilik va yordam ko‘rsatishga, aziyat yetkazmaslikka, uyingizga kelgan mehmonga hurmat ko‘rsatish va xizmat qilishga odatlantiring.

O‘g‘il-qizlaringizni kufr so‘zlardan, birovlarni haqorat qilishdan, behayo gaplarni gapirishdan qaytaring. Bularning nihoyatda yomonligini, yaramas so‘z-gaplar tufayli odam qattiq gunohkor bo‘lishi va zarar ko‘rishini muloyimlik bilan tushuntiring. O‘zingiz ham bu borada ularga ibrat-namuna bo‘ling, chiroyli axloq sohibi ekaningizni isbotlang.

Farzandlarni qimorning turli ko‘rinishlari, qarta, oshiq va o‘rtaga pul qo‘yib o‘ynaladigan barcha o‘yinlardan qaytarish darkor. Qimor bo‘lmasa ham, qimmatli vaqtini behuda sovuradigan, dars tayyorlash va foydali mashg‘ulotlardan ayiradigan o‘yinlarni ham cheklash lozim.

Ularning axloqsiz, behayo, fahsh suratli gazeta-jurnallar, kitoblarni o‘qishlariga, jinsiy munosabatlarni, shafqatsizlik, axloqsizlik, yovuzliklarni targ‘ib qiladigan film va tomoshalarni ko‘rishlariga yo‘l bermang.

Farzandlaringizni tamaki chekish va aroq ichishdan qaytarib, bu illatlarning inson sog‘lig‘i va iqtisodiga qanchalar zarar keltirishini, kulfatga boshlashini

erinmay tushuntiring. Buning o‘rniga meva va shirinliklar iste’mol qilishga targ‘ib eting”.

O‘g‘il-qizlarimizni har qanday holatda ham rost so‘zlashga, yolg‘on nihat to hazil tariqasida ham gapirmaslikka, va’daga albatta vafo qilishga o‘rgatishimiz lozim. Chunki yosh bolalar odatda o‘ta ta’sirchan va taqlid qilishga o‘ch buladilar. Yolg‘onni atrofidagi muhitdan o‘rganib, ota-onasi yoki aka-ukalaridan biror manfaatga erishish uchun yolg‘on ishlatishlari mumkin. To‘g‘rilik har bir yaxshilikning asosi, yolg‘on esa har qanday yomonlikning onasi va boshlanishidir. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam): “Albatta, to‘g‘rilik yaxshilikka boshlaydi. Yaxshilik jannatga boshlaydi. Yolg‘on yomonlikka olib boradi. Yomonlik esa do‘zaxga olib boradi”, deganlar. O‘zimiz ham ularga biror narsa va’da qilsak, olib berishimiz, bordi-yu, buning imkoni topilmay qolsa, ularga tushuntirib, muddatini uzaytirishimiz kerak. Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam): «Ota-ona farzandini “Bolam, bu yoqqa kel, bir narsa beraman”, deb chaqirsa-yu, ammo bermasa, u yolg‘onchidir», deganlar. Farzandlarni halol topgan molimizdan yedirib-ichirishimiz, sudxo‘rlik, pora, o‘g‘rilik, aldamchilik, zulm bilan topiladigan narsalarda nihtiyotlashimiz lozim. Zero, bunday mablag‘lar bilan oziqlangan bola badbaxt, itoatsiz, qo‘rs-qo‘pol va yovuz bo‘lib ulg‘ayadi. Farzandlarimizni tarbiyalashda urish, so‘kish va qattiq cheklovlardan oldin ularni to‘g‘ri bilan noto‘g‘rini, foyda bilan zararni ajratishga o‘rgatishimiz kerak. Chunki biz qanchalik cheklovlar qo‘ymaylik, nima foydayu nima befoyda ekanini tushuntira bilmasak, ular bu ishlarni yashirin holda ham qilishlari mumkin.

**TEST TOPSHIRIQLARI.**

**1. Xalq og‘zaki ijodi ilmda nima deb yuritiladi?**

A. folklor

B. ertak, topishmoq

C. maqol

D. nazm

**2. Folklor atamasi qachon, kim tomonidan taklif qilingan?**

A. 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms

B.

**bo‘lib, uning ma’nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat.**

**3. “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir” fikri kim tomonidan bildirilgan?**

A. Abdulla Avloniy

B. Abdurauf Fitrat

**C.** A.Cho’lpon

D.A.Navoiy

4. **“Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar” fikrining muallifi kim?**

A. Abdurauf Fitrat

B. A.N.Forobiy

C.A.Buxoriy

D. M.Behbudiy

**5. “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati” degan fikr kim tomonidan bayon etilgan?**

A. Syun-Szi

B. Konfutsiy

S. I.Kant

D. I.Ibrat

6. **Ey mo‘minlar, sizlar o‘zlaringizni va ahli-oilalaringizni o‘tini odamlar va toshlar bo‘lgan do‘zaxdan saqlangizki, u** (do‘zax) **ustida qattiq dil va qattiqqo‘l, Alloh o‘zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o‘zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur” fikri qaysi manbada keltirilgan”**

**Ushbu fikr qaysi manbada keltirilgan?**

A.Qur’oni Karimda

B. Hadis-u sharifda

S.I. G’azzoliy asarlarida

D. “Injil”da

## NAZORAT SAVOLLARI

1.“Albatta, to‘g‘rilik yaxshilikka boshlaydi. Yaxshilik jannatga boshlaydi. Yolg‘on yomonlikka olib boradi. Yomonlik esa do‘zaxga olib boradi”fikri kim tomonidan bildirilgan?

2.“Uch kishining duosi qabuldir: otaning farzandiga qilgan duosi, mazlumning duosi va musofirning duosi” degan fikr qaysi manbada keltirilgan?

3. Alixon To‘ra Sog‘uniy tarbiya xususida shunday yozadi: “Yolg‘iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta’lim-tarbiya ta’siri ko‘z oldimizda ko‘rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O‘qitish-o‘rgatish bu yon tursin, suhbatni o‘zi ham, suhbatdoshlarga o‘t bilan suvdek tez o‘tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo‘ldoshlariga qarab baho beriladi” fikri kim tomonidan bayon qilingan?

4.Olmon faylasufi Immanual Kantning “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrini ma’nosini tushuntiring.

5. «Yer yuzida kibrlanib yurma! Chunki sen (oyoqlaring bilan) zinhor yerni tesha olmaysan va uzunlikda tog‘larga yeta olmaysan» fikri qaysi manbada keltirilgan?

**6-mavzu: Yuksak ma’naviyatli pedagog kadrlarni shakllantirish: muammo va yechimlar**

**Reja:**

**1.Yuksak ma’naviyatli va mafkuraviy kompetentli pedagog kadrlarni shakllantirish – bugungi davr talabi**

**2.Pedagog kadrlarning ma’naviyati hamda uning mafkuraviy kompetentliligining asosiy belgilari.**

**3. Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari.**

**Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: birinchi tarbiya o`z hayot tajribalarini singdirish yo`li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog`ini esa unga hayotning o`zi o`rgatadi.**

**K.Mar.**

***Tayanch so‘zlar:*** pedagog kadrlar, kadrlarning ma’naviyati, mafkuraviy kompetentli, xalq tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari

## 6.1.Yuksak ma’naviyatli va mafkuraviy kompetentli pedagog kadrlarni shakllantirish – bugungi davr talabi. Pedagog kadrlarning ma’naviyati hamda uning mafkuraviy kompetentliligining asosiy belgilari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Prezidentimiz yig‘ilishda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtaldi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ma’lumki, murakkab o‘tish yillarida maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘i, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e’tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta’limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi.

Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta’limi tizimi tiklandi. So‘nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta’lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is’hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi

ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ta’lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o‘qituvchilarning alohida o‘rni va ta’siri borligi hisobga olinib, ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta’limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o‘qituvchi qaytdi.

Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda.

“Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, – dedi Prezidentimiz. – Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq”.

Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig‘ilishda tanqid qilindi.

Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an’ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta’lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e’tibor qaratildi. “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", dedi Shavkat Mirziyoyev. Videoselektor yig‘ilishida xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, muammolarni kompleks hal etish masalalari chuqur tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar muhokama etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan. Davlatimiz rahbari o‘qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

“Maktab o‘qituvchisini moddiy rag‘batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz”, dedi Prezident. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, Moliya va Xalq ta’limi vazirliklariga 2020 yilda xalq ta’limi xodimlari oylik ish haqini oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Uzoq qishloqlardagi maktablarga o‘qituvchilarni jalb etishni yanada rag‘batlantirish uchun ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish ham ko‘zda tutilgan.

Bu ishlar davlatimiz tomonidan izchil davom ettiriladi. Lekin bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, o‘qituvchi va murabbiylarning o‘zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro‘sini oshirishi kerakligiga urg‘u berildi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, hududlarda 6 ta pedagogika institutlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublika ta’lim markazi, Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, viloyatlarda ham shunday institutlar bor. Lekin o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchilarning bilim va malakasini yuksaltirishda, afsuski, ularning o‘rni sezilmayapti. Yig‘ilishda pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari faoliyatini tanqidiy o‘rganib, takomillashtirish, ularni eng nufuzli ta’lim muassasalariga aylantirish, pedagoglikka moyilligi bo‘lgan yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Prezident maktablari va ijod maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning samaradorligini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida alohida tuzilma tashkil etilishi ma’lum qilindi. Maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta’kidlandi.

Oiladagi ta’lim-tarbiya muhiti, ota-onalarning mas’uliyati va o‘qituvchilar bilan hamkorligi masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Maktab hayoti, fidoyi o‘qituvchilar haqida badiiy va hujjatli filmlar, sahna asarlari va videoroliklar yaratish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

“Moddiy va ma’naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari. Yig‘ilishda ishtirok etgan rahbar va mutasaddilar, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali va fidoiy muallimlar, ziyolilar, mahalla faollari muhokama qilingan masalalar yuzasidan o‘z fikr-takliflarini bildirdilar.

### 6.2.Pedagog kadrlarning ma’naviyati hamda uning mafkuraviy kompetentliligining asosiy belgilari.

Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi milliy taraqqiyotga erishish kafolati jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi

bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to‘plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy salohiyatini yanada ko‘tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqlolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bunda eng muhimi, ta’lim-tarbiya tizimida sobiq tuzumdan qolgan eskicha qoliplardan tezroq voz kechish, ta’limga doir eng ilg‘or, zamonaviy, xalqimizga xos milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga hamohang usullarni topish va amaliyotga joriy etish, sharqda qadimdan amalda bo‘lgan prinsip- ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaslik va ularning o‘zaro mutanosibligiga erishish g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Davlatimiz rahbarining so‘zlari bilan aytganda, “Ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir”.

Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi». O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari boshlarida yangi yosh davlatimiz oldida mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni, jamiyatda tinchlik va ahillikni, millatlararo totuvlikni saqlab qolish, mustaqillikning uzoq yillarga mo‘ljallangan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo‘lini belgilab olish, istiqlolimizni ichki va tashqi xurujlardan asrab-avaylash, yangi jamiyatning yangi, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlashga qodir, ayni chog‘da, mamlakat, millat tarixini yaxshi biladigan, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma’naviy merosdan bahramand yoshlarni tarbiyalash vazifasi turar edi. Bu vazifaga kirishishni mutlaqo kechiktirib bo‘lmasdi. Chunki o‘sha yillariyoq g‘oyaviy targ‘ibotda, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasida yuzaga kelgan bo‘shliqni egallash uchun keskin kurash boshlangan, mamlakatimizga turli niqoblarda yot, g‘arazli oqimlar kirib kelayotgan edi.

Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning yangi istiqbolli tizimini yaratishga asos bo‘ldi. Bu tizimdan ko‘zlangan asosiy maqsad, birinchi navbatda, ta’lim sohasini jiddiy isloh qilish, uni sobiq tuzum mafkurasi asoratlaridan tamomila xalos etish, ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirish, kadrlar tayyorlash ishini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, ma’naviy yangilanishlar maqsadi bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim-tarbiya ishining ijtimoiy ahamiyati va mavqeini ko‘tarish, bu jarayonga eng malakali, fidoiy, tanlagan kasbiga sadoqatli insonlarni jalb etish, ularni har jihatdan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash edi.

Ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifaning murakkabligi shunda ediki, qisqa muddat ichida kadrlar tayyorlash muassasalarini yangi talablarga javob bera

oladigan murabbiylar, yangi o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar, texnik jihozlar bilan ta’minlash, tizimning maqsadini jamiyat ehtiyojlariga moslash zarur edi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirishda, eng avvalo, uzluksiz ta’lim tizimining yangi, mustaqil turi-o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini shakllantirish vazifasi turardi. Bu vazifani bajarish uchun kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning moddiy-texnik bazasini tamomila yangilash, ularga talab darajasida me’yoriy-huquqiy, uslubiy-metodologik qo‘llanmalarni yetkazib berish, yetuk kadrlar bilan ta’minlash, buning uchun ota-onalar, homiy tashkilotlar, vasiylik kengashlari, olimlar, mutaxassislarning sa’y-harakatlarini o‘zaro birlashtirish ehtiyoji yuzaga kelgan edi. Muhim vazifalardan yana biri-kadrlar tayyorlashda jamiyatning bugungi, yaqin kelgusidagi ehtiyojlarini aniq hisobga olish bo‘lib, bu ham ishga o‘ta mas’uliyat bilan yondashishni talab etardi. Chunki, sobiq tuzum sharoitida sifat emas, son jihatidan quvib ish tutilgani bois, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasida ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yilgandi.

Pedagog kadrlarning ma’naviyati hamda uning mafkuraviy kompetentliligining asosiy belgilari.

-Mamlakatimizda ishlab chiqilgan milliy g‘oyada mafurani yoshlar ongi va qalbiga singdirish ta’lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutildi, ta’lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini o‘rganishning differensial pedagogik-psixologik dasturini yaratish zarurligi belgilab qo‘yildi.

- Fan va ilmiy muassasalar oldiga milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an’analar va intellektual qadriyatlarning yangi avlod dunyoqarashini shakllantirish va boyitishdagi o‘rni hamda ta’siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish vazifasi yuklandi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishning asosiy vazifalarini bosqichma-bosqich amalga oshirishda erishilayotgan dastlabki natijalar, yangidan to‘planayotgan tajribalar diqqat markazida bo‘ldi. Birinchi bosqichda (1997-2001 yillar) pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish, yangi o‘quv davlat standartlarini yaratish, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi moddiy-texnika bazasini vujudga keltirish birlamchi vazifa bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda (2001-2005 yillar) majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va o‘zlashtirish imkoniyatiga qarab tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tish amalga oshirildi. Keyingi bosqichda kadrlar tayyorlash tizimini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish davom etdi. O‘tgan yillar davomida erishilgan yutuqlarga oid ko‘p ma’lumotlarni, fakt va raqamlarni keltirish mumkin. Eng muhim natija —

mamlakatimizda milliy mafkuraga asoslangan tamomila yangi ta’lim tizimi yuzaga keldi va u dunyoda rasman e’tirof etildi. Ta’limning hamma bosqichlarida o‘quv dasturlari yangidan yaratildi va ular zamonaviy xalqaro talablarga to‘la mos keladi. Oliy o‘quv yurtlarida yangidan joriy etilgan bakalavr yo‘nalishi va magistratura yo‘nalishiga yangi davlat standartlari joriy etildi. Eng muhimi, o‘quv yurtlari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Bugun biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o‘quv binolari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Mustaqillik yillarida tug‘ilib voyaga yetgan farzandlarimizning o‘qishda, ilmiy ijodkorlikda, madaniyat, san’at va sport sohalarida erishayotgan yutuqlari qalblarimizni faxr-iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi. Ular zamonaviy texnologiyalarni, kompyuterda loyihalashtirish va boshqarish ilmini, bir necha tillarni mukammal egallagan yoshlardir. Bu yutuqlar muhtaram yurtboshimiz rahbarligida istiqlolimizning dastlabki yillarida ta’limtarbiya soh

O‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati «o‘qituvchi-o‘quvchi» o‘zaro aloqasi negizida olib boriladi, aynan shu jarayonda ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion, rivojlantiruvchi va shakllantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Shuning uchun o‘qituvchining kasbiy-psixologik kompetentligini o‘rganishda eng avvalo, kommunikativ (mulokot) kompetentlikka e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir. KOMPETENTLIK – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo‘lib, ma’lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o‘zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo‘llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko‘nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy psixologiyada kommunikativ kompetentlik va uning tarkib topishi shart-sharoitlari, omillarini o‘rganishga nisbatan bir necha yondashuvlar mavjud. Masalan, bixevioristik yunalish vakillari kommunikativ kompetentlikni shaxsning muayyan vaziyatlarda maqsadga muvofiq xulk-atvor shaklini namoyon qilish, vaziyatni oqilona baholash va shunga mos tarzda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini egallaganligi bilan belgilaydilar. Kognitiv psixologiya yo’nalishi tarafdorlari esa kommunikativ kompetentlik sub’ektning kognitiv (akliy) sohasi darajasi, uning insonlar psixologiyasi borasidagi bilimlari, shuningdek ijtimoiy tafakkuri, tasavvuri va idrokiga bevosita bog‘liq ravishda shakllanadi, deb hisoblaydilar. Insonparvarlik psixologiyasi vakillari shaxsning qadriyatlar tizimi xususiyatlarini birinchi o‘ringa

qo‘yadilar va kommunikativ kompetentlik eng avvalo, muloqotga kirishuvchilarning samimiyligi, ochiqligi, shaxs rivojlanishiga imkon beruvchi muloqot ko‘nikmalarini egallaganligiga bog‘liq deya ta’kidlaydilar.

Turli ijobiy psixologik amaliyot namunalarini qo‘llash orqali insonning psixologik salohiyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan hozirgi zamon psixologiyasi ayrim namoyandalari esa muloqotga shaxs faoliyat jarayonida o‘z hatti-xarakatlarini boshqarishining sub’ektiv modellarini sinovdan o‘tkazish va taqdim qilishi uchun makon sifatida qaraydilar. Bunda kommunikativ kompetentlik shaxsda sub’ektiv nazorat malakalarining rivojlanganligi, dunyokarashning pozitiv shakli tarkib topganligi, muvaffakiyatga nisbatan intilish, yul-yuriqlarning shakllanganligi, munosabatlarni maqsadga muvofik yo‘lga qo‘yish qobiliyatining mavjudligida namoyon bo‘ladi. Individning ichki psixologik muxitini yaxshilashga esa kommunikativ kompetentlikni ta’minlashning garovi sifatida qaraladi.

Kommunikativ kompetentlik shaxs xulq-atvorining boshqalar tarafidan to‘g‘ri anglanishi bilan ham bog‘liqdir. Inson hatti-harakatlari mazmunining aynan muloqot jarayonida o‘zgalarga to‘g‘ri yetkazilishi shaxsda ijtimoiy sheriklik sub’ekti sifatida qoniqish hissini uyg‘otadi. Pirovardida, kommunikativ kompetentlikning yuqori darajasi jamiyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydi, bu esa mos ravishda kishining o‘zini o‘zi hurmat qilishi darajasiga ham ta’sir qiladi. Kommunikativ kompetentlikning quyi darajasi esa stressga moyillik, xavotirlanish, qo’rquv kabi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Kommunikativ kompetentlik hamsuhbat bilan muloqotni qo‘llab-quvvatlash, uning «Men»ini hurmat qilishda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘quvchiga muloqot sherigi sifatida psixologik jihatdan dalda, madad berishi dars va darsdan tashqari vaqtdagi pedagogik muvaffaqiyatning muhim omillaridan hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi paytda pedagog kadrlar, o‘qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan ta’lim muassasalarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy kurslar samaradorligini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

**Pedagogik amaliyot tahlili o‘qituvchilar faoliyati davomida duch kelayotgan quyidagi xarakterdagi kommunikativ muammolar mavjudligini ko‘rsatdi:**

- ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy yo’nalishdagi tadbirlarni tashkil etishda o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlikda ishlash maqsad, yo‘l-yo‘riqlarini shakllantirishning qiyinligi;
- ijtimoiy-perseptiv malaka va ko‘nikmalarning yetarli darajada tarkib topmaganligi;
- pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga zudlik bilan moslasha olish qobiliyatining rivojlanmaganligi;
- shaxsda o‘z kommunikativ xulq-atvorini nazorat qilishi bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi;
- nizoli vaziyatlarda muammoni to‘g‘ri hal qilish kompetensiyalarining yetishmasligi;
- o‘quvchi holatini his qilishda kognitiv malakalarning yetishmasligi.

Pedagogik faoliyatda kasbiy psixologik kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri - bu, ijtimoiy kompetentlikdir, zero zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, ma’lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. «Bola-jamiyat» munosabatlari, o‘zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo‘lishi o‘qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekanligiga ham bog‘liqdir.

Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo’nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg‘unlashuvi kabi tushunchalarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy kompetentligining qay darajada ekanligi o‘zaro muloqot, faoliyatni yo‘lga qo‘yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, fuqarolarning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o‘rin tutadi. Ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy tafakkur rivojini belgilaydi, balki insonlarning o‘zini o‘zi anglashi, hayotiy qadriyatlari, shaxsiy muammolariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa psixologiya fani oldiga insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish borasida uning kompetentlik darajasini yuksaltirishga yo‘naltirilgan dasturlar yaratish vazifasini qo‘yadi. Nazarimizda, mazkur vazifa nafaqat o‘zi, balki o‘quvchilarining ham barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mas’ul bo‘lgan pedagoglar faoliyatiga alohida tegishlidir.

Ijtimoiy kompetentlik zamonaviy psixologiya fani tadqiq etayotgan psixologik kompetentlikning turli shakllari orasida muhim o‘rin tutadi. U insonning ijtimoiy o‘zaro sheriklik, hamkorlik sub’ekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Sub’ektning kompetensiyaviy ijtimoiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo‘lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo‘lgan qiziqish, avvalo, «inson-jamiyat» o‘zaro aloqasi xarakterining ijtimoiy ravnaq, rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’siri bilan tavsiflanadi.

Kompetentlik shaxsning o‘ziga xos tuzilmaviy xususiyati ekan, psixologlar bu tuzilmadagi yana bir komponentlik - autokompetentlikni ham alohida ta’kidlaydilar. Hozirgi zamon psixologiya ilmida autokompetentlik sub’ektning shaxs xususiyatlari va xulq-atvor ko‘nikmalarini maqsadga muvofiq o‘zgartirishga, o‘z psixik imkoniyatlari zahiralaridan oqilona foydalanishga tayyorligini, buning uchun salohiyati mavjudligini anglatuvchi kategoriya hisoblanadi. Autokompetentlik yangi bilim, ma’lumot, axborotlarni samarali o‘zlashtirish, yuqori darajadagi o‘zini o‘zi nazorat qilish ko‘nikma va malakalari, muvaffaqiyatga erishish borasidagi irodaviy yo‘l-yo‘riqlarni mustaqil shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni paytda, individning hayot faoliyati jarayonida ekstremal, ko‘zda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda ichki holatini o‘zgartirish orqali qulay, maqbul vaziyat, sharoitlarni yaratish qobiliyati ham autokompetentlikka misol bo‘la oladi. Shu tariqa, autokompetentlik shaxs sifati bo‘lib, inson hayotining ma’lum davrlarida shakllanadi va muayyan faoliyat turi bilan samarali shug‘ullanishga imkon beradi.

Psixologik kompetentlikni tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradiki, bu bir tizimni tashkil etuvchi va o‘zaro bog‘liq xususiyatlardan iborat murakkab psixologik tuzilma. Psixologik kompetentlik tushunchasi ostida insonning professional faoliyati va hayoti davomida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni ijobiy hal etishga yordam beruvchi kasbiy-shaxsiy sifatlari anglanadi. O‘qituvchining psixologik kompetentligi mazmuniy va texnologik jihatlarga ega bo‘lib, turli ixtisoslik va mutaxassisliklarga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida rivojlana boradi.

Insonning psixologik kompetentligini rivojlantirish muammosi psixologiya fanida turli nuqtai nazarlardan (sababiyat va oqibat; kasbiy mahoratga erishishda kompetentlikni rivojlantirish yo‘nalish va tendensiyalari; yuqori darajadagi kompetentlikka erishishda ichki va tashqi shart-sharoitlarning o‘zaro munosabati; psixologik kompetentlik rivoji darajasining mezon va o‘lchovlari) tahlil qilib kelingan.

O‘qituvchida kompetentlikni shakllantirishga nisbatan psixologik tayyorlik, hozirlikning o‘ziyoq mazkur jihat tezroq va samaraliroq tarkib topishiga sabab bo‘lishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun o‘qituvchi va pedagoglarda kompetentlikka tayyor bo‘lishni rag‘batlantirishga ham e’tibor qaratish lozim.

Psixologik nuqtai nazardan tayyorgarlikning motivatsion, hissiy, axloqiy, kognitiv va xulqiy darajalari mavjud. Tayyorgarlikning faollashuvi shaxs tomonidan mazkur darajalar o‘zaro bog‘liq, bir butun holda anglangan, idrok etilgandagina yuz beradi. Psixologik tayyorgarlikni quyidagi jihatlarni qamrab oluvchi murakkab dinamik tuzilma sifatida tavsiflash mumkin:

■ pedagogik faoliyat sub’ektiga xos individual ehtiyoj va talablar, kasbiy vazifalarni anglash;

■ kompetentlikni rivojlantirish maqsadlarini tushunish;

■ faollik namoyon bo’ladigan shart-sharoitlar, muayyan vazifani bajarish bilan bog‘liq tajribani baholash va anglash, esga tushirish;

■ shaxsiy tajriba tahlili va psixologik imkoniyatlari doirasida berilgan topshiriqlarni bajarish uchun eng maqbul usul va vositalarni topish, o‘zini o‘zi nazorat qilish.

**Ichki va tashqi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

■ o‘quv topshiriqlarining yangiligi, dolzarbligi, ijodiylikka undashi, mazmuni, murakkablik darajasi;

■ tevarak-atrofdagi shaxslarning xulq-atvori xususiyatlari;

■ faol harakat va natijalarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos jihatlari;

■ intilishlar darajasi va muvaffaqiyat motivatsiyasi;

■ sub’ektning o‘z tayyorgarligi va psixologik imkoniyatlari, shuningdek, zaruriy irodaviy zo‘riqishlarni baholash;

■ o‘z kompetentligini mukammallashtirish borasidagi ishlarning turli bosqichlarida ijobiy psixologik iqlim, muhitni yaratish va qo’llab-quvvatlash salohiyati.

Kasbiy psixologik kompetentlikni rivojlantirish psixologik bilim, malaka va ko‘nikmalar hajmi, miqdorigagina emas, balki sub’ektning kompetentli kasbiy xulq modelini o‘zlashtirish va hayotga tatbiq etish borasidagi intilishlariga bog‘liqligi xususida ko‘plab fikrlar bayon qilingan. Bunda muayyan individual sub’ekt, shaxsning qadriyatlar yo‘nalishi, tafakkur tarzi, dunyoqarash, e’tiqod, ideallari, Men-konsepsiyasi, o‘zini o‘zi anglashi, kompetentli bo‘lishga nisbatan motivatsiyasi xarakteri muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, motivatsion xususiyatlar mazmuni kompetentlik samarasini belgilashda ahamiyatlidir. Bu o‘rinda insonning o‘z kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borishga nisbatan intilishlariga e’tiborni qaratish lozim.

### 6.3.Xalq ta’limi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari.

2020 yil 28-mayda Xalq ta’limi vazirligining 131-sonli buyrug‘i bilan “Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchi va o‘quvchilarning odob-axloq qoidalari” tasdiqlangan. «Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilarining odob-axloq qoidalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi 139-son «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda umume’tirof etilgan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan. Mazkur «Odob-axloq qoidalari» O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga tadbiq etiladi. Unda «Odob-axloq qoidalari» ta’lim muassasalari jamoa a’zolari (ma’muriyati, o‘qituvchilari, texnik xodimlari va o‘quvchilari)ning ta’lim muassasasidagi o‘zaro munosabatlarida rioya etishlari shart bo‘lgan odob-axloq tamoyillari, xulq-atvor me’yorlari va majburiyatlarini belgilab berilgan.Ushbu «Odob-axloq qoidalari»ga rioya qilish ta’lim muassasasi jamoa a’zolarining barchasi uchun majburiy hisoblanadi. «Odob-axloq qoidalari»ning maqsadi-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, yosh avlodga zamon talablari va milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonining sifati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga sharoit yaratishdan iboratdir.

«Odob-axloq qoidalari»ning asosiy vazifalari:

-umumiy o‘rta ta’lim maktablari jamoasi a’zolarining ma’naviy immunitetini shakllantirish va mustahkamlash;

-o‘quvchilar orasida odob-axloqni buzishni, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviq qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlarning oldini olishga, yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, past saviyali «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishga ko‘maklashishdan iborat.

**Jamoa a’zolarining odob-axloqiga oid qoidalar**

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hamjihatlik, o‘zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a’zolarining o‘zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.

2.Jamoa a’zolari umumiy o‘rta ta’lim maktabiga muassasa Ustavida belgilangan kiyimda kelishi lozim.

3. Ta’lim muassasasida har bir jamoa a’zosining sha’ni va qadr-qimmati o‘zaro hurmat qilinishi, jamoa a’zolari o‘zaro munosabatlarda «Siz» deb murojaat qilishi odat tusiga kirishi lozim. Ularning bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, o‘zaro munosabatlarda behayo so‘zlar ishlatishi qat’iyan taqiqlanadi.

4.Jamoa a’zolari umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududida yurganda bir-biriga o‘zaro hurmat ko‘rsatib, yo‘lak yoki koridorning o‘ng tomonidan yurishlari, bir-biriga duch kelganda, albatta salomlashishlari kerak. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchilarga, o‘g‘il bolalar qizlarga, kichik yoshdagilar katta yoshdagilarga birinchi bo‘lib salom berishlari tavsiya etiladi (ushbu holatlarda qo‘l berib so‘rashish istisno bo‘lib, yoshi katta shaxslar yoki xotin-qizlar birinchi bo‘lib qo‘l uzatganidan keyingina ularga javoban qo‘l uzatish mumkin).

5. Ta’lim muassasalari binolariga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, o‘quvchilar o‘qituvchi va xodimlarga, o‘g‘il bolalar qizlarga, yuqori sinf o‘quvchilari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yo‘l berishlari lozim.

6. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo‘lmagan yoki umumiy o‘rta ta’lim maktabining ichki munosabatlariga taalluqli masalalarni Internet tarmog‘iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ta’qiqlanadi.

7. Kompyuterlarda ta’lim muassasasiga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma’lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ‘ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, foydalanish va targ‘ib etish qat’iyan man etiladi.

8. O‘qituvchilar va o‘quvchilar tasdiqlangan mashg‘ulotlar jadvali asosida ishga va darsga o‘z vaqtida kelishi, ish kuni va dars jarayonidan unumli foydalanishlari lozim.

**O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari**

1.O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabatlari «ustoz-shogird» an’anasiga asoslanishi lozim.

2.O‘qituvchi sinfga kirib kelishi bilan o‘quvchilar hurmat yuzasidan o‘rinlaridan turib kutib olishlari va baravariga «Assalomu-alaykum!» – deb salom berishlari, o‘qituvchi ruxsatidan so‘ng o‘rinlariga o‘tirishlari odobdan hisoblanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv kunining birinchi dars soatida, yuqori sinf o‘quvchilari har bir darsda sinfga kirgan fan o‘qituvchisiga xuddi shunday tartibda munosabatda bo‘ladilar.

3.O‘quvchilarning dars mashg‘ulotlari davomida o‘zboshimchalik bilan maktabdan tashqariga chiqib ketishi taqiqlanadi.

4.Maktabda dars mashg‘ulotlarining boshlanishi va tugashi «Kirish» va «Chiqish» qo‘ng‘iroqlari bilan tartibga solinadi. «Kirish» qo‘ng‘irog‘i dars boshlanganligini bildirib, u chalingandan so‘ng barcha o‘quvchilar va dars jadvalida belgilangan fan o‘qituvchilari zudlik bilan tegishli sinf xonalariga kirib, mashg‘ulotni boshlashlari lozim. Dars mashg‘ulotini tugaganligini bildiruvchi «Chiqish» qo‘ng‘irog‘i o‘qituvchi uchundir. O‘qituvchi mashg‘ulot yakunlanganligini e’lon qilgandan keyingina o‘quvchilarning sinfdan chiqishlariga ruxsat beriladi. «Chiqish» qo‘ng‘irog‘i chalingandan so‘ng o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni uzoq vaqt sinf xonasida ushlab turishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda o‘quvchilar o‘rinlaridan turib, «Xayr, salomat bo‘ling!» – deb hurmat ko‘rsatadilar.

5.Dars mashg‘ulotlari va tadbirlar vaqtida mobil telefonlaridan foydalanish barcha uchun taqiqlanadi. Maktabda o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin o‘quvchi va o‘qituvchilar mobil telefonlarini o‘chirib qo‘yishlari lozim. Shuningdek, maktab hududiga kirib kelishda har bir o‘quvchi, o‘qituvchi, xodim va boshqa tashrif buyuruvchi shaxslar o‘z mobil telefoni abonentining chaqiruv ovozini to‘liq o‘chirib qo‘yishi (telefonni «ovozsiz» rejimga o‘tkazishi) shart.

**O‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari**

1. O‘qituvchilar o‘zaro munosabatlarda – yagona jamoa, o‘zaro hurmat, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga amal qilishlari lozim.
2.O‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish man etiladi.
3.Maktab ma’muriyati va o‘qituvchi-xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha hamkorlik qilishda bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o‘tkazishiga yoki shunga harakat qilishiga, shuningdek, adolat tamoyillariga yoki ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan qarorlar tayyorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Jamoada biror bir masala bilan ma’muriyatga murojaat qilish o‘rnatilgan tartibda tashkil etiladi.

5. O‘qituvchi va boshqa xodimlarning ta’lim muassasasida ma’naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash bo‘yicha tashabbus va g‘oyalari rag‘batlantiriladi.
6. Ma’muriyat o‘qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuter, internet tarmog‘i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, dam olishlari va jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish choralarini ko‘radi.

**Maktab jamoasi a’zolarining odob-axloqqa oid majburiyatlari**

1.O‘qituvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari:
-mazkur odob-axloq qoidalariga rioya qilishda o‘quvchilarga ibrat bo‘lish;
-maktab manfaatlariga zid bo‘lgan hatti-harakatlardan tiyilish;
-biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro‘y bersa, zudlik bilan ma’muriyatni xabardor

qilish;
-umumiy o‘rta ta’lim maktabining sha’ni va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;
-umumiy o‘rta ta’lim maktabi to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro‘siga ziyon yetkazish uchun yoki o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik;
-dars jarayonida o‘quvchilarga odob-axloqqa oid milliy an’analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni keng tushuntirib borish;
-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, past saviyali «ommaviy madaniyat» xurujlaridan ogoh etib borish.

**O‘quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari:**

**a) Ta’lim muassasasi hududida:**

-maktabga mashg‘ulotlar boshlanishidan 10-15 daqiqa oldin, ta’lim muassasasi Ustavida belgilangan o‘quvchilar libosi (formasi)da kelish;
-toza va orasta kiyinish, saranjom-sarishta yurish, sochlarni ozoda va tartibga keltirilgan holda tutish (o‘g‘il bolalar sochlarining uzunligi me’yor (2-3 sm)dan oshmasligi, qiz bolalarning ixcham zirakdan tashqari boshqa taqinchoqlarni taqmasligi lozim);
-chiqindilarni faqat maxsus belgilangan idishlarga tashlash;
-ustozlar va maktab mehmonlari bilan uchrashganda salom berish;
-o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;
-ta’lim muassasasi mulki (parta, stol, stul, doska, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
-maktab yo‘laklarida tinchlikni saqlash, baland ovozda gaplashmaslik; maktabga o‘quv-qurollari, dars jadvalida belgilangan darsliklar va daftarlar bilan kelish (o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan papka tutishi, kundalik daftarining bo‘lishi, ma’naviyatga zid rasmlar tushirilgan yozuv daftarlaridan foydalanmasligi); narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste’mol qilinishi hamda tarqatilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

**b) Dars vaqti (sinf xonalari)da:**

-dars jarayoniga xalal beradigan harakatlar qilishdan saqlanish;
-uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yish;
-dars vaqtida o‘rinsiz gaplashmaslik;
-jihozlarni asrab-avaylash, partalarga, stol va stullarga chizmaslik;
-qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik; ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

**v) Tanaffusda:**

-tanaffusdan unumli foydalanish;
-o‘z o‘qish joyini toza saqlash va tartibga keltirish;
-navbatdagi dars bo‘ladigan xonaga o‘z vaqtida o‘tish;
fan o‘qituvchisining ko‘rsatmasi bo‘yicha sinfni kelgusi darsga tayyorlash;
katta tanaffus vaqtida navbatchi o‘quvchilar tomonidan sinf xonasining tozaligini ta’minlash.

**g) Maktab oshxonasida:**

-ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarini yuvish;

umumiy ovqatlanish joylarida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;

-taomlarni olishda «navbatga turish» tartibiga rioya qilish;
-tirbandlik holatida ustozlar, yosh bolalar va qizlarga hurmat ko‘rsatish;
-ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
-issiq va suyuq ovqatlarni olishda va iste’mol qilishda ehtiyotkorlik ko‘rsatish;
-oshxonadan olingan ovqat va ichimliklarni oshxonaning o‘zida iste’mol qilish;
ovqatlangandan so‘ng idishlarni yig‘ishtirib qo‘yish.

**d) Maktab kutubxonasi va axborot resurs markazi (ARM)da:**

-kutubxona va ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo‘lish;
-kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
-baland ovozda so‘zlashmaslik va boshqa kitobxonlarga xalaqit bermaslik;
-qog‘oz va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
-kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

**e) Sport majmualarida:**

sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
sport inventarlaridan oqilona va samarali foydalanish;
mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga to‘liq rioya qilish.

**Bundan tashqari, o‘quvchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:**

-o‘zining namunaviy xulqi va bilimi bilan atrofdagilarda o‘quvchilik odobi haqida ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

-ko‘cha-ko‘yda bemaqsad yurmaslik, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, jamoat transportlarida keksa, nogiron va yosh bolali yo‘lovchilarga joy berish;

-doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;

-o‘z maktabi manfaati, uning sha’ni va nufuzi to‘g‘risida qayg‘urish, ularni saqlashda jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

**Maktab jamoasi a’zolarining odob-axloqida man etiladigan holatlar**

**Quyidagilar o‘qituvchilarga man etiladi:**

-jamoa a’zolari va boshqalarning shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish;
-o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlaridan asossiz chiqarib yuborish;
-o‘quv mashg‘ulotlarida diniy tashviqot olib borish;
-o‘quv mashg‘ulotlariga spirtli ichimliklar iste’mol qilgan, soch-soqolni tartibga keltirmagan va -kiyinish odobiga rioya qilmagan holda kelish;
maktab hududida spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish.

**Quyidagilar o‘quvchilarga man etiladi:**

-mashg‘ulotlar yakunlangunga qadar maktab hududidan o‘qituvchilar ruxsatisiz tashqariga chiqish;
-o‘qituvchilarga va boshqa o‘quvchilarga nisbatan hurmatsizlik qilish;

-o‘qituvchilarni chalg‘itish bilan bog‘liq har qanday hatti-harakatlarni amalga oshirish;
-yozma ishlar va oraliq nazoratlarni bajarish vaqtida chetdan yordam so‘rash, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish;
-boshqa o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish;
-mashg‘ulotlarga kechikib kelish yoki qatnashmaslik; moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligini turli yo‘llar bilan namoyish qilish.

**Rag‘batlantirish va chora ko‘rish tartibi**

1. O‘quv yili davomida mazkur «Odob-axloq qoidalari»ga to‘liq rioya qilgan, ta’lim muassasasida yuksak ma’naviy-axloqiy muhitning qaror topishiga va yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a’zolari quyidagicha moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilib boriladi:
o‘qituvchilarga maktab buyrug‘i bilan tashakkurnoma e’lon qilish, ularni tarmoq va davlat mukofotlariga tavsiya qilish;
«Faxriy yorliq» bilan taqdirlash;
qimmatbaho va esdalik sovg‘alar bilan mukofotlash;
maktab radiouzeli orqali e’lon qilish;
«Eng faol o‘quvchi» nominatsiyasini berish;
o‘quvchilar ota-onasining ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig‘iniga tashakkurnoma xati yuborish.

2. Jamoa a’zolari mazkur «Odob-axloq qoidalari»ni buzganida ularga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi:
o‘qituvchilarga maktab buyrug‘i bilan «Hayfsan» e’lon qilish;
o‘quvchining kundaligiga tanbeh yozish;
boshqa sinfga o‘tkazish;
sinf jamoasi orasida muhokama qilish.

Mazkur «Odob-axloq qoidalari»ga rioya etilmaganlik holatlari ta’lim muassasasidagi «Kamolot» YoIH, Xotin-qizlar qo‘mitasi boshlang‘ich tashkilotlari va «Ota-onalar» kengashlarida ham muhokama qilinishi mumkin.

Mazkur qarorda «Odob-axloq qoidalari» har bir o‘quvchiga va ularning ota-onalari (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga hamda o‘qituvchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yetkazilishi, maktabning foyesiga barchaga ko‘rinarli tarzda joylashtirib qo‘yilishi, uning talablarini har bir o‘qituvchi va o‘quvchilar to‘liq bilishi hamda unga qat’iy amal qilishi zarurligi belgilangan.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.“Maktab o‘qituvchisini moddiy rag‘batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz” fikri kim tomonidan ilgari surilgan?**

A.Xalq ta’limi vaziri Sh. Shermatov
B.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev
C.Oliy va o’rta maxsus ta’lim vaziri A.Toshqulov

D.Senat raisi T.Norboyeva

**2. Qachon Xalq ta’limi vazirligining 131-sonli buyrug‘i bilan “Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchi va o‘quvchilarning odob-axloq qoidalari” tasdiqlangan?**

A. 2020 yil 28-mayda

B. 2019 yil 23-avgustda

C. 2020 yil 6-iyunda

D. 2017 yil 24-oktabrda

**3. «Odob-axloq qoidalari»ni buzganida ularga nisbatan qanday intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi?**

A.o‘qituvchilarga maktab buyrug‘i bilan «Hayfsan» e’lon qilish;
B.o‘quvchining kundaligiga tanbeh yozish, boshqa sinfga o‘tkazish;
C.sinf jamoasi orasida muhokama qilish.

D. Barcha javoblar to’g’ri

**4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi qaysi masalalarga bag’ishlangan?**

A. xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga

B. ta’lim sohasida korruptsiyaga qarshi kurash masalalariga

C. maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish masalalariga

D.oliy ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga

**5. “Odob-axloq” kodeksi bo’yicha ta’lim muassasalari binolariga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, kim kimga yo’l berishi kerak?**

A.o‘quvchilar o‘qituvchi va xodimlarga

B. o‘g‘il bolalar qizlarga,

S.yuqori sinf o‘quvchilari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga

D.barcha javoblar to’g’ri

**6.Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashdagi asosiy prinsiplari qaysilar?**

A) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish; sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish, ochiqlik va shaffoflik, tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

B)tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

C) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ongli vatan’arvarlik ruhini rivojlantirish; sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish, ochiqlik va shaffoflik, tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish

D) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. “Ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir” fikri kim tomonidan bildirilgan?

2. “Odob-axloq” kodeksi bo’yicha maktab o’qituvchilariga nimalar man etilgan?

3. “Odob-axloq” kodeksi bo’yicha maktab oshxonasida nimalarga e’tibor qaratilishi lozim?

4. Dars vaqtida sinfxonada qanday tartiblarga amal qilish kerak?

5.Maktab hududidagi qoidalardan qaysilarini bilasiz?

## 7-mavzu: Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish

**Reja:**

1.Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati. Inson huquqlari.

2. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.

**Qo`l yoki oyoqni nojo`ya ishlatsang-falokatga, tilni nojo`ya ishlatsang-halokatga yo`liqasan.**

**Muhammad Toshboltaev.**

***Tayanch so‘zlar:*** Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, Inson huquqlari, huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik.

### 7.1.Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati. Inson huquqlari.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining strategik maqsadi etib belgilangan har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, qonun ustuvor bo‘lgan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo‘shilish uchun mamlakatimizda barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda milliy huquq tizimida so‘nggi yillarda ko‘lami va mohiyati nuqtai-nazaridan islohotlarning yangi davri boshlandi. Inson huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini amalda ta’minlashga nisbatan munosabatni tubdan o‘zgartirish tizim islohotlarning bosh g‘oyasiga aylandi**.**

Davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilovchi bir qator omillar mavjud: birinchidan, rivojlangan jamiyat a’zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo‘lishi kerak; ikkinchidan, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo‘lishi lozim;

uchinchidan, ularning o‘sha jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi mavjudligi talab etiladi.

Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda, ko‘pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan boxabarlik darajasi tushuniladi. Lekin bu juda keng tushuncha bo‘lib, yuqorida sanab o‘tganimiz davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchta muhim omilni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-siyosiy faol fuqaro jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo‘lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas’uliyatini his qilib yashaydi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo‘shishga harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o‘tildi:

- huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odobaxloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi;

-aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi; -

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ushbu muammo va kamchiliklarni tahlil qilaylik. Eng oxirida keltirib o‘tganimiz “shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish”dan boshlasak. Davlatimiz rahbari o‘zlarining ko‘plab ma’ruza va chiqishlarida davlat va jamiyatni taraqqiy ettirish umumjamiyatning ishiga aylanishi kerakligini, buning uchun har bir fuqaro o‘zining bu borada qat’iy fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi, fuqaroning shaxsiy

manfaati hech qachon jamiyat manfaatidan ustun bo‘lmasligi lozimligini ta’kidlab o‘tdilar.

Farmonga ko‘ra quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilangan:

-aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **«Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!»** degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

-jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish;

-yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

-aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

-davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

-davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

-jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

-ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;

-yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

-jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

Bundan tashqari mazkur hujjatda **«Yuksak huquqiy madaniyat- mamlakat taraqqiyoti kafolati»** degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish **«shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat»** prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Yana Farmon asosida:

1.Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi qabul qilindi;

2.Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi;

Vazirlik va idoralar rahbarlari Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

a) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilangan.

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, shuningdek, aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha olib borayotgan faoliyati ustidan ta’sirchan parlament nazoratini yo‘lga qo‘yish tavsiya etish;

v) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda maktabgacha ta’lim muassasalarida «Bola huquqlari va majburiyatlari» mavzusidagi mashg‘ulotlarni malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ko‘rgazmali tarzda tizimli joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

g) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

-2019/2020 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmini joriy etsin, shuningdek, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

-2019 yil 1 martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish;

-yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ta’lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralarini ko‘rish.

d) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda ta’lim muassasalarida turli huquqbuzarliklar, qoidabuzarliklar, giyohvandlik va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishini va ularning amalga oshirilishini ta’minlash belgilangan.

**Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasini amalga oshirish natijasida quyidagilar kutilmoqda:**

fuqaro, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta’minlash;

bola va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta’lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo‘lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta’minlash.

**Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari**

- Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

- Bolalar uchun maxsus huquqiy portal yaratish. Unda:

Konstitutsiyani o‘rgatishga doir ilk tushunchalar;

kundalik hayotda qo‘llashga mo‘ljallangan boshlang‘ich huquqiy bilimlar;

huquqni targ‘ib qiluvchi turli xil o‘yinlar, mashg‘ulotlar va dasturlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar va boshqa zarur ma’lumotlarni berish.

- Oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang‘ich qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish.

- Oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan, har bir elementar huquqiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo‘llanma tayyorlash va bepul tarqatish.

- Bolalar uchun huquqiy mavzularda va odob-axloqning oddiy va kundalik qoidalarini bilishni, vatanparvarlik, qonunlarni hurmat qilish, o‘zbek xalqining tarixi va milliy qadriyatlarini o‘rgatishni targ‘ib qiluvchi turli multiplikatsion filmlarni yaratish.

- Bolalar uchun huquqiy axborotni yetkazishga hamda kundalik turmushda qo‘llaniladigan normalar va odob-axloq qoidalarini o‘rgatishga qaratilgan audioertaklar, kinofilmlar va kinojurnallar ishlab chiqish.

- Oilaviy notinchlik hamda bolalar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, bolalar orasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to‘g‘risida teleko‘rsatuvlar, tok-shoular tayyorlash.

- Kundalik turmushda ko‘p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini uyma-uy yurib targ‘ib qilish, shuningdek, huquqiy ma’lumotlarni yetkazishga qaratilgan flaer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish.

- Yoshlar va ota-onalar o‘rtasida nikoh yoshi, aliment to‘lash shartlari, qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to‘g‘risida muntazam ravishda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.

**Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish**

- Mahallalarda eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan va murojaatlarda ko‘tarilayotgan muammoli masalalarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko‘ra manzilli va predmetli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish, aholiga qonun hujjatlari mazmun va mohiyatini yetkazish bo‘yicha choralar ko‘rish.

- Mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta’lim olish va boshqalar bo‘yicha huquqiy axborotni buklet, flaer, liflet va plakatlar shaklida aholiga yetkazish.

- Mahallalarda «Huquqiy axborot kuni» loyihasini tashkil etish, bunda aniq bir kunda rejalashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta’minlab borish.

- Jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og‘ir bo‘lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg‘otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o‘tkazish ko‘lamini kengaytirish.

- «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari bilan hamkorlikda mahallalarda aholi orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tadbirlar ko‘lami va sifatini oshirish.

- Profilaktika inspektorlarining yordamchilari va «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari a’zolarining yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida tegishli tadbirlarni amalga oshirish.

**Ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish**

1. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish» va «Inson huquqlarini o‘rganish» maxsus o‘quv kurslarini barcha ta’lim turlari bo‘yicha tizimli o‘rgatish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va o‘rgatilishini tashkil qilish.

Maxsus o‘quv kurslari yakuni bo‘yicha o‘quvchi va talabalar orasida sinovlar tashkil qilish.

2. Bolalar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanmalarni tayyorlash va chop etish..

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga bolalar huquq va majburiyatlariga doir mashg‘ulotlarni joriy etish. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining huquq asoslari va bola huquqlari bo‘yicha bepul malakasini oshirish hamda mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun turli innovatsion loyihalarni yaratish choralarini ko‘rish.

.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o‘rgatish bo‘yicha namunaviy qo‘llanma yaratish.

5. Yangi avlod huquqiy darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari tizimini yaratish. Bunda umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun huquqiy

bilimlarni sodda va ko‘rgazmali o‘rgatishga qaratilgan o‘quv qo‘llanmalarini, shuningdek, ta’lim muassasalari uchun huquq fanlari bo‘yicha o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarini tayyorlash choralarini ko‘rish.

6. Yoshlarga o‘z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan «Street law» (Ko‘cha huquqi — oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish bo‘yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish:

huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o‘quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko‘ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;

«Street law» loyihasi amalga oshirilishini metodik ta’minlash choralarini ishlab chiqish;

ko‘ngillilar guruhlari uchun interaktiv mashg‘ulotlar olib borish metodikasi bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

ko‘ngillilar tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hamda umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun mashg‘ulotlar o‘tkazish.

7. Ta’lim muassasalari o‘quvchilari va talabalari orasida huquq fanidan respublika miqyosida quyidagi tanlovlarni tashkil qilish va o‘tkazish:

umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida «Huquq — bu to‘g‘rilikdir» mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil qilish;

umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida «Mening huquq va majburiyatlarim» respublika ko‘rik-tanlovini tashkil etish hamda tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida «Siz qonunni bilasizmi?» ko‘rik-tanlovini tashkil qilish hamda tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish;

oliy ta’lim muassasalarida «Huquq bilimdonlari» ko‘rik tanlovini tashkil qilish va tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish.

8. Yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o‘tkazish.

9. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish.

10. Bolalar va yoshlarga ularning huquqlari va odob-axloq normalari haqida ma’lumot beruvchi ko‘rgazmali targ‘ibot bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish:

flaerlar, bukletlar, komikslar, taqdimot slaydlari, videoroliklar ishlab chiqish va har bir ta’lim muassasasiga yetkazish (har chorakda);

ko‘rgazmali huquqiy targ‘ibot materiallarini bolalar va yoshlar e’tiboriga yetkazish.

11. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida yoshlarni o‘z huquqiy savodxonligini yuksak darajada shakllantirish va oshirishdek ezgu maqsadlar atrofida birlashtiruvchi «Huquq bilimdonlari» yoshlar huquqiy klublarini tashkil etish, keyinchalik ularning ijtimoiy tarmoqlarda ham faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash.

12. Umumta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida huquq fanidan olimpiadalar o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash.

13. Tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlarga kuchaytirilgan huquqiy ta’lim berish va tarbiyalashga oid maxsus dasturlarni qo‘llash.

14. Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan intilishni shakllantirishga, ijtimoiy jihatdan xavfli kasalliklarga, giyohvandlikka, chekishga va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashishga doir profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli uyushtirishga, ommaviy yoshlar sportini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish.

15. Bolalar va yoshlarda davlat ramzlarini e’zozlash, uning qadr-qimmatini anglash, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini targ‘ib qilishga doir aniq rejalar asosida «ochiq darslar» va o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishini ta’minlash.

16. Diniy ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishga qaratilgan maxsus videoroliklar tayyorlash.

17. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan yo‘l harakati qoidalarini buzish, noqonuniy avtopoygalar o‘tkazish va boshqa noxush hodisalarning oldini olish maqsadida «Eng tartibli yosh haydovchi» loyihasini tashkil etish.

**4. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish**

1. Davlat organlari va tashkilotlarda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish.

2. Davlat organlari va tashkilotlarda jamoatchilik asosida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi huquqiy targ‘ibot guruhlarini tashkil qilish va ular tomonidan sohaga doir qonun hujjatlari normalarining xodimlar o‘rtasida tizimli ravishda targ‘ibot qilinishini ta’minlash.

3. Davlat organlari va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy savodxonligi minimal darajasi bo‘yicha talablarni ishlab chiqish hamda ularni ishga qabul qilishda mazkur talablarga muvofiqligi yuzasidan o‘qitish va baholashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish.

4. Davlat organlari va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan bepul huquqiy maslahat kurslarini tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish.

5. Har bir davlat organlari va muassasalarida «Huquqiy madaniyat oyligi», «Odob-axloq oyligi» hamda «Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi» tadbirlarini tashkil qilish.

6. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlari faoliyatida mas’uliyatsizlikning va idoraviy huquqiy nigilizmning namoyon bo‘lishiga imkon yaratadigan omillarni huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish orqali bartaraf etish.

7. Kadrlarga oid qarorlarning, bo‘sh lavozimlarga kadrlarni tayinlash uchun tanlovlarni rejali asosda o‘tkazishning shaffofligini ta’minlash.

8. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy

savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan yutuqlari uchun topshiriladigan «Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi» ko‘krak nishonini ta’sis etish.

9. Davlat organlari va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib qonun hujjatlari mazmunini tushuntirishga qaratilgan «Huquqiy savodxonlik» ruknlarini tashkil etish.

**5. Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish:**

- Yoshidan kelib chiqib aholi huquqiy savodxonligining darajasi bo‘yicha minimal talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash, ular asosida fuqarolarning huquqiy bilim darajasini aniqlash va tahlil qilib borish.

- Advokatlik tuzilmalari va advokatlar tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko‘rsatish (pro bono) tizimini rivojlantirish.

- Qonun hujjatlarini aholiga tezkor ravishda yetkazish, shuningdek, sohaga doir qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish tizimini takomillashtirish.

- Axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlarini yuridik adabiyotlar bilan boyitib borish.

- Davlat organlari huzuridagi axborot-tahlil multimedia markazlarining huquqiy targ‘ibot sohasidagi faoliyatini kuchaytirish. Bunda dolzarb va aholini qiziqtiradigan huquqiy masalalarni aniqlashtirish (uy-joy va yer olish masalalari, ta’lim muassasalariga joylashtirish, aliment, moddiy yordam, migratsiya, kommunal xizmat masalalari) hamda tahlillar asosida va qonunchilikdagi sohaga oid yangiliklar bo‘yicha zarur axborot-tahliliy va ko‘rgazmali media materiallarni tayyorlash va efirga uzatish.

-Aholining kundalik ehtiyojidan kelib chiqib, ularni qiziqtirgan huquqiy mavzular bo‘yicha «So‘rov bo‘yicha huquqiy targ‘ibot» loyihasini amalga oshirish.

- Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda munosib hissa qo‘shgan huquq targ‘ibotchilarining bu boradagi fidoyiligini rag‘batlantirib borish maqsadida «Eng yaxshi huquq targ‘ibotchisi» va «Huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishda eng yaxshi innovatsion loyiha» tanlovlarini o‘tkazib borish.

- Xalqimizda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan videoroliklar tayyorlash.

- Xalqimizning huquqiy yodgorliklari va huquq yo‘nalishidagi olimlari va arboblari faoliyatini chuqur o‘rganish va ularni keng ommaga targ‘ib qilish.

- Aholiga ularning huquq va majburiyatlarini hamda davlat organlari va tashkilotlarning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini tushuntirishga, shuningdek, aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy videoroliklarni tayyorlash hamda televidenie va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish.

-Advokatlik yoki huquqshunos faoliyatiga bag‘ishlangan badiiy film va seriallar tayyorlash.

- Aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan qisqa metrajli filmlar hamda teatr spektakllarini yaratish va tizimli ravishda televidenie orqali berib borish.

- Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida kamida 5 ta ijtimoiy videorolik tayyorlash, shuningdek, korrupsiya, halollik, to‘g‘rilik, qonunga hurmat, adolat tantanasi mavzularida targ‘ibot materiallari, didaktik materiallar, multiplikatsion filmlar tayyorlash.

- Aholida korrupsiyaga murosasizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida ijtimoiy sheriklik asosida korrupsiyaga qarshi targ‘ibot materiallari (jurnalistik materiallar, blogpostlar, karikaturalar, buklet, flaer, bannerlar, yumoristik asarlar) megatanlovini o‘tkazish.

- Mehnat migrantlariga turli ijtimoiy-huquqiy masalalar, xususan, migratsiya, ishga joylashish, ta’lim olish, boshqa davlatlarning qonun hujjatlari bo‘yicha huquqiy axborotlar olishda tizimli yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oluvchi maxsus axborot saytini ishlab chiqish.

- Tashqi mehnat migrantlarini milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarining mazmuni to‘g‘risida mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari va vakolatxonalari ko‘magida ijtimoiy reklamalar, Internet veb-sahifalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalardan foydalangan holda xabardor qilib borishning aniq mexanizmini ishlab chiqish.

- Nogironligi bo‘lgan shaxslar (ko‘zi ojiz va kar-soqovlar uchun) va keksa yoshdagi shaxslar uchun foydalanishga qulay bo‘lgan, ularning ijtimoiy himoyasiga oid huquqlariga doir to‘plamlarni tayyorlash va xayriya aksiyalarini o‘tkazgan holda tarqatish.)

- Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning kelgusida ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun ko‘mak berish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida masofadan turib ta’lim olish tizimini yo‘lga qo‘yish.

- Jazoni ijro etish muassasalarida huquqiy bilimlarni o‘rgatish, huquqiy ma’rifat va sudlanganlarni huquqiy tarbiyalash maqsadida «Huquq va men», «Jinoyat olamidan qaytish» nomli ma’rifiy-huquqiy mashg‘ulotlarni muntazam o‘tkazish tizimini joriy etish.

- Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida:

aniq chora-tadbirlar asosida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining, Temurbeklar maktablari o‘quvchilarining huquqiy bilimlarini tizimli ravishda oshirib borish, dunyoqarashi va fikrlash doiralarini kengaytirish;

harbiy qismlarda har oyning juma kuni «Huquqiy savodxonlik soati»ni tashkil qilish, unda mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini harbiy xizmatchilarga yetkazish.

### 7.2. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, ushbu jarayonda ishtirok etish fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori bo‘lishini taqozo etmoqda. Jamiyatimizning har bir a’zosi o‘z

huquq va burchlarini hamda mas’uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog‘i lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o‘zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Ayon bo‘lmoqdaki, odamlarimizning huquqiy madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga to‘la javob beradi, deb bo‘lmaydi. Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 9-yanvarda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmon mazkur yo‘nalishda oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab bergan muhim hujjat bo‘ldi. Farmonda mazkur yo‘nalishdagi mavjud kamchiliklar birma-bir ko‘rsatib berilgani uning ahamiyatli jihati sanaladi. Hujjatda qayd etilganidek, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks yondashilayapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari yetarli emasligi  qonun ustuvorligini ta’minlashga salbiy ta’sir etmoqda. So‘nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba’zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog‘ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayapti. Bu masala uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Ochig‘ini aytganda, targ‘ibot tadbirlarida ko‘pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ‘ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyotiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ya’ni qonunlarning ijrosi bir xilda ta’minlanmayapti, islohotlar bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar ham o‘zining yetarli samarasini bermayapti. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti.

Shulardan kelib chiqib, farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilab berildi.
Ta’kidlash lozimki, huquqiy madaniyat kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etishi, hayotga tatbiq eta olish ko‘nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorligini anglatadi. Jamiyat a’zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlaydi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to‘liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, farmonda fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan ekanligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, bu borada ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish nazarda tutilmoqda. Bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish bo‘yicha o‘ziga xos tizim yaratiladi. Haqiqatdan ham, yosh avlod ongida nima yaxshi, nima yomon, nima mumkinu nima mumkin emasligini, huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini odob-axloq normalari asosida tushuntirib borish hamda Bosh qomusimizdagi eng muhim tamoyillarni sodda tilda bolaligidan o‘rgatib borish kelajakda o‘z samarasini beradi. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta’minlashda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Shu bois milliy media makonda huquqiy mavzulardagi ruknlarga e’tiborni yanada kuchaytirish, aholi o‘rtasida ko‘proq ko‘tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televidenie va radio eshittirishlarida tushuntirib borish zarur.
Farmon bilan ushbu yo‘nalishda ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirishga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddaodir.
E’tibor qaratadigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlarda milliy qonunchilikni

mustahkamlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish tamoyillari asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Bunga misol sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlarida xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida “Amerika orzusi” g‘oyasi asosiy o‘rinda tursa, “Olg‘a, Singapur!” shiori Singapur mo‘jizasi islohotlari orqali hayotga tatbiq etilgan. Fransiyada barcha narsa inson va uning manfaatlari uchun, erkinlik, tenglik va birodarlik g‘oyalari asosida davlat insonlarga cheksiz huquq va erkinliklarni yaratib bergan va ularni mamlakat manfaatlari yo‘lida birlashtirgan.

Xitoyda esa ma’naviy tarbiya tizimi ona vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish g‘oyasi asosida tashkil etilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Eron, Germaniya, Turkiya davlatlarida ilgari surilgan o‘ziga xos g‘oyaviy yo‘nalishlar ularning taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. “Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me’yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o‘z ahamiyatiga ko‘ra huquqiy ta’lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi. Jumladan, biz jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilash, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Zero, faqat erkin, o‘z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o‘z huquqlaridan to‘laligicha foydalana oladi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali- www.regulation.gov.uz, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish

bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ga binoan aholiga bepul maslahat berish portalini o‘z ichiga olgan huquqiy axborot tizimi Advice.uz tashkil etildi. “Mening fikrim”-Jamoaviy murojaatlar portali (www.meningfikrim.uz) aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida keng ommalashdi.

Xulosa qilib aytganda, farmonda belgilab berilgan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo‘nalish va vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish bizdan mas’uliyat va fidoyilikni talab etadi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir”.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni qacjon qabul qilingan?**

A. 2019 yil 9 yanvarda
B. 2017 yil 7-fevralda
S. 2017 yil 1-iyunda
D. 2020 yil 6-iyunda

**2. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish qanday prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi nazarda tutilgan?**

A. «shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat»
B. “shaxs-davlat-jamiyat”
S.”davlat-ta’lim muassasi-mahalla”
D. “jamiyat- oila-davlat-tashkilot-mahalla”

**3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi qachon qabul qilindi?**

A.2019 yil 9-yanvarda
B. 2013 yil 22-aprelda
S. 2018 yil 25 yanvarda
D. 1997 yil 29-avgustda

**4. Qaysi organ jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilangan?**

A. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
B. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
S. O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi
D. O‘zbekiston Respublikasi Sud hokimiyati

**5. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari nechta?**

**A. 9 ta B. 3 ta S. 5 ta D. 6 ta**

## NAZORAT SAVOLLARI

1.Huquqiy ong deganda nimani tushunasiz?

2.Huquqiy madaniyatni shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

3.“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oyaning mazmunini tushuntiring.

4.Harakatlar strategiyasining nechanchi ustuvor yo’nalishida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish haqida vazifalar belgilangan?

5. “O’zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?

## 8- mavzu. Mualliflik tarbiya texnologiyalari. O’zbek milliy tarbiya texnologiyalari.

**Reja:**

**1.Mualliflik texnologiyalari. M.P.Shetinin maktabi. V.A.Karakovskiy tarbiya tizimi. So’fiylikda inson tarbiya texnologiyalari. Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya. Tarbiyada zamonaviy transformatsiya.**

**2.O‘zbek milliy tarbiya texnologiyalari. O‘zbek tarbiyashunosligida vorisiylik va qadriyatlar ustivorligi. Ajdodlar o‘gitlari va an’analar. Zamonaviy o‘zbek tarbiyashunosligida o‘tmish va zamonaviylik transformatsiyasi.**

***Tayanch atamalar:*** *milliy tarbiya, o‘zbek milliy tarbiya texnologiyalari, mualliflik texnologiyalari, so’fiylik, tarbiyani insonparvarlashtirish, tarbiyada zamonaviy transformatsiya.*

### 8.1.Mualliflik texnologiyalari. M.P.Shetinin maktabi. V.A.Karakovskiy tarbiya tizimi. Sufiylikda inson tarbiya texnologiyalari. Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya. Tarbiyada zamonaviy transformatsiya.

Tarbiya texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o’qituvchilar faoliyatini faollasqtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo’ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

-pedagogik jarayonda shaxsni ko’zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);

-o’quv materialini sxemalar va modellar asosida o’qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);

-o’quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o’qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);

-o’qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi);

-o’qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bespalko).

-hamkorlik pedagogikasi

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko’pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Shatskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo’nalish bo’yicha amalga oshiriladi:

-shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;

-dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;

-tarbiya kontseptsiyasi;

-atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash;

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi.

Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o’zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o’qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug’dirmoq;

bolaning qalbi va yuragini ulug’lamoq;

boladagi bilishga bo’lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit yaratmoq;

ideal tarbiya – bu o’z-o’zini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonasqvili o’zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

insonparvarlik;

shaxsiy yondasquv;

muloqot mahorati;

oila pedagogikasining qo’shimcha imkoniyati;

o’quv faoliyati.

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash aloqida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o’ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko’ra sifatli baholashga urg’u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o’z-o’zini baholash.

O’qitishni jadallashtirish texnologiyasi

Bu texnologiyani Viktor Fedorovicq Shatalov isqlab cqiqdi va qayotga joriy qildi. U o’qitisqning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko’rsatib berdi.

V.F. Shatalovning maqsad-mo’ljali:

bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish;

har qanday individual xususiyatlarga ega bo’lgan barcha bolalarni o’qitish;

o’qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar:

ko’p marta takrorlash, majburiy bosqicqma-bosqicq nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o’rganish, faoliyatning dinamik qolipi, hatti-harakatning tayanchi, mo’ljaldagi asosini qo’llash;

shaxsni ko’zda tutish asosida yondashuv;

insonparvarlik;

zo’rlab o’qitmaslik;

o’quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir o’quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo’lga solish), o’sish, yutuqlarga istiqbolni ochish

o’qitish va tarbiyani bog’lash.

Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o’qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

hamkorlik pedagogikasiga bo’lgan shaxsiy yondasquv;

o’zlashtirish (muvaffaqiyat) - o’qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;

sinfdagi fayz: xayrixohlik, o’zaro yordam;

xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;

o’quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;

vazifaning har bir o’quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo’lib berilishi;

asta-sekin to’liq mustaqillikka o’tish;

bilag’on o’quvcqi vositasida bilmaydigan o’quvchilarni o’qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o’rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir.

Istiqbolli tayyorgarlik o’rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni yo’l-yo’lakay o’tishning boshlanishidir.

Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir.

S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o’zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. Kelgusida o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;

2. Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni umumlashtirish va qo’llash;

3. Fikrlash usullari va o’quv hatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.

O’qitishni tabaqalashtirish

G.K.Selevko tadqiqotlarida o’qitishni tabaqalashtirish o’quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o’zida bilim darajasi bir xil bo’lgan, u yoki bu jihatdan o’quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo’lgan o’quvchilar guruhi bilan o’qituvchi ishlaydi. O’qitishni tabaqalashtirish o’quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

**Mualliflik texnologiyasi** pedagogik strategiya sifatida ta`lim jarayonini ta`li m

oluvchi faoliyatiga yo‘naltirish vositalariga ega bo‘lgan texnologiyadir. Bunday texnologiyalarga

quyidagilarni keltirish mumkin: Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga boshlangan ta`lim texnologiyalari. (Sh.A.Amonashivili texnologiyasi)

## Karakovskiy. Talabalar jamoasida o'zini o'zi boshqarish modeli

Karakovskiy Vladimir Abramovich pedagogika fanlari doktori, professor, Rossiya akademiyasining muxbir a’zosi. Umrining 60 yilini bolalarni sovet va rus maktablarida tarbiyalash va o'qitishga bag'ishlagan xalq o'qituvchisi. Hamkorlik pedagogikasi mualliflaridan biri. 1988-1991 yillarda Xalq ta'limi bo'yicha Butunrossiya kengashi raisi. 1977 yildan 2011 yilgacha u Moskvadagi 825-sonli maktab direktori bo'lgan. 2003-yilda ta’lim rivojiga qo‘shgan ulkan shaxsiy hissasi va ko‘p yillik vijdonan mehnati uchun IV darajali “Vatan oldidagi xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Moskva shahri va uning aholisi manfaatiga ko'p yillik samarali faoliyati uchun XXX yil "Moskvaning 850 yilligi xotirasi" medali (1997) va "Moskva shahri oldidagi benuqson xizmatlari uchun" faxriy nishoni bilan taqdirlangan (2011). Talabalarni o'qitish va tarbiyalashdagi alohida xizmatlari, samarali pedagogik faoliyati uchun 1971 yilda V.A.Karakovskiy RSFSR maktabida xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, 1991 yilda “Xalq SSSR o'qituvchisi ". 1986 yilda katta xizmatlari- ta'limdagi faoliyati, tashabbuskorlik, havaskor ijrochilik, kashshoflar va komsomolchilar ijodini rivojlantirishda muhim yutuqlari uchun Lenin komsomol mukofoti laureati bo'ldi. Vladimir Abramovich “Kelajak maktabi eng chuqur tarbiya maktabi bo‘lishi kerak”ligiga ishonch hosil qilgan. U o‘z asarlaridan birida shunday yozgan edi: “Biz notinch avangardsiz, ta’sirsiz kelajak maktabi haqida o‘ylaymiz... Bu yo‘ldagi e’tiqodimiz quyidagicha:

Xotirasiz tarix bo'lmaydi
Tarixsiz madaniyat bo'lmaydi,
Madaniyatsiz ma'naviyat bo'lmaydi,
Ma'naviyatsiz tarbiya bo'lmaydi,
Ta’limsiz inson bo‘lmaydi,
Inson bo'lmasa, odamlar ham bo'lmaydi! ”

U jamoaviy ijodiy hayotning pedagogikasini tan oldi. Uning fikricha, maktabning ta'lim tizimi bolalar va kattalar uchun orzu qilingan turmush tarzi haqidagi umumiy pedagogik maqsad va g'oyalarni ishlab chiqish bilan boshlanadi. Qadriyatlar tarbiya tizimining markazida. Karakovskiy tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar ro'yxatiga inson, oila, Vatan, bilim, tinchlik, mehnat, madaniyat, yer kabi tushunchalar kiradi. Tarbiyaning mohiyati ana shu qadriyatlarga mos ravishda jamoaviy munosabatlarni qurishdan iborat. Tarbiya tuzilishi qisqa muddatli shiddatli yorqin voqealar ("katta dozalarda tarbiya") va davrlarni birlashtirishi kerak. Muvaffaqiyatli tarbiya o'z-o'zini bilish tajribasini yaratishni o'z ichiga oladi.

V.A.Karakovskiy hamisha insonga yaqin va uzoq dunyoda yaxshi xulqli, aqlli mavqega ega bo‘lish imkoniyatini beruvchi uyushgan ijtimoiy harakat sifatida tarbiyaning g‘ayratli himoyachisi bo‘lib kelgan.

Ota-ona nazariyalari maxsus nazariyalardir. Ulardan g'oyalarning mualliflarini olib tashlang va nazariy pozitsiyalar shubhali bo'ladi. Ilmiy pedagogik g'oyalar, agar ularni tashuvchilarning shaxsiyatlari ishonchli bo'lsa, ishonchli bo'ladi. Bu ham V.A.Karakovskiy pedagogikasi haqida. Lekin baribir Karakovskiy pedagogikasining asosiy g'oyalari nimadan iborat, uning fikrlari yig'indisi qanday? Bu savolga javob faqat maxsus tadqiqot orqali berilishi mumkin. Biz faqat ushbu pedagogikaning ba'zi mavzulari va asoslarini aniqlashga da'vo qila olamiz.

1. Maktabning ta'lim tizimi pedagogik voqelik sifatida uning mualliflarining pozitsiyalaridan, bolalar va kattalarning orzu qilingan turmush tarzi haqidagi umumiy pedagogik maqsadlar va g'oyalarni ishlab chiqishdan boshlanadi.

2. Ta'lim tizimining asoslari (kengroq ma'noda ta'lim) - bu qadriyatlar.

3. Tarbiyaning mohiyati munosabatlarni ana shu qadriyatlarga muvofiq qurishdan iborat.

4. Tarbiya tuzilmasi nisbatan qisqa vaqtli intensiv yorqin hodisalar ("katta dozalarda tarbiya") va kundalik hayot va ish davrlarini birlashtirishi kerak.

5. Maktab voqealarini, an'analarni hukmron maktab qadriyatlariga "ko'z" bilan ifodalash kerak.

6. Maktab darajasidagi ta'lim mezonlari (fakt mezonlari, munosabatlari, bitiruvchilari) va boshlang'ich jamoa darajasidagi ta'lim natijalarini farqlash kerak: aniq maktab o'quvchilarining shaxsiyatining dinamikasi qanday?

7. Muvaffaqiyatli tarbiya maktab muhitini psixologik va pedagogiklashtirmasdan amalga oshmaydi (o'z-o'zini bilish tajribasini yaratadi; o'z munosabatlarini tushunish tajribasi, kollektivlik qonunlari, o'z rivojlanishida boshqa odamlarga yordam berish tajribasi).

Maktab va o'qituvchilar maktab o'quvchilari oladigan tajribalardan biri sifatida "boshqacha", jozibali hayot tajribasini yaratish huquqiga ega.

**So’fiylik ta’limoti**

Mazkur oqim VII-VIII asrda arab mamlakatlarida paydo bo’lib, so’ngra boshqa musulmon mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda ham keng yoyildi. Lekin olimlar bu oqimning ba’zi ko’rinishlari islomgacha ham mavjud bo’lganligini ta’kidlaydilar. So’fiylik butun Sharq ma’naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g’oyalarning shakllanishida muhim rol o’ynaydi. So’fiylik musulmon sharqi xalqlarining ko’p asrlik ma’naviy hayotining g’oyaviy asosini belgilab bergan ta’limot bo’lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go’zallikni idrok etish yo’li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo’lib xizmat qildi. So’fiylik ko’p qirrali oqim bo’lib, “sof”, “yagona” so’fiylik hech qachon bo’lmagan. U turli

ko’rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo’lgan. Ammo har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondoshib, uni o’ziga xos yo’l, qarash asosida talqin etgan. So’fiylik ta’limoti g’oyalariga e’tiqod va amal qiluvchi kishilar so’fiylar deb nomlanadi.

So’fiylik ta’limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. So’fiylar ilohiy poklik, nafosat, e’tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g’oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi – bu ularning ideali, orzusi bo’lgan. Shunday bo’lsada, ular komil, yetuk va ma’rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta’maga qarshi kurashganlar. Komillikning mezoni ikki narsa: birinchisi, axloq, ya’ni, mo’min-musulmon, solih inson bo’lish, ikkinchisi, o’z-o’zini tanishdan iboratdir.

So’fiylik ta’limoti butun Sharq ma’naviy hayotida komil inson va uni shakllantirish borasidagi g’oyalarning shakllanishida muhim rol o’ynadi.

So’fiylik ta’limoti va uning mohiyati xususida qator tadqiqotlar olib borilgan bo’lib, mazkur manbalar so’z yuritilayotgan ta’limotni o’rganishda boy manba bo’lib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asari so’fiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir.

So’fiylik nazariyasiga ko’ra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujassamlanishi. Xudo barcha ko’rinadigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq-dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertami-kechmi u bilan qo’shiladi.

Amaliy qism axloqiy me’yor va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimidan iborat bo’lib, bu me’yor va qoidalar xudbinlik va shaxsiy manfaatlardan o’zini tiyishni talab etadi.

So’fiylik asosan uch oqimga mansub:

Birinchi oqim Mansur Xalloj, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar mansub bo’lgan oqim. Ularning ta’lim berishicha, xudo har jihatdan komildir, eng oliy go’zallik, shodlik, baxt uning vaslidadir, foniy bo’lishidadir. Inson o’zini haqiqatga,-xudoga nisbatan hech deb bilishi kerak. Inson yashayotgan hayot haqiqiy baxt-saodat bera olmasligi, asl, haqiqiy osudalik, baxt, saodat faqat xudoda, uning vaslida ekanligi, u bilan vahdat tashkil etish, ya’ni, uning vasliga yetish kerakligi xususidagi qarashni ilgari suradilar. Lekin ular taqvoni riyodan ajratib, oliy haqiqatga intilishni jannat va do’zax haqidagi intilishlardan farq etib borishlari bilan ajralib turadilar. Insonning ichki kechinmalari holatiga ahamiyat berib, chin ixlos va sidqni birinchi o’ringa qo’yadilar. So’fiylar qalbni har qanday xudbinlik, riyo, ta’magirlik, hasham va mol-dunyoga o’chlikdan tozalab borish bilan oliy haqiqat ko’zgusiga aylantirishni, ya’ni, poklikni asosiy maqsad qilib qo’yadilar.

So’fiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo’lida quyidagi to’rt bosqichni o’tishi kerak deb hisoblaydilar.

**Birinchi bosqich – Shariat.** Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat-qonun bo’lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

**Ikkinchi bosqich –Tariqat.** Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma’naviy muhabbatni

takomillashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.
**Uchinchi bosqich** – Ma'rifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi - xudo ekanini, o'zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg'un ekanligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibru havo, manmanlik hamda shon-shuhrat be'mani bo'lib ko'rinadi. Shunda u orif, ya'ni, bilimli va xudoni tanigan inson bo'ladi.
**To'rtinchi bosqich** - Haqiqat. Mazkur bosqichda so'fiy xudoning dargohiga yetishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, vahdat (tavahhud) tashkil etadi va shu asosida inson foniy, ya'ni "anal-haq" bo'la oladi.

Mazkur oqim tarafdorlaridan birinchi so'fiy eronlik Abu Yazdit Tayfur al-Bistamiydir (875 yilda vafot etgan). So'fiy Husayn ibn Mansur Halloj esa o'zining xudo bilan "qo'shilganini" isbotlash uchun "Anal-haq" ("Men haqman", "Men xudoman") deb da'vo qiladi hamda o'z ta'limotini ilgari suradi. U Qur'onning muqaddasligi va Muhammad Alayhis-salomning payg'ambar ekanligini inkor etishga uringanlikda ayblanib, xurofotchilar tomonidan qatl etildi. Zero, ushbu ta'limot saroy ahli va jaholat bilan yaqinlashgan ba'zi kalom va falsafa ilmi ulamolariga yoqmadi, oqibatda qalbni oliy haqiqatga erishish yo'lida poklash maqsadini ilgari surgan ezgu ta'limot bid'at deya baholandi.

So'fiylikning ikkinchi oqimiga mansub bo'lgan so'fiylar birinchi oqim namoyandalari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni qabul qilganlar, biroq mazkur qarashlarni islom ta'limotida targ'ib etilgan tartib-qoidalarga moslashtirganlar. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Zayniddin binni Muhammad Imom G'azzoliy (1058-1111 yillar) hamda Ahmad Yassaviylar sanaladilar.

Imom G'azzoliy so'fiylik ta'limotining asoschilaridan biri bo'lib, "Hujjat-ul-islom" laqabini olgan. Alloma to'g'risida so'z yuritilganda hatto "qur'on yo'qolib qolsa, uni G'azzoliyning asarlari bo'yicha tiklash mumkin" degan fikrlarni bildirganlar. Imom G'azzoliy tomonidan yaratilgan "Tahofut al-falosifa" ("Faylasuflarni rad etish"), "Kimyoi saodat" ("Saodat kimyosi"), "Ixya ulum ad-din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish") kabi islom ilohiyoti tizimining shakllanishiga zamin hozirlagan asarlar alloma faoliyatiga nisbatan shunday yuksak baho berilishiga sabab bo'lgan.

Imom G'azzoliy inson kamolga yetishi, ya'ni, xudo "vasli"ga yetishi uchun ma'lum shartlarni bajarib, muayyan yo'lni bosib o'tishi kerak, deydi. Har bir so'fiy islom talablari – qonun-qoidalari, aqidalari hamda qur'onni haqiqat deb bilib, unga tobe bo'lishi va ularga so'zsiz amal qilishi yuqorida qayd etilgan yo'lning bosib o'tish shartlaridir deya uqtiradi.

Alloma so'fiylik nazariyasining mohiyati xususida so'z yuritib, ular haqiqatni mantiqiy mulohazalar asosida emas, balki ichki kechinmalar vositasida bevosita hissiy tarzda anglaydi, deb ko'rsatadi. So'fiylarning ichki holatini nazariy bilimlarni egallash, suhbatlar tashkil etish, manbalarni o'qish orqali emas, balki ularning turmush tarzini qabul qilish orqaligina anglash mumkin. Mazkur yo'l ko'ngilni his bilan yaratilgan ma'lumotlardan ozod etadi va ana shunda ma'rifat manbai paydo bo'ladi, dunyo ravshan bo'ladi. o'rganish yo'li bilan emas, balki o'zdan chekinish,

ma’naviy vujudning qaytadan yaralishi tufayligina oxirgi chegaraga erishish mumkinligi alloma qarashlarining asoslari sifatida namoyon bo’ladi.

Ahmad Yassaviy 1041 yilda Saryom (Sayram) qishlog’ida Shayx Ibrohim xonadonida tug’iladi. Yetti yoshida otasidan, so’ng onasidan yetim qoladi. U Arslonbob nomli inson qo’lida hamda aksariyat tolibi ilmlar kabi Buxoroda tarbiya va tahsil oladi. U yerda mashhur Yusuf Hamadoniydan suluk odoblarini o’rganib, so’ng Turkistonga qaytadi va o’z tariqatiga asos soladi. U so’fiylik g’oyalari, shuningdek, o’z tariqati asoslarini targ’ib etishda she’rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalari va o’z asoslagan g’oyalarni she’riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to’g’ridan-to’g’ri “Qur’on” g’oyalari va payg’ambar Muhammad Alayhis-salom hadislari negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg’ambar Muhammad Alayhi-salom ta’limotida ulug’langan ma’naviy-axloqiy xislatlar - muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo’ylik targ’ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Allohga tobe bo’lishga undaydi. Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o’rin tutadi. Ularning barchasida so’fiylik tariqatining amollari - haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafsu dunyodan chekinishga da’vat etuvchi g’oyalar o’z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina insonda axloqida ko’zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo’llaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Zero, tasavvuf-nafs lazzatlaridan voz kechishdir. Nafs - ochko’zlik, o’g’rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma yeyish orqali inson Haq bilan “ko’risha” oladi, nafsga mute bo’lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi. Xususan:

Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg’on,
Har kim topsa, rozi bo’lib, bo’yi sung’on
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg’on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo’q.
Jondin kechmay hu-hu degan bari yolg’on,
Bu gumrohdin so’rmang savol, yo’lda qolgan,
Haqni topgan o’zi pinhon, so’zi pinhon
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.
Banda bo’lsang mehnat tortg’il g’ofil odam,
Oqil ersang g’animatdur senga shul dam
Omonatdir aziz joning yurma beg’am,
Eshitib o’qib yerga kirdi qul Xoja Ahmad.

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma’naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma’rifat bo’lmagan o’lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o’tadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Haqqa yetish yo’lini targ’ib qilar ekan, insonni jaholat botqog’idan xalos qilish lozimligiga urg’u beradi. U “Shariatda orif-biloh

bo’lishni, tariqatda voqif-asror bo’lishni, haqiqatda komil–mukammal bo’lishni, ma’rifatda daryoi ummon bo’lishni talab qiladi”.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglanadiki, Ahmad Yassaviy tomonidan ilgari surilgan g’oyalar insonni yomon illat, nafs balosidan voz kechishga undaydi. Yomon illatlar va nafs balosidan xalos bo’lish insonni ruhiy va jismoniy komillik sari yetaklaydi.

Aslini olganda, Mansur Xalloj ham, Imom G’azzoliy ham, Ahmad Yassaviy ham ruhiy kamolotga intilganlar. Zero, ular intilgan komillik - Haqqa yetishish,

-unga muhabbat qo’yish, shu ishq dardi bilan yashash, tavba-tazarru, sabru qanoat, shijoat, to’g’rilik, rostgo’ylik, samimiyat, nafsni tiyish, undan g’olib kelish, har bir inson qalbini chirkin illatlardan xalos etuvchi faqru fano kabi xislatlarning majmuidan iboratdir. Ular inson kamolotining ta’minlanishi uchun turli yo’llarning samarali ekanligini asoslashga harakat qilganlar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar Yassaviya ta’limoti g’oyalariga ko’ra zolim hukmdor, nopok din peshvolari, nodon va johil kishilarga nisbatan muxolifot mavjudligi ta’kidlanganligidan guvohlik beradilar.

So’fiylikning uchinchi oqimi Naqshbandiya ta’limotining yaratilishi bilan bog’liqdir. Mazkur oqim XIII asrning oxirlarida shakllana bordi. XIV-XV asrlarda esa Markaziy Osiyoda ustuvor mavqega ega bo’lgan ta’limotga aylandi.

Naqshbandiya ta’limoti o’zining hayotiy g’oyalari bilan boshqa tariqatlardan tubdan ajralib turadi. Naqshbandiya tariqatining “ildizi” uzoq davrlar, ya’ni, Sharq Uyg’onish davriga borib taqaladi. Markaziy Osiyoda ikki buyuk olim- Abulqosim Ali al-Xoroqoniy (1034 yilda 80 yoshida vafot etgan) hamda Abu Ali al-Farmadiy (1084 yilda vafot etgan)larning so’fiylik ta’limoti rivojida katta hissalari bor ekanligini ta’kidlaydi. Tasavvuf olamining mashhur faylasuflari Ahmad al-G’azzoliy va Yusuf Hamadoniylar (1049-1140 yillar) Abu Ali al-Farmadiyning shogirdlari sanaladilar.

Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy (Barkiy), Xoja Ahmad YAssaviy va Xoja Abdulholiq G’ijduvoniy tasavvuf ilmi bo’yicha YUsuf Hamadoniy qo’lida chuqur ta’lim olgan to’rt mashhur shayxlar sanaladilar.

**Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy**

Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy keyinchalik Xojagonlar (Naqshbandiya) tariqatiga asos soladi. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy 1103 yilda Buxoro viloyatining G’ijduvon tumanida tavallud topgan. Xoja boshlang’ich ta’limni G’ijduvonda olgach, Buxoroga kelib, Yusuf Hamadoniyga shogird tushadi. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy Yusuf Hamadoniy qo’lida ta’lim olib, “zikri dil” (“Xufya usuli bilan zikr aytish”)ga ijozat bo’lgach, ushbu sulukka o’tadi.

Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy ma’lum tahsilni olib, tariqat peshvosi darajasiga yetgach Xojagon (keyinchalik Naqshbandiya) tariqatining mohiyatini belgilovchi va mazkur ta’limotning asosiy aqidalari hisoblanagn talablarni yaratadi.

Bu aqidalarning to’rttasiga dastlab Yusuf Hamadoniy tomonidan tartib berilgan bo’lib, ular:

**1. Xush dar dam** - tiriklik nafasda. Ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlik va huzur yuzasidan bo’lishi, g’aflat unga yo’l qo’ymasligi kerak.

**2. Nazar bar qadam**, ya’ni nazar qadamda, Solih yo’l yurganda uning nazari doimo oyoq panjalarida bo’lsin, nazari sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin, degan ma’noni bildiradi. Bu insonni har bir ishga mas’uliyat bilan qarashga, behuda narsalar uchun hayotni, vaqtini sarf etmaslikka undaydi.

**3. Safar dar vatan** - solih odamiylikning tabiatida safar qilsin, ya’ni, yomonlikdan yaxshilik tomon yursin degan ma’noni bildiradi.

Yuqoridagi risolada keltirilishicha, Abdurahmon Jomiynnig bir bayti sharhida “yurakning ma’naviy oynasi olamning zabt etuvchi zahmatlaridan xalos bo’lsa, soflik va nuroniylik bilan bezansa, tabiiy xohishlar zulmat undan ko’tarilsa, yaratuvchi tajalliyoti va ilohiy sifatlarni qabul etish uchun safar va sulukka hojat qolmaydi. Chunki safar, sayr va sulukdan maqsad yurakka sayqal berish va uni tozalashdir”, -deb ta’kidlanar ekan, suluk safar qilish-qilmasligi ularning xojagonlar malakasini hosil qilishlariga bog’liq. Agar o’z yurtlarida bunday ta’limni amalga oshiruvchi azizni topsalar, tarki safar aylab, “chidam xislatini” hosil qilmog’i, “xojagonlarning nisbat malakasini qo’lga kiritish”i mumkin,-deyiladi.

**4. Xilvat dar anjuman** - solih tashqi tomondan xalq bilan, qalban Haq bilan birga degani.

Yuqorida keltirilgan to’rt aqidaga Abdulholiq G’ijduvoniy quyidagi to’rt aqida-(talab)ni qo’shadi:

**Yodkard** - bu til yoki dil zikri bo’lib, “Lo iloha illallohu Muhammadur Rasulloh”ni uch marta dilda aytish, ya’ni, Ollohning yagonaligi hamda Muhammad Alayhis-salomning uning yerdagi rasuli ekanligini qayd, zikr etish.

**Bozgasht -** turli fikrlardan xalos bo’lish, tashqi olamdan ajralishga intilish. Bunda kalimai tayyibani necha marta aytsa ham xayolni boshqa narsalarga bo’lmaslikdir. Bu- fikrni, diqqatni bir joyga to’plashga yordam beradi.

**Nigohdasht –** turli fikrlardan xalos bo’lish, xayolni boshqa narsalarga bo’lmaslik. Bunda xayol quvvatini Olloh yodi borasidagi yagona g’oyada saqlab qolish malakasi hosil bo’ladi.

**Yoddasht -** Alloh bilan doimo birga ekanligidan zavq olishdir. Yoddasht hosil bo’lganda Haq muhabbati ko’ngilni qamrab oladi, huzur baxsh etadi.

Xoja Bahouddin Naqshband, o’z navbatida, quyidagi uch talabni qo’shadi:

**Vuqufi zamoniy** - solik o’z yo’lida har vaqt, har bir nafasda Allohga shukronalik va uzr aytmoqlikdan voqif bo’lish kerak.

**Vuqufi-adadiy -** bu talab ilohiy ilm martabasining boshlanishi sanalib, “Lo iloha illolloh” kalimasini takrorlashdan maqsad uni ko’p aytish emas, balki haqiqatni anglash va zikr toq sonni tashkil etishiga e’tibor berish.

**Vuqufi-qalbiy** - aytilgan zikrdan qalbning to’liq ogoh bo’lishi.

Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyning ta’lim-tarbiyaga oid o’gitlari hozirgi davrda ham o’z qimatini yo’qotmagan. Ulardan ba’zilarini keltiramiz:

- Ey o’g’il, senga nasihat qilaman:

Jamoat xizmatida bo’lgin, hadis, fiqh ilmlarini o’rgan, johil so’fiylardan o’zingni saqla, hargiz shuhrattalab bo’lmaginkim, shuhrat ofatdur, mansabni ko’zlamagil. Noming tillarga kam olinsin, qabulgohingga nomingni yozma, xonaqoni maskan qilmagil, hukmdorlar va ularning kishilari birla do’stu hamsuhbat bo’lma, oz so’zla, kam yegil, ko’p uxlama, halol yegil va haromdan saqlan, hamma kishilarga shafqat ko’zi birla boq, tashqi ko’rinishingga oro bermakim, zohirga oro berish botin (dil, qalb)ning xarobligidandir, kishidan xayr so’ramagil, kishini xizmatga buyurma va hokazolar.

Bu o’gitlar Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyning tariqat suluklariga muvofiq keladi.

Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy 1220 yilda (ba’zi manbalarda 1174 yil ko’rsatiladi) vafot etgan.

**Bahouddin Naqshband**

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy – Bahouddin Naqshband hijriy 718 (milodiy 1318) yilda Buxoro shahriga yaqin Ko’shki Hinduvon (qasri Orifon) qishlog’ida tug’iladi. Naqshband uning laqabi bo’lib, ota kasbi- kimxobboflik bilan shug’ullanganligi uchun berilgan bo’lsa kerak.

Muhammadning bobosi so’fiylar bilan yaqindan munosabatda bo’lganligi uchun ham, unda tasavvuf ilmiga qiziqish bolalikdan paydo bo’ladi va shu yo’lda tarbiyat topadi.

Muhammad ibn Muhammad tariqat sulukiga oid ilk saboqlarni Shayx Xoja Muhammad Boboyi Samosiy va Sayyid Amir Kuloldan oladi. Ammo Hazrat Xoja Bahouddin Xoja Abdulholiq G’ijduvoniyni o’ziga ustoz bilib, uning yo’lini qabul qiladi.

Bahouddin Naqshband haqidagi “Maqolot”larda uning Sayyid Kulol bilan bir qatorda, Orif Dekkironiy, Kusam Shayx va Xalil otalardan ham tasavvuf ta’limoti bo’yicha saboq olganligi qayd qilingan.

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy ikki marta haj qiladi. Haj safaridan Buxoroga qaytgach, butun umrini shu yerda o’tkazadi. Amir Kulolning vasiyatiga ko’ra uning xalifasi bo’lib qoladi. Bahouddin Naqshband hijriy 791 (milodiy 1389) yilda vafot etib, qasri Orifon qishlog’ida dafn etiladi.

Uning muridlaridan eng mashhurlari Hoja Alouddin Attor va Hoja Muhammad Porsodir.

Bahouddin Naqshband va’z va pand-nasihatlarni o’z ichiga olgan “Hayotnoma” nomli she’riy to’plam va tasavvufga oid “Dalil al-oshiqin” nomli kitob yozgan. Biroq mazkur asarlar bugungi kunga qadar topilgan emas.

Bahouddin Naqshband Naqshbandiya tariqatining asoschisidir.

Bahouddin Naqshband ta’limoti uning hayotlik chog’idayoq Movarounnahrda faqat shahar hunarmandlari orasidagina emas, balki ko’chmanchi turkiy qabilalar orasida ham keng tarqalgan.

Naqshbandiya tariqati Islom dinidagi sunniylik yo'nalishi g'oyalariga asoslangan bo'lib, uning ma'naviy silsilasi bir tomondan, Abu Bakr Siddiq (632-634 yillar) hamda ikkinchi tomondan, Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladigan 12 tariqatning biri sanaladi. Bu silsila «Silsilat az-zahab» («Oltin silsila») deb nomlanadi. Tariqat ma'naviy jihatdan Abu Bakr, jismoniy jihatdan esa Ali ibn Abu Tolib orqali payg'ambar Muhammad Alayhis-salom faoliyati negizida shakllangan.

Naqshbandiya sulukining boshqa suluklardan farqi nimalardan iborat?

Avvalo, Naqshbandiya suluki halol mehnat qilish orqali kun kechirish g'oyasini targ'ib qiladi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan "Dil ba yoru, dast ba kor" (Dil yorda, qo'l ish (mehnat)da) shiori fikrimizning yorqin isbotidir. SHuning uchun ham Naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tunu kun toat-ibodat bilan shug'ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo'lida mehnat qilish talab etilar edi. Ushbu talab hadislar mazmunida olg'a surilgan g'oyalarga to'la mos tushadi. Bahouddin Naqshbandning o'zi ham oddiy, pok inson bo'lib, mehnat qilish evaziga kun kechirgan.

Naqshbandiya tariqatining boshqa suluklardan yana bir farqi shu ediki, boshqa suluklarning tarafdorlari pir oldiga yig'ilib, "Zikri aloniya"ni amalga oshiralar, ya'ni, ovoz chiqarib zikr tushsalar, Naqshbandiya tariqatining tarafdorlari "Zikri xufiya"ni amalga oshirganlar, ya'ni, ular tomonidan Ollohga qilinayotgan toat-ibodat ovoz chiqarmasdan bajarilar edi. "Zikri aloniya"ning mohiyatiga ko'ra Alloh ismi yoki "Lo iloha illolloh" kalimasi bor ovozda ohang yordamida aytilib, raqsu samo' asosida bajarilgan. Ahmad Yassaviy sulukida zikrning mazkur shakli "Zikri arra" deb yuritilar edi. Mazkur amalni ado etish chog'ida zikr qilayotganlarning ovozi yog'och kesayotgan vaqtda arradan chiqadigan ovoziga o'xshar edi. "Maqomati Naqshbandiy" asarida keltirilishicha, Jaloliddin Rumiy asos solgan Mavlaviya sulukidagilar ham ana shu odatga amal qilganlar.

"Zikri xufiya" amalini bajarish vaqtida esa muridlar bir joyga to'planishlari shart emas, har kim o'z uyida tinch, osuda, shovqin-suronsiz, raqsu samo'siz Allohning ismi va muqaddas so'zlarni dilda yod etib, kunduzlari o'z ishi bilan mashg'ul bo'laveradi. "Zikri xufiya" amalini Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshbandiy yuqorida qayd etib o'tilganidek, Abdulholiq G'ijduvoniydan o'zlashtirgan. Mutafakkirlar - Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ham shu suluk vakillari sanalganlar.

Uchinchi farq shundan iborat ediki, Naqshbandiya sulukining valiylar bemordan o'zlariga kasallikni tortib olib, so'ngra kasallikni o'z vujudlaridan chiqarib tashlash xislatiga ega bo'lganlar.

To'rtinchi farqi, Naqshbandiya sulukidagi avliyolar boshqa ba'zi avliyolardek, karomatfurushlikka yo'l qo'ymagan. Har bir muridning Allohga yetishishi hamda vahdat hosil qilishi uchun ma'naviy va ruhiy poklanish maqsadi yo'lida uning har qanday bid'atga qarshi kurashishi talab etilgan. Avliyolik kuch-quvvatini esa faqat ezgu ishlar: ilm-ma'rifatni rivojlantirish, shuningdek, xalqning ma'naviy jihatdan poklanishini ta'minlash yo'lida har qanday zulm va bid'atga qarshi kurashishga sarflagan. Ushbu suluk valiylari shu kabi ezgu amallari bilan xalq orasida bevosita

obro’ qozongan. Buni biz “Maqomati Hoja Naqshband” asarida bayon etilgan voqealar va Hazrati Xoja Bahovuddin Naqshbandiy tomonidan ifoda etilgan hikoyatlar mazmunidan ham anglash mumkin. Xususan, Bahouddin Naqshband musulmonlikning mohiyatini quyidagicha yoritgan edi: “Musulmonlik - bu iloji boricha hukmlarga bo’ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoq bo’lib, bularning hammasi nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga yetishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va maqomlariga mana shu sifat va parvarish orqali yetiladi”[8]. Ushbu fikrning mantiqiy davomi sifatida o’z tariqatining maqsadini Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshband yana shunday bayon etadi: “Bizning tariqamiz jahriya zikri-yu, raqs emas, bizning tariqamiz, anjumanda xilvat (xilvat dar anjuman), vatanda safar (safar dar vatandir. Xilvatda shuhrat bor, shuhrat esa ofatdir. Jam’iyatda xayriyat bo’ladi, jam’iyat esa suhbatda bo’ladi. Agar bu yo’l toliblaridan bir guruhi bir-birovlari bilan hamsuhbat bo’lsalar, bu suhbatda xayru baraka ko’p bo’ladi. Umid borki, bu ishga doimo amal qilinsa, oxiri haqiqiy iymon bilan yakunlanadi”[1].

Demak, Bahouddin Naqshband inson barkamol bo’lishi uchun, avvalo, iymonli bo’lishi zarur deb biladi.

Ma’lumki, tariqat yo’li odobdan iborat, har bir maqomning o’z odobi bo’lganidek, Naqshbandiya tariqatining ham o’z xulq-odob talablari bor. “Kimki ana shu odobni ushlasa, uni balog’at ahlining balog’atiga yetkazadi. Adab bu – xulqni chiroyli qilish, so’zni va fe’lni soz qilishdir. Xizmat odobi ulug’ baxtdan yaxshiroq, uning belgisi - amalning qabuli, tug’yon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash-muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug’i hamdir”.

Bu hikmatlardan ko’rinib turibdiki, Naqshbandiya tariqati odob-axloq tariqati, chunki bu tariqat aynan insonning ma’naviy-axloqiy kamolga yetishi uning xulq-odob talablari mohiyatini anglashi, ushbu qoidalarga amal qilishiga bog’liqdir. Buni biz Hazrat Bahouddin Naqshbandning ma’naviy-axloqiy qiyofasidan ham bilsak bo’ladi. “Maqomati Hoja Naqshband” asarida shunday deyiladi: “Ularning axloqlaridan bir shingili shuki, agar ular biror do’st yoki darveshning uyiga borib qolsalar, ularning barcha farzandlari va yaqinlarining hamda xizmatkorlarining ahvolini so’rar va har birining ko’nglini bir yo’l bilan topar edilar. Do’st hamsoyalar va darvesh oshinolardan hamisha rozi va xushnud bo’lardilar. Ularning bu lutfi har bir kishiga to’g’ri yo’l uchun dalolat qiluvchi edi”[2].

Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol, pok bo’lishi, o’z mehnati bilan hayot kechirishi kerakligi, sabr-qanoatli bo’lishi, kamtar, samimiy bo’lishi, iymon va e’tiqodini mustahkam tutishi, dilda xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo’lish kabi olijanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi. Bu xislatlarni o’zlashtirib borish jarayonida inson poklana boradi va ruhan Allohga yetishiga o’zini tayyorlaydi.

Naqshbandiya tariqati kishilarni mehr-oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo’ylik, sabr-qanoatga ega bo’lish sari yo’llar ekan, ularda yomon illatlar: harom ishlar, ya’ni, o’g’rilik, nopoklik, xasislik, yolg’onchilik, firibgarlik, ta’magirlik, boylikka hirs qo’yish kabilarni qoralaydi. Buni biz Hazrati Hoja Bahouddin Naqshbandning quyidagi fikrlaridan ham bilsak bo’ladi:

“Shamga o’xshagin, toki hammaga ravshanlik bag’ishla, o’zing esa qorong’ida bo’l, “Hoyu havas va nafs ahllari tutgan ishlar asosining barchasi zalolat (adashuv)dan iboratdir. Ishlarda niyatni to’g’ri qilish eng muhim narsadir”, “Kishi o’zining nafsiga tuhmat qilishi kerak. Kimki Haq subhonahu inoyati bilan o’z nafsining yomonligini tanigan, uning hiyla-nayrangini anglagan bo’lsa, bunday qilish unga oson bo’ladi. Bu yo’ldan yuruvchilarda o’zgalarning gunohini ham o’zlaridan deb bilish hollari ko’p bo’ladi”.

Bu hikmatlarda komil insonni tarbiyalash uslublari ham bayon etilgan: “Suhbatimizga yetishadigan guruhlardan ba’zilari shundayki, ularning ko’ngillarida muhabbat urug’i bor, ammo xalaqit beruvchi xasu hashaklar tufayli o’solmaydi, bizga esa uni poklash lozim. Ba’zilarida muhabbat urug’i yo’q, bizga esa uni paydo qilish lozim”; “Murshid tolibnnig o’tgan, hozirgi va kelajak kabi uch holidan boxabar bo’lishi kerak, shundagina uni tarbiya qila oladi”; “Tolib amal qilishi zarur bo’lgan shartlardan biri shuki, u Haq Taolo do’stlaridan biri bo’lgan do’st bilan hamsuhbat bo’lib, o’z holidan voqif bo’lishi zarur. Suhbat zamonini o’zining o’tmish zamoni bilan solishtirib ko’rsin, nuqsondan kamol sari ketayotganini o’zida mushohada qilsa, bu azizning suhbatida mulozamatda bo’lishni o’zi uchun farzi ayn hisoblasin”.

Xulosa qilib aytganda, Naqshbandiya tariqati ikki muhim tariqat: Abdulxoliq G’ijduvoniy hamda Ahmad Yassaviylarning yo’lini birlashtirdi va hayotga moslashtirdi.

Naqshbandiya suluki (Xudoga yaqinlashish yo’li) o’n bitta axloqiy qoidani ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiq etdi.

So’fiyning poklanish va xudoga yetishish darajasi ma’naviy murabbiy-shayx, murshid yoki pir tomonidan amalga oshiriladi.

Va nihoyat, murshid bilan murid o’rtasidagi ma’naviy-ruhiy aloqaning paydo bo’lishi muridning kamolotga yetishganligini ko’rsatadi va murshid muridga o’z hirqasini yechib beradi. Bu yo’l muroqaba, mushohada, musohaba kabi uch bosqichdan iborat bo’ladi. Naqshbandiya sulukiga kirgan inson o’zini ham ruhan, ham jismonan chiniqtirishi, ma’naviy poklashi va qalbga sayqal berishi lozim.

Naqshbandiyaning asosiy yo’li Haqqa yetishga intilish, xufiya zikr qilish bo’lib, ba’zi bid’atlarni rad etadi. Masalan, darbadarlik, qashshoqlik, musiqa chalib, ashula va raqs tushib, zikr tushish (samo’) va ovoz chiqarib (jahr) zikr qilish va boshqalar. Aziz-avliyolar, ularning mozorlariga sig’inish man etilib, har qanday madadni faqat Allohdan so’rash kerakligi ta’kidlanadi. Ruhan poklanib, manmanlik, kibru havodan voz kechib, oddiy o’z mehnati bilan kun kechirishga da’vat etadi.

Demak, Naqshbandiya tariqatining asosini insonning ham ruhan, ham jismonan poklanishi tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Bugungi kunda yosh avlodni yetuk inson etib tarbiyalashda Naqshbandiya tariqatining axloqiy tizimi, yo’l va usullari qo’l keladi. Zero, aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxsni shakllantirishda mazkur tariqat g’oyalari muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Haqiqiy so’fiylik tarkidunyochilik g’oyasini ilgari surmaydi, u insonni ma’naviy poklanishga yo’llaydi. Lekin ba’zi johil va nodon kishilar (hatto din

peshvolari ham) insonning ruhan xudo bilan birlashishi, “Anal haq”lik, ya’ni “Men xudoman” degan ifodaning mohiyatini tushunmasdan, ularni ta’qib etdilar. Aslini olganda, so’fiylik - bu muruvvat, saxovat, mehnat, qanoat va diyonatdir. Ular inson xulqida mavjud bo’lgan illatlarga qarshi kurashuvchilardir. So’fiylar hayotni qabohat va razolatdan tozalash yo’lida har bir insonning ma’naviy jihatdan pok bo’lishini ta’minlash uchun kurashganlar.

**8.2. O‘zbek milliy tarbiya texnologiyalari. O‘zbek tarbiyashunosligida vorisiylik va qadriyatlar ustivorligi. Ajdodlar o‘gitlari va an’analar. Zamonaviy o‘zbek tarbiyashunosligida o‘tmish va zamonaviylik transformatsiyasi.**

**Milliy tarbiya tamoyillari:**

- Tarbiyaning yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga yo’naltirilganligi.
- Tarbiyani mehnat bilan bog’lash;
- Tarbiyaning maqsadga yo’naltirilganligi va g’oyaviyligi;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g’oyalarning ustunligi;
- Tarbiyada o’quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Tarbiyada milliy va umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyada o’quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarni yo’qotish;
- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo’shib olib borish;
- Tarbiyada hududiy xususiyatlarini inobatga olish

Milliy sharqona tarbiya mezonlari

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo’lgan. Ota-bobolarimiz farzand o’stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so’zlariga, kishilar oldida o’zlarini qanday tutishiga, o’z maqsadlarini qanday so’zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo’rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo’ya ishlariga zinhor-bazinhor yo’l qo’ymaganlar. Bu kabilarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan «eskilik sarqiti» deb voz kechdik, o’zligimizni unutayozdik.

Sharqona odob ming yillar maboynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma‘lum. Jumladan, Qur‘oni karim oyatlari mazmuni, Payg’ambar alayhissalom hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining hikmatomuz kitoblari tarbiyamizning manbai bo’lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab

olgan. U go’daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko’cha-ko’yda, kattalar oldida o’zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarni o’z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo’ygan. Masalan, Rasulullоh hadislarida: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!», «Hech bir ota o’z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi», deyilgan. Demak, o’tmishda tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi deb qaralgan.

O’zbek xalqi o’z madaniyati va ma‘naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e‘tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aqlu zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo’lgan yuqorida aytib o’tgan allomalarimiz kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi.

Bugungi kunda mustaqil davlatimizda milliy tarbiya an‘analari tiklanib, oilaviy hayotimizda muhim mezonga aylanmoqda. Bu esa, o’z navbatida, sobiq sho’ro tarbiya nazariyasida o’rganilishi mumkin bo’lmagan milliy odob, milliy e‘tiqod, iymon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bog’liq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qo’ydi.

Milliy tarbiya O’zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda ushbu maqsadlarga erishishning o’ziga xos muammolari ham bor. Shulardan biri – milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Bularning barchasi O’zbekiston maktablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O’zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo’lmish ijobiy sifatlar: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqat madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, iymon-e‘tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo’lgan sifatlar: vatanpurushlik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga yoshlarda nafrat uyg’otish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog’lab olib borish o’qituvchi-tarbiyachi va ota-ona tomonidan tarbiyaviy mezon qilib olinishi kerak. Ayniqsa, oilada milliy tarbiyani yoshlarga singdirishda dastlab miliy odobni (avval salomlashish, keyin so’z boshlash, yaxshi va yomonni ajratish, kattalarga hurmat va kichiklarni izzatlash, ustozlarni e‘zozlash kabilarni), milliy g’urur asoslarini (o’zbek millatiga mansubligini anglash, O’zbekiston-Vatanim mening tuyg’usini chuqur anglash), vijdoniylik (andishali bo’lish, rostguylik, yolg’on gapirmaslik, yaxshi va yomon xulqqa o’zining to’g’ri fikrini bildirish) kabilarni tarbiyalash, o’qtirish, ularni axloqiy Nizomga aylantirish milliy tarbiyamizni yanada ravnaq toptiradi va kelajagimizni yuksaltiradi.

Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va mezonlari

Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy o’zligimizga qaytish, unib-o’sib kelayotgan yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda o’quv adabiyotlarimiz, darsliklarimiz to’laligicha milliy g’oya bilan sug’orilgan mazmunga o’tdi.

Darhaqiqat, xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlarga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan “eskilik sarqiti” deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik. Axloqsizlik, hayosizlik, ichkilikbozlik, qadimiy merosimizdan nafratlanish asosida qurilgan “yangi axloq” zo'rlab targ'ib qilindi. Bu “ovrupocha odob”ning samarasini, xalqimiz boshiga solgan kulfatlarini, ma'naviyatimizga yetkazgan zararlarini bugun hammamiz ko'rib turibmiz.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbayi bo'lib xizmat qilgan.

Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillikka intilib, ruhiy najot yo'lini qidiradi. Shu orzu intilish samarasi o'laroq, ma'naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Komil inson haqidagi ta'limot insonni yuksak kamolotga yetishini ko'zda tutadi. Komillik bu — inson yerda qilgan hamma ishlarining ma'naviy e'tiqod bilan sug'orilishidir.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aql-u zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo'lgan Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy va Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Ulug'bek, Alisher Navoiy va Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi. Ular tufayli xalqimiz mag'rur yashadi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Bizga ma'lumki, Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, riyoziyot (matematika), falakiyot, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya , falsafa, axloq, estetika va jismoniy tarbiya kabi ko'plab fanlarning yetuk bilimdoni bo'lgan. Uning aql-zakovati, yaratgan asarlari O'rta Osiyoda emas, balki Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham

hurmat bilan tilga olinadi. U har tomonlama komillik darajasiga yetgan ulug' inson bo'lgan. Abu Ali ibn Sino yigirma to'rt yoshida ko'pgina ilm sohalaridan xabardor bo'lib, Buxoroda olimlar bilan bo'lgan bahsda ularni dog'da qoldirganligi ma'lum. Bunday muvaffaqiyatga olim kamolotga erishganligi tufayli muvaffaq bo'lgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'z hayoti va faoliyati davomida doyimo ezgulikka komil inson bo'lgan. Uning nomi va asarlari hamisha tillardan-tillarga, dillardan-dillarga o'tib yuraveradi.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim, degan odam xato qiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqson-u kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan kishi barkamol insondir. Bu haqda Alisher Navoiy shunday degan:

Noqis uldirkim, o 'zin komil degay, Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.

Inson kamolotiga chek-chegara yo'q. Muttasil kamolot sari intilmoq— taraqqiyot omilidir.

Navoiyning fikricha, yosh avlodni kamolotga yetkazish deganda, uni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib yetishtirish anglashiladi. Bunda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi, shu bilan birga, Navoiy tarbiya ta'siriga beriluvchi, qobiliyatli o'quvchi bolalar bo'lgani singari, yomon xulqli bolalar ham borligini, ularni tuzatish mumkinligini aytadi. Bola shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid— niyatlar bilan komillikka — kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, rohat-u azobini, mehnat-u mashaqqatini totib, bulardan namuna-yu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne'mati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idrok qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan ro'yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam bolasining komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aklikdan tarbiyalashga e'tibor berib borish lozim.

Davlatimiz sobit qadamlar bilan o'z taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l — milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g'ururimizni uyg'otish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkura negizida kamolotga erishish yo'lidir.

Shu tariqa, yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishni o'z ichiga oluvchi yangi pedagogik yo'nalish dunyoga keladi. Darhaqiqat, milliy tarbiya—O'zbekiston milliy mustaqilligining pedagogik maqsadi va shartidir.

Milliy tarbiya — O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Bu maqsadga erishishning o'ziga xos nazariy muammolari bor. Shulardan biri — milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Ikkinchi muammo ”O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga tayyor farzandlar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?” degan savolga aniq, tajribada asoslangan javoblar olish masalasidir. Bularning barchasi O'zbekiston maktablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda.

O'zbekiston maktablari o'quvchilarini milliy ruhda tarbiyalash mezonlari mustaqillik tufayli yanada dolzarb ahamiyat kasb etgan shaxsning milliyligiga bevosita aloqador bo'lgan fazilatlarni singdirish tamoyilidan kelib chiqib belgiladi.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo'lmish ijobiy sifatlari: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, imon-e'tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo'lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, hoyinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga nafrat uyg'otish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish o'qituvchi-tarbiyachi tomonidan maxsus mezon qilib olinishi kerak.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda o'quvchilarning yosh, aqliy imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Quyida tarbiyalanuvchining milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va mezonlarining tahminiy namunasini keltiramiz.

O'zekiston—Vatanim mening. O'zbekistonning tabiiy, ma'naviy, jug'roflya va milliy xususiyatini anglash, o'lkaning o'tmishi, hozirgi hayot va kelajagi haqida tushunchalarga ega bo'lish, O'zbekistonning, o'zbek xalqining qahramon farzandlarining xizmatlarini bilish, O'zbekiston Davlat ramzlarini bilish.

Milliy g'urur, o'zbek millatiga mansubligini anglash, ”O'zbek xalqi” tushunchasining madaniy mohiyatini tushunish, o'zini o'z millatining farzandi deb bilib, milliy burchlarini anglash, ona tilini cheksiz sevish, shu tilda to'g'ri so'zlash va fikrlash.

Milliy odob, avval salomlashib, keyin so'z boshlash, o'zbek xalqida, „yaxshi”, „yomon” deb baholanuvchi xulq namunalarini bilish, barchani „siz”lash, o'zidan katta va kichiklarni izzatlash, do'stlik burchlarini bilish, ustozlarni e'zozlash munosabati, uyat so'z, so'kinishga, odobsizlikka salbiy munosabat bildirish.

Vijdoniylik. Biror ishga qo'l urishdan avval „Bu ishimga odamlar nima deyisharkan?” degan mulohaza va andishaga borish, rostgo'ylik, yaxshi xulq va yomon xulqning farqlarini tushunish, yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini bildirish, ko'ngildagi gapni ochiq aytishga o'rganish.

Yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalashda milliy udum va odatlarimiz ham qadriyat darajasiga ko’tarilgan.

Har bir xalqning ana shu ulkan ma'naviy qadriyatlari chuqur tomir otib ketgan o'qildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi.Turkiston qadim-qadimdan hunarmandchiligi, pazandachiligi, dehqonchiligi, ilm-fani, san'ati va adabiyoti, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarning yuksakligi jihatidan olamga mashhurdir. Mehnatsevarlik, yerga mehr qo'yish, kasbiga ixlos, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlik, odamgarchilik, ota-onaga hurmat, kattalarni siylash, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat, peshona teri evaziga topilgan rizq-nasibaga qanoat qilib yashash, beva-bechoralarga muruvvatlilik xalqimizga xos odatlardir. Bu urf-odat, an'ana va marosimlarda xalqimizning qator noyob fazilatlari, insonparvarlik xislatlarida milliy qadriyatlarimiz mujassamlashgan.

Odat — xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi. „Odat” so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi.

Marosim esa odatning amaliy ko'rinishidir. O'zbek xalqi juda ham boy, xilma-xil odat va an'analarga qadriyatlarga ega.

Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy me'yorlariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmush shakllariga singib ketgan.

Kishilarning o'z xalqi urf-odatlari va an'analariga amal qilmasliklari xalq qadriyatlarini bilmaslikka olib keladi. Chunki, har bir milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz negizida milliy ruh, ma'naviy qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi.

O'z qadr-qimmatini bilish kishini xudbinlikdan saqlaydi, o'zini boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini hurmat qiladigan inson o'zgalarni xo'rlamaydi, u faqat yaxshilik qilishni o'ylaydi.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.Hamkorlik pedagogikasi qachon rivojlana boshladi va ta'limdagi ko’pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi?**

A. XX asrning 80-yillarida
B. XX asrning 60-yillarida
S. XIX asrning oxirida
D. XIX asrning boshlarida

**2. Hamkorlik texnologiyasining namoyandalari kimlar?**

A. K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, S.T.Shatskiy,

B. L.N.Tolstoy, J.J. Russo, V.A.Suxomlinskiy

S.Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern

D. Barcha javoblar to'g'ri

**3. Hamkorlik pedagogikasi nechta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi?**

A. 4 ta B. 5 ta S. 3 ta D. 9 ta

**4. So'fiylik ta'limoti qachon qayerda paydo bo'lgan?**

A.VII-VIII asrda arab mamlakatlarida

B. IX asrda Movarounnahrda

S. X asrda Markaziy Osiyoda

D. XII asrda Sayramda

**5. So'fiylik ta'limotida nechta oqim bor?**

A. 3 ta B. 4 ta S,. 2 ta D. 7 ta

**5. B. Naqshbandiy so'fiylik ta'limotidagi nechanchi oqim namoyandasi hisoblanadi?**

A. 3-oqim B. 2-oqim S. 1-oqim D. 7-oqim

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Mualliflik tarbiya texnologiyalari deganda nimani tushunasz?
2. Komenskiy kim?
3. Milliy tarbiyada nimalarga e'tibor qaratish zarur?
4. So'fiylik ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
5. So'fiylik ta'limotining namoyandalarini ayting.

**9-mavzu: Yurt taraqqiyoti uchun mas'ullik va burchlilik. Vatan tushunchasiga ilk munosabatlar va insonning xulq-odobini shakllantirish texnologiyalari. Insonparvarlik tarbiyasi va axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyalari qonuniyatlari**

**Reja:**

**1.Yurt taraqqiyoti uchun mas'ullik va burchlilik. Vatan tushunchasiga ilk munosabatlar va insonning xulq-odobini shakllantirish texnologiyalari.**

**2.Insonparvarlik tarbiyasi va axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyalari qonuniyatlari**

**Nomussiz hayotdan, nomusli**

**o`lim yaxshi.**

**Amir Temur**

***Tayanch so‘zlar:*** *vatan, yurt taraqqiyoti, insonni xulq-odobini shakllantirish texnologiyalari, insonparvarlik tarbiyasi, axloqiy fazilatlarni shakllantirish*.

## 9.1.Yurt taraqqiyoti uchun mas’ullik va burchlilik. Vatan tushunchasiga ilk munosabatlar va insonning xulq-odobini shakllantirish texnologiyalari.

**Vatan** insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o`tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo`lgan tushunchadir.Vatan ostonadan, o`zi tug`ilib o`sgan go`shadan boshlanadi. Shuning uchun bola o`zi yashab, nafas olib turgan xonadonida ulg`ayib voyaga yetishishida muhtasham va qudratli makon bo`lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiy bo`lmog`i zarur.

Har bir insonning vataniga bo`lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an’analari, urf-odatlari, kasb-korlarini sevuvchi farzand o`zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san’ati, dini va madaniyatidan g`ururlanib, o`zi o`sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog`i qadrini anglaydi.

Zero, hech bir inson Vatandan tashqarida baxt-saodat topa olmaydi. O`z yurtida obru- e’tibori bo`lmagan inson o`zga yurtda ham qadrlanmaydi.

Shuning uchun ham xalqimizda «O`zga yurtda sulton bo`lguncha, o`z yurtingda cho`pon bo`l», «O`zga yurtda shoh bo`lgandan, o`z yurtingda gado bo`lgan afzal», «O`lsang o`l, vataningda bo`l!» kabi naqllar bejiz aytilmagan.

Har kimning o`z xonadoni, uy-joyi, o`z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o`zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Furqat va boshqa bobokalonlarimizning o`zlari tug`ilib o`sgan vatanlaridan uzoqda kuchli Vatan sog`inchi-bilan yashaganlari, ona yurt tuprog`ini, unda o`sgan mevalarni ko`zlariga to`tiyo qilganlari, yurt ishqida iztirob chekkanlari barchaga ayon. Ularning ruhiy kechinmalari haqiqiy vatanparvar kishining holatidir. Haqiqiy vatanparvar u qaerda yashamasin, Vatanning yaxshi kunida ham, yomon kunida ham uni tark etmaydi, u bilan birga bo`ladi.

Insondagi eng oliy tuyg`u — Vatan tuyg`usidir. O`zi tugilib-o`sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o`zga yurt tabiatidan o`z yurti tabiatichalik zavq olaolmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo`ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go`zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg`u namoyon bo`ladi.

Vatan ham, vatanga muhabbat tuyg`usi ham ilohiy ne’mat bo`lib, butun qon tomirlarida shu tuyg`u jo`sh urgan insonda vatanfurushlik, vatanga xiyonatdek jirkanch vahshiylikka moyillik hech qachon bo`lmaydi.

Xalqimizda “O`zga yurtning bog`lariyu-bog`chasi, o`z yurtingning yantog`icha ko`rinmas”_ deb bejiz aytilmagan. Vatan tuyg`usi — bu Vatanni

himoya qilib, Vatan deya fido bo`lgan To’maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodhoh, mulla Aliqul dodxoh singari yuzlab sher yuraklarni eslashdir. Tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temir Malik, Abdumalik To`ra, Qurbonjon dodxoh, Madaminbek, Namozbotir singari bo’ysunmas bahodirlarning, og`ir kunlarda qardoshlarga yelkadosh bo`lay deb, harbiy vazirlik lavozimidan iste’foga chiqib, ota yurti Turkistonga kelib, ayovsiz janglarda halok bo`lgan Anvar poshshoning, qullikdan o`limni afzal bilgan Oqmasjid, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Zirabuloq himoyachilarining nomini yodga olishdir. Vatan tuyg`usi — bu mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko`targan Toshkent, Jizzax, Andijon qo`zg`olonchilari, Dukchi Eshon xotirasini unutmaslikdir. Vatan tuyg`usi — bu zulm-istibdoddan qutulish uchun xalqni ma’rifatli bo`lishga chorlash, milliy uyg`onishga da’vat etgan, najot ilmda, birlikda va harakatda deb bilgan fidoyi ziyolilarni, ularning rahnamolari bo`lmish Munavvar Qori, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdullaxo`ja, Avloniy, Fitratlarning nomlarini doimo yodda saqlashdir.

Vatan tuyg`usi — bu yigirmanchi, o`ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarda xalqimizga qarshi uyushtirgan qatli ommaviy qatag`onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo`lgan Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari minglab millat gullarini unutmaslikdir.

Vatan tuyg`usi — bu Ikkinchi Jahon urushida fashizmga qarshi mardona jang qilgan vatandoshlarimiz yodini ehtirom bilan eslashdir».

Vatan himoyasi yo`lidagi qahramonlar insoniyat tarixidan hech qachon o`chmaydi. Vatanni asrash, har bir qarich yerini qo`riqlash, bu muqaddas burch bo`lib, ozod va mustaqil Vatanga ega bo`lish hech qachon osonlikcha qo`lga kiritilmagan. Vatan erki, mustaqilligi va ozodligi yo`lida qurbon bo`lganlarni abadiy eslash, hotirlash har bir kishining xalq, millat, Vatan oldidagi imoni va vijdonidir.

Vatan muqaddasdir. Undan qimmat, undan aziz, undan shirin, undan ulug` ne’mat, boylik yo`qdir. Shu boylikni qadrlagan, undan cheksiz faxrlangan insongina oilasi, xalqi, atrof muhiti, jamiyatiga mehr-muhabbatli bo`ladi.

Insonni dunyoga keltirishdek mo`jiza yaratgan ona bilan Vatan hamohangdir. Vatan ona kabi inson taqdirida mo`jizalar makonidir. Shuning uchun ikki mo`jizakor yonma-yon Ona-Vatan deb yuritiladi.

Inson ona uchun qanchalik jonfidolik qilsa, Vatan uchun ham shunchalik qayg`uradi, uni ardoqlaydi, sevadi, avaylab-asraydi, turli ofatlardan, dushmanlardan qo`riqlaydi. Kerak bo`lsa, Ona-Vatan uchun jonini qurbon kiladi. Munis va mo`tabar Ona insonni shu yorug` dunyoga keltirsa, Vatan uni hayot belonchagida o`stiradi, ulg`aytiradi, shaxsni shaxs sifatida namoyon etadi. Shu boisdan inson uchun Ona - Vatandan ulug`roq, mo`tabarroq, qimmatliroq makon yo`q. Xalq ichida Ona degonda - Vatan, Vatan deganda esa Ona tasavvur etilishida ham majoziy mano bor. Ba’zi bir sabablarga ko`ra, o`zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz ham «Ona-yurtim», «Ota-yurtim», «Kindik qonim to`kilgan yurt» deb faxrlanadilar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O`zbekiston Respublikasining yangi davlat ramzlari qabul qilindi, ya’ni davlat bayrog`i, gerbi, milliy valyutasi,

madhiyasi — davlat ramzlaridir. Davlatimiz ramzlari — bayroq, tamg`a, madhiya O`zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g`ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o`zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash, o`zining qadr- qimmatini, o`z mamlakatiga va shaxsan o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlash demakdir. Darhaqiqat, davlatimiz ramzlarida o`zbek xalqi mentaliteti, g`ururi, hissiyoti, tarixiy xotirasi, porloq turmushga intilishi mujassam bo`lgan.

Ushbu ramzlar - o`zbek xalqining g`ururlaridir. Ularni qadrlash, ko`z qorachig`idek asrash, umuminsoniy qadr-qimmatini oshirish har bir fuqaroning Vatan oldidagi burchidir. Vatanimiz ozodligi tufayli Vatan, xalq, millat, milliy qadriyatlar din, tarix, bugun va kelajak hayot haqida erkin fikr bildirish imkoniyati vujudga keldi.

Vatanimiz o`z istiqlol yo`lini tanlab oldi. Dunyo maydonida o`z o`rni, o`z ovoziga ega bo`ldi. Vatanimiz osmonida erk quyoshi porlagach, o`zbek xalqi o`z tilida baralla e'zozlash, asrlar davomida shakllanib kelgan an'analari, qadriyatlarini qaytadan bilish, erkin fikrlash, o`z taqdirini o`zi hal qilish, o`zga yurtlarda Vatan sog`inchida bo`zlab yurgan vatandoshlarimiz ota yurtlariga qo`rqmasdan qaytish imkoniyatiga ega bo`ldilar.

Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg`usi paydo bo`ladi. Bu tuyg`u insonni jasoratga, ezgulikka halol mehnatga da'vat etadi. Millatni millat bo`lib shakllanishida turli hayot to`fonlaridan omon saqlab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg`usidir. Yurtimizda istiqlol shamoli esa boshlagandan buyon chorak asr davomida hayotimizning har bir jabhasi bosqichma-bosqich rivoj topib bormoqda. Tinchlik, barqarorlik esa Vatan sarhadlarini qo‘riqlab turgan, tinchligimizni ta'minlab turgan, kafolatlab turgan qurolli kuchlarimizning, tinchlik posbonlarimizning kechani kecha, kunduzni kunduz demay, sergaklik bilan, hushyorlik bilan qilayotgan xizmatlarining samarasidir.

Ammo yoshlarimiz bunday fidokorona xizmat qilishi uchun, Vatanga sodiq bo‘lishi uchun biz – mo‘min-musulmonlar, yurt fuqarolari nima qilishimiz kerak? Bizning vazifamiz – yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga Vatanga muhabbat hissini, shu jannatmakon yurtda tug‘ilib-o‘sganidan faxrlanish tuyg‘usini singdirish bo‘lishi kerak.

Vatan – insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan joydir, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Bu tuyg‘u nafaqat insonda, balki boshqa maxluqotlarda ham bor. Vatanni yaxshi ko‘rish, vatanni qo‘msash tuyg‘usi jonivorlarda ham bor. Baliq suvga, hayvon o‘zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O‘sha aqli yo‘q jonivorlar ham, hasharotlar ham o‘zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo‘lgan insonda bu tuyg‘u yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Imom Muhammad G‘azzoliy shunday degan ekanlar: «Vatanning ham haqlari bo‘ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda yashaganda tinch-xotirjam, shukrona qilib yashash haqqidir. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog‘inish, Vatan kamsitilganda g‘azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurtda tug‘ilib-o‘sganlar

zimmasidagi haqqidir”. Shu jannatmakon Vatanda yashayapmizmi, unda tinch-totuvlik bilan yashaylik, bunga shukrona qilaylik, ilm izlabmi, tijorat maqsadidami, Vatandan safar qildikmi, uni sog‘inaylik.

Ana shu Vatan tuyg‘usi tufayli inson o‘zi yashaydigan uyni, o‘zi yashaydigan mahallani, shahar-qishloqni, Vatanni sevadi, uni obod qiladi, uning sha’nini ulug‘laydi, himoya qiladi. Vatanning sha’nini turli ko‘rinishlarda ulug‘lash mumkin, masalan, uni moddiy va ma’naviy obod qilish mumkin, turli xalqaro anjumanlarda, xalqaro musobaqalarda Vatanning nomidan ishtirok etish mumkin. Ammo buning asosiy sharti shuki, qaysi sohada bo‘lmasin, xolis va samimiy xizmat qilsin, ana shunda bu xizmat Vatanning sha’nini ko‘tarishdagi xizmat hisoblanadi. Kimki bu mas’uliyatli sohada xiyonat qilsa, bu vakolatni suiste’mol qilsa, bu narsa nafaqat uning o‘ziga, balki u vakili bo‘lgan xalqqa, uni tarbiyalab-o‘stirgan Vatanning sha’niga dog‘ tushadi. Shuning uchun hazrati Umar roziyallohu anhu: «Agar Vatan sevgisi bo‘lmaganda, yurtlar xarob bo‘lardi», deganlar. Yurtni uni sevganlar obod qiladi, uni Vatan deb bilganlar himoya qiladi.

Bir go‘zal namunaga e’tibor beraylik. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga ilk vahiy nozil bo‘lganda Xadicha onamiz roziyallohu anho u Zotni Varaqa ibn Navfalning oldiga olib borganlar. Keksayib, ko‘zlari ojiz bo‘lib qolgan bu inson Tavrotdan, Injildan xabardor zot edi, oxirzamon Payg‘ambarining alomatlarini biladigan, u Zotning kelishini kutib yurgan ziyrak, zakovatli zot edi. Varaqa ibn Navfal Payg‘ambar alayhissalomni gaplarini eshitib, «Qavmingiz sizni yolg‘onchiga chiqaradi, sizga aziyat beradi, tug‘ilib-o‘sgan yurtingizdan chiqarib yuborishadi», deydi.

Ulug‘larimiz ushbu holatni Vatanga muhabbatning haqligiga, Vatandan ajralishning mashaqqat ekanligiga dalil qilib, shunday deydilar: «Varaqa ibn Navfal sizni yolg‘onchiga chiqarishadi deganida Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bu gapni indamay eshitib o‘tirdilar, sizga aziyat berishadi deganida eshitib o‘tirdilar. Ammo «Sizni yurtingizdan quvib chiqaradilar» deganida u Zot to‘lqinlanib ketib, «Hali qavmim meni shahrimdan quvib chiqaradimi?» deb so‘raganlar. Mana shu u Zotning Vatanlariga bo‘lgan muhabbatlarining belgisi edi.

Varaqa ibn Navfal aytgan kun kelib, makkaliklarning tazyiqi haddan ortib ketgach, hijratga izn berildi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Makkadan uzoqlashmasdan turib, Ukoz bozorining oldiga borganlarida ortlariga o‘girildilar. Makkaga qarab turib, o‘zlarining mashhur gaplarini aytganlar: «Ey menga sevikli shahrim Makka! Agar qavmim meni haydab chiqarmaganda seni hargiz tark qilmagan bo‘lardim», deganlar. Madinaga borib, Alloh taologa: «Robbim, Makkani menga suyukli qilganingdek, Madinani ham suyukli qil» deb duo qilganlar. Shuningdek, u Zot alayhissalomning yana bir mashhur so‘zlari bor – u Zot: «Agar hijrat bo‘lmaganda, men ansorlardan bo‘lgan bo‘lardim», deganlar. Buning ma’nosi «Makka bo‘lmaganda, men makkalik bo‘lmaganimda, madinalik bo‘lardim», deganlaridir. U Zot Madinada qolganlar, ansorlarni ixtiyor qilganlar, lekin makkaliklarni aslo unutmaganlar. Bu haqda Qur’oni Karimda oyatlar ham kelgan. Alloh subhanahu va taolo O‘zini «U Zot sizni qaytish joyingizga qaytaruvchidir», deganda Makkani nazarda tutgan.

«Vatan sog‘inchi» risolasida aytilishicha, arablar biron joyga safarga chiqishsa, hidlab yurish uchun Vatan tuprog‘idan olib ketishar ekan. O‘sha tuproq vatan hissini uyg‘otib, uni esdan chiqarmay turadigan omil bo‘lar ekan.

Hadisi shariflarda bunga o‘xshash misollar ko‘plab keltirilgan. Ularning hammasi bizni ana shu Vatan hissini sezishga undashi kerak. Afsuski, bu hissiyot insonda ko‘pincha sezilmaydi. Qachonki bir ne’mat qo‘ldan ketsa, zavolga yuz tutsagina uning qadri bilinganidek, ko‘pchilikning boshiga musofirchilik tushsagina Vatan hissi seziladi, shundagina Vatanning qadriga yetib qolinadi.

Istiqlol sharofati tufayli xalqimiz ozod bo‘ldi, Vatan ozod bo‘ldi. Farzandlarimiz, yurtimizning shavkatli o‘g‘il-qizlari yana Vatanning sha’nini, yurtimizning bayrog‘ini baland ko‘tarmoqdalar, ilm-fandami, sportdami, boshqa sohalardami, xalqaro miqyosda yurtimizning dovrug‘ini butun dunyoga taratmoqdalar.

Yurtimizdan chiqqan bir olim ilmiy musobaqada g‘olib kelganini, yurtimizdan chiqqan bir qori Qur’on musobaqasida sovrin olganini, bir sportchimiz birinchi o‘rinni olganini eshitganda, hakamning og‘zidan O‘zbekiston degan nomni eshitganda, Vatan bayrog‘i baland ko‘tarilganda ko‘zimizga kelgan quvonch yoshlari, qalbimizga to‘lgan iftixor tuyg‘usi – Vatanga bo‘lgan muhabbat hissidir.

Ammo bilib qo‘yaylikki, Alloh subhanahu va taolo bizga ana shunday ozod, obod Vatan nasib etibdimi, buni buyuk bir ne’mat o‘laroq qabul qilishimiz kerak, unga shukr qilishimiz kerak, unga sodiq bo‘lishimiz kerak. Sodiq bo‘lish esa Vatanga vafo qilish, uning moddiy va ma’naviy mulkiga xiyonat qilmaslikdir. Afsuski, ba’zi kimsalarda shunday tushuncha bor ekanki, bir odamning mulkini o‘g‘irlashni o‘g‘rilik deb bilar ekan-u, ammo davlatning mulkini o‘g‘irlashni o‘g‘rilik deb hisoblamas ekan. Vaholanki, bir kishining molini nohaq olgan odam aybini tushunsa, tavba qilsa, borib o‘sha molning egasini, o‘zi bo‘lmasa merosxo‘rlarini topib, molini qaytarib berib, rozilik so‘rashi mumkindir, ammo xalq mulkini, Vatan mulkini o‘g‘irlagan odam borib butun aholining har biridan rozilik so‘ray olarmikin? Bunday kimsalar Vatanning mol-mulkini, iqtisodiyotini yemiradigan o‘zimizdan chiqqan ichki dushmanlardir. Yurtimizni jamiki yomonliklardan o‘zi asrasin, vatan uchun haqiqiy mard va jasur o‘g‘lonlarni tarbiyalashimizda yaratganni o‘zi madadkor bo‘lsin.

## 9.2.Insonparvarlik tarbiyasi va axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyalari qonuniyatlari

**Insonparvarlik** — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir.

Insonparvarlik g‘oyalari uzoq tarixga ega. Ular baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta’limotlarda o‘z aksini topib kelmoqda. Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkurida insonparvarlik g‘oyalari azaldan keng tarqalgan bo‘lib, uning ko‘p ming yillik tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan AbuNasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,
Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g‘oyalari olg‘a surildi. Forobiy insonlarning inoq va do‘st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat’iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaati, mamlakat haqida g‘amxo‘rlikni asosiy masala qilib qo‘ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg‘a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham insonparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag‘al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, saho-vatli va insofli bo‘lishga da’vat qilinadi.

Insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor Yevropada Uyg‘onish davrida shakllangan. Insonparvarlik g‘oyalari Yevropada o‘rta asrlarda insonning kamsitilishiga, uni xudo va din nomidan haqoratlab inkvizitsiya gulxaniga tashlagan shafqatsiz dindorlarga va ularni qo‘llab-quvvatlagan jamiyat vakillariga qarshi, inson huqukari uchun murosasiz kurash sifatida namoyon bo‘ldi. Insonparvarlik keng ijtimoiy fikrni qamrab olib, adabiyot, falsafa, san’at va boshqa sohalarda XIV—XVII asrlarda Italiyada, keyinchalik esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida keng tarqaldi.

Keyingi asrlar davomida insonparvarlik g‘oyalari gumanizm nomi bilan rivojlandi. Bu atama birinchi marta XIX-asr boshlarida fanda ishlatila boshladi va XX-asrning o‘rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni tanqid qilishga qaratildi. 2-jahon urushidan keyin jahon taraqqiyotida tub o‘zgarishlar yuz berib, haqiqiy insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo‘yildi. Buni BMT, YUNESKO kabi xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo tashkilotlar deklaratsiya va hujjatlarida ko‘rish mumkin. Insonparvarlik har bir huquqiy, demokratik davlatning hayot qoidalaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston o‘z siyosatini insonparvarlik shartlari, talablari, qoidalariga, Sharq va G‘arb davlatlarining eng ilg‘or tajribalariga tayanib olib bormoqda.

Axloq – ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchaki, salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvalo insof-adolat tuyg‘usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikni, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyoni bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, Vatan, xalq uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi. Buning aksi o‘laroq, yolg‘onchi, va’daboz kishida vatanparvarlik tuyg‘usi bo‘lmaydi. Manfaatparastlik yo‘lida qilgan har bir qing‘ir ish, u qanchalik balandparvoz ta’rif-tavsiflarga o‘ralmasin, fatvolar to‘qib chiqarilmasin, baribir

Vatanga xiyonatdir. Axloq mazmuni aqliy va hissiy lahzalardan, ya'ni axloqiy ongdangina iborat emas. Axloqiy ong kishilarning hatti-harakatlarida, ularning amaliy hayotida namoyon bo‘ladi. Shu sababli axloqning ikkinchi elementi axloqiy amaliyotdir. Axloqiy amaliyot –axloqiy ong hodisalari, ya'ni motivlar, niyatlar, dunyoqarash, axloqiy qadr-qimmat ideallarda namoyon bo‘ladigan xulqni, son-sanoqsiz hatti-harakatlar, aloqa munosabatlarni axloqiy maqsadlarga ongli bo‘ysundirishdir; kishining ijtimoiy hayoti turli tomonlariga: mehnatga, jamoaga, oilaga, qarindoshlarga, do‘st-birodarlarga munosabati, fan, san'at, madaniyat sohasidagi faoliyati, shuningdek, kishining o‘zi guvoh bo‘lgan yoki qatnashayotgan kundalik hayot voqealariga munosabati va boshqalardir. Boshqacha aytganda, axloqiy amaliyot amalda namoyon bo‘ladigan axloqdir. Unda shaxsning jamiyatga munosabatigina emas, balki jamiyatning shaxsga, shuningdek, shaxsning tabiatga va o‘z-o‘ziga munosabati ham o‘z ifodasini topadi. Axloqlilik, xulq-axloqiy amaliyotga qaraganda torroq tushuncha.

Xulq kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy hatti-harakatlarning yig‘indisi, tizimidir. Kishilarning axloqiy xulqi axloqiy boyliklarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Xulqqa xos xususiyat, uning birligi elementi hatti-harakatdir. Hatti-harakat, motiv kishining ijobiy yoki salbiy xislatlari namoyon bo‘ladigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, hatti-harakat kishining ongli yo‘naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir. Hatti-harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyat qilishdangina iborat emas. Ular faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki bo‘lmasa imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlarda ham ifodalanishi mumkin. Xulqda, kishining hatti-harakatlarida, uning ichki, ma'naviy dunyosi, fikri, tuyg‘usi, intilishlari, adablari aks etadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko‘rinishlari hatti-harakatda namoyon bo‘ladi. Axloq, ong va faoliyat birligi tarzida, yaxshilik va yomonlikning, adolat yoki adolatsizlikning, vijdonlilik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan oxirgi hujayra – bu hatti-harakatdir. Shu sababli xulq va hatti-harakatlarga qarab biz o‘z mulohazalarimizni bildira olamiz. Ma'lumki, bir harakatning o‘zi ham yomonlik tariqasida baholanishi mumkin. Albatta bunday holda ikkala baho ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi.

Axloqiy baholash noto‘g‘ri sub'ektiv bo‘lmasligi uchun muayyan jamiyatda faqat birdan-bir mumkin bo‘lgan axloqiy munosabatlarning ob'ektiv mezoniga, umuminsoniy xarakteriga tayanmoq kerak. U yoki bu faoliyatni axloqiy baholashda kishining o‘z harakatlariga sub'ektiv munosabatini ifodalaydigan axloqiy sabab muhim rol o‘ynaydi. Xulqning sabablari ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Biz tarkibida egoistik sabablar bo‘lgan har qanday hatti-harakatlarni, garchi u ob'ektiv jihatdan ijobiy natijalar bergan bo‘lsa-da, qoralaymiz. Biror-bir harakat yuksak, axloqiy maqsadlar va har qanday egoistik mo‘ljallar «men bundan nima naf ko‘raman?»dan xoli amalga oshirilsa, bu harakat axloqiy bo‘lish bilan birga go‘zal hamdir. Aytaylik, kishi balkonda o‘sayotgan gullarga suv quydi. Bu harakat axloqiy ham emas, axloqsizlik ham emas. Mabodo bu kishi bemor yotgan, gullari qarovsiz qolgan qo‘shnisining gullarini sug‘orsa, tamoman boshqa gap. Hatti-harakatlar

boshqa kishining, jamiyatning, guruhning manfaatlari bilan dahldor bo‘lgan chog‘da axloqan baholanadi.

Kishilarning hatti-harakatlari o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy hayotning bir bo‘lagi bo‘lgani uchun yaxshilik yoki yomonlik deb baholanadi, qadrlanadi. Sirtdan qaraganda to‘g‘ri ish qiladigan bo‘lib ko‘rinsada, ammo bu o‘zining shuhrati, obro‘si, foydasini ko‘zlab qilinayotgan hatti-harakatlarni axloqiy deb bo‘lmaydi. Hatti-harakatlarning axloqiylik darajasi onglilik, samimiylik, beg‘arazlik, ixtiyoriylik, erkin tanlashi bilan axloqiy qiymatga egadir. Shaxsning xulqida uning o‘z-o‘zini anglashi, mavjud ijtimoiy muhitining axloqiy talablari haqida tasavvurga ega bo‘lishi ham muhimdir. Biroq xulq me’yorlari haqidagi tasavvurlar, bilimlar bilangina kishilar xush axloqli bo‘lib qolavermaydi. Axloq kodeksini yodlash bilan ish bitmaydi, balki shu xulq qoidalarining chinligiga, zarurligiga chuqur ishonch bo‘lish kerakki, ular kishilarning faoliyatida, hatti-harakatida o‘zining amaliy ifodasini topmog‘i lozim. Hatto «Kishi biron yaxshi axloqiy hatti-harakatni qilish bilan, - deya to‘g‘ri ta’kidlagan edi Gegel, - u hali fazilatli xulq vositasi uning xarakteridagi doimiy belgiga aylangan chog‘dagina fazilatli bo‘la oladi». Axloqiy xulqning haqiqiy asosi bilimlar bilan kishi ma’naviy ishonchining qo‘shilib ketishida va ularning hatti-harakatlarida amalga oshuvidadir. Shunday qilib, har qanday hatti-harakat xulq va faoliyat axloqiy bo‘lavermaydi.

Axloqiy amaliyot deganimizda shaxsning boshqa kishilarga muayyan munosabati ifoda qilinadigan hatti-harakatlar va xulq ko‘zda tutiladi. Bunda albatta shaxsda ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligi, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lishi, xulqida axloqiy sabab va nihoyat, axloqiy hatti-harakatning zaminida ma’lum darajada erkinlik, tanlash erkinligi bo‘lishi lozim. Qisqasi axloqiy amaliyot onglilik, ijtimoiylik va fuqarolikning eng oliy ifoda mezonidir. Axloqiy munosabatlar. Axloqning uchinchi elementi axloqiy munosabatlardir. Axloqiy munosabatlar – ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlarning har qanday turi singari, axloqiy munosabatlar ham axloq me’yorlari bilan cheklangan, shaxs va jamiyat, kishilar o‘rtasida aloqalar, bog‘lanishlar tarzida mavjud. Shunga asosan axloqiy munosabatlar o‘z shakliga ko‘ra epizodlik, ya’ni halokatga uchragan odamga yordam ko‘rsatish va turg‘un, ya’ni oila, jamoa, guruh, mahalladagi odamlar bilan bo‘lgan munosabat turlariga bo‘linadi. Ammo axloqiy munosabatlar bu faqat aloqalar, bog‘lanishlardangina iborat bo‘lmay, ayni paytda me’yoriy asosga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni kishining boshqa odamlar jamiyat oldidagi burchlarini ham o‘z ichiga oladi. Axloqiy munosabatlar, odatda dastlab stixiyali, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. So‘ngra esa taraqqiy qilib moddiy munosabatlardan ajralib chiqib, mafkuraviy, g‘oyaviy, ma’naviy munosabatlar sohasiga kira boradi.

Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo‘lib, axloq me’yorlarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o‘tadi. Axloqiy munosabatlar o‘z mazmuniga ko‘ra yo boshqaruv yoki qo‘riqlov vazifalarini bajaradi. Boshqaruvchi axloqiy munosabatlar muayyan jamiyatning me’yorlari talablariga muvofiq holda yuzaga keladi, ular majburiylik vazifalariga daxldordir. Qo‘riqlovchi axloqiy munosabatlar

shu me’yorlarni buzuvchi hatti-harakatlar yuz berishi natijasida paydo bo‘ladi va ijtimoiy ta’sir choralarini amalga oshirishni ta’minlaydi. Demak, axloqiy munosabatlarning sub’ekti yakka shaxslar, guruhlar, oila, jamoa, davlatlar va h.k. bo‘lsin baribir hamisha odamlardir. Faqat odamlar va ijtimoiy hodisalargina emas, balki tabiat va uning elementlari ham axloqiy munosabatalarning ob’ekti bo‘la oladi. Axloqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, hamisha va hamma joyda axloqiy me’yorlar, baholar ta’siri ko‘rinib turadi. Ular axloqiy faoliyat, xulq, hatti-harakatlarda, atrofdagi ijtimoiy borliqqa nisbatan axloqiy ta’sir ko‘rsatishda yuzaga keladi.

Axloqiy munosabatlarning baholovchi xarakteri bilan birga imperativ, yo‘naltiruvchi xarakterga egaligi ham uning o‘ziga xos belgisidir. Axloqiy munosabatlarda, kishilarning faoliyati va hatti-harakatlari, ular munosabatlarining axloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o‘rin tutadi. Ayni paytda axloqiy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar singari mustaqildir. Shunday qilib, axloqiy munosabatlar axloqning elementi sifatida, birligidan, ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari bilan, ikkinchidan, murakkab bir butunlikni tashkil etadigan axloqning boshqa elementlari bilan chambarchas bog‘liq. Axloqning elementlari axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlar axloqning elementlari sifatida bir-birlari bilan chirmashib ketadi. Masalan, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar ijtimoiy hayotning o‘ziga xos tomonlari sifatida axloqiy ong predmetidir.

Axloqiy faoliyat kishi tomonidan o‘z amaliyotining mazmuni va maqsadlarini axloqiy jihatdan anglashi tufayli yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlarning kishilar faoliyatini tartibga soluvchi boshqa usullardan ajratib olish qiyin bo‘lganda axloqiy ong, yordamga keladi. O‘z navbatida, axloqiy munosabatlar xulqning axloqiy shart-sharoit va ahamiyati nuqtai nazaridan olingan ko‘rinishlaridan boshqa narsa emas. Axloqiy munosabatlar me’yorlarni qo‘llab-quvvatlash va ijro etishning ijtimoiy mexanizmi bo‘lib, hamisha me’yorlarni shakllantirish, rivojlantirish, saqlash va keyingi avlodlarga qoldirish jarayonlarini mujassamlantirgan bo‘ladi. Axloqiy me’yorlarning ta’sirchanligi hayotbahsh kuchining mezoni axloqiy munosabatlarning ifodasidir. Axloq me’yorlari o‘z natijalari – axloqiy munosabatlardan tashqari mavjud bo‘lganda edi, o‘zining ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lar edi. Shunday qilib, axloqning barcha tomonlari bir-birini taqozo etadi va bir-birini belgilaydi. Ammo axloqning barcha tomonlari mustahkam bo‘lishi ulardagi farqlarni, ziddiyatlarni ham yo‘qqa chiqarmaydi. Masalan, axloqiy munosabatlar axloqiy ong sinovdan o‘tkazgan xulq me’yorlarining amalièтda mustahkamlanish shakli bo‘lib, mavjud xodisa tariqasida namoèn bo‘ladi. Axloqiy ong esa faqatgina mavjud axloqiy hodisalarnigina emas, balki lozim bo‘lgan hodisalarni ham ifodalaydi. Xuddi shu sababli ular bir-biriga mos kelmaydi, ziddiyatli bo‘ladi. Ziddiyatlar, ayniqsa, ijtimoiy bir tuzumdan ikkinchisiga o‘tish davrida keskin tus olishi mumkin.

Axloqning tarkibiy qismlarini tahlil qilgandan so‘ng unga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Axloq tarixan vujudga kelgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishi xulqini boshqarish vazifasini bajaradigan, bir-birini taqozo etadigan va belgilaydigan

elementlar axloqiy ong, axloqiy amaliѐt va axloqiy munosabatlarning murakkab birligidir. Axloq «o‘z-o‘zidan» harakatlantiruvchi tizim sifatida ma’naviy hayotning eng muhim va keng sohasi bo‘lib, funksional xususiyatga ega. Uning barcha funksiyalaridagi murakkab dialektik o‘zaro aloqadorlikka qarab o‘ziga xosligi va rolini belgilash mumkin. Odatda axloqning umumiy funksiyalari: tartibga solish (boshqaruv), rag‘bat, baholash, bilish, tarbiyalash funksiyalaridan iborat, deb hisoblanadi. Amalda esa ularning barchasi bir-birini to‘ldiradi va bir-biriga o‘tib turadi, biri boshqasi orqali (ketma-ket) amalga oshadi. Bir-birini to‘ldirishda ular axloqning shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning moslashuvini, shu asosda jamiyat mavjudligi hamda rivojlanishining zaruriy sharti bo‘lgan tartib-intizomga rioya qilishni ifodalaydi.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1. Qaysi alloma “Vatan tarkini bir nafas aylama” deb aytgan?**

A) Alisher Navoiy

B)Z.M.Bobir

C)Furqat

D)Uvaysiy

**2. «Vatanning ham haqlari bo‘ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda yashaganda tinch-xotirjam, shukrona qilib yashash haqqidir. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog‘inish, Vatan kamsitilganda g‘azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurtda tug‘ilib-o‘sganlar zimmasidagi haqqidir” degan fikr muallifi kim?**

A. Imom Muhammad G‘azzoliy

B. A.Navoiy

S. Z.M.Bobur

D. I.Buxoriy

**3. «Ey menga sevikli shahrim Makka! Agar qavmim meni haydab chiqarmaganda seni hargiz tark qilmagan bo‘lardim», degan kim?**

A. Muhammad payg‘ambar

B. Yusuf payg’ambar

S. Abu Hurayra

D. Imom Muslim

**4. … kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy hatti-harakatlarning yig‘indisidir. Nuqtalar o’rniga quyidagilardan mos so’zni qo’ying.**

A. Xulq B.Axloq S. Odob D. Insonparvarlik

5. Axloqning uchinchi elementi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A.axloqiy munosabatlar.

B.axloqiy ong
S. axloqiy amaliyot
D. axloqiy me’yor

**NAZORAT SAVOLLARI**

1.Insonparvarlik nima?
2.Vatanparvarlik qanday shakllanadi?
3.Axloq nima?
4.Mas’ullik va burch deganda nimani tushunasiz?
5.Mahalla qadriyatlar beshigi, oila-kichik Vatan deganda nimani tushunasiz?

## 10-mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaxs tarbiyasi masalalari

**Reja:**

**1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaxs tarbiyasi masalalari**

**2. Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaxs tarbiyasi.**

**(Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O’zbekiston) shaxs tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o’ziga xosligi.**

### 10.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaxs tarbiyasi masalalari

Qadimgi yunon va sharq manbalarida, xususan «Avesto», «Alpomish», «Shohnoma» va boshqa manbalarda madaniyat markazlar sifatida Sug’diyona, Xorazm, Parkana, Baqtriya podsholigining katta qismi aynan, respublikamiz mintaqalariga to’g’ri keladi. Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda Baqtriya, Xorazm, So’g’diyona, Marg’iyona, Parfiya kabi yirik quldorlik davlatlari paydo bo’lgan. Ular Rim va Gretsiyadagi quldorlik tuzumidan o’ziga xos ravishda anchagina farq qilgan. Markaziy Osiyodagi davlatlarda ishlab chiqarish yuqori darajada bo'lmaganligi uchun asosan dehqonchilik, chorvachilik va mayda hunarmandchilik asosida qullar majburiy ishlatilgan. Miloddan avvalgi 481 (480) – 431 (425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning jismoniy tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Saklar, massagetlar va forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik bo’lgan. Saklar dunyodagi barcha merganlar orasida o’qni behuda ketkazmaydigan juda mohir merganlar sifatida shuhrat

qozongan edilar, – deb yozgan Gerodot. Shunga ko’ra ular ko’proq o’g’illarga ega bo’lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o’g’li ko’p bo’lsa, unga har yili sovg’a-salomlar yuborgan, bolalarning yoshiga ham e’tibor berishgan. O’g’il bolalarni 5 yoshdan 20 yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurishga, kamondan otish, to’g’rilikka o’rgatishgan. Bolani 5 yoshgacha otasiga ko’rsatmaganlar, ayollar tarbiyasida bo’lgan. Mabodo o’g’il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun shunday qilganlar. O’g’il hech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onaga hurmatsizlikni faqat nikohsiz tug’ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar. Gerodot forslar uchun yolg'onchilik va qarzdor bo’lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Yana ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo’l yuvmaganlar. Ular daryo suvini muqaddas sanaganlar. Gerodotning bu ma’lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz farzandlariga jasoratli, o’z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir etib tarbiyalashga katta e’tibor berganlar. Xitoy tarixchisi Syuan Tzyan esa Samarqand aholisining axloqiy va xulq-odob qoidalariga rioya etishda boshqalarga o’rnak bo’lganligini aytib o’tgan. Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o’qitiladigan savod maktablari bo’lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarga va hunarga o’rgatilganligi, ta’limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma’lumot bergan. Qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni xalq og’zaki ijodi namunalari – afsonalar, qahramonlik dostonlari, qo’shiqlar, maqol va iboralardan ham olish mumkin. Xalq og’zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo’lgan tarbiya tajribalari umumlashtirilgan. Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog’liq rivoyatlar buning dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, qahramonliklari ulug’langan. Dostonlarda xotin-qizlarning aql-idroki, jasorati, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko’satganliklari ifodalangan. Sak va xorazmiylarning ayollari harbiy yurishlar va janglarda qatnashgan, matonatda erkak jangchilardan qolishmagan. Buni miloddan avvalgi II asrda Rim manbalarida quyidagicha tasvirlangan: “Sak ayollari, xuddi qochib ketayotgandek, ayyorlik bilan ot ustida erkaklardek orqaga burilib o’q uzar edilar”. Yunon tarixchisi Diodor ham miloddan avvalgi I asrda saklar haqida: “Bu qabilaning ayollari mard bo’ladilar va urush xatarlarini erkaklar bilan baham ko'radilar”, deb yozib qoldirgan. Tarixdan ma’lumki, dastlab Amudaryoning o’ng qirg’oidagi yerlar Turon, chap qirg’oidagi yerlar esa Eron, deb yuritilgan. Miloddan oldin ahamoniylar saklar va massagetlarning yerlariga hujum qilib turgan. Eron shohi Kir sak va massagetlarga qarshi urushib 529 yilda mag’lubiyatga uchragan. Gerodotning «Tarix» kitobida massagetlar malikasi To’marisning Eron shohi Kir bilan olib borgan jang voqealari tasvirlangan. Jangda To’maris g’olib chiqib, Kirning boshini olib, qon bilan to’ldirilgan meshga solib: «Sen umr bo’yi qonga to’ymading. O’z ontim bo’yicha seni qon bilan sug’ordim»,

deydi. O'sha davrlarda To’maris kabi ayollardan sarkardalar chiqqan va janglarda har tomonlama kuch ko’rsatgan. Polienning “Harbiy hiylalar” asarida saklarga qarshi Doroning bosqinchilik yurishi to'g'risida ma’lumotlar bor. Bu asarda saklar qahramoni Shiroqning vatanparvarligi va jasorati ibrat sifatida ko’rsatilgan. Eng qadimgi yozma manbalardan biri zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” hisoblanadi. Zardushtiylik ta'limotida ta’lim-tarbiya quyidagi bo’limlar: 1) ma'naviy va diniy tarbiya; 2) jismoniy va mehnat tarbiyasi; 3) aqliy va axloqiy tarbiyadan iborat bo’lgan. “Avesto” bo'yicha bolalarga 5 yoshdan savod o’rgata boshlaydilar; o’qishni o'rganishi bilan savdo ishlariga o’rgata boshlaydilar. Bu ma’lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarga va hunarga o’rgatilganligi, ta'limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma’lumot beradi. Zardusht ta’limotida 15 yosh balog’at yoshi sanalgan. Du yoshda ularga davlat qonunlari, axloqiy qoidalar o’rgatilgan. Zardushtiylikning axloqiy qoidalariga binoan insonning o’z burchini his etishining eng birinchi belgisi ma’naviy poklik hisoblangan. “Avesto”da insonning barkamol bo’lib yetishishida ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amallar birligiga katta e’tibor berilgan. Qadimgi ajdodlarimiz insonda juda qadrlaydigan xislatlar jasurlik, adolat, sadoqat, insoniylik bo’lgan. Bu xislatlar o’z-o’zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o’zgarishlar, ibtidoiy urug’chilik-qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikkita katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan. Qadimgi ajdodlar ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, sihat-salomatlik, jismonan chiniqish, mehnat hamda uzoq umr ko’rib yashash uchun yaratgan ta'lim-tarbiya jarayonlari «Avesto»da chuqur ma'no va o’rin egallagan. Markaziy Osiyoni Eron Ahamoniylari, keyinchalik (miloddan avval 329-327 yillarda) Aleksandr Makedonskiy bosib olib, o’zlarining madaniyati, dini va ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish ish usullarini o’rnatganlar. O'sha davrlarda Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar bosqinchilarga qarshi qo’zg’olonlar ko’targan, jiddiy kurashlar olib borgan. Bunday hollarda askarlar va xalqning asosiy jangovorlik qurollari kamondan o’q otish, nayza bilan sanchish, qilichbozlik, turli xil vositalar (to’qmoq, kaltak, bolta, pichoq va h.k.) bo’lgan. Jangchilarning ma’lum qismi otda yurishgan. Bu holat jangchidan ot ustida turib barcha qurol vositalari bilan jang qilish, otni choptira bilish hamda boshqa imkoniyatlardan o'ta ustalik bilan foydalanishni talab etgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 334 yilda 30000 piyoda va 5000 otliq askar bilan kichik Osiyoga, keyin Markaziy Osiyoga jangovar yurish qilgan. 327 yilda hozirgi Buxoro, Samarqand, Panjakent atrofidagi yerlarni bosib olgan. Bunda lashkarboshi Spitamen bosqinchilarga katta qarshilik ko’rsatgan. Lekin uning xotini xoinlik

qilib, Spitamenning boshini kesib, Aleksandr Makedonskiyga topshiradi. Podshoh bu bevafo xotinni hamda 120 ming aholini ham qirib tashlagan, chunki uning ta’biri bo'yicha eriga, eliga vafolik qilmagan ayol boshqalarga vafodor bo’lmaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, madaniyati haqidagi ma’lumotlar Xitoy manbalarida ham uchraydi. Miloddan avvalgi 138 yilda Markaziy Osiyoga kelgan Xitoy elchisi - Chzyan Syan o’zining “Tarixiy bitiklar” kitobida qiziqarli ma’lumotlar qoldirgan. Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg’oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixida va butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o’rin egallagan. Markaziy Osiyodan qadimgi Ipak yo’li o’tganligi bu yerdagi xalqlarning madaniy hayotida katta burulishlarga sabab bo’lgan, Sharq mamlakatlari bilan g'arb davlatlari o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalarni o’rnatgan. Termiz yaqinidagi Ayritom, Xorazmdagi Tuproqqal’a va boshqa joylardan topilgan buyumlar, suyak, tosh, sopolga chizilgan rasmlarda qadimgi kurash, nayza uloqtirish, qilichbozlik, otda jang qilish kabi tadbirlar aks ettirilgan. O’zbekiston hududida qadimgi yashagan xalqlarning turmush sharoitlarida, o’z vatanlarini himoya qilishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish kabi madaniy hamda jangavorlik faoliyatlari alohida o’rin tutadi. Bu davrdagi yashagan xalqlar o’rtasida jangovorlikni oshirish o’z hududlarida osoyishtalikni ta’minlash, xalq farovonligini yuksaltirish uchun o’tkazgan diniy, madaniy marosimlar, to’ylar va turli an’analarida kamondan o’q otish, qilichbozlik va nayzabozlik qilish, kurash, ot o'yinlari hamda boshqa xalq milliy harakatli o'yinlari bilan mashhur bo’lganlar. Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og’zaki ijodida, ayniqsa, ko’proq ifodalangan. «Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o’q otish merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug’ insoniy fazilatlar madh etilgan. «Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarining bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o’ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an’analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichbozlik, kurash, kamondan o’q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda dushmanlar bilan mardonavor jang qilishgan yigit va qizlar timsoli tasvirlanadi. Xalq og’zaki dostonlarida xalq irodasi, yigit-qizlarning muhabbat, sadoqat, jasur, botir, pahlavon, chavandoz kabi sifatlari o’z ifodasini topgan. Xalq milliy o’yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo’lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko’p janrlardagi san’at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo’lib kelayotgan qator harakatli o’yinlar va sportga xos o’yinlar ham juda ko’p. O‘zbek xalq o‘yinlari va milliy jismoniy mashqlarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:1 kamondan o’q

otish; qilichbozlik; 2 kurash (buxorocha, farg'onacha, xorazmcha usullar); 3 ot o'yinlari (poyga, olomon poyga, ko'pkari, uloq va h.k.);4 kuch sinashish (tosh ko'tarish, arqon tortishish, ot, buqa, tuya ko'tarish); 5 dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar); 6 harakatli milliy o'yinlar; 7 yugurish musobaqalari (batba); 8 ov qilish (o'rgatilgan qushlar bilan –lochin, burgut va h.k). Bunday o'yinlarning deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanilqan. Qadimgi manbalar Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o'rtasidagi vodiyda ot musobaqalari keng tarqalgan. So'g'diyona va Baqtriyada kurash, ot poygasi, uloq, dorbozlik juda ommalashgan. Milodiy IV-V asrlarda yangi ijtimoiy siyosiy munosabatlar yuzaga kelib, Xorazm, Farg'ona, Shoshda yangi davlatlar vujudga kelgan. Nafaqat harbiy yurishlar, balki savdo-sotiq maqsadlari uchun ham chiniqqan chavandozlar va otlar kerak bo'lgan. Bu esa ot musobaqalarining ommalashib ketishiga sabab bo'lgan.

## 10.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaxs tarbiyasi.

**(Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) shaxs tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o'ziga xosligi.**

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mamlakatlari jahon madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' allomalar, buyuk olimlar, mohir sarkarda va davlat arboblari bilan mashhurdir. Milliy madaniyat taraqqiyotida O'zbekiston dunyo davlatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o'ziga xos xususiyatlari, o'zining geografik va tabiiy qulayliklariga ko'ra qadimdan insoniyat tarixining ilg'or madaniy markazlaridan joy olib kelgan. VII asr boshlarida Arab xalifaligi tashkil topib, unung tarkibiga butun Arabiston yarim oroli, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya kiritilgan. VII asr o'rtalariga kelib esa arab bosqinchilari tomonidan Markaziy Osiyo yerlari ham zabt etilgan edi. Arablarga qarshi mahalliy xalqlar uzoq yillar davomida urush olib borganlar. Lekin arablar bu yerlarni to'la istilo qilib, o'z dini va madaniyatini o'rnatish, Markaziy Osiyo xalqlarini islom diniga bo'ysundirishga erishdilar. Arab xalifaligining amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, ma'naviy hayotga ham ta'sir etdi. Islom qadriyatlari xalq ma'naviy hayotining uzviy qismi sifatida uning turmush tarzidan, hatti-harakatidan munosib o'rin oldi. Islom dinida musulmonlar jismni toza tutish, dam olish, bolalarni yoshlikdan odobli bo'lishga o'rgatishga da'vat qilindi. Lekin ayollarning erkinligi, ochiq yuz bilan yurishi, avvalgidek erkaklar bilan birgalikda teng mehnat qilishi, kurash, ot o'yinlarida bellashuvi taqiqlangan edi. VII-VIII asrlarda Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish – «Sharq Renessansi» – Uyg'onish davrini boshlab berdi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va ning o'g'li Ma'mun davrida Bag'dodda "Baytul hikma" (Donishmandlik uyi)

Akademiyasi tashkil etilgan. Butun Sharqda bo'lgani kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma'rifatining buyuk namoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmda dunyoga kelib, 847-850 yillar oralig'ida Bag'dodda vafot etgan. Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. «Al kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala» asarida («Aljabr va al hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni yechish yo'llarini bayon etadi. Risola 3 qismdan iborat bo'lib, birinchisi – algebraik qism, uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim keltiradi. Ikkinchi – geometrik qism algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida, uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb nomlagan. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishiga katta e'tibor bergan. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatilganlarni tushuntira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishiga katta baho beradi. Xorazmiy bilim berishning ko'rgazmali tajriba usullari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan foydalangan. Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, «mantiqiy» bayon, bilish esa haqiqiy, bilishning muhim tomonini namoyon etadi. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shgan. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov usullariga asos solgan, samoviy jismlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida, matematik masalalarni algoritm usulida yechishni ishlab chiqqan. U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zaruriyati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari natijasida yuzaga kelishini asoslagan.

Abu Nasr Forobiy (873-950). O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan so'ng Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimi soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy (to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zluq ibn Tarxon al-Forobiy) Shosh-Toshkentga yaqin Forob degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobiy Bag'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi. Ba'zi manbalarda Forobiy 70 dan ortiq tilni bilganligi haqida aytilagan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari

to’g’risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o’z ifodasini topgan. Forobiy inson kamolotga yolg’iz erisha olmaydi, boshqalar bilan aloqada bo’lish, ularning ko’maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo’ladi, deb hisoblagan. Bunga Forobiy ta’lim-tarbiyani to’g’ri yo’lga qo’yish orqali erishish mumkin, degan. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolotga yetkazadi. Inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to’g’ri bilib oladi va hayotda to’g’ri yo’l tutadi, boshqalar bilan to’g’ri munosabatda bo’ladi, jamiyat tartib-qoidlariga rioya qiladi. Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi- jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – insonga o’qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya – nazariy fazilatlarni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo’lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o’rgatishdir, deb takidlagan. Forobiyning ta’lim-tarbiya yo’llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go’zal fazilatlar ikki yo’l – ta’lim va tarbiya yo’li bilan hosil qilinadi, degan. Ta’lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug’ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so’z va o’rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, degan. Insonning kamolotga yetishishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o’zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy tavsiya etgan ta’lim va tarbiya usullari hozirgi davrda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida yashagan va ijod qilgan. Abu Rayhon Beruniy Xorazmning Qiyot shahrida dunyoga kelgan. Beruniy xorazm tili bilan birga so’g’diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili - sanskritni ham o’rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiya sohalari bo’yicha ham chuqur bilimga ega bo’lgan. Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozgan. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O’rta Sharqqa mashhur qilgan. Beruniy yana «Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo’yicha ma’lumotlar to’plami» («Mineralogiya»), «Dorivor o’simliklar haqida kitob» («Kitob as-saydona fi-t-tibb») kabi asarlarni ham yozgan. «Mineralogiya» Sharqdagina emas, Yevropada ham mashhur bo’lgan. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo’llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Beruniyning asarlarida, o’quvchiga bilim berishda: o’quvchini 1. zeriktirmaslik; 2. bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o’rgatavermaslik; 3. uzviylik, izchillik; 4. yangi mazvularni qiziqarli, ko’rgazmali bayon etish kabi jihatlarga e’tibor berish kerakligi uqtiriladi. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning

muhim o’rnini ta’kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-saydona», «al-Qonuni al-Mas’udiy», «Geodeziya» va boshqa asarlarida ko’rish mumkin. Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo’lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o’zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi, degan. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi: irsiyat, muhit, tarbiya. Bu hozirgi davr pedagogikasida ham e’tirof etilgan. Yoshlarni tarbiyalashda axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi muhim ahamiyatga ega, degan olim.

Abu Ali Ibn Sino Abu Ali Ibn Sino (980-1037). Jahon tibbiyot fanining buyuk olimlaridan biri Ibn Sino falsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko’p sohalarni mukammal bilgan donishmanddir. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos ko’p. Abu Ali Ibn Sinoning eng mashhur asari «Tib qonunlari» bo’lib, alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asar boshqa xalqlar tillariga tarjima qilishgan. O’zbek tilida ilk bor 1153-yilda, keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etilgan. Respublika hukumati va jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 1980-yilda Buxoroda Abu Ali Ibn Sinoning tavalludiga 1000 yil to’lishi munosabati bilan katta ilmiy anjuman o’tkazilgan. Bunda Ibn Sinoning asarlarida ta’lim-tarbiya va jismoniy tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilganligi ta’kidlangan. Mutafakkir olimning 30 dan ortiq tibbiy asarlari shu kungacha yetib kelgan. Muallifning asarlarida jismoniy tarbiyaning mohiyati, jismoniy mashqlarga oid ilg’or fikrlari va amaliy mashqlar mazmuni uchraydi. Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuiy tadbirlarda berib borgan. Ibn Sino ilk bor har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beruvchi ta’limni, ya’ni jismoniy mashqlarning klassifikatsiyasini yaratib bergan. Ibn Sinoning fikricha, «Sog’liqni saqlashning asosiy tadbiri - badan tarbiyadir». «Tib qonunlari» kitobning birinchi qismi inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag’ishlangan. Kitobda inson tanasi va uning a’zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan. Ibn Sino o’z asarlarida jismoniy mashqlar kishining yoshiga, jinsiga, sog’lig’i, salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o’tkazish kerakligi haqidagi tavsiyalari juda muhimdir. Ibn Sino faoliyati va tajribalari asosida bolalik, o’smirlik, yigitlik va qarilik davrlarida kishi jismoniy mashg’ulotga turlicha munosabatda bo’lishi kerakligi masalalari bo’yicha alohida ko’rsatmalar bergan. Bu ilmiy-pedagogik ta’lim merosi jahon xalqlari jismoniy madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo’shgan. Ibn Sino «Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakat», deb ta’rif bergan. Ibn Sinoning

ta’kidlashicha, badantarbiya bilan mashg’ul bo'lmay qo'ygan kishi ingichka og'riq (a’zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning a’zolari zaiflashadi. U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga ajratgan: 1) odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari; 2) maxsus badantarbiya harakatlari. Buyuk olim badantarbiya deganda, asosan maxsus badantarbiya harakatlarini nazarda tutgan. Badantarbiya turlari juda ko’p bo’lib, ularni tez, nozik, yengil, kuchli va kuchsiz guruhlarga ajratgan. Ibn Sino tortishish, mushtlashish, yoydan oq otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik, nayzabozlik va otda yurishlarni badantarbiyaning tez bajariladigan turlariga kiritgan. Nozik va yengil turiga arg’imchoq uchish, belanchakda tik yoki yotib uchish, qayiq va kemalarda sayr qilish va boshqa harakatlarni kiritgan. Badantarbiyaning kuchli turiga, kishining o’z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o’ynash, kurash, tosh ko’tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to’xtatish kabi mashqlarni kiritgan. Ibn Sinoning tavsiyasiga ko’ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, ma’lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublari ko’rsatlgan. Turli kasalliklarni davolashda ruhiy ozuqa berish, xursandchilik yo’llarini, ya’ni turli xil sayrlar, sayohatlar, kemalarda suzish, tabiat manzaralaridan bahramand bo’lish omillarini ishlatishni tavsiya etgan. Ibn Sino har bir a’zoning kasalini tuzatish uchun maxsus harakatlar - jismoniy mashqlarni tavsiya etgan. Bunda uqalash mashqlarini ham ko’zda tutib, ularni quyidagi turlarga bo’lgan: 1. gavdani baquvvat qiluvchi kuchli uqalash. 2.gavdani yumshatuvchi kuchsiz uqalash. 3.ozdiruvchi davomli uqalash. 4. gavdani o'stiruvchi mo'tadil uqalash. Olimning fikricha, uqalash dag’al yoki yengil bo’ladi. Dag’al uqalash dag’al latta bilan amalga oshiriladi. Yengil uqalashni yengil mato bilan bajariladi. Uqalashlar asosan bo'shashgan a’zolarni zichlatish, yumshoqlarini qotirish, dag’alini mayin qilish va qattiqlarini yumshatish maqsadida qilinishini bildiradi. Bundan tashqari, badantarbiya bilan bog’liq uqalashlar to’g’risida ham ta'lim beradi: 1) badantarbiyaga tayyorlovchi uqalash; 2) badantarbiyadan keyin qilinadigan uqalash. Uqalash mashqlarining qon aylanish tizimini tezlatish, nafas olishni yaxshilash, hazm qilish a’zolarining ish faoliyatlarini to’g’ri yo’lga solishda muhim ahamiyat kasb etishi allomaning ilmiy-amaliy ta’limida to’la mazmun topgan. Ibn Sino salomatlikni saqlashda dam olish, uyqu va me’yorida ovqatlanish hayotiy zaruriyatligini eng asosiy omillardan deb bilgan. Ibn Sinoning badantarbiya haqidagi ta’limida eng asosiy o’rinlardan birida kurash turlari turadi. Kurashning turlari ham bir nechadir. Ulardan biri: ikki kurashuvchining har biri o’z raqibining belbog’idan ushlab tortadi, shu bilan birga kurashuvchi o’z raqibidan qutilishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa qo’yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo’li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o’ziga tortadi va yonga ag’daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o’ng qo’li ostidan

o’tishi kerak, (kurashuvchilar) goh qadlarini tiklab, goh egiladilar (kurash) turlari yana ko’krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bir kishining bo’ynidan ushlab egish, bir-birovlarining oyoqlarini o’z oyoqlari bilan chalkashtirib, chalib yoki oyoqlari bilan ikkinchisining oyoqlarini yirib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlar ham kiradi, deb yozgan. Ibn Sino inson salomatligini jismoniy tarbiya vositalari bilan yaxshilash va uni kamolotga yetkazishda gavdaning har bir qismi uchun maxsus harakatlar borligini aniq misollarda ko'rsatib bergan. Qo’l va oyoq harakatlari, ko’krak va nafas a’zolarining hamda boshqa barcha a’zolarning tabiiy harakatlarini ishga soluvchi mashqlar majmuasini o’z asarlarida mujassamlashtirgan. Bunda tovush-og’iz bo’shli’g’idagi barcha a’zolarni harakatlantirish, baland-past ovoz chiqarish, tilni chiqarish, tortish, burash, tuflash kabi mashqlarini bergan. Ichki a’zolarni ishga tushirish mashqlariga qayiqlarda, arg’imchoqda uchish, belanchakda tebratish, aravalarda yurish va boshqa mashqlarni tavsiya etgan. Ibn Sinoning jismoniy tarbiyaning eng muhim vositalari sifatida hammomda cho’milish, sovuq suvda cho’milish, suv va ichimliklarni iste’mol qilish, ovqatlanish, uyqu va dam olish tartiblari ham joy olgan. Keksalik davridagi jismoniy tarbiya va umuman safar vaqtlarida fasllarga qarab harakat qilish asoslarini ham ko’rsatgan. Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohalaridagi ilmiy-pedagogik ta’limotini chuqur o’rganish, uni insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy turmush sharoitlariga qarab qo’llash usullari hozirgi davrda ham ahamiyatga ega. Buning uchun jismoniy tarbiya ta’limini aholi orasida keng targ’ib qilish, uning insonlar salomatligini yaxshilash hamda jismoniy kamolotga erishish mohiyatlarini barcha kishilar ongiga singdirish lozim. Ibn Sinoning turli xil kasalliklarni oldini olish va uni davolashda badantarbiya mashqlaridan foydalanish tajribalarini jahonning barcha tadqiqotchilari va tibbiyot ilmining mutaxassislari ham ma’qullaydi.

Amir Temur (1336-1405) – buyuk davlat va siyosiy arbob, yirik markazlashgan davlat asoschisi, sarkarda. Turon davlatining rivoj topishi va madaniyatning taraqqiy etishida Sohibqiron Amir Temurning faoliyati muhim tarixiy ahamiyatga ega. Sobiq Ittifoq davrida Amir Temurning ijobiy xislatlari va amalga oshirgan tadbirlari tilga olinmagan yoki soxtalashtirilgan, aksincha, u josus, bosqinchi, mustamlakachi, deb tavsiflangan. Biroq, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi yirik mamlakatlarda Amir Temur haqida tarixiy dalillar asosida uning ijobiy fazilatlari ta’riflab berilgan. O’zbekiston mustaqilligi tufayli Sohibqiron Amir Temurning haqiqiy faoliyati to’g’risida xalqimizga to’la ma’lumotlar berildi va uning nomi oqlandi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan xalqaro anjumanlar va tadbirlar o’tkazildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurga bag’ishlab katta xiyobonlar barpo etildi va uning haykallari o’rnatildi. Amir Temur hayoti va faoliyatiga mansub manbalar juda ko’p. «Temur tuzuklari»

ilk bor rus tiliga tarjima qilinib, (1894, 1934) Markaziy Osiyo xalqlariga ham yetib kelgan. U qayta nashr etilmaganligi uchun deyarli sobiq Ittifoq davrida Amir Temur to'g'risida bironta ijobiy baho beruvchi kitob bo'lmagan. Buyuk davlat arbobi Amir Temur o'z saltanatini idora qilganligi va jahon xalqlariga islom dini ma'rifatini yoyish haqida amalga oshirgan faoliyatlarini «Temur tuzuklari» kitobida bayon qilib bergan. «Temur tuzuklari»da qo'shin va askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan alohida boblari mavjud bo'lib, bunda piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik, jangchining harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi, eng baland tog'li joylardan o'tish, daryolardan o'tish haqida batafsil bayon qilingan. O'sha davrlardagi piyoda, otda yurish hamda jang qilish jarayonlari juda murakkab bo'lgan. Bir necha kunlab tinmay piyoda yurish, qilich, nayza, to'qmoq, xanjar va boshqa qurol-aslahalarni ishlatish, dushmanni yengishda oyoq-qo'l, gavda kuchlari, epchillik, tezlik, hushyorlikni talab etgan. Fursat kelganda raqibi bilan yakkama-yakka kurashib, uni yiqitish, taslim qilish uchun qanchadan-qancha amaliy kuch, mahorat, ustomonlik, jasurlik kerak bo'lgan. Amir Temur o'zining amirlari, vazirlari, mingboshi, yuzboshi, o'nboshi va askar yigitlariga ko'p mashqlarni o'zi o'rgatgan, shogirdlar tayyorlagan. Otda jang qilishda qilich, nayza, kamon-yoy, to'qmoq, kaltak, qamchi, arqon va hokazolardan foydalangan. Bu qurollar bilan jang qilish mahoratiga barcha askarlar mukammal ega bo'lishi shart bo'lgan. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo'lgan. Jangchilar yakkama-yakka ot ustida olishuv, tortishuv, ag'darish kabi harakatlardan ham foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga o'rgatgan. Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog'larga sayr qilish bilan o'tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog'larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o'ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ularni poyga, kurash, qilichbozlik, ko'pkari kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Shaharlardagi qal'alarni egallashda narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalanganlar. B.Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida tog'dagi yurish va janglar haqida shunday yozgan: «Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba'zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo'qlar sirpanib daraga tushdilar. Hazrat Sohibqiron maxsus o'zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho'p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig' urmasdan, yana bir tog' cho'qqisiga ko'tarildilar.
Yana ikki kun shu tariqa kechdi». Daryolardan o'tganda esa suzish, qayiqlarni boshqarish, tezkor va katta daryolardan kechib o'tishda havo to'ldirilgan meshlar yordamida keng joylardan suzib o'tish usullaridan foydalanganlar. Amir Temur jangovorlik faoliyatida manzilga to'g'ri yo'l topib borish, yo'lda quyosh, oy, yulduzlardan foydalanishni yaxshi bilgan. Amir Temur faoliyatida harbiy-jismoniy mashqlardan foydalanish eng ustuvor tadbirlardan biri bo'lgan.

Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530) - Temuriylar orasida davlatni idora qilish, madaniy-marifiy jihatdan tarixda katta o’rin egallagan. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiqroq hukm surgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi, Farg’ona davlatining hokimi bo’lgan. Bobur yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqqan, Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» (Sher) taxallusini olgan. Otasining vafotidan keyin (1494 y.) 12 yoshida taxtga o'tirgan. Qisqa qilib aytganda, u taxt uchun bo’lgan kurashlarda mag’lubiyatga uchrab, o’z yaqinlari va askarlari bilan Afg’oniston, Hindistonga yurish qilib, bir umr o’sha yerda hukmronlik qilgan. Bobur o’z hayoti, zamonasi va barcha voqealarni «Boburnoma» asarda yozib qoldirilgan. Unda Hindiqush tog’laridan otda uzoq mamlakatlarga o’tgani, tog’u-toshlarda chiniqish uchun yalangoyoq yurgani, kuch-g'ayrat to'plab jang qilgani haqida hikoya qilgan. Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimlar o’z jangchilarini jang qilish san’atini o’rgatish bilan birgalikda, askarlarni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo’lishiga, ularni jangovorlik ruhida tarbiyalashga e’tibor berganlar. Buyuk sarkarda Amir Temurning yoshlarni harbiy va jismoniy tayyorlashdagi amaliy faoliyatlarini o’rganish bugungi kunda juda dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan. Xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o’ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo’nalishlari va ilmiy-nazariy jihatlarini mukammal o’rganish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

**TEST TOPSHIRIQLARI:**

**1.Saklar, massagetlar va forslarning eng sharaflaydigan narsasi qaysi fazilat bo’lgan?**

A. jasurlik B. adolatlilik S. to’g’riso’zlik D. saxiylik

**2. Kimlar o’g’il bolalarni 5 yoshdan 20 yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurishga, kamondan otish, to’g’rilikka o’rgatishgan?**

A.saklar
B.massagetlar
S.greklar
D.makedoniyaliklar

**3.Saklarning tartibiga ko’ra o’gil bolalar 5 yoshigacha otalariga ko’rsatilmagan. Nega?**

A. Mabodo o’g’il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun
B. Otalar ko’pincha janglarda yurganlari uchun
S. Otalar o’g’illarini erkalatib yubormasliklari ucun
D. O’g’il bolalar maxsus tarbiyachiga berilgani uchun

**4. Qaysi ta’limot asosida Markaziy Osiyo davlatlarida ham ayollarning erkinligi, ochiq yuz bilan yurishi, avvalgidek erkaklar bilan birgalikda teng mehnat qilishi, kurash, ot o’yinlarida bellashuvi taqiqlangan edi?**

A. islom ta’limoti asosida

B. budda ta’limoti asosida
S. yahudiylik ta’limoti asosida
D. zardo’shtiylik ta’limoti asosida

**5. “Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba’zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo’qlar sirpanib daraga tushdilar. … maxsus o’zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho’p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig’ urmasdan, yana bir tog’ cho’qqisiga ko’tarildilar” fikri kim tomonidan kimga nisbatan aytilgan?**

A. B.Ahmedov tomonidan A. Temurga
B. Rui Gonsales tomonidan A. Temurga
S. Gerodot tomonidan saklarga
D. Gerodot tomonidan massagetlarga

**Savol va topshirislar**

1. A.N.Forobiyning tarbiyaga oid qanday fikrini bilasiz?
2. A.A.Ibn Sino qaysi asarida jismoniy tarbiya haqidagi fikrlarini bayon qilgan?
3. A.R.Beruniy shaxsning shaklanishiga ta’sir etuvchi qaysi 3 omilni ta’kidlagan?
4. Markaziy Osiyoda XIV asrda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amaliyotda qo’llagan shaxs kim?
5. To’marisning Kirga nisbatan qo’llagan siyosatini bugungi kunda qanday ahamiyati bor?

## 11-Mavzu: Zamonaviy tarbiyada media. Mediasavodxonlik va mediatarbiya. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o’rni.

**Reja:**

**1.Zamonaviy tarbiyada media. Zamonaviy shaxs hayotida medianing o‘rni. Media turlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Mediasavodxonlik va mediatarbiya. Media va axborot savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Mediatahdid, mediaxavfsizlik.**

**2.Axborotlashgan jamiyatda mediatarbiya. Mediamadaniyat muammolari. Mediamadaniyat va tarbiyani rivojlantiruvchi omillar. Yoshlarda axborot tahlili va immunitet hosil qilish vositalari.**

**3. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o’rni.**

**Hayot bu-10% i sizga nima bo`lishi va**

**Qolgan 90% i sizning unda qanday**

**munosabatda bo`lishingizdir.**

**Charles R. Svindoll.**

***Tayanch so‘zlar:*** **media, media turlari, mediasavodxonlik, mediatarbiya, mediatahdid, mediaxavfsizlik.**

**11.1.Zamonaviy tarbiyada media. Zamonaviy shaxs hayotida medianing o‘rni. Media turlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Mediasavodxonlik va mediatarbiya. Media va axborot savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Mediatahdid, mediaxavfsizlik.**

Insoniyat paydo bo‘lganining birinchi onlaridan boshlab asosiy yumushlaridan biri- bu axborot almashish, ya’ni, bir-biri bilan avvaliga imo-ishora, keyinchalik esa nutq rivojlangandan so‘ng nutq orqali informatsiya almashinuvini yo‘lga qo‘yish bo’lgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab media bilan hamnafas yashab kelmoqda

“Media so‘zi ingliz tilidagi “Mediator” so‘zidan olingan bo‘lib, vosita degan ma’noni bildiradi.

Media turli xil ma’lumotlarni aholiga yetkazish vosita va turlari. Media aloqa va axborot uzatish vositalari. Mediani nima ekanligini bir ikki og‘iz gap bilan tushuntirib berib bo‘lmaydi u juda katta qamrovli tushunchadir. Media qachon paydo bo‘lgani haqida juda ko‘p taxminlar bor. Agar uning qoidasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, odamzotga tarixda birinchi axborotni bergan narsa media hisoblanadi. Xo‘sh bu birinchi axborot yo ma’lumot o‘zi nima bo‘lgan ekan? Xammurapi qonunlari, muqaddas “Qur’on” kitobi, Misr ehromlaridagi iyerogliflar ko‘rinishidagi toshlarga o‘yib yozilgan birinchi yozuvlarmi? Balki jarchilardir?

Jurnalistika oliy ta’lim maskanlarida jurnalistikaning birinchi ko‘rinishi haqida gap ketganda, shubhasiz jarchilarni misol qilib keltirishadi. Ammo media jurnalistikadan oldinroq paydo bo‘lgan. Shunday ekan medianing birinchi ko‘rinishi deb toshdagi bitiklarni misol qilib keltirsak haqiqatga yaqinroq bo‘lsa kerak. Odamlar birinchi tasvirlarni toshlarga yozuv yo surat misolida tushirishgan va ushbu toshdagi bitiklar va rasmlar bugun bizga tarixni o‘rganishda juda katta yordam berib kelmoqda.

Medianing bugungi kungacha bo‘lgan shakllanish bosqichlari:

1.Toshlardagi bitiklar.

2. Hayvonlar terisiga yozilgan kitoblar va bitiklar.

3. Qog‘ozning ixtiro qilinishi.

4. Jarchilar xizmatining yo‘lga qo‘yilishi.

5. Teatrlarning paydo bo‘lishi.

6.Kitob bosishning boshlanishi.

7.Radioning kashf etilishi.

8.Televideniening paydo bo‘lishi.

9.Internetning paydo bo‘lishi.

Toshlardagi bitiklar, hayvonlar terisiga yozilgan yozuvlar, ulardagi suratlar medianing ilk shakllanish bosqichidir. Ularning ayrimlari bizgacha yetib kelgan va bugungi kunda dunyoning mashhur muzeylarida saqlanib kelinmoqda.

Keyingi bosqich media olami rivojlanishi yo‘lida eng katta qo‘l keldi va mediani tom ma’noda yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu bosqich qadimgi Xitoyda qog‘ozning ixtiro bo‘lishi bilan aloqadordir. Bugungi kunda hayotimizni qog‘ozsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Gazeta, jurnal, kitob bular qog‘oz orqali insoniyat erishgan eng katta yutuqlar, desak mubolag‘a bo‘lmas. Qadimda qog‘oz ixtiro qilingandan so‘ng qo‘lyozma bitiklar yanada ko‘paydi. Yana bir bosqich jurnalistika bilan aloqador ya’ni, jurnalistikaning birinchi ko‘rinishi bu-jarchilar. Qadimda har bir podshohlikda bir necha o‘nlab jarchilar faoliyat olib borishgan. Ularning asosiy vazifasi, o‘sha davr podshohlarining amr, farmon, qonun va e’lonlarini baland ovozda odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda aholiga yetkazish bo‘lgan. Teatrlar ham medianing bir bo‘lagi hisoblanadi, chunki teatrdagi tomoshalar orqali ham aholi o‘ziga kerakli ma’lumotlarni olishgan va madaniy hordiq chiqarishgan. Iogan Gutenberg tomonidan chop etish mashinasini ixtiro qilinganidan so‘ng kitob va gazetalar shakl jihatdan bugungi biz ko‘rib turgan holatga keldi. Bu ham media sohasida juda katta o‘zgarishlardan biri edi. Aleksandr Popov tomonidan ixtiro qilingan radiopryomnik keyinchalik radioning asosiga aylandi. Bugun radio medianing ajralmas qismi va qadimgi jarchilar o‘rnini bosmoqda. Televideniyening paydo bo‘lishi, kompyuter va internet resurslarini rivojlanishi medianing globallashuvini yanada tezlashtirdi va bugungi kunga kelib media har bir xonadonga kirib bordi. Chunki bugun qo‘lida telefon, uyida televizor, radio yoxud umrida bir marta bo‘lsa ham gazeta varaqlamagan insonni topish amri mahol.

Savodxonlik haqida gap ketar ekan birinchi o‘rinda, ko‘p kitob o‘qigan, savollarga tez javob bera oladigan, odobi va o‘zining xulq-atvori bilan boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan odamni tushunamiz.

Savodxonlik haqida adabiyotlarda nima deyishadi: “ilgari savodxonlik haqida gap ketganda insonning ma’lumoti, uning yozma va og‘zaki nutqi, fikrlash kengligi va tafakkuri ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu tushuncha, inson faoliyatining ko‘p sonli yo‘nalishlarini shu jumladan, axborot, media va raqamli kommunikatsiya vositalari bilan bog‘liq faoliyatini qamrab oladi”.

Bu degani, bugungi kunda savodxon bo‘lish uchun kitob o‘qimasa ham bo‘laveradi degani emas. Aholining ma’lum bir qatlamida shunday aqidalar ham mavjud. Kitob o‘qish har zamon va davrda savodxonlik asosi bo‘lib kelgan. Millatimiz qadimdan kitobxon xalq bo‘lib kelgan. Kitob o‘qish savodxonlikning asosi hisoblanadi, zamonlar osha yangi texnologiyalar paydo bo‘la boshladi va bu

kitobxonlikdan tashqari texnika rivoji bilan ham hamnafas bo‘lishga bizni chorlaydi. Ya’ni savodxonlik uchun endi tarozining ikki pallasini birdek olib bormoq kerak. Bu tarozining birinchi pallasida kitob o‘qish, ikkinchi pallasida esa zamonaviy texnologiya bilimdonligi.

Savodxonlik qaysi vaqtdan boshlanadi yoki savodxonlikning birinchi alomatlarini biz qachon qabul qilishni boshlaymiz?,- degan savol paydo bo‘ladi. Bir buyuk insondan xuddi shu savolga javob so‘rashadi: “Bizni savodimizning boshi otalarimiz aytgan ertaklardan ildiz oladi”, ya’ni, biz yovuzlik va yaxshilikni, oq va qorani bir-biridan ajratishni ertaklardan o‘rganganmiz, keyinchalik maktab, oliy ta’lim maskani, tajriba orqali savodxonligimiz ortib boraveradi. Yoshligida ertak eshitib katta bo‘lgan yoshlar ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqi, xulq-atvori, xarakteri jihatidan boshqa bolalardan tubdan farq qiladi.

Xullas, mediasavodxonlik deyilganda- ommaviy axborot vositalari bo‘yicha savodxonlik nazarda tutiladi. Nima uchun bizga mediasavodli bo‘lish muhim?

Bugun mediasavodxonlik XXI asr odamlari uchun eng zarur bo‘lgan ko‘nikmaga aylandi. Xuddi o‘qish, yozish qobiliyati kabi bu juda muhim ko‘nikma. Sababi, bugungi kunda odamlar media dunyosida yashaydilar, turli axborot manbalaridan foydalanadilar. Albatta, har kim bu ma’lumot qanchalik foydali yoki zararli bo‘lishi mumkinligini o‘zi o‘ylashi kerak. Shu ma’noda media axborotlar oziq-ovqatlar bilan taqqoslanadigan metafora. Biz aynigan ovqatni yemaymiz. Juda yog‘li yoki juda achchiq taomni iste’mol qilmaymiz. Albatta, bu masalada insonni o‘zi nimani tanlashini hal qilishi kerak. Axborotlar ham xuddi shunday. Turli ta’mli mahsulotlar tanlanishi mumkin, ammo aynigan ya’ni, yolg‘on, fikrni buzuvchi ma’lumotlarga ega bo‘lish, ularni o‘qish, iste’mol qilish kerak emas. Bu metafora, axborot dunyosida hozir nima sodir bo‘layotganini juda yaxshi ko‘rsatib beradi. Fast fud (tez pishadigan taom) kabi hamma narsani iste’mol qiladigan odamlar bor. Sifatli mahsulotni tanlab, saralab o‘qiydigan, tinglaydigan odamlar ham mavjud. Ammo, bu ma’noda qaraydigan bo‘lsak, inson uchun axborotdan keladigan xavf oziq-ovqatnikidan kam emas. Agar biz fast fudni iste’mol qilsak nima bo‘ladi? Biz ortiqcha vaznni orttirib olamiz. Mobodo biz sifati past ma’lumotlarni o‘qisak, unda dunyo haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lamiz. Ehtimol, ba’zi firibgarlar bizni aldab ketadi.

Bugungi kunda post-haqiqat fenomeni mavjud, bu shunday izohlanadi: har bir kishi har qanday fikrning tasdig‘ini internetdan topishi mumkin. Bu yangi hodisa, internet paydo bo‘lgunga qadar bu holat kuzatilmagan. Sababi, hammaning ham o‘z fikrlarini yoza olish imkoniyati bo‘lmagan. Kitob nashri misolida ko‘radigan bo‘lsak, kitob matni yozilgandan so‘ng, unga boshqa birov taqriz yozadi, muharrir esa fikrlarni ko‘rib chiqib, ularni qaytadan tekshiradi. Bugungi kunda har bir tarmoq foydalanuvchisi veb-sayt yaratishi mumkin. Unda yangi akkaunt ochib xayoliga

kelgan narsani yozishi mumkin. Internetda har xil g‘alati, ba’zida esankiratib qo‘yadigan, dahshatli qandaydir nazariyalar paydo bo‘lmoqda. Ular gohida oddiy va kulguli, bir yoqlama, lekin ular dinga, masalan, millatga nisbatan radikal bo‘lishi mumkin. Bu esa juda qayg‘uli holat. Internetning ochiqligi kishini tashvishga soladi, negaki odamlar hali ham ma’lumotlar bilan ishlashni yetarli darajada o‘rganmagan.

Mediasavodxonlikni oshirish uchun ma’lumotlarni, manbani tekshirish kerak. Buning uchun esa bizda bilim, ko‘nikmalar zarur. Ya’ni, agar siz biron bir yangilik, xabar yoki biron-bir veb-saytga ilovani uchratsangiz bu qanday manba? Buni kim chop etmoqda? Buni do‘stingiz sizga yuborgan bo‘lsa ham, siz asosiy manbani topishga harakat qilishingiz zarur. Keyin bu o‘ylab topilgan, uydirma yangiliklar sayti bo‘lib chiqishi ham mumkin. Bunaqa hollar ham uchraydi, albatta. Yoki bu ishonchli bo‘lmagan ba’zi bir akkaunt bo‘lishi mumkin. Bunday akkauntlarni aniqlashni o‘rganish ham juda muhim. Bu haqda nima deyish mumkin? G‘alati ismlar, Muallifning yo‘qligi, fotosuratlar va xabarlar juda g‘alati, masalan: ko‘plab repostlari bor. Bunday odamlarning shaxsiy fotosuratlari kam bo‘ladi do‘stlarning akkauntida ham qayd etilgan fotosuratlari bo‘lmaydi. Masalaga prinsipial yondashadigan bo‘lsak, bu masala asosiy manbani topishga arziydi. Keyin ma’lumotni kim tarqatganiga e’tibor bering: bu qandaydir g‘alati akkaunt yoki sayt. Yana bir muhim ishni qiling: ushbu mavzu bo‘yicha umuman biror narsa qidirishga harakat qiling. Hozir ko’pchilik ijtimoiy tarmoqlarni juda yaxshi bilishadi, ular bu kabi tarmoqlarda post yozishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin, Shu ma’lumotdan nusxa olib uni internetdagi qidiruv tizimiga qo‘yishning o‘zi kifoya. Qidirish mexanizmi ushbu ma’lumotlar dastlab joylashtirilgan saytlarning ro‘yxatini topadi. Siz aynan shu usulda feyk, ya’ni, soxta ma’lumotni fosh qiladigan maqola topishingiz mumkin. Ya’ni, qidirish yana bir qadam, juda muhimdir. Chunki ko‘pincha bu soxta narsalar yillar davomida aylanib yuribdi va siz ularni ancha oldin qilinganligi haqidagi yozuvlarni topishingiz mumkin. Uchinchi narsa, men shubhali munosabatni rivojlantirishni taklif qilaman. Bu tanqidiy fikrlashdir. Tanqidiy salbiy ma’noda emas, balki sog‘lom skeptitsizm. Nima uchun men bu narsani yozgan odamga ishonishim kerak? Balki tekshirib ko‘rish kerakdir.

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi mediasavodxonlikka ega bo‘lish zaruratini qo‘ydi. An’anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan. Bugun mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o‘ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko‘rayotgan,

mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko‘rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo:

-Huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;

-OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;

-Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

-Insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma’lumotlarni “o‘qiy olish”;

-OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

Axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlari unda aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Mediasavodxonlik» (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas’uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik harakat bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat.

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimediasavodxonligi o‘z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Medisavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to‘g‘ri savol bera olishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo‘shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto‘g‘ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko‘ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko‘payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga ta’sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur, degan fikrlar ko‘paymoqda. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o‘tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o‘rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata’lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta’lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata’limni ilmiy tadqiq etishga urinishlar bo‘lib, O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikova va boshqalarning tadqiqotlari bunga misol bo‘la oladi. 2002-yili pedagogika oliy ta’lim yurtlari uchun mediata’lim ixtisosligi bo‘yicha yo‘nalish ochildi. 2005-yili esa YUNESKO homiyligida “Mediata’lim” darsligi yaratildi va Rossiyada kinota’lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi.

OAV orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta’siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, OAV orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. 1874 yilning 9 noyabr kuni New York Herald gazetasida reportyor T.B.Konneri tomonidan Sentral Park hayvonot bog‘ida yirtqichlar chiqib ketib, “ikki yuzga yaqin odam jarohatlangan, toptalgan bo‘lib, oltmish nafari og‘ir ahvolda. Ulardan uchtasi ertalabgacha yetib bormasligi mumkin. O‘n ikkita yirtqich hayvon hamon erkinlikda. Ular qaerga yaqinlashganligi hozircha noma’lum” deya yolg‘on xabar bosib chiqarilib, uning oxirida gazeta mushtariylari xavotirga tushmasliklari, bularning barchasi uydirma ekanligi yozilgan edi. Ammo ko‘pchilik xabarning aynan shu joyigacha yetib kelmay, yashirinishga, ba’zilar esa qo‘lga qurol olib yirtqichlarni o‘ldirish uchun hattoki ko‘chaga chiqishgan. 1939 yili CBS radiostantsiyasi Orsona Uelles tomonidan Mercury teatrida Gerbert Uellsning “Dunyolar urushi” romani asosida qo‘yilgan asarining radiopostanovkasini efirga uzatayotgan paytida ommaviy tartibsizliklar yuz bergan. Roman syujetiga ko‘ra, marsliklar yerni bosib olib, millionlab insonlarni gaz bilan zaharlaydilar. Ko‘pgina odamlar radiopostanovkaning birinchi qismini eshitgan daqiqalardan boshlab qochishga, “dushmanlar”dan yashirinishga harakat qilishgan. 1835 yili birinchi Amerika tabloidi New York Sun jurnalist Richard Adame Lokkning ingliz astronomi oyning yuzasida aqlli jonzotlarni teleskop orqali ko‘rganligi haqidagi yolg‘on xabarni bosib chiqaradi. Natijada gazetaning adadi o‘sha payti eng yuqori

koʻrsatkich -19 ming donaga yetadi. Hattoki, xristian ayollar jamiyati ularni nasroniy diniga kiritish uchun Oyga uchish taraddudiga ham tushishadi.

Bugun OAVning ta'siri oʻsha paytdagidan kam emas. Aynan axborotni tahlil etmay, oʻz holicha qabul qilish oqibatida dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qoʻl urmoqda, oʻzini kino asari qahramoni sifatida his qilganlar esa, "qahramon" hatti-harakatlarini takrorlagan holda qoʻllariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin boʻlishmoqda. Masalan, respublikamiz telekanallari orqali efirga uzatilgan "Jumong" serialidan soʻng yosh bolalarning oʻzini "Jumong" his qilib, qoʻlida "qilich" bilan urisha boshlaganliklari, AQShda jangari filmlari va kompyuter oʻyinlarini koʻrgan maktab oʻquvchilari haqiqiy qurol bilan sinfdoshlari va koʻchadagi begunoh odamlarni otganliklari haqidagi xabarlar tobora koʻpayib bormoqda. Bugungi kunda terrorchi guruhlar tomonidan internet orqali jihodga chaqirgan, "jannat" va'dasini oʻzida mujassam etgan axborotlari yoshlar ongiga salbiy ta'sirini koʻrsatmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondoshish bugun zamon talabidir.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni mediasavodxonlik, mediata'lim, mediani oʻrganish va boshqalar bir-biri bilan bogʻliq boʻlsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bogʻliq qismidir. Shu bilan birgalikda uning koʻrinishlari koʻpaymoqda. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata'lim, mediani oʻrganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qoʻllanilayapti.

Mediata'lim (media education):

– media oʻquv dasturida integrallashgan, fanlararo asosida oʻrganilishini;
– «mediamavzu»ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;
– amaliy ish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;
– uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini oʻrganishni;
– mediaagentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini oʻrganishni;
– talabaning OAV bilan ishlashini;
– tadqiqot faoliyatini;
– medianing til va san'at orqali auditoriyaga ta'sirini oʻrganadi.

Mediani oʻrganish (media studies) oʻz navbatida:

– mediani nazariy jihatdan oʻrganishni;
– mediani qiyosiy jihatdan tahlil etishni;
– uning kontseptual tarkibini;
– mediamatnni tahlil etish va uning yaratilish metodikasini;
– ommaviy kommunikatsiya, kinosan'ati va madaniyatshunoslik fanlarining oʻzaro bogʻliqligini;
– jahon OAVning bir-biriga oʻzaro ta'sirini oʻrganadi.

Media savodxonlik (media literacy) mediani oʻrganish boʻlib, mediata'limning quyidagi natijalariga asoslanadi va oʻz oldiga:

– medianing shaxs va jamiyatga ta'sirini tushunish;
– ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;

– mediamatnlarni tushunish va tahlil eta olish;
– media kontekstini tushunish;
– mediamatnlarni yaratish va ularni tahlil etish;
– mediamatnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo‘yadi.

Bugungi kunda media, ya’ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san’atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma’lumot inson ongiga o‘zining ma’lum bir ta’sirini o‘tkazib, uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo‘llanilishi va bugungi kunda mediata’lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o‘rganishga bo‘lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Ayni paytda mediata’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasiga o‘quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘ladi.

**11.2.Axborotlashgan jamiyatda mediatarbiya. Mediamadaniyat muammolari. Mediamadaniyat va tarbiyani rivojlantiruvchi omillar. Yoshlarda axborot tahlili va immunitet hosil qilish vositalari.**

Hozirgi zamon jamiyati hayotini axborotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu axborotlardan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta’minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish, ilg'or axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash keng ko‘lamda amalga oshiriladi va bu o‘z navbatida axborotlashgan jamiyatni tezlik bilan shakllanib borishiga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonlarida axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo’qolib bormoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va o’zgartirish, yo’qotish kabi muammolardan yoshlarni himoya qilish dolzarb masala bo’lib qoladi. Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSH strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko’ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg’i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko’ra bir necha barobar ko’p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o’z shaxsiy manfaatlariga o’ta arzon, o’ta qulay yo’llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu

nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda.

Shuning uchun ham davlatlarning milliy xavfsizligini ta’minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda. Shu nuqtai-nazardan globallashuv jarayonlarining dolzarb mavzularidan biri sifatida informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda yosh avlodda media savodxonlik va axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo’lgan yoshlar aholing 40 foizini, 30 yoshgacha bo’lganlar esa 64 foizdan ko’prog‘ini tashkil etadi. Mana shu yosh avlodda media savodxonlikni shakllantirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari borasida bir qancha huquqiy me’yoriy asoslar yaratildi. Jumladan, axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o’z vaqtida va munosib qarshilik ko’rsatish borasidagi vazifalar O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham belgilab berildi.

2017 yil 8 sentyabrda qabul qilingan “Bolalarni ularning sog’lg’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni esa voyaga yetmagan bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga binoan axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi- uni bolalarning quyidagi yosh toifalaridan biriga kiritish yo’li bilan amalga oshiriladi: yetti yoshga to‘lmagan bolalar uchun axborot mahsuloti “0+”, yetti yoshga to‘lgan bolalar uchun axborot “7+”, o‘n ikki yoshga to‘lgan bolalar uchun axborot mahsuloti “12+”, o‘n olti yoshga to‘lgan bolalar uchun axborot mahsuloti “16+”, bolalar uchun taqiqlangan axborot mahsuloti “18+” yozuvini aks ettirishi kerak. Albatta bu axborotlardagi yosh tasnifi faqat televideniyedagi axborotlar xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunda ota-onalar ham hushyor bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga maktab yoshidagi o‘quvchilarda media savodxonlik va axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi 2017- yil 6-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida ham keltirilgan. Jumladan, o‘quvchilarda fanga doir kompetensiyalarni tayanch kompetensiyalar bilan birgalikda shakllantirish masalasi ko‘tarilgan. Aynan tayanch kompetensiyalaridan biri esa axborotlar bilan ishlash kompetensiyasidir. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Agar o’quvchida yosh xususiyatni hisobga olgan

holda, bosqichma-bosqich axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi shakllantirilsa, unda media savodxonlik, media madaniyat o'z-o'zidan takomillashib boradi. Bu esa o'quvchi yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Media madaniyat bu - turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yi'indisidir. Ukrainalik pedagog olima S.M.Sterdenko media madaniyati yuqori qo'yishini shunday tasvirlaydi: 1) uning media bog'lanishlari soni va davomiyligi rejalashtirilgan bo'ladi; 2) o'ziga kerakli axborotni to'g'ri tanlay oladi; 3) axborotga tanqidiy yondashadi, chunki medianing zararli ta'sirlarini biladi, qarshisida ochilgan mediamatnni o'z filtridan o'tkazib, keyin qabul qiladi; 4) mediamahsulotdan foydalanishda axloq me'yorlariga amal qiladi; 5) mediamahsulot yarata oladi. Aynan mana shu media madaniyat yoshlarni axborot xavsizligidan himoya qilish bilan birga ularni frilanserlik bozorida ham o'z pozitsiyasiga ega bo'lishiga yordam beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, "upworking.com"da Oliy ta'limda ham o'qimagan tuman yoshlari uyda o'tirib 10 million so'm daromad topmoqda. Bu faoliyatni qo'llab-quvvatlashning ham huquqiy asosi qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 8 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini-o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida shunday ko'rsatildi. "Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o'zini o'zi band qilgan shaxslarga (frilansing) quyidagi huquqlar berilsin: ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun chet eldagi jismoniy va yuridik shaxslar – norezidentlardan xorijiy valyutadagi to'lovlarni Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli ma'lumotlarni kiritmagan holda O'zbekiston Respublikasining banklaridagi hisob raqamlariga qabul qilish; kontrakt tuzmasdan, kelishuv to'g'risidagi ommaviy taklifni (oferta) qabul qilish yoki elektron yozishmalar almashish yoxud hisob-kitob fakturalarni (invoys), shu jumladan, elektron shaklda taqdim qilish yo'li bilan chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish). Umuman olganda, bugungi globallashuv jarayonlarida yoshlar media savodxonligi va axborot xavfsizligini ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Faqatgina biz, yoshlarni o'rab turgan muhit ularni bu jarayonlarda to'g'ri yo'lga boshlashimiz hamda nazoratni kuchaytirish orqali ularni yangi-yangi innovatsion faoliyatga undashimiz darkor.

### 11.3. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o'rni

Internet (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP dir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda

ma’lumot tarqalishida asosiy o‘rin egallaydi. Internet tarmog‘ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat hamda o‘zaro bog‘langan sahifalar va boshqa Butunjahon o‘rgimchak to‘ri servislaridan tashkil topadi.

Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi.

1950-chi yillar davomida barcha kompyuterlarni yagona kommunikatsion tarmoqqa ulash ehtiyoji tug‘ildi. Bu ehtiyoj markazlashmagan to‘r, navbat nazariyasi va paketlar kommutatsiyasi kabi sohalarda tadqiqotlarni olib borishga olib keldi. Bu voqealarning natijasida AQShda ARPANETning paydo bo‘lishi voqealarning keyingi rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Dastlabki TCP/IP protokoliga asoslangan tarmoq tizimi 1984-yil AQSh Milliy Fanlar Akademiyasida yaratilib, keyinchalik u NSFNet loyihasiga aylandi. 1995-yil internetning tijorat versiyalari paydo bo‘la boshladi.

1991-yil CERN Butunjahon o‘rgimchak to‘ri loyihasini e’lon qildi. Bu voqea Tim Berners-Lee tomonidan HTML, HTTPlarning yaratilishi va CERNda dastlabki veb-sahifalarni paydo bo‘lishidan 2 yil keyin sodir bo‘ldi. 1993-yil birinchi internet brauzer Mosaicning 1.0 versiyasi paydo bo‘ldi va 1994-yilda internetga ommaviy qiziqish tug‘ila boshladi. 1996 yildan internet so‘zidan keng foydalana boshlandi, biroq u asosan, Butunjahon o‘rgimchak to‘rini anglatadi.

Shu bilan birga internet 10 yil ichida juda tez tarqalib ketdi, uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, birovning mulki emasligi, markaziy boshqaruvning yo‘qligi uni organik rivojlanishiga sabab bo‘ldi. hozirda internet insoniyatning eng katta texnologik yutuqlaridan biri sifatida tan olindi.

Internetdan foydalanuvchilar soni, masalan, AQSH da 55 mln., Xitoyda 55 mln., Yaponiyada 8 mln.dan oshib ketdi. Keyingi o‘rinlarni Angliya, Kanada, Germaniya davlatlari egallagan, RF millionli chegarani egallamoqda. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida xalqaro Internet tarmog‘iga ulanish O‘z PAK Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali ta’minlanadi. Respublikada 50 ga yaqin Internet-provayder ro‘yxatga olingan. O‘zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 300000 dan ortiq. Internet tizimida O‘zbekistonning 300 dan ortiq sayti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra

- Telegram’da 18 million,
- “Odnoklassniki”da 16,7 million,
- Facebook’da 4,7 million,

- Instagram’da 3,7 million,
- “Vkontakte”da 2,6 million,
- Linkedln’da 288 ming,
- Twitter’da 51,6 ming nafar

o‘zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligini yoshlar tashkil qiladi.

2021-yilning dekabr holatiga ko‘ra, milliy domen makonidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayolik va ma’naviy buzuqlik targ‘ibotiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan holat aniqlangan va 2097 ta qonunbuzarlik holati qayd etilgan.

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmasligini namoyon etayotir. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil` telefonlar va kompyu`ter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.

Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bemisl darajada o'ziga «maftun» qilib turadi.

Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, bugungi kunda etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati etadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirishadi. Yoki o'zlarining yozgan «asarlari» yo »maqola», «xabar», «she'r»larini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, bir-birlarini ko'klarga ko'tarib maqtashadi.

Qizig'i shundaki, ba'zi odamlar aslida shu ishni qilish kerakmi, yo'qmi, degan ishtibohga ham bormaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda havola etiladigan ma'lumotlarni «bezab turgan» g'aliz jumlalar hamda imloviy xatolar o'sha tarmoq foydalanuvchisining saviyasi qay darajada ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida ham afsuslanish, achinish holatlarini keltirib chiqaradi. Ba'zida esa ijtimoiy tarmoqlar orqali havola etilayotgan asossiz va saviyasiz ma'lumotlarning sanab adog'iga ham etib bo'lmaydi.

Ayniqsa, tarmoqlarda shunday guruhlar ham paydo bo'lganki, foydalanuvchilar bir-birini maqtab ko'kka ko'tarishlari, shuningdek, kimlarningdir nomini loyga

chaplashlari oddiy holga aylanib bormoqda. G'iybat ular uchun oddiy holga aylangan. Ba'zi kimsalar esa ijtimoiy tarmoqdan o'zlariga yoqmagan odamlarning obro'sini to'kish, yerga urish, buning uchun bor imkoniyatidan foydalanishga harakat qilishadi. Ijtimoiy tarmoqlarni nazoratga olish imkoniyati yo'qligi bois, unda har qanday ishni qilish mumkin, deb o'ylashadi. erkin fikr aytish imkoniyatidan shunday yo'llar bilan foydalanish mumkin deganlar, saviyalari qay darajada ekanliklarini katta auditoriyaga shunday yo'llar bilan oshkor qilishadi. Shu sabab ko'pchilik bu tarmoqlarni yoqtirishmaydi. Lekin shunga qaramay, statistik ma'lumotlarga nazar solsak, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishishmoqda.

Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida yetakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ'ib qilish hamda inson ma'naviyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan juda ko'plab ma'lumotlar yoritib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy mentalitetimizga raxna soluvchi turli ig'volar, g'iybatlar, milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lgan – «ommaviy madaniyat» niqobidagi tahdid va boshqa illatlar xavf solishi hamon davom etmoqda.

Kishining ta'bini xira qiladigan jihati, ijtimoiy tarmoqlar orqali «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga buzuq g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlar kirib kelmoqda. Millatning tarixi, o'tmishdagi qadriyatlarini rad etuvchi, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etishga undovchi mafkuraviy kurashlarning barchasi aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilmoqda. Zero, ijtimoiy tarmoqlar tubanlik girdobiga giriftor etuvchi mafkurachilarining asosiy dastaklaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Binobarin, bu holat har birimizdan tahdidlarga nisbatan muntazam ogohlikni talab etmoqda.

Inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan g'arazli kuchlar axborot xurujlarini amalga oshirishda eng ta'sirchan vositalar sifatida internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Ayni paytda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalar va axborot xurujlarining yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari kishini tashvishga solmoqda.

Qayd etish joizki, «ommaviy madaniyat» namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra, til, din, e'tiqod, irq, makon, xalq va millat tanlamaydi. U jamiyatning madaniy va estetik qadriyatlariga raxna solish orqali ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini buzadi. Zero, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda, albatta, barchamiz media xavfsizlik haqida, G'arb davlatlari olib borayotgan mafkuraviy kurash turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz va buni yoshlarga o'rgatishimiz lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, dizinformatsion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatlari, uning o'ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo'ladi.

Chunki ijtimoiy tarmoqlar nafaqat yoshlarning, balki jamiyatdagi har qanday faol insonning doimiy ehtiyojiga aylanishga ulgurib bo‘ldi.

Quyida ijtimoiy tarmoqlarning ana shunday xatarlaridan eng asosiylarini sanab o‘tamiz:

Yolg‘on va asossiz xabarlarning tarqalishi

Alloh taolo Qur’oni karimda shunday deydi: “Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo‘yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko‘ringiz!” (Hujurot surasi 6-oyat).

Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam aytadilar:

“Kishiga gunoh bo‘lishi uchun eshitgan narsasini gapirishining o‘zi kifoyadir”, – deganlar (Imom Muslim va Imom Abu Dovud rivoyati).

Shariatimizga ko‘ra, har bir musulmonning sha’ni va obro‘sini to‘kish – xuddi qonini to‘kish yoki molini o‘zlashtirish kabi, boshqa musulmon uchun haromdir.

“Fitnalar uyushtirish makoni” ekani

Alloh taolo Qur’oni karimda shunday degan: “Fitna esa qotillikdan ham kattaroq (gunoh)dir…” (Baqara surasi 217-oyat)

Noto‘g‘ri fatvo va qarashlarning tarqalgani

Imom Abu Lays Samarqandiy rahmatullohi alayhi: “Ilmni ishonchli zotlardan olish lozim, chunki dinning ustuni ilm bilandir. Kishi o‘zining jonini ishonadigan kishigagina dinini ham ishonib topshirishi lozim”, – deganlar.

Shuningdek, terrorchilar o‘zlariga tegishli veb-sahifa va ijtimoiy tarmoqlarda “shahidlik”, “jihod”, “hijrat”, “takfir”, “xalifalik” kabi tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida ayrim yoshlarni o‘zlarining tuzoqlariga ilintirishga muvaffaq bo‘lishayotgani achinarli hol, albatta.

Fahsh va behayolikning tarqalishi

Yovuz niyatli kimsalar g‘arazli maqsadlari yo‘lida va xalqning o‘zligini yemirish uchun turli usullardan foydalanadi. Ulardan biri – jamiyatda axloqiy buzuqlikni yoyishdir. Bu yo‘lda g‘alamislar ijtimoiy tarmoq orqali axloqsizlikni, fahshni keng tarqatishga bor imkoniyatlarini sarflamoqdalar. Behayolikka yo‘g‘rilgan tasvirlar, video-roliklar tarqatish orqali yer yuzida fasod tarqashiga “xizmat” qilmoqdalar.

Ahli ilm, imom, ulamo kishilar haqida bo‘hton uyushtiruvchi, ularni obro‘sizlantirishga urinuvchi guruhlarning ko‘pligi

Ijtimoiy tarmoqlar orqali dinimizga bo‘layotgan zararlardan yana biri – har bir yurtning peshqadam olimlarini tahqirlash, tuhmat-bo‘hton so‘zlari bilan obro‘sizlantirish, ularni nifoqda, kufrda ayblashdir. Ularning bundan o‘ylagan maqsadlari – musulmon ommasini ilmiy rahbarsiz qoldirib, o‘zlariga ergashtirish va boshqarishdir.

Kishilarning, xususan yoshlarning ruhiyatiga, axloqiga salbiy ta’siri

Ijtimoiy tarmoq orqali fikr bildirish va buning ortidan maqtov (“layk”)larni qo‘lga kiritishga urinish bugungi yoshlarini tobora o‘z domiga tortmoqda. Buning salbiy tomoni shundaki, foydalanuvchi bunday maqtov (“layk”)larni yana va yana olishni istaydi va rohatlanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi va giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchini mana shu bog‘langanlik va rohatlanish hislari birlashtirib turadi.

Buning oqibatida ular virtual dunyoga butkul sho‘ng‘ib ketadilar va tashqi dunyodan uziladilar. Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolgan yoshlar boshqalar bilan jonli muloqotda qiynaladi, odamovi bo‘lib qoladi, do‘stlashishda adashadi, birovga hamdardlik bildirish haqida umuman bosh qotirib o‘tirmaydi. Faqat ijtimoiy tarmoqda topgan “do‘st”larining fikri bilan ish ko‘radigan bo‘lib qoladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1. “Bolalarni ularning sog’lg’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan?**

A.2017 yil 8 sentyabrda

B. 2008 yil 7-yanvarda

S. 1992 yil 20-noyabrda
D. 2019 yil 9-yanvarda

**2. Internet so’zi qaday ma’noni bildiradi?**

A. (lotincha: inter – aro va net – tarmoq)
B. yunoncha tarmoqlararo
S. inglizcha axborot
D. fransuzcha ommaviy tarmoq

**3. “Media” so’zining ma’nosi bu-…?**

A. ingl. Vositachi
B. lot. xavfsizlik
S. yunon. Madaniyat
D. ingl. Axborot

**4. Qachon CERN Butunjahon o‘rgimchak to‘ri loyihasini e’lon qildi?**

A. 1991-yil B. 1998 yil S. 2001 yil D. 1960 yil

**5.Qachon YUNESKO homiyligida “Mediata’lim” darsligi yaratildi va Rossiyada kinota’lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi?**

A. 2005-yili B. 2010 yil S. 2020 yil D. 2016 yil

## NAZORAT SAVOLLARI

1.Media tarbiya nima?

2.Mediamadaniyat tushunchasi qanday ma’noni bildiradi?

3.Mediaxavfsizlik nima uchun kerak?

4.Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ayting.

5. Kibermakonda axborot iste’moli madaniyati deganda nimani tushunasiz?

## 12- mavzu: Sharq va G`arb mamlakatlarida shaxs tarbiyasi masalalari.

### Reja:

1.Sharq mamlakatlarida (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Xitoy, Hindiston, Eron, Indoneziya, Birlashgan Arab amirliklari) shaxs tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o‘ziga xosligi.

2.G‘arb mamlakatlarida (Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvesariya, Finlyandiya) fuqaro tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o‘ziga xosligi.

3.Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar.) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.

***Tayanch so‘zlar:*** Sharq mutafakkirlari, axloqiy urf-odatlar, Sharq Renessansi, fuqaro tarbiyasiga yondashuvlar, ma’naviy kamolot

**12.1.Sharq mamlakatlarida (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Xitoy, Hindiston, Eron, Indoneziya, Birlashgan Arab amirliklari) shaxs tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o‘ziga xosligi.**

Sharq mamlakatlarida shaxs tarbiyasiga yondashuvlar o’ziga xos xarakter kasb etadi. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz. Xitoyda shaxs tarbiyasi borasida Konfutsiy ta’limoti muhim o’rin tutadi. Mashhur faylasuf insoniy fazilatlar haqida avlodlariga bir qancha o’gitlar qoldirganki, bu ibratli fikrlar haligacha o’z ta’sirini va ahamiyatini saqlab kelayapti. Jumladan:

- Fikrlamay ilm olmoq — behudalik; bilim bilan sug’orilmagan tafakkur esa xatardir.

— Haqiqatni ko’rmoq va unga intilmoq — yoki jasorat, yoki tarbiya mahsuli.

— Kimki nokamtarlik bilan yolg’on so’zlar ekan, uning jimjimador so’zlari faqat va faqat musibat keltiradi.

— Sadoqat va samimiyatni saqlab qolmoq- cho’qqining qorni ushlab qolishidek chiroylidir.

— Ezgulik uchun yaralgan yoxud ezgulikdan mutlaqo mosuvo insonni ko’rmadim. Kimki ezgulikka intilar ekan, hamisha hurmatda bo’lur.

— Jarohat uchun adolatni, ezgulik uchun faqatgina ezgulikni qalqon biling.

— Ehtiyotkor inson ham ba’zan adashadi.

— Shirin so’zlar va ta’ma ko’ngildan chiqqan samimiyat belgisi emas.

— Hech bir do’st o’zing kabi bo’lolmaydi.

— Oliy odam uch holatda o’zini saqlay oladi: yoshlikda hirsdan, kuchga to’lganda janjaldan, keksalikda ochko’zlikdan.

— Qaerga bormagin, e’tiqoding sen bilan bo’lsin.

— Kelajak uchun kurashmoqchi bo’lsang, o’tmishni o’rgan.

— Jahl chiqqanda, aql taslim bo’ladi.

— Oliyjanob odamning izlagani — o’zi, pastkashning qidirgani esa o’zgalar.

— Agar o’z qalbingga nazar tashlasang-u, biror qora dog’ ko’rmasang, unda bezovtalik nega, hadik nimaga?

— Oliyjanob odam xavfsizlikda ham xatarni, to’qlikda ham yo’qchilikni unutmaydi. Tartib hukm surgan paytda tartibsizliklar bo’lishini nazardan qochirmaydi. Bunday odam zinhor xavf ostida qolmaydi, demakki, uning vatani ham, xalqi ham bexatar.

— Moddiyotning ortida ezgulik nish urmog’i uchun besh narsa kifoya: ko’ngil kengligi, samimiyat, shiddat, yaxshilik va jiddiylik.

— O’z xatolaringni tan olishdan uyalma, aks holda ular jinoyatga aylanadi.

— Intiqomga taraddudlanishdan avval ikki qabrni hozirlab qo’y.

— Har bir hilqatning o’z go’zalligi bor, biroq har kim ham uni ko’ra olmaydi.

— Jarohatlarni unut, lek zinhor yaxshilikni yodingdan chiqarma.

— Kimki isrofni bilmasa, azobni bilur.

— Eshitdim — unutdim. Ko’rdim — eslab qoldim. Bajardim — tushundim.

— Bilimsizlik — insoniyat uchun eng qorong’u tundir.

— Harakatdaman-ku deya emaklamoq - bu harakat emas.

— Erkaklar tabiati o’xshash, ularni faqatgina odatlari ajratib turur.

— Biz uchun eng katta huzur- uyquda emas, har tong uyg’onishdadur.

— Oliy odamning nutqi sokin, harakati jo’shqin bo’ladi.

— Agar inson yo’lga maqsadsiz chiqsa, qadam bosar-bosmasdanoq falokatga yo’liqur.

— Haqiqatparvar insonning birinchi qadami- no’noq, ammo manzili-porloq bo’lajak.

— Oliy odam mayda ishlar bilan ko’zga ko’rinmas, aksincha buyuk ishlarga bel bog’laydi. Mayda odam esa buyuk ishlarga ishonmaydi, uni safsata deb biladi, shu bois uning taqdiri ham o’zi kabi mayda bo’lib qoladi.

— Oliy odam o’zidan va o’zgalardan hamisha mamnun, har qachon, har qayerda sokin; pastkash odam esa hamisha tushkun, yon-atrofi musibat bilan to’la.

— Agar yo’qotishlarga duch kelsangiz, vahimaga tushmang. Yo’qotish ortidan, albatta, topilmalar ham keladi.

— Biz tabiatimizga zid insonlarga ro’para kelganimizda, ularni o’zimizga moslashtirmoqqa emas, o’z-o’zimizga xolis baho bermoqqa o’rganmog’imiz lozim.

— Ortda qolgan ishlar to’g’risida bahslashib, ularni qoralashdan naf yo’q. Chunki ular — o’tmishga aylanib bo’lgan.

— Ezgulik hech vaqt yolg’iz qolmagan. Uni sinab ko’rgan inson o’zini yaxshilikka qo’shni, deb hisoblayversin.

— Oliy odam Haqiqatga do’stdir, manfaatga emas.

— Ish quroli soz, o’tkir bo’lgan odamning ishida unum, daromadida baraka bo’ladi.

— Ezgulik uzoq-uzoqlarda, olisdami? Men oqko’ngil, yaxshilik ulashguvchi inson bo’lmoqchiman. Bas, yaxshilik o’z qo’lingda!

Bolaning asosiy maqsadi ko'p mehnat qilish va eng yaxshi bo'lish

Xitoyda ota-onalar, oilaviy daromadidan qat'i nazar, iloji boricha bolasiga mablag’ sarflashga harakat qilishadi. Buning sababi shiddatli raqobatdir: siz Xitoyda o'rtacha bo'lolmaysiz, aks holda siz ko'p sonli aholisi bo'lgan mamlakatda hech narsaga erisha olmaysiz. Ishga kirish uchun, hatto yuqori menejer, hattoki oddiy xodim ham katta raqobatga dosh berishingiz kerak - bu ishga da'vogarlar juda ko'p. Bolaligidanoq, bola har qanday biznesda u maksimal darajaga erishishi kerakligini anglaydi. Siz shudgor qilishingiz, ishlashingiz kerak, aks holda siz muvaffaqiyatsiz bo'lib, hech narsaga erisha olmaysiz. Bola - bu sarf qilingan sa'y-harakatlarni oqlashi kerak bo'lgan loyihaning bir turi. Ular uni sevishadi, albatta, lekin hech qanday erkalatish haqida gap yo'q.

Bolaning yoshidan qat'i nazar, uning kuni soatlab belgilanadi. Sinflar, qo'shimcha darslar, to'garaklar, bo'limlar, ijodiy studiyalar va boshqalar. Xitoy bolalarida shunchaki bo'sh vaqt yo'q, faqat uxlash va ovqatlanish uchun.

**Ota-ona nazorati va jismoniy jazo**

Ota-onalar farzandlarining rivojlanishini qat'iy nazorat qiladilar. Ona yoki otalar universitet oldidan bolalarning uy vazifalarini sinchkovlik bilan tekshiradilar. Xitoyliklar ta'lim jarayoni ustidan beparvo bo'lishga qodir emaslar. "O'qing va unga o'qishga ruxsat bering, keyin biz qandaydir tarzda universitetni tashkil qilamiz" yoki "maktab uning mas'uliyat sohasi, biz bolaga ishonamiz" - bunday munosabat Samoviy imperiyada qabul qilinmaydi. Ota-onalar farzandlari uchun javobgardir va shuning uchun ular hayotlarining barcha sohalarini qat'iy nazorat qiladilar, shu sababli tarbiyaning qattiq usullari, shu jumladan jismoniy jazo. Har qanday huquqbuzarlik uchun qamchilash odatiy odatdir. Bu yerda hech kim bolaning psixologik holati bilan qiziqmaydi, charchoq shikoyati, haqiqatan ham, bolalar bog'chasi yoshidan katta yuk bilan, dangasalik va ishlashni istamaslik sifatida qabul qilinadi.

O'qituvchilar hammani tortib olishadi

Maktabda o'qituvchi uchun o'quvchining juda muhim ko'rsatkichi uning mehnatsevarligidir. Xitoy maktablarida "o'qituvchining sevimlisi" degan tushuncha mavjud emas, chunki hammaga munosabat teng va betarafdir. Va barchaning akademik ko'rsatkichlari taxminan bir xil, chunki har bir talaba o'z chegarasida ishlaydi va o'qituvchilarning barcha sa'y-harakatlari bilan ular kerakli darajaga erishadilar. Samoviy imperiya uchun vaziyat bizning maktablarimizda bo'lgani kabi, sinfda ma'lum bir "yulduz", "prodigy", "maktabning g'ururi" mavjud bo'lganda, odatiy emas. U yerda bitiruvchilar bir xil yuqori bilimga ega bo'lib ketishadi. Barcha o'qituvchilar o'ta mas'uliyat bilan ajralib turadilar, ular natijaga yo'naltirilgan, o'quvchilarning yoshidan qat'i nazar, ularning asosiy vazifasi, ularga dasturga kiritilgan narsalarni har qanday narxda o'rgatishdir. Odatda Rossiyada o'qituvchilar har kimga va boshqalarga dars beradigan "Xudodan kelgan o'qituvchilar" ga bo'linadi,"kamarni tortib oladiganlar" bilan shug'ullanadiganlar va omadsiz o'quvchilar uchun va kasb-hunar maktablarida joy bo'ladi. Xitoy ta'lim tizimi uchun kambag'al talabalar va a'lo darajadagi talabalarga bo'linish mavjud emas, har bir talaba imkon qadar maksimal darajaga erishadi va natijada tirishqoqlik bilan qolganlarga hamohang bo'lib ma'lum natijaga erishadi.

Xitoy bolalarida tarbiyalanadigan asosiy xususiyatlar fenomenal tirishqoqlik, qat'iyatlilik va sekinlikdir (bu yerda topshiriqni bajarish tempi va tezligi muhim emas, asosiysi natijaga erishish). Har qanday bolada ular uning salohiyatini, kuchli tomonlarini topishga muvaffaq bo'lishadi va nima bo'lishidan qat'i nazar, uni rivojlantirish kerak. Shuning uchun ham turli sohalarda va turli xil ijtimoiy darajalarda barcha mutaxassislar o'z ishlarini yuqori darajada bajaradilar.

Oqsoqolning irodasi - bu qonun

Bolalarning ota-onalariga va barcha kattalarga bo'lgan munosabati, asosan, Xitoyda, yoshidan qat'i nazar, juda hurmatlidir. Katta avlod - bu kichkina bola, o'spirin va talaba uchun beqiyos hokimiyat. Ular kattalar bilan tortishmaydi, qarama-qarshilik qilmaydi, ularning so'zlari shubha va munozaralarga duch kelmaydi. Bolalar itoat qilishlari va itoat qilishlari kerak. Xitoy oilasida oqsoqolning irodasi qonundir.

Xitoylik kishi uchun "yo'q" so'zi yo'q, agar biz uni eshitsak, biz qandaydir bo'shliqni topib, nimanidir o'ylab topishimiz mumkinligini tushunamiz. Va bizning bolalarimiz ham asosiy narsa kelishuvga erishish va umumiy tilni topish imkoniyatini anglash bilan o'sadi. Xitoyda bu ishlamaydi. Juda qat'iy qoidalar mavjud, bu qanday sohaga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, bu yerda "tugatish" va "moylash" mumkin bo'lmaydi. Qoidalarni buzganlik uchun jazo tayinlanadi va boshqa hech narsa yo'q. Xitoy tizimi qat'iy va mutlaqo moslashuvchan emas.

Janubiy Koreyada yuksalish arafasida “tabiiy resurslar cheklangan, ijodga esa chegara yo‘q” degan shior ko‘tarilgan ekan. Bu – yuksak intellekt komil inson fazilatlarining gultojiga aylantirishni anglatar edi.

Yaponiyaning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida maktabga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish missiyasi yuklatilgan. Ya’ni: shaxs sifatlarini to‘liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatlilik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas’uliyatlilik; mustaqil fikrlilik; o‘zgalar bilan hamkorlik, mustaqil fikrga egalik; an’anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o‘zini baxtli va boshqalar bilan uyg‘un qila olish fazilatlari shakllantirilmoqda.

Yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish belgilab berilgan. 16 fazilat 4ta guruhga bo‘linadi. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o‘ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo‘lish, o‘z xohishlarini idora qila olish, piyetet(ehtirom) tuyg‘usiga egalik; 2) oila boshlig‘iga xos sifatlar: o‘z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o‘z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: vatanga sodiq bo‘lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo‘lishni o‘rgatadi.

Yaponlarning harakatchanligi, sabr-toqati, odobi va tabiatga bo‘lgan muhabbati ko‘pchilikka o‘rnak.
Kunchiqar yurt vakillarining xarakteri, muomala madaniyati bolaligidan oilada vaqt sinovidan o‘tgan an’analar asosida shakllantiriladi. Ushbu mamlakatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan jihatlardan biri — xalqning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan

an’analarga sodiqligidir. Bolalar ham mana shu qadriyatlar, xususan, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat asosida tarbiya topadi. Oilada bola tarbiyani asosan onasidan oladi. Chunki yapon ayollari farzandini go‘dakligidan maxsus mato yordamida beliga bog‘lab, uy yumushlarini bajarib yuraveradi. Shu jarayonda bolasi bilan suhbatlashib, kundalik faoliyat bilan tanishtiradi, zarur ko‘nikmalarni berib boradi. Ko‘pincha yapon bolalarining yurishdan avval tili chiqishining sababi ham shundan. Bu an’ana hozirgacha davom etadi: yapon ayoli qayerga bormasin va nima bilan band bo‘lmasin, farzandi hamisha yonida — ko‘ksida yoki belida bog‘langan bo‘ladi.

Yaponlar farzandini 3 yoshdan keyingina maktabgacha ta’lim muassasasiga beradi. Ungacha bolani uyda o‘zlari tarbiyalashga odatlangan. Shu bilan birga, ular bolani go‘dakligidanoq insonlar va atrofdagi barcha narsalarga e’tiborli bo‘lish hamda hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.
Yapon oilalarida doim tartib-intizom saqlanishi lozim. Biroq ular buning uchun bolaga ovozni baland ko‘tarish, uzoq-uzoq «ma’ruzalar» o‘qish, quloqning unisidan kirib, bunisidan chiqib ketadigan nasihatlarga hojat yo‘q, deb hisoblaydi. Jismoniy jazo haqida-ku, gap ham bo‘lishi mumkin emas. Hamma gap bir-birini tushunish, eshita olishda. Onalar farzandlariga xuddi kattalardek muomala qiladi — barcha savollariga batafsil javob berib, ular bildirgan fikrlarni diqqat bilan eshitadi. Agar bola o‘yinchog‘ini sindirib qo‘ysa yoki biror nojo‘ya ish qilsa, onasi uni jazolamaydi, shunchaki, «sen uni azoblading», deya oddiygina tushuntiradi.

Keling, endi yaponlar o‘z farzandlarida qanday qilib ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi haqida suhbatlashamiz. Bu juda oddiy — har birimiz uyda yoki ta’lim muassasasida bu usuldan foydalani¬shimiz mumkin.

Yapon pedagoglari bu usulni “Nomsiz ranglar” deb ataydi. Uni dizaynerlar — Yusuki Imai va Ayami Motekilar o‘ylab topgan. Bu usul, hatto 2012-yili Yaponiyada o‘tgan “Kokiyo dizayn” taqdirlash marosimida bosh mukofotga loyiq ko‘rilgan.

Bunda yosh o‘rganuvchilarning oldiga ranglar solingan 10 ta idish qo‘yiladi. Idishning ustiga rang nomi yozilmaydi, faqatgina uning ichidagi ranglardan foydalanilgan nuqtachalar aks ettiriladi. Nuqtalarning o‘lchami turlicha bo‘ladi. Dizaynerlarning maqsadi — shu orqali bolaning o‘ylash va o‘rganish malakasini o‘zgartirish. Bunda bola ranglarni aralashtirib, qanday rang hosil bo‘lganini ko‘radi

va o‘zicha mulohaza yuritadi. Masalan, bola pushti va ko‘k rangli ikki nuqta aks ettirilgan idishga qaraydi. Hozircha bu idish ichidagi ikkita rangdan qanday rang hosil bo‘lishini bilmaydi. U mutaxassislar aytganidan so‘ng idishlarni siqib ko‘radi va pushti hamda ko‘k ranglardan siyoh rang hosil bo‘lishiga guvoh bo‘ladi. Bu nihoyatda qiziqarli jarayon.

Yana bir misolni olaylik. Siyohrang idishda katta ko‘k va kichkina pushti rang nuqtalar aks ettirilgan. Bu oz miqdorda pushti va ko‘p miqdorda ko‘k rangni aralashtirib ko‘r, degani. Bola amaliyotni bajaradi va uning ko‘z o‘ngida to‘q ko‘k rang hosil bo‘ladi. Keyingi bosqichda bolaga istalgan ikkita rang aytilib, ulardan qanday rang paydo bo‘lishi mumkinligi so‘raladi. Kichik ijodkor uni o‘zicha o‘ylab, tasavvuridagi ranglarni aytadi. Bola bu usulni o‘rganib olgach, o‘zi istagan ranglarni qorishtiradi va shu tariqa o‘zi uchun yangi ranglarni kashf etib boradi. Ranglar bilan ishlashning oson va zavqli bu usuli bolada ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirib, yangilik yaratishga bo‘lgan istagini oshiradi.

Ko‘rinib turibdiki, yaponlar farzandini to‘kis oila, ota-ona mehri, g‘amxo‘rligi bilan ulg‘aytirishdan tashqari, uning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ijodkorligini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratadi. Oilada to‘g‘ri tarbiya topgan bola kelajakda o‘z yo‘lini belgilay oladi. Demak, dunyoda «Yaponlar juda aqlli bo‘ladi-da», degan gaplarning paydo bo‘lishi zamirida xalqning azaliy an’analarga sodiqligi hamda oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalash usuli yotadi!

**Yapon bolalarini tarbiyalashdagi beshta sir**

Yapon bolalari tarbiyali, odobli, oqko‘ngil va kamdan-kam hollarda o‘z hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qotadi. AdMe nashri ana shunday mustahkam tarbiyaning besh sirini taqdim etdi.

**Ona va bola juda yaqin: “amae”ning muhimligi**

Yaponiyada ona va bola juda yaqin. Bu yaqinlik maishiy hayotda ham aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi. Birga uxlash va bolani ko‘tarib yurish haqida yapon badiiy adabiyotida ko‘plab eslatmalarni topish mumkin. Ona-bola aloqasi hissiy darajada aks etadi: ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi.

“Ikudzi” prinsipiga asosan (bola avval xudo, keyin xizmatkor), besh yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin. Bu ko‘plab xorijliklar o‘ylaganidek irodasizlik va bo‘ysunmaslik emas. Bu bolada “men yaxshi va sevimliman” tushunchasini hosil qilish hisoblanadi.

Bunday munosabat “amae”ning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Bu so‘zning boshqa tillarda muqobili yo‘q. “Amae” — bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosi bo‘lib, bolalar to‘laligicha ota-onalariga va ularning mehriga suyanishi mumkin. Qariyalar esa katta yoshli bolalaridan xuddi shu narsani qabul qilib oladi.

**“Ikudzi” tizimi: xudo, xizmatkor va teng**

“Ikudzi” tarbiya tizimiga asosan, bola besh yoshgacha — xudo, besh yoshdan 15 yoshgacha — xizmatkor, 15 yoshdan boshlab — teng hisoblanadi.

Aslida, “ikudzi” falsafasi inson manfaatlari ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat a’zolarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Bu o‘ziga xos stress, yapon ota-onalar shunday sharoitlarda tizimda o‘z o‘rnini topadigan va o‘z qadrini yo‘qotmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qiladi.

Birinchi bosqichda (xudo) ular bolani cheksiz mehr va ko‘mak bilan o‘rab oladi. Ikkinchi bosqichda (xizmatkor) bu mehr hech qayerga ketmaydi, shunchaki bola jamiyat qoidalarini faol o‘rganadi va unda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bunda dastlabki yillarda shakllangan onaga kuchli bog‘lanish bolaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bola onasining jahlini chiqarmaslik uchun o‘zini to‘gri tutishga harakat qiladi.

Qiziq tomoni shundaki, yapon ta’lim muassasalarida nafaqat ta’limga, balki tarbiyaga ham alohida e’tibor qaratiladi, ularda atrofdagilarning eng yaxshisi va eng yomoni tushunchasi mavjud emas.

Uchinchi bosqichda (teng) bola jamiyatning shakllangan a’zosi hisoblanadi. Uni tarbiyalashga kech bo‘ladi va ota-onalar o‘z urinishlari hosilini yig‘ib olishi kerak bo‘ladi.

**Oilaning yuqori ahamiyati**

Qoidaga ko‘ra, bola tarbiyasi bilan ona shug‘ullandi. Ular bolalar bilan ko‘p vaqt o‘tkazadi. Yaponlar bolani uch yoshdan oldin bolalar bog‘chasiga berish kerak emas, deb hisoblaydi. Asosiysi, bolani buvisiga berish yoki enaga yollash ma’qullanmaydi. Biroq bunda kengaytirilgan oilaga katta ahamiyat beriladi: bolalar bobo va buvilar hamda boshqa qarindoshlar bilan faol muloqotda bo‘ladi. Avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar ta’sirchanlik va diqqatga asoslanadi, bu yerda keksalarning fikrlari tinglanadi. Oila — bu “amae” hukmronlik qiladigan va har doim qo‘llab-quvvatlaniladigan va g‘amxo‘rlik qilinadigan doira.

**Shaxsiy misol**

“Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak” kitobi muallifi Ikeno Osamu qiziq bir tajriba haqida yozadi. Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yig‘ish so‘ralgan. Yapon onalari dastlab o‘zlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni so‘ragan. Agar bolalar biror narsani o‘xshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan.

Yevropalik onalar esa boshqa taktikani tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yig‘ilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Ko‘rinib turibdiki, yapon onalari “men kabi qil” tushunchasini bergan bo‘lsa, g‘arblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini o‘zi bajarishga majbur qilgan.

Shuning uchun yapon ta’limi va tarbiyasi “hijjalovchi” deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda bolalarni qilib ko‘rmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi.

**Hissiyotlarga munosabat**

Bolaga jamoaviy jamiyatda yashashni o‘rgatishdan oldin atrofdagilar hissiyoti va manfaatini ko‘rish va hurmat qilish nima ekanligini tushuntirish kerak.

Shuning uchun yapon ayollari o‘z navbatida bolalarning sezgirligini hurmat qiladi. Ular bolalarga ortiqcha bosim o‘tkazmaydi, uyaltirmaydi, balki bolakaylarning hissiyotlarini uyg‘otadi. Misol uchun, agar bola mashinani sindirib qo‘ysa, yapon ona “Mashinaning joni o‘g‘riyapti, u hozir yig‘laydi”, — deydi. Yevropalik ona esa “Bunday qilma, bu yaxshi emas. Mashinani sotib olish uchun qancha ishlash kerak”, — deydi.

Yaponlarning o‘zi ularning usullari yagona to‘g‘ri usul ekanligini tasdiqlamaydi. So‘nggi vaqtlarda g‘arb qadriyatlari ularning an’analariga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Biroq yaponcha yondashuvning asosiy tamoyili bolalarga sokinlik, sabr va to‘liq mehr bilan yondashuv hisoblanadi.

## 12.2.G‘arb mamlakatlarida (Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvesariya, Finlyandiya) fuqaro tarbiyasiga yondashuvlar va ularning o‘ziga xosligi.

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta’lim-tarbiya

Tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar. Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklaming bolalarini baquvvat, jismoniy soglom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklaming bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta’limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta’lim-tarbiya haqida shunday degan:

«O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta’lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya’ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni o’ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo’l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18—20 yoshga yetganda «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta’minlashgan, hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta’lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me’morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi. Ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk kishi Afinada eng ko'rkam va barkamol inson(ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg’or ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma’nosida) yoki «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma’nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolaming bolalari ushbu maktablarda ta’lim ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma’nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin palestra («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bolgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bo'lganlari esa palestrani tugatgach gimnasiyga (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruvihda qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar Efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababh ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'-yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ulaming bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilgan.

**Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi**

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi tarbiya nazariyasining tug'ilishiga imkon yaratdi. Tarbiya nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar.

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) o'zining ijtimoiy kehb chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o'g'li edi) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va tarbiyaviy qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar, faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. Keng maydonlarda so'zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi»(Evristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrotning etika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: ezgulik bilimdir, donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta'biricha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin emas. Ulug' faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Aflotun (Platon) eramizdan ilgari (424-347-yillari) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asosichisi «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga boldi. Uning fikricha g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olamining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyondasi bo'lgan Aflotun, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokrajtik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qihb, mo'l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos, deb ta’kidlaydi u.

Aflotunning fikricha, davlat xalq tomonidan tashkil etilmog'I, hukmron guruhlaming- faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim. Aflotun o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Aflotun xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma’qullaydi.

Umuman Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Aflotun g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarning «jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari» ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek qullaming bolalarini o'qitmagan ma’qul.

Biroq, Aflotun maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o'rnak namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o'zining axloqiy g'oyalarini ilgari surar ekan, ustozi Suqrotga ergashib, ob’ektiv idealizm yo'lini tutadi. Aflotun etikasining asosiy nazariy tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo'lgan va mangulik g'oyalari olamida xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarmas «yaxshilik» g'oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklaming hamma turi o'zida me’yor, go'zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy «yaxshilik g'oyasi»ning in’ikosigina bo'lishi mumkin. Odamning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik g'oyasi»ga intihshga to'la bo'ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy «yaxshilik» g'oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko'rish mumkin.

Arastu(Aristotel) (eramizdan avvalgi 384-322-yillar)da yashagan. Aflotunning shogirdi, makedoniyalik Iskandarning ustozi. Qadimgi Yunonistoning yirik faylasufi va olimi.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlaming ta’siri ostida sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta’kidlashicha bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya’ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kelib chiqadi.

Arastuning fikricha, uch xil tarbiya - jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalar muhim. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo’lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlaming boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi.

Yan Amos Komenskiy

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi 1592-yili 28 martda Moraviyadagi Ugorskiy Brod degan joyda tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi ruhoniy «Chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo'lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlami o'z atrofiga to'plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o'qiy olmaydi, 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi. Bu haqda Komenskiy shunday yozgan edi: Men o'sha vaqtdayoq tarbiya masalasida mamlakatimning orqada ekanligini ko'rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo'lishi kerak. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniya) o'qishga kiradi, so'ngra Geydelberg universitetida o'z davrining bilimdon professorlaridan ma’ruza tingladi. Komenskiy Avstriya va Gollandiyada bo'lib, iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy hayot bilan tanishib ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'sha davrda knyazliklar orasida boshlangan 30 yillik urush (1618— 1648) tufayli «Chex qardoshlari» jamoasi nemis dvoryanlari tomonidan vatanlaridan quvg'in qilinadi. Shu tariqa Komenskiy xotini va bolasidan juda bo'ladi. Qo’lyozmalari yo'qoladi.

«Chex qardoshlari» ko'chib kelgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy gimnaziya tashkil etadi.

U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika, ta’lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratgan «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar maktabi» (1632), «Pansofiya maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari» (1953),

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658) kabi asarlar uning eng salmoqli asarlaridir. Shuningdek, mantiq, fizika, lotin va grek tillariga bag'ishlangan o'nlab darsliklar yozdi. Darsliklari hayotlik davridayoq boshqa tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomi butun dunyoga tanildi.

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar muallifi hamdir (U hayot ekanligi vaqtida hammasi boiib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935-yili topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarda kishilik jamiyatini isloh qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Shvesiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi. U «Chex qardoshlari» jamoasiga yepiskop qilib tayinlangach, 1648-yili Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so'ng u yana o'qituvchiiik faoliyatini davom ettiradi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradi. «Видимый мир в картинках», ya’ni, «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» deb nomlangan asarida, o‘qish ishini rasmlar bilan olib borish g'oyasini ilgari suradi. Bunda «Yoshlarning xulq qoidasi», «Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni» kabi pedagogikaga doir ishlari o'rin olgan.

1656 -yili Shved-polyak urushi vaqtida Leshnodagi «Chex qardoshlari» jamoasiga barham beriladi. Komenskiy Gamburgga, so'ngra Amsterdamga ketishga majbur bo’ladi. O'sha yerda Gollandiya senatining buyrug'iga muvofiq uning asarlari to'plam holda bosib chiqariladi.

Komenskiy vatani mustaqilligi uchun kurash olib borgan. Uning asarlarida vatanparvarlik hissi yaqqol aks etgan. U chex xalq poeziyasini yig'ib chex maqollar to'plamini tuzgan.

Komenskiy o'zining tarbiya nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak», deydi. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta’sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta’sirida o'sadi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya’ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik.

Shuningdek ta’lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta’lim, o'rta ta’lim, oliy ta’lim.

Umumta’lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta’lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta’lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi. Shu tufayi ulug' pedagog bu masalani ilgari surdi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Bular bola tug'ilganidan 24 yoshiga kirguncha amalga oshiriladi, bu vaqt mobaynida bola har biri 6 yildan bo’lgan to'rt maktabni o'qib tugatishi kerak, deb hisoblagan ulug' pedagog.

Komenskiy tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tug’ilganidan 6 yoshgacha bo’lgan davr. Uningcha bu davr-Ona maktabi davri. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat berish lozim. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi davrida bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha - xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha - gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4.18-24 yoshgacha - Universitet. Akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi lozim.

Shunday qihb, maktab Komenskiy qarashicha o'quvchilami o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, o'quvchilami so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatmog'i shart.

- Mehnat kishini ulug'laydi, - deydi Komenskiy. - Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish darkor.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida didaktika katta o'rinni egallaydi.

Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bihm va malakalami puxta egallash tamoyillari.

1. Ko'rgazmalilik tamoyili - Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qihb bergan.

Ko'rgazmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqah tushuntirish, v) narsalarning modelini ko'rsatish, g) o'qituvchininj^o'zi o'rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy onglilik tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma’no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani tola tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb yozadi u.

3. Komenskiy ta’limning tizimli bo'lishi tarafdori edi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollami qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretdan abstraktga, osondan qiyinga, umumiyda xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya’ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini alohida o'rganish kerak, deb hisoblaydi.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta’lim-tarbiya ishlarining yo’lga qo’yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o’rganish orqali qo’shimcha boy manbalarga ham ega bo’lamiz.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik inqilob sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsata oladigan jamiyat a’zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo’naltirish hamda o’rta ta’limning ko’p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim-tarbiya berishda eng ilg’or pedagogik vositalarni qo’llash, ta’lim-tarbiyada tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo’l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning, mamlakat ichki siyosatiga, shaxs tarbiyasiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir.

Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta’minlashga ajratilayotgan mablag’ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Ta’lim to’g’risidagi g’amxo’rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e’tiborida bo’lgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Frantsiya Prezidenti F. Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchi» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko’p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Frantsiya, AQSH, Yaponiya ta’lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug’ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta’lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta’lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko’pchiligining faoliyati o’quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

80- yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o’rganilishi majburiy bo’lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o’quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo’ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o’quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g’oyalari Frantsiya va Germaniya ta’limiga ham sezilarli ta’sir qilmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 60-80-yillarda tabiiy ilmiy ta’lim dasturi tarkibiga fizika, kimyo, biologiya, ba’zi hollarda astranomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o’qitiladi. O’quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo’la boshladi. Frantsiyada 70-80-yillarda to’liqsiz o’rta maktablar o’quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o’z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko’plab topilmoqda. Ular o’quvni juda erta boshlab ta’lim kurslarini o’zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo’ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi g’arbda 60-yillardayoq paydo bo’lgan edi. Bunday maktablarning o’quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to’la ro’yobga chiqarishni ta’minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o’quvchilarning taqdiri ham ko’pchilikni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o’rganish, oldini olish bo’yicha ko’pgina profilaktik ishlar olib

borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma’lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko’rsatayapti.

70- yillarda AQSHda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o’qituvchi buyrug’i bilan ish tutish, ko’proq o’quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta’lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg’ulot, o’qituvchi maslahatini o’z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o’quvchilar sonini qisqartirish sari yo’l tutilgan. Bunday o’quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o’quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo’lganda u o’qituvchidan maslahat oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko’zda tutilgan maqsadlar :

-maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo’nalishlarini kuchaytirish.

-o’quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo’llarini qidirib topish.

-tarbiyaning yangi formalarida - o’quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o’yinlardan foydalanish.

-Maktab o’quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o’zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish.

-Maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo’naltirish ishlarini qayta tashkil etish.

-Tabaqalashtirib o’qitishni yo’lga qo’yish, maxsus o’quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif o’quvchilar uchun) rivojlantirish.

-Yangi, ya’ni o’quv texnik vositalarini ta’limdagi salmog’ini oshirish, o’qituvchilar korpusida komp'yuter ta’limini yo’lga qo’yish.

-Pedagogik g’oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment — tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta’limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta’lim tizimlarida qo’llash yosh, mustaqil resublikamizda o’quv — tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Mutaxassislar fikriga ko’ra, dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

Xo’sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta’lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?

Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo’q. Hamma maktab davlatga tegishli bo’lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;

Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo’yilmaydi;

Fin maktablarida bolalar juda ko’p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o’z fikriga ega bo’lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o’rgatadi;

Bir fanni boshqa fanlar o’rnida chuqurroq o’rganish ma’qullanmaydi. Masalan finlar matematikani san’atdan ko’ra chuqurroq o’rganish kerak, deb hisoblamaydi;

Bir o’quvchini boshqa o’quvchi bilan qiyoslash ta’qiqlangan. Nogiron va qobiliyatli bolalar bir sinfda o’qishadi;

Fin maktablari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. Biz birinchisini tanladik”. Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o’quvchi 16 yoshga to’lganda imtihon topshiriladi;

Fin maktablarida eng asosiysi - o’quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o’rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o’rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o’rganadi;

O’qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 soat o’qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;

Finlandiyada "o’qituvchi” kasbi – obro’li kasb hisoblanadi. Oliy ta’lim maskanlarida o’qituvchi bo’lib ishlashga juda katta tanlov mavjud;

Finlandiyada umumiy o’rta ta’lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig`ish ta’qiqlangan;

Ma’lumki, Finlandiya Yevropa shimolida joylashgan kichik mamlakat. Katta tabiiy boyliklar, savdo imtiyozlari yoki boshqa sezilarli daromad manbaalariga ega emas. XX asr boshlarida Finlandiya Yevropaning eng qashshoq mamlakatlaridan biri bo’lgan. O’sha yillarda minglab finlar AQSh, Angliya, Germaniya va Fransiyaga borib, oddiy ishchi sifatida (mehnat migranti) ishlagan. O’sha vaqtlarda Amerikada uy xizmatchisini "finka” deb atashgan.

Bugungi kunda esa, Finlandiya dunyodagi nufuzli tahliliy markazlar fikriga ko’ra, "Dunyoning eng yaxshi mamlakati”, "Erkaklar va ayollar huquqlari teng mamlakat”, "Dunyoning eng stabil mamlakati”, "Dunyoning eng xavfsiz mamlakati”, "Dunyoning eng qulay mamlakati” degan nomlariga sazovor bo’lgan.

«Amerika — 2000: ta’limni rivojlantirish strategiyasi(1991)» dasturida yetuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo‘ylik, maqsadda sobitqadamlik, to‘g‘rilik (ro‘y-rostlik), puxtalik va shaxsiy mas’uliyatga ustuvorlik berildi. Shuningdek, yosh amerikaliklarda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat’iylik, tirishqoqlik, hamdardlik, bag‘rikenglik singari 60 ta asosiy fazilat shakllantirilmoqda.

Ta’lim bo‘yicha Milliy komissiya (1993) maktabga: yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, odamlarga g‘amxo‘rlik, madaniy merosga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat

fuqarolari bo‘lish, bag‘rikenglik fazilatlarini singdirish, axloqan va ma’nan kuchli shaxslar qilib yetishtirish vazifalarini yukladi.

Fransiya Ta’lim vazirligi ko‘rsatmalarida (1985) mas’uliyatli, g‘ururli, o‘zgalarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, irqchilikka qarshi turuvchi, multikulturalizmni qabul qiluvchi, o‘zining Fransiyaga muhabbatini Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik g‘oyalari bilan uyg‘un rivojlantirgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

Fransiyada ta’lim tizimining o’ziga xos xususiyatlari.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlaktlar ichida yetakchi o’rinni egallaydi. Uning ta’lim tizimlari qadimiy va boy tarixga ega. Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustahkam faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o’quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, omilkorlikka o’rgatish, shunga yarasha kasbga ega qilishdan iborat.

2000 yilda Fransiya maktablaridagi ahvol sinchiklab o’rganilib, o’quvchilarning ko’pchligi darslarga kirmay, boshqa ishlar bilan mashg’ul ekanligi aniqlanib, bu kamchlikni tuzatish uchun choralar ko’rilmoqda. Chunki aynan darsga kirmay yurgan bolalar o’rtasida giyohvandlik va huquqlarni buzish kabi holatlar ko’p uchraydi.

Umuman, Fransiyada ta’lim tizimini rivojlantirish uchun katta mablag’lar ajratiladi.

4. Germaniyada ta’lim tizimini rivojlanishi.

Maktabgacha ta’lim tizimi Germaniya ta’lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog’chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta’lim tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog’chalarni mablag’ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar farzandlari bolalar bog’chalarida tarbiyalanganliklari uchun bog’chaga ancha pul to’laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% i bog’chalarga qatnamaydi. Germaniyada odatda bolalar bog’chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo’ladi. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog’chalar

ham mavjud. Germaniya ta’lim tizimida hunar ta’limi muhim ahamiyatga ega, Chunki yuqori malakali ishchilarga bo’lgan talab kuchlidir.

### 12.3.Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar.) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.

Sharq mutafakkirlari ijodida ta’lim-tarbiya, shaxs ma’naviy kamoloti masalalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlari tarbiya fanining rivojida muhim o’rni bor. Markaziy Osiyo allomalarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma’naviy qadriyatlarga bo’lgan e’tibor asosiy o’rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo’la oladigan hodisadir. Sharq Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko’tarilgan, boy davri bo’lgan.

Bu davrda ko’p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg’oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo’lgan. Demak, bu davr o’zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarning yetishib chiqqanligi bilan qimmatlidir. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo’shgan ulushlari nihoyatda boy bo’lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo’nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Ular:

-aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog’langan qadriyatlar;

-ma’naviy-ruhiy qadriyatlar;

-ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;

-badiiy-nafis qadriyatlar;

-diniy qadriyatlar tarzida o’z ifodasini topgan.

Inson axloqi aqlga, xulq va hatti-harakati esa ilm-fanni o’rganishga va ma’rifatga asoslangandagina ma’naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g’oyalarining amalga oshishi, ma’naviy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va ma’rifatli bo’lishga bog’liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug’laydilar, jamiyatning barcha a’zolarini ilm egallashga chaqiradilar, ilmning inson ma’naviy hayotda tutgan o’rnini yuqori baholaydilar.

**Forobiy** pedagogik qarashlarini, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotini o’rganishda inson xislatlari to’g’risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o’zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma’naviy olamini o’rganishga ahamiyat beradi. Forobiy ta’limotiga, inson barcha boshqa jismlarda bo’lmagan qobiliyat va kuchga-ruhiy quvvatga-aql va so’zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo’lish imkoniyatini berganligi namoyon bo’ladi. Forobiy bu dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmli, ma’rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e’tibor beradi. Forobiy o’zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”,

“Falsafani o’rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to’g’risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko’plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog’liqligini ta’kidlaydi. **Farobiy** bilimdon, ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: Har kimki ilm - hikmatni o’rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’-salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi odob va axloqli bo’lsin, so’zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo’lsin, bilimdon va notiq bo’lsin, ilmli va dono odamlarni hurmat qilsin, ilm va ilm ahlidan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to’g’risida bilimga ega bo’lsin. Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqli-axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berilganligi ko’rinib turadi, uning e’tiqodicha bilim – ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog’I lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo’lib yetishmaydi.

**Abu Rayhon Beruniy** bilim umuminsoniy qadriyatlarni o’rganishning kaliti ekanligini, ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqligini alohida ta’kidlaydi. “Ilmning foydasi ochko’zlik bilan oltin-kumush to’plash uchun bo’lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo’lishdir”. Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma’rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta’lim-tarbiyaga doir she’r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o’z qalbining farmoyishiga ko’ra xayr-ezgulikka intilishi, sun’iy obro’, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko’rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

**Yusuf Hos Hojibning** “Qutadg’u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug’laydi. Uning fikricha, insonning ulug’ligi aql-idroki, so’zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Adib o’quv va bilimni farqlaydi: o’quv tug’ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o’qish-o’rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o’zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo’lsa, ulug’lik bo’ladi,
Bilim kimda bo’lsa, buyuklik bo’ladi.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

**Yusuf Hos Hojib** ta’lim va tarbiyaning uzviy bog’liq holda bo’lishini tavsiya etadi, o’g’il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o’rganmog’i lozimligini ta’kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi. Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o’rgatilmog’i kerakligini aytib, ularni go’zal axloqli qilib, voyaga yetkazishni ota-onalarga maslahat beradi: Xudo kimga zakovat, aql, bilim bersa, u barcha orzularga qo’l uzatadi. Kimning xulqi yaxshi, fe’l-atvori to’g’ri bo’lsa, u tilagini topadi, kun va oy

unga boqadi. Yaxshi fe'l-atvor barcha ezguliklarga molikdir, xulq-atvor barchasi yaxshi bo'lsa, ming-ming sevinch bo'ladi.

Umuman, Yusuf Hos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida til odobi, rostgo'ylik, poklik, kamtarlik sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat kabi fazilatlar xususida qilgan hikmatli pandu nasihatlari bilan kishilarni, yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o'zgalarga g'amxo'r va mushfiq bo'lishi har bir ishni o'z o'rni va o'z vaqtida ado etishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda bugungi davr talabiga hamohang ravishda insonni komillikka hidoyat qiladi.

**Abu Ali ibn Sino** etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosida yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiyalashi kerak", deb maslahat beradi. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalri xususida ham so'z yuritadi. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatga bo'lish unga nasihat qilishdir, deya uqtiradi. Ibn Sino bolada axloqiy xislatlrni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol topdirishda asosiy omil, deb biladi.

**Al-Xorazmiy** esa insonning xulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi.

**Alisher Navoiy** nazdida ta'ma aralashgan yaxshilik hikmat, himmat insonning ma'naviy hissiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatdir. Ta'masiz yaxshilik qilish- bu saxiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi saxiylik va himmatdir. Yuksak insoniylikning o'lchovi bu vijdon hisoblanadi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlari vijdon pokligi, oila, ota-ona, xalq, farzand burchi haqida olg'a surilgan g'oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi. Chunonchi, ota-ona farzandlarning o'zaro munosabati, burchi ma'naviy qadriyatlarning oltin kalitidir. Alisher Navoiy bu haqda quyidagicha fikrlaydi: "Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a. Ikki jahoningga tilarsan fazo- Hosil et ushbu ikkisidan rizo. Tun-kuningga aylagali nur fosh, Birini oy angla, birisin quyosh.

So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Hatlaridin qo'yma qadam tashqari

Sharq mutafakkirlari didaktik xarakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini qorishiq holda bayon etdilar. Chunki o'rta asr tarbiyaviy fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning lisoniy shakl va usullariga tayangan. Ta'lim-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo'lib hisoblangan edi. Bu qoida ayniqsa, Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, "Donishnoma" asarida, Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Alisher Navoiyning **"Hayrat ul-abror",**

**“Mahbub ul-qulub”** asarlariga bevosita taalluqlidir. Mutafakkir olimlar yuksak ma’naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular “Fozil jamoa”, “Fozil shahar”, komil insonni shakllantirishning asosi ma’naviy omillarga bog’liq degan g’oyani ilgari surdilar.

**Voiz Al-Kashifiyning** uqtirishicha, insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash, aqliy qobiliyatini o’stirish mumkin. Kashifiy o’zining tarbiyaviy qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o’stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota-onalar muallimalardan bu masalaga alohida ahamiyat berishini talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o’rin tutadi. Bola to’g’ri so’zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak.

**Aloliddin Davoniy** ota-onaning bolani tarbiyalashdagi o’rniga keng to’xtalgan. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli teng ishtirok etishi har ikkisi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko’maklashishi ilm-fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo’lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish uchun joziba ko’rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyonlaridan biri **Muslihiddin Sa’diy Sheroziy** Sheroz shahrida 1184 yilda tug’ildi. Sa’diyning fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada tayanch otadir. U mas’uliyatli tarbiyachidir. Ota o’z bolalarini tarbiyalashi o’qitishi, hunarga o’rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak. Sa’diyning tarbiyaviy qarashicha bola qobiliyatli va kam qobiliyatli bo’lishi mumkin. Qobiliyat o’z-o’zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo’lmasa, boladagi qobiliyat so’nadi, tarbiyani uch asosiy-aqliy, nafosat va jismoniy, mehnat tarbiyasiga bo’ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya’ni, oilaviy tarbiyaga katta e’tibor beradi. Sa’diy ota-onalarga, xarakterini hisobga olgan holda, axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, unugcha, xarakter shakillangach, bolaga tarbiya ta’sir etmaydi.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** o’rta asr Sharq ma’daniyati va adabiyotining buyuk namoyondasi. Unung axloq odob haqidagi qarashlarida yaxshilik, vafodorlik eng go’zal fazilat sifatida ulug’lanadi, yomonlik jafo keltiruvchi illat ekanligi ta’kinlanadi:

**Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,**
**Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.**
**Yaxshi kishi ko’rmagay yomonlik hargiz,**
**Har kimki yomon bo’lsa, jazo topqusidir.**

deydi. Bobur va odamlarni elga yaxshilik qilib, o'zidan yaxshi nom qoldirishga chorlaydi.

**Xulqingni rost qilg'il har sorig'aki borsang,**
**Aks anga der bori el, gar yaxshi ot chiqarsang.**
**Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,**
**Kim deganlar dahr aro qoldi falondin yaxshi yo'q.**

Bobur yaxshi xulqlilikni, kishilarga yaxshilik qilishni insonning oliyjanoblik xislati hisoblaydi. Boburning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida Vatan tuyg'usi salmoqli o'rinda turadi.

XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy hayotining yirik vakillaridan biri **Komil Xorazmiy** o'z asarlarida ma'rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalarini olg'a surdi. U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligida, insonning axloq kamolotida tutgan o'rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini bayon etadi. Komil Xorazimiyning fikricha ilm-hunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy hayotining rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi. Shoir tarixshunos, tarjimon va hattot Munis Xorazimiy tilga ko'p erk bermaslikni maslahat beradi. Uning ta'kidlashicha, ortiqcha so'zamollik kishi boshiga oltin o'rniga qattiq tosh bo'lib tegishi mumkin. Shoir yomon so'zli ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilrni, jumladan, yoshlarni ular bilan hamsubat bo'lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o'z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo'lishga jaholatdan yiroq turishga da'vat etadi. Uning fikricha, ,adolat sharaf ko'rki osoyishtalik, xushnudlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqatda bo'lishga, ularni hurmat qilib, e'zozlashga chorlaydi. Munis Xorazmiyning asarlarida bayon qilingan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir. **Mohlar oyim** Nodiraning inson va tabiatga munosabat to'g'risidagi qarashlarida faqat shaxsiy tuyg'u va muhabbat emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an'anlarining roli haqidagi fikri ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari, adolat, xalq manfaati muhim o'rinni egallaydi. Nodira hayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kishi tiriklik chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'ladi, o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'laydi. Ta'lim-tarbiyaga oid ko'p foydali o'gitlarni bayon qiladi.

**Muhammad Rizo Ogahiy** ijodiy faoliyatining tarbiyaviy qarashlarida nafosat tarbiyasi yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an'analarimizni, hamdo'stlikni go'zal fazilatlardan biri deb hisoblaydi. Mehmonga chuqur hurmat bilan qarash mehmon kutish odobi Ogahiy ijodida o'z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallashga

da’vat etdi. Ogahiyning ta’kidlashicha, insonga do’st va dushmanni ajratib olish hayotda o’z-o’zini topib olishda g’oyatda muhimdir. Uning fikricha, to’g’riso’z kishilar hayotida qiyinchilik bilan yashasalar-da dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar. Ogahiy ta’lim-tarbiya ilmlarini egallash va tilni bilish ham muhim ahamiyatga molik masala ekanligini ta’kidlaydi. Muhammad Rizo Ogahiy o’z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo’lida xizmat qilishga da’vat etadi. U do’stlikni, mehmondo’stlikni, axloqiy go’zallkini ulug’laydi. Insonlarni ziyraklikka to’g’ri so’zli bo’lishga chorlaydi. Ogahiyning bu fikrlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir.

**Berdimurod Berdaq** Qoraqalpog’iston xalq shoiri butun ijodi davomida xalqlar tengligi, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat haqidagi g’oyalarni olg’a suradi. Berdaq insonning shaxsiy baxti xalq baxti bilan bog’liq deb biladi. Uning ta’kidlashicha, har bir odam baxtga erishishishi uchun o’z shaxsiy mafaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo’lsa jonni ham ayamasligi kerak. Berdaqning fikricha, inson oily axloqiy sifatlariga, chunonchi, beg’arazlik, oliyjanoblik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo’lishi lozim. Berdaq yoshlarning aqliy tarbiyasida maktabning mavqei katta ekanligini ta’kidlaydi. Maktab bolani yaxshi xulq-atvorli qilib tarbiyalash lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, maktabda dars beruvchi muallim o’z xushmuomalaligi, pok qalbligi haqgo’yligi, o’z fanini yaxshi va puxta bilishi bilan bolalarga o’rnak bo’lishi kerak. Berdaq oilaning bola tarbiyasida muhim o’rin tutishini alohida ta’kidlaydi, oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o’rtasida o’zaro hurmat bo’lgandagina tarbiyada yaxshi natijaga erishish mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug’ilgan kunidanoq tarbiyaga muhtoj, uning ilk tarbiyachilari albatta ota-oanalrdir. Berdaqning fikricha, barcha odamlar insonparvar va adolatli bo’lsa, jamiyat gullab-yashnaydi. Buning uchun esa xalqqa ta’lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim. Markaziy
Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqiyosida olib chiqqan Markaziy Osiyodagi pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo’shgan ulug’ siymolardan biri **Mirzo Ulug’bek**. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da’vat etadi, faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta’minlashga ishonadi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo’lgan qiziqish havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o’rinni egallaydi. Oilada ota-onalar, ayniqsa, o’qimishli ota-onalar o’z farzandlarining haqiqiy inson bo’lib kamol topishga alohida e’tibor berishlari lozim. Ulug’bek o’z tarbiyaviy qarashlarida bolalarning jismonan sog’lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo’lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Ulug’bekning fikricha, odam sog’lom va

baquvvat bo’lishi uchun yoshlik chog’idanoq jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishi, ta’lim-tarbiyada poraxo’rlik, qalloblik bo’lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo’lishi kerak.

Buyuk shoir va olim fors-tojik mumtoz adabiyotining ulug’ namoyondasi **Nuriddin Abdurahmon Jomiy** o’zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan, tarbiyaga doir o’lmas meros qoldiradi. U o’z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo’lda yozilgan “Bahoriston” asarida ta’lim-tarbiya masalalari xususida fikr bildiradi. Jomiy o’z asarlarida yoshlarn ilm egallashga da’vat etdi. U o’z tarbiyaviy qarashlarida kishilarni adolat, xushmuomalalik va dono so’ z bilan zulmkorlarga ta’sir etishga da’vat etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonida o’tmish merosimiz sharq allomalarining bebaho asarlaridan to’g’ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizni yuksaltiradi, balki komil inson shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo’shadi. Chunki inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik, adolat, do’stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, iymon, e’tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ko’zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo’lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilat bizga bu joyda beqiyos kuch-qudrat manbai bo’lib xizmat qiladi”. (“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari “ T< Yoshlar matbuot uyi, 2019, 16-bet.)

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1. “Turkiy Guliston yohud axloq” asarining muallifi kim?**

A. Abdulla Avloniy

B. Muhammadjon Quronov

S. Fitrat

D. Abu Nasr Farobiy

**2. 70- yillarda qaysi davlatda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi?**

A. AQSHda B. Fransiyada S. Xitoyda D. Yaponiyada

**3. Qaysi davlat ta’lim vazirligi ko‘rsatmalarida mas’uliyatli, g‘ururli, o‘zgalarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, irqchilikka qarshi turuvchi, multikulturalizmni qabul qiluvchi, o‘zining davlatiga muhabbatini Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik g‘oyalari bilan uyg‘un**

**rivojlantirgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash ko‘zda tutilgan?**

A. Fransiya B. AQSH S. Singapur D.Daniya

**4. Kimning fikricha, to’g’riso’z kishilar hayotida qiyinchilik bilan yashasalar-da dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar?**

A.M.R. Ogahiy B. M.Behbudiy S. I.Ibrat D. M.Ulug’bek

**5.”O’z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo’lgan ota-ona tarbiyachi bo’lishi mumkin”, fikrining muallifi kim?**

A. A.A.Ibn Sino B.Z.M.Bobur S. S.Sheroziy D. A.Navoiy

## NAZORAT SAVOLLARI

1.Yaponiyada shaxs tarbiyasida qanday tartiblar mavjud?

2.Sharq va g’arb mutafakkirlari oilada bolalarni axloqiy urf-odatlar orqali tarbiyalash to’g’risidagi fikrlari qanday bo`lgan?

3. Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning shaxs tarbiyasiga oid qanday fikrlarini bilasiz?

4.B.Berdaqning tarbiyaga oid qarashlarini ayting.

5.Z.M. Boburning vatanparvarlikka dav’at etuvchi qanday fikrlarini bilasiz?

## 13-mavzu: Oila tarbiyasi va salomatlik

**Reja:**

**1.Oila tarbiyasi. Oila va jamiyat.**

**2.Tabiat va inson. Tabiatga munosabat madaniyati. Xalqimizning ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati.**

**3.Tejamkorlik yaxshi fazilat. Tejamkorlik – koni boylik. Ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik.**

***Tayanch so‘zlar:*** oila,”Oila kodeksi”, oilaviy munosabatlar, ona tabiat, ekologik tarbiya, tejamkorlik, isrofgarchilik

### 13.1.Oila tarbiyasi. Oila va jamiyat.

**OILA** — nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy

munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Har bir inson kelajakda o’z mavqeyiga ega bo’lish, jamiyatda o’zining o’rnini egallab, kamol topish uchun tinimsiz harakat qiladi. Aslida esa u o’zining bu hatti-harakatlarining barchasini uyida oila deb atalmish muqaddas dargohda uni hamisha intiqlik bilan kutib, dadajon yoki oyijon deb kutib oladigan jonidan aziz farzandi har kuni ertalab turib, qo’llarini duoga ochib kuzatadigan va kutadigan ota-onasi va hamisha og’ir damlarida qo’llab-quvvatlab, shodon kunlarida u bilan birgalikda quvongan umr yo’ldoshi, ishdan va muammolaridan charchagan vaqtda beg’ubor tabbasumi-yu, shirin so’zlari bilan ko’nglini tog’dek ko’taradigon farzandlari uchundir. Dunyoda har bir ota-ona faqat farzandining kamolini, baxt-u iqbolini ko’rishni xohlaydi.Oila jamiyatning asosiy kichik bo’g’inidir. Bu kichik bo’g’in, ya’ni, oila mustahkam va barqaror ekan jamiyat barqarordir. Jamiyatning kichik bo’g’ini bo’lmish oilani barqarorligini saqlash uchun barcha mamlakatlarda xususan yurtimizda ham ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Oila, uni muhofaza qilish masalalari bir qancha huquqiy manbalarda o’z ifodasini topgan. Jumladan,
Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr) 16- moddasida;

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV-bob 63-66-moddalarida bayon etilgan;

O’zbekiston Respublikasi “Oila” kodeksida. (1998-yil 30-aprelda qabul qilingan) 8-bo’lim 238-moddadan iborat.

Va boshqa shular doirasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarda.

Inson huquqlari umum jahon deklaratsiyasi 16-moddasi;
1. “Balog’at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo’yicha hech qanday cheklanishlarsiz nikohdan o’tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o’tishda nikohda turgan vaqtlarida bekor qilish vaqtida bir xil huquqlaridan foydalaniladi”.

2. “Nikoh har ikki tomonning erkin va to’liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkun”.

3. “Oila jamiyatning tabiiy asosiy xujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli”.

Hammamizga ayonki oila sog’lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir. Oilaning mustahkamligi esa, ota-onalarning zimmasiga tushadi, Yurtboshimizning 2016 yilni “Soglom ona va bola yili” deb e’lon qilishi esa mamlakatimisda oilaga bo’lgan e’tiborni yanada yuqoridanligi dalolat beradi. Har qaysi millatning o’ziga hos ma’naviyatini shaklllantirish va yuksaltirishda shak shubhasiz, oilaning o’rni beqiyosdir. Chunki

insonning eng sof va pokiza tuyg’ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag’rida shakllanadi. Zero oilaning inson hayotidagi yaxshi va yomon fazilatlarini shakllantirishda oila asosiyligi uqtiriladi.
Ota-onaning har bir qilayotgan yaxshi va yomon hatti-harakati farzandlarining tarbiyasiga ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Chunki oilada ota-ona qanday bo’lsa ,uning tarbiyasini olgan va o’sha muhitda ulg’aygan bola ham albatta ularga taqlid qiladi. Shunday ekan farzand tarbiyalashning muhim omillaridan biri avvalo oilada ota-onaning tarbiyali va madaniyatli bo’lishidir. Bundan tashqari, ota-onalarimiz o’z sog’ligini saqlash maqsadida gigenik qoidalariga rioya qilishi, har kuni ertalab sport bilan shug’ullanishi va oilada o’ziga hos tartib-qoidalariga asoslanishi ham katta ahamiyatga ega. Bu esa farzandlarga hayotdagi yashash qoidalarini yolga qo’yish uchun andozadir.
Buyuk fransuz olimi Jan Jak Russo ta’biri bilan aytganda , “Farzandingizning tolesiz qilishning eng sinalgan usuli qandayligini bilasizmi? -u nima desa hammasiga xo’p deng “
Qaysi bir ilmiy ma’noda ijobiy fikr, ammo bugungi kunda bu tarbiya sohasida jiddiy muammolar tug’dirayotgan savoldir. Bizning fikrimizcha, bunday ota-onalar farzandlarini og’zidan chiqqanini muhayyo qilish orqali ularni xursand qilishdan ko’ra o’zining tinchligini o’ylaydiganlar, desak adashmaymiz. Eng achinarlisi shuki, bunday ota-onalarning tarbiyasini olgan bolalar kelajakda o’zgalar manfaatidan ko’ra o’zining manfaatini o’ylaydigan, turmushdagi arzimagan qiyinchiliklariga dosh berolmaydigan, insonlar bo’lib yetishib chiqmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Yana shuni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, aksariyat ota-onalar yuqoridagi salbiy holatlar o’z farzandlari bilan yuz berganda nega shunday bo’lganligini o’ylaydilar.
Oila a’zolarining o‘zaro muomalalarini organish shuni ko’rsatdiki maktab o‘quvchilarining o‘qishga va mehnatga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta’sir qiluvchi oila muhitidagi holatlar va omillar alohida o’rin tutadi.
Birichidan: ota-onalarning jamoatchilik faoliyati ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari bola tarbiyasiga ta]siri kuchli bolar ekan,.
Ikkinchidan: oila ichidagi munosabatlari ota va ona munosabati, ota- onalarning buva va buvisiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o‘zaro munosabatlari.
Uchinchidan: ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari maktab bilan hamkorliklari, o‘quvchilarga darsga tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati.
To’rtinchidan: oilada bolalalarning ta’limga munosabatlari va ijtimoiy normalarni bajarishllari va boshqalar.

Hozirgi kunda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga har qachongidan ko‘ra katta ahamiyat berilmoqda. Bu mavzu doimo barcha ota-onalarni ham, katta kishilarni ham qiziqtirib, shuning bilan birgalikda tashvishlantirib kelgan. Tarbiya jarayonida, u hoh oilada bo‘lsin, hoh maktabda bo‘lsin, bolaning psixologiya xususiyatini hisobga olmaslik kelajakda eng katta, tuzatib bo‘lmas xatoliklarga yo‘l qo‘yish demakdir.
O‘ylab qaraydigan bo‘lsak, bolaning tabiatini, qiziqishini, eng muhim ichki dunyosini bilmay, o‘rganmay turib, ular bilan tarbiviy ish olib baradigan bo‘lsak, tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishish ancha qiyin. Inson bolalik paytidan ota-onasi, akalari, opalari, o‘rtoqlari, umuman atrofdagi kishilar u yoki bu xulqni taqlidan o‘ziga singdirib boradi. Shuning uchun ham xalqimiz “kattalar odobi bolalar kamoli”, deb bejiz aytishmagan. Modomiki, ma’naviy go‘zal qilayotgan odamiylik va shunga o‘xshash sifatlar zamirida axloq muhim o‘rinni egallar ekan. Demak, biz avvalo farzandlarimizning ruhiyatini barcha salbiy ta’sirlaridan poklashimiz va ularni sog‘lom fikrlashga, ya’ni hadisda aytilganidek. “Kimki o‘zining yaxshi ishidan quvonsa, yomon ishidan xafa bo‘lsa, demak u haqiqiy mumkindir”, degan rivoyatga amal qilishga o‘rganib borishimiz lozim ekan.

Oiladagi odamlar bir-birlarini qanchalik chuqur tushunsalar, bir-birlarining yaxshi va yomon tomonlarini anglagan holda muomula munosabatda bo‘lib, inoq turmush kurslar, bunday oiladan ajoyib shaxslar yetishib chiqadi: bu o‘z navbatida jamiyat rivojiga, insoniyat istiqboliga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta’minoti, o‘zaro munosabatlar er-xotin, bobo-buvi, qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog‘a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a’zolarining birgalikda ishlash, dam olishi, adabiyot, san’at, ilm-fan, sport bilan shug‘ullanishi, daromad. Ruhiy-ma’naviy holatlar, qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalari va oila muhitni tashkil etadi.
Bolalarni yoshlik davridan kishilar bilan munosabatga kirishga o‘rgatish, o‘zini har qanday noxushlik, xursandchilik holatlarida ham o‘zini tuta olishga o‘rgatish kerak. Kattalar bilan munosabatda bo‘lish, kichiklarga izzatda bo‘lish, muomala munosabatlarga o‘rgatishni oila a’zolari ota-onalaridan o‘rganadi. Ota- ona nima ish qilsa, qanday munosabatda bo‘lsa bola ham xuddi shun munosabatlarni o‘rganadi. Boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kishining o‘zi uchun ham, atrofdagilar uchun ham ahamiyatlidir. O‘spirinlik, o‘smirlik, yoshlik davridagi muomala munosabatning o‘ziga xosligi oilada-maktabda va jamoat joylarida kishi o‘zini qanday tutishi kerakligini, boshqalarga hurmat bilan qarash, so‘zlash madaniyati oilidan boshlanishini oilaviy munosabatlar tizimida keng yoritish kerak. Tajriba davomida o‘quvchilardagi tarbiyalanganki xususiyatlarni anqlash maqsadida ularga muomila madaniyati, inoqlik, iffat, andisha kabi tushunchalarni

qay darajada angkashi va tushunishini o’rnildi.
Xulosa qilib aytish mumkinki, shaxs tarbiyasida ota-ona bilimlarini doimiy oshirib borishlari lozim. Yagona haqiqat shuki, uyda ota-ona, maktabda ustoz va murabbiylar ma’naviy boy, dunyoqarashi keng bo‘lishlari zarur. Shundagina o‘sib kelayotgan avlodlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olish mumkin. Eng muhimi ularning psixologik rivojlanishi, ruhiyatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida munosabatlarni to‘g‘ri rivojlanishiga, ularni hayotini oldindan ko‘ra bilishga, kelajagini porloq qilib voyaga yetkazishga katta yordam beradi.
Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, axloqiy-ma’naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma’naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta’minlanganligi, turli ko‘rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilada farzand tarbiyasini samaradorligini ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.
Farzandlar tarbiyasini barqarorligini ta’minlashda ota-ona ibrati katta ahamiyatga ega boladi;

Oiladagi axloqiy tarbiya bilan ta’lim muassalari tarbiyasi mushtarakligini ta’minlash farzandlarning tarbiyalanganlik darajalarini oshiradi ;

•Farzandlar tarbiyasida oilaviy an’analarni, milliy urf odatlar mohiyatini ular ongiga singdirib borish tarbiyaning milliy xarakterini oshirish imkoniyatini beradi.
•oilaviy hayotda urf - odat, an’ana, milliy ong va milliy til kabi ijtimoiy tushunchalar va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob va oilaviy hayot xususidagi didaktik qarashlaridan foydalanish yaxshi samara beradi;
•oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos qoidalaridan xabardor bo‘lish va kamchiliklarini psixologik - pedagogik bilimlarga tayanib bartaraf etish darkor;
•oilada shaxslararo munosabatlarning ko‘rinishini va rollar taqsimoti bola faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega

oilada ma’naviy, axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirish bolaning har tomonlama ma’nan pok, iymonli, vatani va xalqiga sodiq farzand bo‘lib yetishishida yetakchi rol o‘ynaydi.
Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlarni o‘rni va ijtimoiy xarakteri masalalarini biz yuqorida nazariy va amaliy tahlillarimiz asosidagi xulosa qiladigan bo‘lsak, demak, farzand tarbiyasi bu o‘ta muhim va dlzarb masalal, uning shakllanishida birinchi o‘rinda ota-ona munosabatlari va tarbiyalanganlik darajalari yotadi. Ma’lumki, bolaning shakllanishi, tarbiyasi, dunyoqarashi, muomalasi avvalo oilada boshlanadi. Oiladagi bobo, buvi, ota-ona, aka-opalar bilan birgalikdagi munosabatlarida tarbiyalanib boradi. Tarbiyaning axloqiy jihatlarii shakllanadi. Ota-onalar o‘rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ‘ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada

qiyinchilikka uchrayotgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim. Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritgan ota- onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni maktabning kengaytirilgan yig‘ilishlariga, ota-onalar qo‘mitalarining majlislariga taklif etish va o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashishni yo‘lga qo‘yish nihoyatda muhimdir. Ulardan unumli foydalanish uchun maktablarda ota-onalar kunini joriy etish zarur.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib, kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, «Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to‘g‘risida», 1994 yil 22 avgustdayoq farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma’naviy yordam berishning ko‘lami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq

topilishida tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998 yilni «Oila yili» deb e’lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to‘g‘risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Xotin-

qizlar qo‘mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” qabul qilingan.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o‘sib-unayotgan bolalarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar.

Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa, keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan.

Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o‘z ma’suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz hatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarni guvohi bo‘lib qaytmoqdalar. Shu jumladan, Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g‘arb o‘smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo‘ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo‘yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda. Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga chiqishni ko‘zlaydi. Bugun

jamiyatning yosh a’zolari o‘z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g‘oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba’zi millatlarning o‘zligini yo‘qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e’tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo‘naltirilgan. Albatta bola tarbiyasi o‘ta murakkab va ma’suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan baxobar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko‘lamini oshirish talabini qo‘yadi. Ta’lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma’qul. Rasulullоh (a.s.): “Birontangiz o‘z farzandlaringizni tartib-intizomga o‘rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir”, deya marhamat qilganlar.

Bolalarni intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi. Islom shu ma’noda ota-onalarni o‘z farzandlariga sog‘lom tarbiya berishga rag‘batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta’kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lish lozim.

Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan.Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor

berganlar.Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

- odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

- farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Ota-bobolarmiz azaldan o‘g‘il qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi. Farzand tarbiya qilganda odatda o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko‘rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo‘lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo‘ladi. Loqaydlik yomon illat bo‘lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo‘l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik payti bo‘lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyali do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi.

Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri hatti-harakatlarini ma’qullash yoki hatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgtna shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, ma’suliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir.

Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotlarda ota-ona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar.Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar”, deganlar. Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan; uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda ijtimoiy tarmoqlar to‘ri tabora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga ba’zi ma’naviyati to‘liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari bilan birgalikda yondoshib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim.Tarbiyadan tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktab yoki kollejdan keyin qaerga borishi, nima bilan shug‘ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, deb marhamat qilganlarida, o‘g‘il va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta’minlash kerakligini nazarda tutganlar. Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo‘lsa “kitobxonlik”. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar, “Aybuk” tarzidagi kitob-kafe do‘konlari va boshqalar so‘zimizning yaqqol misolidir. Ota-ona farzandiga vaqtni unumli o‘tkazishni

o‘rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan usullardan yana biri-zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir.

Ota-ona bolada estetik tarbiya, go‘zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o‘zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go‘zallik latofatini singdirishi muhim. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi.

Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarni o‘z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do‘stona munosabatda bo‘lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog‘-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo‘ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba’zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi.

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklardan ko‘z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba’zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo‘l ko‘taradigan va o‘z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo‘layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo‘lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy xatti harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo‘lgan.

Yaxshi tarbiya, ba’zilar o‘ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o‘qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo‘lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma’lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-

sinoatlarini qo‘shib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba’zan samarasiz bo‘lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo‘lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo‘ladi.

### 13.2. Tabiat va inson. Tabiatga munosabat madaniyati. Xalqimizning ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati.

Yurtimizda jismonan yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni toza atrof muhitsiz, boshqacha qilib aytganda ekologik xavfsiz bir yoqlama tasavvur etib bo‘lmaydi. Sog‘lom turmush tarzi hamda atrof tabiiy muhit bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langandir. Sog‘lom atrof tabiiy muhit, tabiiy muhitning toza va musaffoligi bolalarning sog‘lom va yetuk voyaga yetishining asosiy omillaridan biridir.

Ekologik muammo taraqqiyot, xavfsizlik, aholining turmushi va bevosita odamlar hayotining davomiyligiga ta’sir ko‘rsatib, ayniqsa aholining eng yosh qismi bo‘lgan bolalar hayotiga katta xavf soladi. Sir emaski, ifloslangan, zaharlangan atrof-muhit birinchi navbatda hali yosh, endi rivojlanib shakllanib borayotgan organizmga katta ta’sir ko‘rsatadi, uning fiziologik va ruhiy rivojlanish holatiga ham ta’sir etmay qolmaydi.

Ayniqsa, hozirgi paytda oilada ekologik omil va talablarga asoslanib sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari muhim kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, oila, oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, unga rioya qilish va targ‘ib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musaffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila a’zolarining munosabati, xo‘jalik yuritish uslubi, tartib-qoidalari va odat-ko‘nikmalari -oilaning qadriyatlarini belgilaydi.

Ko‘p mingyillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat beradiki oilada ma’naviy-ekologik qadriyatlarga va uning qaror topishiga katta e’tibor berilgan. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz ekologik tizimiga katta salbiy ta’sir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va an’anaviy odob-ahloq qoidalari unutib yuborildi.

Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan boy milliy ma’naviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat beradiki, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz Ona zaminga o‘zgacha munosabatda bo‘lib, suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Tabiat boyliklari va uning ehsonlarini asrab-avaylab, ulardan tejab foydalanganlar. Ma’naviyatimiz poydevori hisoblangan muqaddas hadislarda: “Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar”, deyilgan. Isrof qilmaslik, uvol, gunoh va me’yor kabi tushunchalarni yaxshi anglab yetganlar va kundalik turmush faoliyatida ularga qat’iy amal qilganlar.

Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko‘cha-kuyni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni toza, saranjon-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma’naviyatga, ekologik qoida va mezonlarga to‘la amal qilganlar. Daraxtzor, bog‘-rog‘larni yaratilganligi haqida tariximizdan ko‘plab ma’lumotlarni keltirish mumkin. Bog‘ yaratish san’atiga xalqimiz azaldan ega

bo‘lgan. Oilada farzand tug‘ilsa unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorlarga ozor yetkazilmagan. Tabiat bilan uyg‘unlikda hayot kechirishgan, yashash muhitiga, tabiatga nisbatan loqaydlik, befarqlik qoralangan, va pirovard natijada tabiat muvozanatini saqlagan.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor “Atrof-muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi”. Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko‘cha-kuy, hovli-joyni toza va saranjom tutishda bilinadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deganlaridek, ota-onalar bolalarga tabiat in’om etgan yer va suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o‘simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o‘gitlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot mezoniga aylantirishlari talab etiladi. Bolalarimizga, o‘lkamiz uchun tobora qadrli bo‘lib borayotgan ichimlik suvidan tejab-tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o‘ta muhim masaladir.

Yer va suv umummilliy boylik hisoblanib, xalq farovonligining asosiy manbaidir. Shu bilan birgalikda, inson salomatligi ham millat boyligi hisoblanadi. Binobarin, toza ichimlik suvi har bir oilaning sog‘lom hayot yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Bugungi avlod o‘sib ulg‘ayib insonlar hayoti va atrof-muhitni asrab-avaylash haqida hal qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak bo‘ladi. Ota-onalar, kattalar tomonidan oilada bolalarga birlamchi ekologik madaniyat saboqlari beriladi. Tabiatdagi sodir bo‘layotgan hodisa va o‘zgarishlarning bevosita har bir kishining salomatligiga, ruhiyatiga, kayfiyatiga ta’sirini ota-onalar o‘z bolalariga astoydil tushuntirsalar, bu o‘gitlar bola ko‘nglida muhrlanib, narsa, hodisalarni bilishga hamda oqilona hatti-harakatlarga rioya qilishlariga ularning intilishlari oshadi.

Avvalombor, bolalarimizda ekologik madaniyat saboqlarini shakllantirishda kattalarning tabiatga, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati katta o‘rin tutadi. Ota-onalarning atrof-muhit tozaligini saqlashga bo‘lgan doimiy e’tibori, say’-harakatlarini ko‘rgan va his qilgan bolalar, ular orqasidan ergashishga harakat qilishadi, ulardan namuna va o‘rnak oladilar. Erta bahorda hovli va ko‘chada oila davrasida birgalikda daraxt ekish, uni parvarish qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, hovlini obod qilish har bir bola uchun yaxshi namuna maktabini o‘taydi hamda atrof-muhitga bo‘lgan ezgu va bunyodkorlik munosabatini belgilashda zamin yaratadi.

Ko‘kalamzorlashtirish jarayonlariga jalb etilgan bolalarning o‘z navbatida estetik dunyoqarashi va tafakkuri kengayib boradi, tabiatdan, uning boy xilma-xil ranglaridan ma’naviy estetik zavq olishi, tabiatga oshnoligi kuchayadi. Gullarni xush ko‘rmaydigan bolaning o‘zi yo‘q. Xonadonimizda madaniy gullarni ko‘paytirish va parvarish qilish ekologik tarbiyaning yaxshi unumli vositasi bo‘lib, bolalarning ekologik ongini rivojlantiradi. Xonadondagi gullar, yashil o‘simliklar o‘z navbatida havoni kislorod bilan ta’minlab bolalarimizning toza havo bilan nafas olishini ta’minlaydi. Ayniqsa qizlar gullarga oshno bo‘ladilar, o‘g‘il bolalar esa tirik jonivorlarni parvarish qilishga moyil bo‘ladilar.

Ota-onalar bolalarning erta yoshligidanoq bu moyilliklarni aniqlab, bu yo‘sinda ish olib borishlari farzandlarining dunyoqarashini kengayishiga olib kelib, yaxshi natija beradi. Bolalarning maktabda olgan tabiat haqidagi bilim va saboqlarini ota-

onalar ularga kundalik hayotda rioya qilishlarini va amalda tatbiq etishlarini tushuntirishlari lozim. Farzandlarimiz munosabatida isrofgarchilik alomatlariga aslo yo‘l qo‘ymaslik, uni oldini olish, tejamkorlik va tadbirkorlik xislatlarini yoshligidanoq singdirish zarur. Tabiat tuganmas xazina emas, ko‘plab tabiat boyliklari tiklanmaydi.

Ta’kidlash o‘rinliki, bolalik davri inson hayotining ilk, betashvish bosqichi hisoblanadi. Bolalar atrof-muhit va unda ro‘y berayotgan hodisalarni anglashga emotsional-hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda, asta-sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash, sifat va mustaqil munosabat shakllanib, ularning ruhiyatida saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini hisobga olib, oila bilan birgalikda tabiat qo‘yniga sayohat uyushtirish o‘z navbatida bolalarning kuzatuvchanligini, o‘rab turgan tabiiy muhitdan estetik zavqlanishini, hamdardlik tuyg‘usini, tabiat qo‘ynida o‘zlarini qanday tutish qoidalari va odobini shakllantirishga, ularning sog‘lom, ma’naviy va intelektual rivojlanishiga yordam beradi.

Ota-onasining atrof-muhitga hatti-harakati bolada qanday munosabat uyg‘otadi? Axlat va chiqindilarni duch kelgan yerlarga to‘kish, uni yondirish, ayniqsa kuzgi xazonrezgi davrda xazonlarni yoqib havoni bulg‘aydigan noxush holatlariga beihtiyor ko‘zimiz tushadi. Eng achinarlisi biz ba’zan bu jarayonga bolalarni ham tortmoqdamiz, shu kabi ishlarni ularga buyurib oxir-oqibatda ularni bunday salbiy harakatlarning bevosita ishtirokchisiga ham aylantiramiz. O‘z navbatida esa bolalar kattalar harakatidan, munosabatidan o‘rnak oladilar.

Bolalarning atrof-muhitga bo‘lgan nojo‘ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi avvalom bor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta’minlashini astoydil o‘qtirishlari lozim.

“Toza muhit- bu sog‘lom hayot muhiti” qoidasini oilaning turmush tarzi va dunyoqarashi, kundalik zaruriyati, amaliy ko‘nikmasi va hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarurdir. Bolada sog‘lom turmush tarzining ilk qoidalarini shakllantirishda ota-onalar atrof-muhitni muhofaza qilish, uning tozaligini saqlash, suv, havo va tuproqni ifloslantirmaslik, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish har birimizning qonuniy ham insoniy burchimiz ekanligini hayotiy misollariga tayanib astoydil o‘qtirishlari lozim.

Binobarin, hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida yer, suv, tabiiy gaz va boshqa resurslardan oqilona, samarali va tejamkorlik bilan foydalanish oilaning daromadi va farovonligiga ta’sir etishini bolalar bilishlari foydadan holi bo‘lmas.

Dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim vazifalardan biri hozirgi va kelajak avlod uchun toza, sog‘lom, xavfsiz atrof-muhitni yaratish masalasi hisoblanadi. Barqaror rivojlanish zaminida aynan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati – bolalar, farzandlarimiz manfaati, ularni xavf ostiga qo‘ymaslik, ular uchun toza, sog‘lom va xavfsiz atrof-muhit va farovon hayot yaratish masalasi turganligini aytib o‘tish joiz.

Tabiatga yaqinlik, ona zaminga muhabbat, jonajon o‘lkaning go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish bolalarni ma’naviy-ruhiy jihatdan boyitib nafis didini shakllantirdi hamda muqaddas zamin o‘z ona-yurtining farovonligi va tabiatining

musaffoligi to‘g‘risida qayg‘urishni o‘zlarining burch va mas’uliyatli ekanliklarini yuraklari bilan his etadilar. Tabiatni muhofaza etish, uni boyliklarini avaylash va undan oqilona foydalanishni davrni o‘zi talab etib, barchamizni tabiatga yanada e’tiborliroq va mas’uliyatliroq bo‘lishga undamoqda.

Shundan kelib chiqib quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- bolalarimizda atrof-muhitga bo‘lgan daxldorlik munosabatini shakllantirish, ularda mas’uliyat hissini uyg‘otish va tarbiyalash, tabiat resurslaridan – yer, suv, energiyadan, barcha xom-ashyolardan ehtiyotkorlik, tejamkorlik va sarhisoblik bilan foydalanish, ya’ni uvolga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini ularning kundalik hayotida singdirishimiz, bu hatti-harakatlarda shaxsiy namuna amallarini ko‘rsatish;
- bolalarizning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga asosiy urg‘u berib, ularda yuksak insoniy fazilat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik va obod etish sifatlarni qaror toptirish orqali ekologik ma’naviyatni va tabiatga bo‘lgan yangi qarashni shakllantirish;
- oila muhitida toza ichimlik suvidan samarali foydalanish madaniyatiga qat’iy amal qilish har bir oila a’zolarining ajralmas fazilatiga aylanishini;
- oilada bolaning sog‘lom turmush va ekologik odobini har tomonlama shakllanishiga, suv, tuproq, havoni ifloslantirmaslik, o‘simlik va hayvonot olamining rang-barangligini saqlashga o‘z hissasini qo‘shish, unga bo‘lgan g‘amxo‘rlik sifatlarini qaror topishiga, befarqlik alomatlarini oldini olish, shaxsiy ekologik pozitsiyasini tarbiyalashga e’tiborni qaratish;
- bolalarimizda ekologik huquqning birlamchi kurtaklarini, ya’ni atrof tabiiy muhitga bo‘lgan o‘z fuqaroviy burch va majburiyatlarini anglab yetishlariga, ekologik xavfsiz muhit insonlarning sog‘lom hayot kechirishlariga hamda sanitariya ekologik holatining yaxshilanishiga zamin bo‘lishini tushuntirib borish;
- bolalar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilayotganlarida, albatta atrof-muhit holatini e’tibordan chiqarmaslikni va uni hisobga olish zarurligini, bolaning atrof-muhitni toza saqlashda ko‘rsatgan amallarini ota-onalar doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashi hamda tabiatga qilingan nojuya hatti-harakatning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini o‘qtirib borish;
- farzandlarimizni bo‘sh vaqtlarida bevosita tabiat qo‘ynida, hayvonot va o‘simlik olamining turli tuman ekanligini anglashi, rang-barang go‘zalliklaridan ularni bahramanad qilish borasida imkon qadar birgalikda tabiat qo‘yniga sayohatlar uyushtirish. Zero, biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar va barchamiz bolalarimizning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishiga va ularning o‘z ona zaminini naqadar asrab-avaylashga qodir ekanligiga javobgarmiz.

### 13. 3.Tejamkorlik yaxshi fazilat. Tejamkorlik – koni boylik. Ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik.

Oiladagi tejamkorlik – bu “xasislik yoki ziqnalik emas, balki, uning mazmunida oila mablag‘ini qattiq nazorat qilish, halol mehnat evaziga kelgan pul va ro‘zg‘or anjom-ashyolari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarni qadrlash, asrab-avaylash, iqtisod ilmini chuqur bilish, ehtiyotkorlik, nafsni idora etish, boyvachchalik orqasidan bo‘ladigan manmanlikdan o‘zini tiyish, har bir

narsadan unumli foydalana bilish mahoratiga ega bo‘lish demakdir”.Oila iqtisodi haqida so`z yuritadigan bўlsak jamiyatning barcha qatlamlari iqtisodiy sharoitlarini inobatga olish lozim. Oila iqtisodida daromad ko’payishi oila yashash tarzini o’zgartirmay, balki xarajatlarning ko’payishiga olib keladi. Oilada byujet kamayganda davlat tizimiga o`xshab iztiroriy holatlarda bir miqdor moliy kўmaklardan foydalanishga imkoni yo`q. Shuning uchun ham oilada xarajatlarni yaxshi rejalashtirishga tўg‘ri keladi. Oila a’zolari esa bu boradagi shart-sharoitlarini nazarda tutib, ish yuritishlari lozim bўladi.Xonadon xo‘jaligi yoki boshqacha aytganda oila iqtisodi o‘zida aynan nimalarni qamrab oladi. “Pul, mol, oila ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan narsalar, bu – oila iqtisodi. Oila iqtisodi mehnat bilan topilgan halol mol-mulk hamda tejamkorlik yo‘li bilan yig‘ilgan narsalardan iborat.

Insondan pul, molu dunyo topish bir aql talab etsa, uni sarflay olish o‘n marta ortiq aql talab etadi. Shuning uchun oila iqtisodiga o‘ta mas’uliyat, puxta reja asosida munosabatda bo‘lmoq lozim. Ota-onalar oilalarda ijtimoiy maslalarda, oila a’zolari orasidagi munosabatlarni rejalashtirganlaridek oila budjetini ham durust ravishda rejalashtirishlariga tўg‘ri keladi. Har bir oila a’zosi chiroyli kiyinish, eng mazzali taomni iste’mol qilish, eng chiroyli uylarda yashashni orzu qiladi. Ammo imkoniyatlar chek ekanligi bor oilani bor sharoitdan durust ravishda foydalanishni talab qiladi. Oila xo‘jaligini oqilona yuritishning muhim sharti – bu oila iqtisodini rejalashtirish hisoblanadi. Har bir oilada uning a’zolar tejamkorlikka alohida e’tibor qaratishlari lozim. Zero, aynan tejamkorlik oila farovonligini yaratishning muhim sharti, o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy qadriyat sanaladi.

Shunday qilib, oila shaxsni har tomonlama kamol topishi uchun qulay maskan bo‘lishi bilan birga unda tejamkorlik xislatini tarbiyalash imkoniyatiga ham ega.

Oila a’zolarida tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishda oilaning bu imkoniyatidan unumli foydalanishga e’tibor qaratishi zarur. Bolalarni xaridlarni amalga oshirish, ularni joylashtirish, ovqatlarni tayyorlash va ularni iste’mol qilish, yuvinish, shuningdek, uy-ro‘zg‘or hamda xo‘jalik ishlarini bajarish kabi faoliyatga faol jalb etish ular tosmonidan tejamkorlik tushunchalarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Bu yerda gap xarajatni keskin kamaytirish haqida emas, balki pulni ahamiyatga qarab sarflash haqida bormoqda. Xarajatlarni oqilona rejalashtirish ko‘p pul topmasdan ham turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Oila budjetini rejalashtirish shaxsiy mablag‘ni boshqarish va moliyaviy farovonlikka erishishning asoslaridan biridir. Bu nima uchun lozim? Qo‘limizdagi pulning hammasini noo‘rin sarflab yubormaslik, uni o‘z maqsadingizga erishishga yo‘naltirish va moliyaviy erkin bo‘lish hamda turmush tarzimizning chiroyli qilish uchun.

Oila iqtisodiga bog‘liq yana bir masala, bu vaqt bўlib, vaqt joriy muayyan bir zamondir va uni ortga tashlab bo'lmaydi. Insonning barcha ne’matlari tўg‘risida javobgarlik bo'lganidek sarflagan vaqti tўg‘risida ham javobgarlik bor. Shuning

uchun ham vaqtni sarflash uchun reja tuzib, unga qarab amal qilinsa oila a’zolarini o'z vaqtlaridan eng oliy tarzda foydaanishlariga imkon beradi.

**Test topshiriqlari**

**1. “Al-Adab al-mufrad”asarining muallifi kim?**

A.Al-Buxoriy

B. Abu Lays Samarqandiy

S.Fitrat

D.A.Cho’lpon

**2.Quyidagilardan qaysi biri Abu Lays Samarqandiyning asari?**

A.“Tanbehul g‘ofiliyn”

B.”Oila”

S.”Padarkush”

D. “Devoni lug’otit- turk”

**3. “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar” degan tavsiya kim tomonidan aytilgan?**

A. Payg‘ambarimiz (s.a.v.)

B. Al-Buxoriy

S.I.G’azzoliy

D. Abu Lays Samarqandiy

**4. Qaysi manbada “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta’kidlangan?**

A. Hadisi sharifda

B.”Qur’oni Karim”da

S.”Injil”da

D. “Budda” ta’limotida

**5. Oila xo‘jaligini oqilona yuritishning muhim sharti nima?**

A. oila iqtisodini rejalashtirish

B. oila byudjetini tartibga solish

S. oila a’zolarini ish bilan ta’minlash

D. oila daromadlarini hisob-kitobini olish

**NAZORAT SAVOLLARI**

1.Oilaga ta’rif bering

2.Oilada farzand tarbiyasiga qanday jihatlar muhim?

3. Oilada ekologik tarbiya qanday shakllantiriladi?

4. Tejamkorlik nima?

5. Oila xo‘jaligini oqilona yuritishning muhim sharti nima?

**14-mavzu: Orzu, maqsad va muvafaqqiyatni anglatish mexanizmlari. O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari**

**Reja:**

1. Orzu, maqsad va muvaffaqiyatni anglatish mexanizmlari. Maqsad qo‘yishning ahamiyati. Uni amalga oshirish yo‘llari va omillari. Rad etilish – olg‘a borish uchun sabab. Jamoaviylik.

2. Hissiyotlarni anglash, ularni nazorat qilish usullari. O‘z o‘zini anglash va o‘z o‘zini tarbiyalash metodlari.

***Tayanch so’zlar:*** *orzu, maqsad, muvaffaqiyat, hissiyot, jamoaviylik, o’z-o’zini anglash*

## 14.1. Orzu, maqsad va muvaffaqiyatni anglatish mezanizmlari. Maqsad qo‘yishning ahamiyati. Uni amalga oshirish yo‘llari va omillari. Rad etilish – olg‘a borish uchun sabab. Jamoaviylik.

**MAQSAD** (falsafada) — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo‘lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta’riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo‘lsa, maqsad faoliyat

yo‘nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga sub’ektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta’sir o‘tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo‘ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va boshqa turlari bor. Real maqsadlar sub’ektning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va ob’ektiv qonuniyatlarni hisobga olsa, noreal maqsadlar faqatgina sub’ektning orzu-istaklarini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi.

**Maqsad haqida mutafakkirlarning fikrlari**

Hayotdagi maqsad inson qadr-qimmati va baxtning asosidir.
K. D. Ushinskiy

Insonning barcha istaklarini qondiring-u, lekin undan yashash maqsadini olib qo‘ying-chi, qarabsizki, u naqadar baxtsiz va ojiz kimsaga aylanib qoladi.
K. D. Ushinskiy

Inson musibatlarini tobora kamaytirib, inson rohat-farog‘atini tobora oshirish. Dono va sofdil odamlarning butun kuch-g‘ayrati doimo ongli yoki ongsiz ravishda, bevosita yoki bilvosita mana shu maqsadga qaratilgan edi.
D. I. PISAREV

Hayotiy kurash belgilangan maqsad sari ongli intilishga aylangan paytdan boshlab kishi o‘zini baxtli hisoblashi mumkin.
D. I. PISAREV

Maqsad baxtga erishishdan iborat bo‘lmog‘i lozim, aks holda, gulxan yetarli darajada gurillab yonmaydi, harakatlantiruvchi kuch yetarli darajada qudratli

bo‘lmaydi — binobarin, muvaffaqiyatga ham to‘la erishilmaydi.
T. DRAYZER

Hayotning ma’nosi orzu-niyatlar sari intilishning go‘zalligi va qudratidadir, shuning uchun tiriklikning har daqiqasi o‘zining yuksak maqsadiga ega bo‘lishi kerak.
M. GORKIY

Mening nazarimda, o‘z oldiga maqsad qo‘ygan va shu maqsadi uchun bor kuchini fido etgan kishigina baxtli bo‘lmog‘i mumkin.
M. I. KALININ

Shon-shavkat yuksak maqsad sari intilganning mulkidir.
FIRDAVSIY

Aytish mumkinki, har bir ayrim kishida va umuman hammada ham ma’lum maqsad bo‘ladi, shu maqsadga intila turib, ular bir yo‘llarni e’tirof etadilar, ba’zilarini esa rad qiladilar.
ARASTU

Hayot mudom harakatda bo‘lmog‘i uchun xohish o‘lmasligi kerak.
S.JONSON

Har kimning ko‘z o‘ngida, harqalay, o‘ziga buyuk ko‘rinuvchi va agar uni eng chuqur e’tiqod, chinakam qalb ovozi buyuk deb e’tirof etsa, chindan ham buyuk bo‘lgan muayyan maqsadi bor…
K.MARKS

Qalbni orzudan mahrum qilish yerni havodan ayrib qo‘yish bilan barobar.
E. BULVER-LITTON

Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi.
B. SPINOZA

Istak ado bo‘lgan yerda odam ham ado bo‘ladi.
L. FEYERBAX

Odamlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga qarab baholash kerak.
N. N. MIKLUXO-MAKLAY

Odamning o‘z jonini tikishga ham tayyor turgan biron maqsadi bo‘lmasa yomon.
L. N. TOLSTOY

Bir jihatdan, mohiyat-ye’tibori bilan o‘z oldiga mazmundor maqsad qo‘yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o‘ziga xosligi yo‘qolgan bo‘lur edi.
G. GEGEL

Uzoqni ko‘radigan odam o‘zining har bir istagi uchun alohida o‘rin topa bilishi va keyin ularni navbatma-navbat amalga oshirishi kerak. Ochko‘zligimiz ko‘pincha bu tartibni buzib yuboradi va bir vaqtning o‘zida bizni shunchalar ko‘p maqsadlar ketidan chopishga majbur etadiki, natijada mayda-chuydalarga o‘ralashib, eng muhim narsani esa esdan chiqarib qo‘yamiz.
F. LAROSHFUKO

Sira shoshilmaydigan odam ham mabodo u o‘z maqsadidan chalg‘ib ketmagan bo‘lsa, maqsadsiz tentirab yurgan odamga qaraganda jadalroq yuradi.
G. LESSING

To‘g‘ri yo‘lda sudralib borayotgan odam ham yo‘ldan adashgan shoshqaloqdan o‘zib ketadi.
F. BEKON

O‘z intilishing marrasiga yetmoqchi bo‘lsang — muloyimlik bilan adashgan yo‘lingni so‘ra.
V. ShEKSPIR

Qanday maqsad bo‘lishidan qat’iy nazar, unga g‘oyat jiddiyat bilan intilish o‘sha maqsadga erishish yo‘lidagi yarim yutuqdir.
V. GUMBOLDT

Dunyoni ko‘pdan beri ummonli okean deyishadi, lekin unda kompas bilan suzgan odam baxtlidir.
N. M. KARAMZIN

Printsipsiz va irodasiz kishi kompasi va ruli yo‘q kemaga o‘xshaydi, u sal shamol o‘zgarishi bilan yo‘nalishini o‘zgartiraveradi.
S. SMAYLS

Shunday odamlar borki, ular suvga tushgan xasdek hech bir maqsadsiz dunyodan o‘tib ketadilar; ular suzishmaydi, oqim ularni olib yuradi.
SENEKA

Agar maqsadsiz bo‘lsang hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo‘lmasa buyuk ish qilolmaysan.
D. DIDRO

Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo‘ladi.
F. LAROShFUKO

Inson bor kuchini ishga solishi uchun o‘z oldiga ilhom bag‘ishlaydigan biron-bir olijanob maqsad qo‘ymog‘i lozim.
E. RENAN

Kishi hayotda o‘z oldiga muayyan bir maqsad qo‘ymog‘i lozim… O‘z kuchiga yarasha maqsad qo‘yish uchun so‘zsiz yetarli darajada aql-farosatli bo‘lish ham kerak.
N. A. OSTROVSKIY

Odamlar ichida eng bo‘lmag‘uri istagi yo‘q kishidir.
ABAY QO‘NONBOEV

Maqsadi ulug‘lashgan sari odamning o‘zi ham ulug‘lashib boradi.
F. ShILLER

Maqsadsiz faoliyat yo‘q, manfaatsiz maqsad yo‘q, faoliyatsiz esa hayot yo‘q. Manfaatlar, maqsadlar va faoliyat manbai — ijtimoiy hayot substantsiyasidir.
V. G. BELINSKIY

Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari orqasidan ergashadilar.
U. IRVING

Muayyan bir maqsadga yo‘naltirilmagan aql izsiz yo‘qoladi; hamma yerda bo‘lmoq hech yerda bo‘lmaslik degan so‘zdir.
M. MONTEN

O‘z oldingizga yaxshi maqsadlar qo‘ying. Biz biron-bir narsaga qarshi kurashibgina qolmay, balki eng avvalo biron-bir narsa uchun ham kurashishimiz lozim.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Yuksak maqsadlar yuzaga chiqmay qolgan taqdirda ham biz uchun u amalga oshgan past maqsadlardan ko‘ra qimmatliroqdir.
I. GYOTE

Agar intilish sof ko‘ngildan chiqsa, harqalay, chalaroq qolib, aniq nishonga tegmasa ham juda katta foyda keltirishi mumkin.
I. S. TURGENEV

O‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan bosqichlarni qat’iy farqlash, ularning kelib chiqish sharoitini xushyorlik bilan o‘rganish, aslo pirovard maqsadni orqaga surish emas, aslo o‘z yo‘lini sekinlatish emasdir.
V. I. LENIN

Vaziyat o‘zgaruvchan bo‘lsa ham printsiplar hech qachon o‘zgarmaydi.
O. BALZAK

Maqsadga yaqinlashgan sari mashaqqat ortib boradi. Lekin har bir kishi yulduzlarga o‘xshab sokinlik bilan, shoshmasdan, biroq belgilangan maqsad tomon uzluksiz intilgan holda o‘z yo‘llarini bosib o‘tishlari kerak.
I. GYoTE

Kim buyuk maqsadga intilsa, o‘zini o‘ylamasligi zarur.
I. S. TURGENEV

Maqsadga olib boradigan yo‘lning uzoq-yaqinligi ahamiyatsiz.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Kam kuch sarflab o‘z maqsadiga yetishishlik eng zo‘r mukammallik bo‘lub tuyuladi menga.
Sh. MONTESKE

Vositalar xarakteri xuddi maqsad xarakteriga o‘xshagan bo‘lishi kerakki, shundagina vositalar maqsadga olib borishi mumkin. Noo‘rin vositalar faqat noo‘rin maqsadlarga yaraydi.
N. G. ChERNIShEVSKIY

Olijanob maqsad shu maqsad yo‘lida kishi faoliyatini yanada xushfazilat qiladi.
K. LIBKNEXT

Eng muqaddas ish ham uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida jinoyatdan tap tortilmasa, tahqir va kufurlikka aylanadi.
F. LAMENNE

Harakat vositalari uning natijalari bilan qo‘shilib ketadi.
O. BALZAK

…Nohalol vositalarni talab qiladigan maqsad halol maqsad emas…
K. MARKS

Nomunosib vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo‘lolmaydi.
A. E. EYNShTEYN

Vosita maqsadning jon-taniga singib ketgan taqdirdagina maqsadga erishish mumkin.
F. LASSAL

Ulug‘ g‘oya ham yaramas muhitda buzilib, qator bema’niliklarga aylanib ketadi.
V.O. KLYuChEVSKIY

Odamlar vositani maqsad deb bilib, o‘zlarini ham, boshqalarni ham yanglishtiradilar, natijada ularning butun urinishlaridan hech narsa chiqmaydi, chiqqanda ham o‘zlari intilgan narsaning aks natijasi chiqadi.
I. GYOTE

Mo‘ljaldan o‘tib ketgan odam ham mo‘ljalga tegolmagan odamdek dog‘da qoladi.
M.MONTEN

Me’yordan oshirib yuborish — maqsadga yetish emas.
O. BALZAK

Faqat maqsadga yetolmagannigina emas, balki besh qo‘lni og‘izga tiqqanni ham maqsadsiz deya hisoblash kerak.
V. O. KLYUChEVSKIY

Hayotimiz — sayohat, g‘oya esa — yo‘lchi yulduz. Yo‘lchi yulduz bo‘lmasa hammasi to‘xtaydi-qoladi. Maqsad boy berilsa, kuch go‘yo mutlaqo bo‘lmagandek.
V. GYUGO

Inson qaysi manzilga ketayotganini bilmasa, uning yelkaniga hech bir shamol ham duch kelmaydi.
SENEKA

Hayotdagi maqsad inson qadr-qimmati va baxtning asosidir.
K. D. USHINSKIY

Insonning barcha istaklarini qondiring-u, lekin undan yashash maqsadini olib qo‘ying-chi, qarabsizki, u naqadar baxtsiz va ojiz kimsaga aylanib qoladi.
K. D. USHINSKIY

Inson musibatlarini tobora kamaytirib, inson rohat-farog‘atini tobora oshirish. Dono va sofdil odamlarning butun kuch-g‘ayrati doimo ongli yoki ongsiz ravishda, bevosita yoki bilvosita mana shu maqsadga qaratilgan edi.
D. I. PISAREV

Hayotiy kurash belgilangan maqsad sari ongli intilishga aylangan paytdan boshlab kishi o‘zini baxtli hisoblashi mumkin.
D. I. PISAREV

Maqsad baxtga erishishdan iborat bo‘lmog‘i lozim, aks holda, gulxan yetarli darajada gurillab yonmaydi, harakatlantiruvchi kuch yetarli darajada qudratli bo‘lmaydi — binobarin, muvaffaqiyatga ham to‘la erishilmaydi.
T. DRAYZER

Hayotning ma’nosi orzu-niyatlar sari intilishning go‘zalligi va qudratidadir, shuning uchun tiriklikning har daqiqasi o‘zining yuksak maqsadiga ega bo‘lishi kerak.
M. GORKIY

Mening nazarimda, o‘z oldiga maqsad qo‘ygan va shu maqsadi uchun bor kuchini fido etgan kishigina baxtli bo‘lmog‘i mumkin.
M. I. KALININ

Shon-shavkat yuksak maqsad sari intilganning mulkidir.
FIRDAVSIY

Aytish mumkinki, har bir ayrim kishida va umuman hammada ham ma’lum maqsad bo‘ladi, shu maqsadga intila turib, ular bir yo‘llarni e’tirof etadilar, ba’zilarini esa rad qiladilar.
ARASTU

Hayot mudom harakatda bo‘lmog‘i uchun xohish o‘lmasligi kerak.
S.JONSON

Har kimning ko‘z o‘ngida, harqalay, o‘ziga buyuk ko‘rinuvchi va agar uni eng chuqur e’tiqod, chinakam qalb ovozi buyuk deb e’tirof etsa, chindan ham buyuk bo‘lgan muayyan maqsadi bor…
K.MARKS

Qalbni orzudan mahrum qilish yerni havodan ayrib qo‘yish bilan barobar.
E. BULVER-LITTON

Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi.
B. SPINOZA

Istak ado bo‘lgan yerda odam ham ado bo‘ladi.
L. FEYERBAX

Odamlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga qarab baholash kerak.
N. N. MIKLUXO-MAKLAY

Odamning o‘z jonini tikishga ham tayyor turgan biron maqsadi bo‘lmasa yomon.
L. N. TOLSTOY

Bir jihatdan, mohiyat-ye’tibori bilan o‘z oldiga mazmundor maqsad qo‘yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o‘ziga xosligi yo‘qolgan bo‘lur edi.
G. GEGEL

Uzoqni ko‘radigan odam o‘zining har bir istagi uchun alohida o‘rin topa bilishi va keyin ularni navbatma-navbat amalga oshirishi kerak. Ochko‘zligimiz ko‘pincha bu tartibni buzib yuboradi va bir vaqtning o‘zida bizni shunchalar ko‘p maqsadlar ketidan chopishga majbur etadiki, natijada mayda-chuydalarga o‘ralashib, eng muhim narsani esa esdan chiqarib qo‘yamiz.
F. LAROSHFUKO

Sira shoshilmaydigan odam ham mabodo u o‘z maqsadidan chalg‘ib ketmagan bo‘lsa, maqsadsiz tentirab yurgan odamga qaraganda jadalroq yuradi.
G. LESSING

To‘g‘ri yo‘lda sudralib borayotgan odam ham yo‘ldan adashgan shoshqaloqdan o‘zib ketadi.
F. BEKON

O‘z intilishing marrasiga yetmoqchi bo‘lsang — muloyimlik bilan adashgan yo‘lingni so‘ra.
V. SHEKSPIR

Qanday maqsad bo‘lishidan qat’iy nazar, unga g‘oyat jiddiyat bilan intilish o‘sha maqsadga erishish yo‘lidagi yarim yutuqdir.
V. GUMBOLDT

Dunyoni ko‘pdan beri ummonli okean deyishadi, lekin unda kompas bilan suzgan odam baxtlidir.
N. M. KARAMZIN

Printsipsiz va irodasiz kishi kompasi va ruli yo‘q kemaga o‘xshaydi, u sal shamol o‘zgarishi bilan yo‘nalishini o‘zgartiraveradi.
S. SMAYLS

Shunday odamlar borki, ular suvga tushgan xasdek hech bir maqsadsiz dunyodan o‘tib ketadilar; ular suzishmaydi, oqim ularni olib yuradi.
SENEKA

Agar maqsadsiz bo‘lsang hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo‘lmasa buyuk ish qilolmaysan.
D. DIDRO

Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo‘ladi.
F. LAROSHFUKO

Inson bor kuchini ishga solishi uchun o‘z oldiga ilhom bag‘ishlaydigan biron-bir olijanob maqsad qo‘ymog‘i lozim.
E. RENAN

Kishi hayotda o‘z oldiga muayyan bir maqsad qo‘ymog‘i lozim… O‘z kuchiga yarasha maqsad qo‘yish uchun so‘zsiz yetarli darajada aql-farosatli bo‘lish ham kerak.
N. A. OSTROVSKIY

Odamlar ichida eng bo‘lmag‘uri istagi yo‘q kishidir.
ABAY QO‘NONBOEV

Maqsadi ulug‘lashgan sari odamning o‘zi ham ulug‘lashib boradi.
F. SHILLER

Maqsadsiz faoliyat yo‘q, manfaatsiz maqsad yo‘q, faoliyatsiz esa hayot yo‘q. Manfaatlar, maqsadlar va faoliyat manbai — ijtimoiy hayot substantsiyasidir.
V. G. BELINSKIY

Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari orqasidan ergashadilar.
U. IRVING

Muayyan bir maqsadga yo‘naltirilmagan aql izsiz yo‘qoladi; hamma yerda bo‘lmoq hech yerda bo‘lmaslik degan so‘zdir.
M. MONTEN

O‘z oldingizga yaxshi maqsadlar qo‘ying. Biz biron-bir narsaga qarshi kurashibgina qolmay, balki eng avvalo biron-bir narsa uchun ham kurashishimiz lozim.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Yuksak maqsadlar yuzaga chiqmay qolgan taqdirda ham biz uchun u amalga oshgan past maqsadlardan ko‘ra qimmatliroqdir.
I. GYOTE

Agar intilish sof ko‘ngildan chiqsa, harqalay, chalaroq qolib, aniq nishonga tegmasa ham juda katta foyda keltirishi mumkin.
I. S. TURGENEV

O‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan bosqichlarni qat’iy farqlash, ularning kelib chiqish sharoitini xushyorlik bilan o‘rganish, aslo pirovard maqsadni orqaga surish emas, aslo o‘z yo‘lini sekinlatish emasdir.
V. I. LENIN

Vaziyat o‘zgaruvchan bo‘lsa ham printsiplar hech qachon o‘zgarmaydi.
O. BALZAK

Maqsadga yaqinlashgan sari mashaqqat ortib boradi. Lekin har bir kishi yulduzlarga o‘xshab sokinlik bilan, shoshmasdan, biroq belgilangan maqsad tomon uzluksiz intilgan holda o‘z yo‘llarini bosib o‘tishlari kerak.
I. GYOTE

Kim buyuk maqsadga intilsa, o‘zini o‘ylamasligi zarur.
I. S. TURGENEV

Maqsadga olib boradigan yo‘lning uzoq-yaqinligi ahamiyatsiz.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Kam kuch sarflab o‘z maqsadiga yetishishlik eng zo‘r mukammallik bo‘lub tuyuladi menga.
Sh. MONTESKE

Vositalar xarakteri xuddi maqsad xarakteriga o‘xshagan bo‘lishi kerakki, shundagina vositalar maqsadga olib borishi mumkin. Noo‘rin vositalar faqat noo‘rin maqsadlarga yaraydi.
N. G. ChERNIShEVSKIY

Olijanob maqsad shu maqsad yo‘lida kishi faoliyatini yanada xushfazilat qiladi.
K. LIBKNEXT

Eng muqaddas ish ham uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida jinoyatdan tap tortilmasa, tahqir va kufurlikka aylanadi.
F. LAMENNE

Harakat vositalari uning natijalari bilan qo‘shilib ketadi.
O. BALZAK

…Nohalol vositalarni talab qiladigan maqsad halol maqsad emas…
K. MARKS

Nomunosib vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo‘lolmaydi.
A. E. EYNShTEYN

Vosita maqsadning jon-taniga singib ketgan taqdirdagina maqsadga erishish mumkin.
F. LASSAL

Ulug‘ g‘oya ham yaramas muhitda buzilib, qator bema’niliklarga aylanib ketadi.
V.O. KLYUCHEVSKIY

Odamlar vositani maqsad deb bilib, o‘zlarini ham, boshqalarni ham yanglishtiradilar, natijada ularning butun urinishlaridan hech narsa chiqmaydi, chiqqanda ham o‘zlari intilgan narsaning aks natijasi chiqadi.
I. GYOTE

Mo‘ljaldan o‘tib ketgan odam ham mo‘ljalga tegolmagan odamdek dog‘da qoladi.
M.MONTEN

Me’yordan oshirib yuborish — maqsadga yetish emas.
O. BALZAK

Faqat maqsadga yetolmagannigina emas, balki besh qo‘lni og‘izga tiqqanni ham maqsadsiz deya hisoblash kerak.
V. O. KLYUChEVSKIY

Hayotimiz — sayohat, g‘oya esa — yo‘lchi yulduz. Yo‘lchi yulduz bo‘lmasa hammasi to‘xtaydi-qoladi. Maqsad boy berilsa, kuch go‘yo mutlaqo bo‘lmagandek.
V. GYuGO

Inson qaysi manzilga ketayotganini bilmasa, uning yelkaniga hech bir shamol ham duch kelmaydi.
SENEKA

Hayotdagi maqsad inson qadr-qimmati va baxtning asosidir.
K. D. USHINSKIY

Insonning barcha istaklarini qondiring-u, lekin undan yashash maqsadini olib qo‘ying-chi, qarabsizki, u naqadar baxtsiz va ojiz kimsaga aylanib qoladi.
K. D. USIINSKIY

Inson musibatlarini tobora kamaytirib, inson rohat-farog‘atini tobora oshirish. Dono va sofdil odamlarning butun kuch-g‘ayrati doimo ongli yoki ongsiz ravishda, bevosita yoki bilvosita mana shu maqsadga qaratilgan edi.
D. I. PISAREV

Hayotiy kurash belgilangan maqsad sari ongli intilishga aylangan paytdan boshlab kishi o‘zini baxtli hisoblashi mumkin.
D. I. PISAREV

Maqsad baxtga erishishdan iborat bo‘lmog‘i lozim, aks holda, gulxan yetarli darajada gurillab yonmaydi, harakatlantiruvchi kuch yetarli darajada qudratli bo‘lmaydi — binobarin, muvaffaqiyatga ham to‘la erishilmaydi.
T. DRAYZER

Hayotning ma’nosi orzu-niyatlar sari intilishning go‘zalligi va qudratidadir, shuning uchun tiriklikning har daqiqasi o‘zining yuksak maqsadiga ega bo‘lishi kerak.
M. GORKIY

Mening nazarimda, o‘z oldiga maqsad qo‘ygan va shu maqsadi uchun bor kuchini fido etgan kishigina baxtli bo‘lmog‘i mumkin.
M. I. KALININ

Shon-shavkat yuksak maqsad sari intilganning mulkidir.
FIRDAVSIY

Aytish mumkinki, har bir ayrim kishida va umuman hammada ham ma’lum maqsad bo‘ladi, shu maqsadga intila turib, ular bir yo‘llarni e’tirof etadilar, ba’zilarini esa rad qiladilar.
ARASTU

Hayot mudom harakatda bo‘lmog‘i uchun xohish o‘lmasligi kerak.
S.JONSON

Har kimning ko‘z o‘ngida, harqalay, o‘ziga buyuk ko‘rinuvchi va agar uni eng chuqur e’tiqod, chinakam qalb ovozi buyuk deb e’tirof etsa, chindan ham buyuk bo‘lgan muayyan maqsadi bor…
K.MARKS

Qalbni orzudan mahrum qilish yerni havodan ayrib qo‘yish bilan barobar.
E. BULVER-LITTON

Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi.
B. SPINOZA

Istak ado bo‘lgan yerda odam ham ado bo‘ladi.
L. FEYERBAX

Odamlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga qarab baholash kerak.
N. N. MIKLUXO-MAKLAY

Odamning o‘z jonini tikishga ham tayyor turgan biron maqsadi bo‘lmasa yomon.
L. N. TOLSTOY

Bir jihatdan, mohiyat-ye’tibori bilan o‘z oldiga mazmundor maqsad qo‘yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o‘ziga xosligi yo‘qolgan bo‘lur edi.
G. GEGEL

Uzoqni ko‘radigan odam o‘zining har bir istagi uchun alohida o‘rin topa bilishi va keyin ularni navbatma-navbat amalga oshirishi kerak. Ochko‘zligimiz ko‘pincha bu tartibni buzib yuboradi va bir vaqtning o‘zida bizni shunchalar ko‘p maqsadlar ketidan chopishga majbur etadiki, natijada mayda-chuydalarga o‘ralashib, eng muhim narsani esa esdan chiqarib qo‘yamiz.
F. LAROSHFUKO

Sira shoshilmaydigan odam ham mabodo u o‘z maqsadidan chalg‘ib ketmagan bo‘lsa, maqsadsiz tentirab yurgan odamga qaraganda jadalroq yuradi.
G. LESSING

To‘g‘ri yo‘lda sudralib borayotgan odam ham yo‘ldan adashgan shoshqaloqdan o‘zib ketadi.
F. BEKON

O‘z intilishing marrasiga yetmoqchi bo‘lsang — muloyimlik bilan adashgan yo‘lingni so‘ra.
V. SHEKSPIR

Qanday maqsad bo‘lishidan qat’iy nazar, unga g‘oyat jiddiyat bilan intilish o‘sha maqsadga erishish yo‘lidagi yarim yutuqdir.
V. GUMBOLDT

Dunyoni ko‘pdan beri ummonli okean deyishadi, lekin unda kompas bilan suzgan odam baxtlidir.
N. M. KARAMZIN

Printsipsiz va irodasiz kishi kompasi va ruli yo‘q kemaga o‘xshaydi, u sal shamol o‘zgarishi bilan yo‘nalishini o‘zgartiraveradi.
S. SMAYLS

Shunday odamlar borki, ular suvga tushgan xasdek hech bir maqsadsiz dunyodan o‘tib ketadilar; ular suzishmaydi, oqim ularni olib yuradi.
SENEKA

Agar maqsadsiz bo‘lsang hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo‘lmasa buyuk ish qilolmaysan.
D. DIDRO

Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo‘ladi.
F. LAROSHFUKO

Inson bor kuchini ishga solishi uchun o‘z oldiga ilhom bag‘ishlaydigan biron-bir olijanob maqsad qo‘ymog‘i lozim.
E. RENAN

Kishi hayotda o‘z oldiga muayyan bir maqsad qo‘ymog‘i lozim… O‘z kuchiga yarasha maqsad qo‘yish uchun so‘zsiz yetarli darajada aql-farosatli bo‘lish ham kerak.
N. A. OSTROVSKIY

Odamlar ichida eng bo‘lmag‘uri istagi yo‘q kishidir.
ABAY QO‘NONBOEV

Maqsadi ulug‘lashgan sari odamning o‘zi ham ulug‘lashib boradi.
F. ShILLER

Maqsadsiz faoliyat yo‘q, manfaatsiz maqsad yo‘q, faoliyatsiz esa hayot yo‘q. Manfaatlar, maqsadlar va faoliyat manbai — ijtimoiy hayot substantsiyasidir.
V. G. BELINSKIY

Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari orqasidan ergashadilar.
U. IRVING

Muayyan bir maqsadga yo‘naltirilmagan aql izsiz yo‘qoladi; hamma yerda bo‘lmoq hech yerda bo‘lmaslik degan so‘zdir.
M. MONTEN

O‘z oldingizga yaxshi maqsadlar qo‘ying. Biz biron-bir narsaga qarshi kurashibgina qolmay, balki eng avvalo biron-bir narsa uchun ham kurashishimiz lozim.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Yuksak maqsadlar yuzaga chiqmay qolgan taqdirda ham biz uchun u amalga oshgan past maqsadlardan ko‘ra qimmatliroqdir.
I. GYOTE

Agar intilish sof ko‘ngildan chiqsa, harqalay, chalaroq qolib, aniq nishonga tegmasa ham juda katta foyda keltirishi mumkin.
I. S. TURGENEV

O‘z tabiatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan bosqichlarni qat’iy farqlash, ularning kelib chiqish sharoitini xushyorlik bilan o‘rganish, aslo pirovard maqsadni orqaga surish emas, aslo o‘z yo‘lini sekinlatish emasdir.
V. I. LENIN

Vaziyat o‘zgaruvchan bo‘lsa ham printsiplar hech qachon o‘zgarmaydi.
O. BALZAK

Maqsadga yaqinlashgan sari mashaqqat ortib boradi. Lekin har bir kishi yulduzlarga o‘xshab sokinlik bilan, shoshmasdan, biroq belgilangan maqsad tomon uzluksiz intilgan holda o‘z yo‘llarini bosib o‘tishlari kerak.
I. GYoTE

Kim buyuk maqsadga intilsa, o‘zini o‘ylamasligi zarur.
I. S. TURGENEV

Maqsadga olib boradigan yo‘lning uzoq-yaqinligi ahamiyatsiz.
Ye. I. MARSINOVSKIY

Kam kuch sarflab o‘z maqsadiga yetishishlik eng zo‘r mukammallik bo‘lub tuyuladi menga.
Sh. MONTESKE

Vositalar xarakteri xuddi maqsad xarakteriga o‘xshagan bo‘lishi kerakki, shundagina vositalar maqsadga olib borishi mumkin. Noo‘rin vositalar faqat noo‘rin maqsadlarga yaraydi.
N. G. CHERNISHEVSKIY

Olijanob maqsad shu maqsad yo‘lida kishi faoliyatini yanada xushfazilat qiladi.
K. LIBKNEXT

Eng muqaddas ish ham uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida jinoyatdan tap tortilmasa, tahqir va kufurlikka aylanadi.
F. LAMENNE

Harakat vositalari uning natijalari bilan qo‘shilib ketadi.
O. BALZAK

…Nohalol vositalarni talab qiladigan maqsad halol maqsad emas…
K. MARKS

Nomunosib vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo‘lolmaydi.
A. E. EYNSHTEYN

Vosita maqsadning jon-taniga singib ketgan taqdirdagina maqsadga erishish mumkin.
F. LASSAL

Ulug‘ g‘oya ham yaramas muhitda buzilib, qator bema’niliklarga aylanib ketadi.
V.O. KLYUChEVSKIY

Odamlar vositani maqsad deb bilib, o‘zlarini ham, boshqalarni ham yanglishtiradilar, natijada ularning butun urinishlaridan hech narsa chiqmaydi, chiqqanda ham o‘zlari intilgan narsaning aks natijasi chiqadi.
I. GYOTE

Mo‘ljaldan o‘tib ketgan odam ham mo‘ljalga tegolmagan odamdek dog‘da qoladi.
M.MONTEN

Me’yordan oshirib yuborish — maqsadga yetish emas.
O. BALZAK

Faqat maqsadga yetolmagannigina emas, balki besh qo‘lni og‘izga tiqqanni ham maqsadsiz deya hisoblash kerak.
V. O. KLYUChEVSKIY

Hayotimiz — sayohat, g‘oya esa — yo‘lchi yulduz. Yo‘lchi yulduz bo‘lmasa hammasi to‘xtaydi-qoladi. Maqsad boy berilsa, kuch go‘yo mutlaqo bo‘lmagandek.
V. GYUGO

Inson qaysi manzilga ketayotganini bilmasa, uning yelkaniga hech bir shamol ham duch kelmaydi.
SENEKA

## 14.2. Hissiyotlarni anglash, ularni nazorat qilish usullari. O‘z o‘zini anglash va o‘z o‘zini tarbiyalash metodlari.

Hissiyot. His-tuyg‘u. Odam ko‘pincha o‘zi ko‘rgan, eshitgan voqea va hodi-salarga nisbatan befarq bo‘lib qololmaydi, balki xursandchilik, xafa bo‘lish, ruhlanish yoki g‘amginlik holatlari orqali o‘z munosabatini bildiradi. Hissiyot, ya'ni his-tuyg‘u odamning atrof-muhitga va o'ziga bo'lgan munosabatlarining ifodalaishidan iborat.
Odamning ichki kechinmalari uning yurish-turishi, tovush balandligi, so‘zlash ohangining o'zgarishi, imo-ishora, mimika orqali ifodalanadi. His-tuyg‘ular ijobiy (qoniqish, hayajonlanish, xursandchilik, xush ko'rish) va salbiy (g'azablanish, qo‘rquv, qayg‘u, jirkanish) boiadi.
Hissiyot odamlarning millati, tili va tarbiyasiga bog‘liq bo‘lmasdan, bir xilda namoyon bo'ladi. Odamning yurish-turishi, gapining ohangi, tanasi va yuzining holatiga qarab, uning his-tuyg‘usi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Hissiyot qon aylanish, nafas olish va boshqa organlar ishining faollashuvi bilan birga namoyon bo‘ladi
Hissiyotning ahamiyati. Hissiyot bilan bog‘liq jarayonlar organlar faoliyatini va organizm kuchini o‘zgartiradi, uni yangi o‘zgargan sharoitga tayyorlaydi. His-tuyg‘uda paydo bo'ladigan ifodali harakatlar zo‘riqishni kamaytiradi. Ifodali

hatti-harakatlar hissiyot tili hisoblanadi. Hissiyotning ifodalanishiga qarab biz birovlarning his-tuyg‘usi, g‘am-g‘ussasini tushunib, uning holiga achinamiz. Shu tariqa ifodali hatti-harakat odamlaming o'zaro munosabat vositasiga aylanadi. 0‘z navbatida, ifodali hatti-harakatning o‘zi ham javob his-tuyg‘usini paydo qiladi. Aktyor mimika, intonatsiya, ifodali hatti-harakatlari orqali obraz yaralish, uning ichki dunyosini ochib berish bilan birga, o‘z qahramonining kechinmalarini tomoshabinlarga ham o‘tkazib, ularda ham achinish hissiyotini paydo qiladi. Ifodali hatti-harakatlar orqali boshqalarning his-tuyg‘usiga ta’sir qilish va ularning his-tuyg‘usini boshqarish mumkin. Masalan, bolaning har qanday ifodali his-tuyg‘usi katta yoshdagi kishilarga ta’sir ko‘rsatadi va ular bolaning istagini bajarishadi. Buni tushungan bola o‘z his-tuyg‘usini yanada kuchliroq namoyon qila boshlaydi. Buning natijasida kelgusida o‘z his-tuyg‘usini jilovlay olmaydigan inson tarbiyalanib chiqadi.

Hissiyotni boshqarish. Ifodali hatti-harakat odamning ixtiyoriga bo'ysunadi. Odam o‘z his-tuyg‘ularini to'xtatib turishga, ya’ni hissiyotga berilmasdan, o'zini qo‘lga olishni o'rganishi lozim. Odamdagi bu xususiyatlar uning yaxshi tarbiya ko‘rganligini va yuksak madaniyatli ekanligini bildiradi.

Jamoaviylik va individuallik tirik mavjudotlarga xos xususiyatlar. Ularning birinchisini yashash zarurati keltirib chiqarsa, ikkinchisini hayotni rivojlantirish zarurati keltirib chiqaradi. Insoniyat jamiyatidagi jamoaviylik va individuallik tabiiy yashash sharoitlari va jamiyat hayotini rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqadi. G‘arb mamlakatlarida turmush kechirish og‘ir, moddiy boylik ko‘p bo‘lmagani uchun davlat va fuqarolar o‘rtasida o‘ziga xos munosabat shakllangan. Individlarning erkin faoliyatiga yo‘l qo‘yish, hatto rag‘batlantirish jamiyat uchun foydali bo‘lgan. Aksincha, Sharq mamlakatlarida turmush kechirish osonroq, moddiy boylik nisbatan yetarli bo‘lgan sharoitda davlat uchun kishilarning erkin faoliyati emas, ularni o‘zi istaganday boshqarish maqsadida o‘ziga bo‘ysundirish, erkinligini cheklash oson, qulay imkoniyat yaratgan. Vaqt o‘tishi bilan Sharq mamlakatlarida jamoaviylikka, G‘arb mamlakatlarida individuallikka asoslangan madaniyat shakllana boshlagan. Ular kishilarning turmush tarziga, ruhiyatiga singib ketgan. Bu ikki tamoyilni bir-biridan ajratib o‘rganish ikki xil – jamoaviylik va individuallik dunyoqarashini keltirib chiqardi. Natijada insonning hayot mazmunini, erkinligini, munosabatlarini, axloqini turlicha nuqtai nazardan fikrlash shakllandi. Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida jamoaviylik ham, individuallik ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida o‘zning ijobiy rolini o‘ynagan. Iqtisodiy hayotni yaxshilash uchun kurash, moddiy omil bosh maqsad bo‘lmagan, intensiv bevosita aloqalar hozirgi davr sharoitida sharqona va g‘arbona madaniyatda o‘zaro ziddiyatli qarashlar namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy hayot hodisalariga turlicha baho berilmoqda. Ochiq jamiyat, Popper fikricha,

jamoaviylikni siqib chiqaruvchi, individuallikni hukmron tamoyilga aylantiruvchi jamiyatdir. Popper jamoaviylikka istiqboli yo‘q tamoyil,- deb qaraydi. Z.Bauman inson jamoaviy harakatini nari borsa foydasiz, hatto alohida shaxsning muvaffaqiyati va baxti nuqtai nazaridan zararli, deb hisoblaydi. (Z.Bauman. Individualizirovannoe obщestvo. M., Logos, 2002, s.73). Z.Bauman hozirgi zamon jamiyatida barqaror ijtimoiy aloqalar bo‘lmasligi, insonning o‘z-o‘ziga o‘ralashib qolgani, boshqalarga loqaydligi, shaxslararo munosabatlarning yuzaki va o‘tkinchiligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham real hayot sharoitlari shunday. Individuallik nuqtai nazaridan to‘g‘ri va istiqbolga egadir. Ammo bunday qarashlar jamoaviylik nuqtai nazaridan ijtimoiy munosabatlar, inson erkinligi va axloqi, inson hayotining maqsadi haqidagi qarashlarga to‘g‘ri kelmaydi, bu hodisalarning istiqboliga beriladigan baho boshqachadir. Individuallik madaniyati ijtimoiy hodisalarni o‘zgarishda, yangi-yangi shakllarda namoyon bo‘lishida olib qaraydi, an’anaviy axloqni eskirgan,- deb hisoblaydi. Jamoaviylik madaniyati mohiyatan konservativ, an’anaviy axloqni o‘zgarishsiz talqin qiladi. Aynan bu uning ijobiy tomonidir. Hayot taqozosi bilan kechayotgan o‘zgirishlarga salbiy qaraydi. Agar jamoaviylik va individuallikni alohida-alohida olib qarasak, ular bir-birini inkor qiladigan, qarama-qarshi nuqtai nazarlarda qolamiz. Inson erkinligi, hayotdan maqsadi, oila nima ekanligi, jinsiy hayotning maqsadi nima ekanligi turlicha hal qilinadi. Agar ular bir-birlarini mutlaqlashtirishdan tiyib turuvchi o‘zaro bog‘liq tamoyillar sifatida qaralsa, boshqacha manzaraga duch kelamiz. Har ikkala tamoyilning o‘ziga xos, ijobiy jihatlarini mezon qilib olamiz. Shu bilan birga ularning umumiy, muhim mezonlari mavjud. Bu esa insoniyat istiqboli, mehr-oqibat, fidoiylik, insoniylikdir. Bu tushunchalarga umumiy qarashlarni ishlab chiqish kerak. Shu tariqa ratsional jamoaviylik va ratsional individuallik vujudga keladi, ya’ni har qaysisining salbiy jihatlari bartaraf etiladi(tiyib turiladi). Jamoaviylik va individuallikning ijtimoiy hayotni tashkil etishda, tartib-qoidalarni belgilashda roli bo‘lib kelgan. Masalan, mamlakatimiz aholisi urf-odatlarini olaylik. Bu yerda an’anaviy madaniyatga hukmron,- deb qaraladi. O‘zbeklarning to‘y va marosimlari ko‘pchilik harakatisiz o‘tmaydi. Bu jarayonda har bir inson boshqalarning o‘ziga nisbatan mehri, hurmati, sadoqati va jonkuyarligini his kiladi. Marhum qabristonga olib ketilayotganda (masofa yaqin bo‘lsa, tobut qo‘lda ko‘tarib ketiladi), notanish kishi bo‘lsa ham uch marta uch qadam ko‘tarishib, bandalik burchini bajo aylaydi. Marhumni qabristonga olib borayotgan kishilar to‘dasidan quvib o‘tib ketish hurmatsizlik hisoblanadi. Marhumning eshigi oldidan o‘tib ketayotgan notanish odam ham tilovat qilib, hamdardlik bildirib o‘tadi. Keksalarga hurmat, bolalarga izzat, boshqa kishilarga mehr-oqibat ma’lum harakatlarda ifoda etiladi. Individuallik madaniyatida insoniy istaklari va maqsadlarini hisobga olish,

avvalo, o‘z maqsad-muddaolariga zarar yetkazmaslik, tenglik, adolat (bu tushunchalar ham o‘ziga xos mazmunga ega) tamoyillari asosida yondashiladi.

Hissiyot. His-tuyg‘u. Odam ko‘pincha o‘zi ko‘rgan, eshitgan voqea va hodi-salarga nisbatan befarq bo‘lib qololmaydi, balki xursandchilik, xafa bo‘lish, ruhlanish yoki g‘amginlik holatlari orqali o‘z munosabatini bildiradi. Demokratik jamiyatning ideali, oliy maqsadi har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Bunday shaxs esa ta’lim-tarbiya tizimini ta’siri ostida shakllanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining samarali borishi esa ko‘p jihatdan o‘qituvchi-pedagoglarning faoliyatiga, ongli faoliyatning muayyan maqsadga qaratilganiga va shu maqsadda erishish uchun qat’iyat bilan kurash olib borishga bog‘liqdir.

Shu bois hozirgi sharoitda o‘z-o‘zini tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z-o‘zini tarbiyalash iborasi pedagogik adabiyotlarda asosan o‘tgan asarning o‘rtalarida ishlatilgan bo‘lsa-da, o‘z-o‘zini takomillashtirish haqida qadimdan fikr yuritiladi. O‘tmishning ko‘pgana faylasuflari, pedpagoglar o‘z-o‘zini takomillashtirishning mohiyati uning jamiyat va inson hayotidagi rolini ochib berishga urinishgan.

Ma’lumki, inson ijtimoiy mavjudotgina bo‘lmay, tabiat mahsuli hamdir. Uning dunyoga kelishi, o‘sishi hayotning umumiy qonuniyatlari birinchi navbatda o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil rivojlanishi kabi jarayonlarga ham bog‘liqdir.

Mustaqil rivojlanishni shaxs o‘zi anglagan yoki anglamagan bo‘lishi mumkin. Shaxs o‘z rivojlanishini anglagandagina bu rivojlanish o‘z-o‘zini o‘stirishga aylanadi. O‘z-o‘zini o‘stirish o‘z navbatida rivojlanib borib shaxsni takomillashtirishga binobarin o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanish mumkin.

Kishi o‘z shaxsining shakllanishida hamma vaqt bevosita ishtirok etadi. Lekin bunday ishtirokning faollik darajasi har xil bo‘ladi. Masalan: kishi o‘zi anglamasdan birov qilayotgan ish harakatini unga ergashib bajarishga kirishadi. Bunday erishish borib-borib ongli harakatga, ongli harakat o‘z navbatda o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanadi.

Tarbiya kuchayib, o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanishi uchun muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar zarur bo‘ladi. Tadqiqotchilar ichki zaminlar qatoriga o‘z-o‘zini anglab bilishining yuksak darajada bo‘lishini (A.Ya.Aret, A.A.Bodalev, A.G.Koralev), o‘z-o‘zini boshqara olishni (V.I. Selivanov, A.I. Visoskiy) tez rivojlanishga bo‘lgan extiyojni kiritadilar.

O‘z-o‘zini tarbiyalashda odam o‘z shaxsining, sharoitlarni, faoliyatining, natijalarini, kuch va qobiliyatlarini o‘stirish jarayonini yaxshi anglaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalash irodaviy jarayonlar bilan, u shaxs irodaviy sifatlarining butun majmuasidan iborat. O‘ziga tarbiyachilik, o‘zidan norozilik, mashhur bo‘lishga intilish, rivojlanishga bo‘lgan etiyojning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning bu ichki zaminlari muayyan ijtimoiy va pedagogik sharoitlarda ro‘yobga chiqadi.

Pedagogika va va psixologiya umumiy nazariy qoidalarga tayanib, o‘z-o‘zini tarbiyalashning qo‘yidagi belgilari ajratiladi:

-o‘z-o‘zini tarbiyalash-o‘zini anglagan o‘zini-o‘zi boshqarish irodasi va rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojning yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi.

-o‘z-o‘zini tarbiyalashning paydo bo‘lishi hamma vaqt muayyan ichki zaminlar va tashqi sharoitlar bilan bog‘langandir: ichki zaminlar bilan tashqi sharoitlar esa tarbiyaning natijasidir.

-o‘z-o‘zining tarbiyalash shaxs tarkib topishining hal qiluvchi sharoitlar va asosiy yo‘nalishlarida kishi psixologiyasining rivojlanishini tezlatuvchi o‘ziga xos omildir;

-o‘z ustida ishlash kishining barcha kuch va qobiliyatlarini jadallik bilan ishlatilishni talab qiladi. Bu o‘zi navbatda ularning tez rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayondir. Bir tomondan odam ruhiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini, uning eng muhim hayoti zarur ongi o‘z-o‘zini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va irodasini shakllantirish bilan yaqindan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-psixologik jarayon bilan davom etadigan pedagogik jarayon hamdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonining murakkabligi bois bu tushuncha turlicha ta’riflanadi, izohlanadi, ammo ularning o‘z mazmuni bilan bir-biridan keskin farq qilmaydi. O‘z-o‘zini tarbiyalash-bu shaxsning u yoki bu nuqsonlarni yo‘qotish va unda ijobiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘z ustida ongli hamda tizimli ish olib borishidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash- bu muntazam ravishda o‘z ustida ishlash, o‘z huquqini anglashga va tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilishga muttasil intilish, o‘rnida yomon xislat va odatlarni yo‘qotish chinakam axloqiy fazilatlarni tarbiyalash.

O‘z- o‘zini tarbiyalash- bu o‘z-o‘ziga talabchanlikni doimiy oshirib borish, yaxshi yashashgagina emas, balki yaxshi odam bo‘lishga ongli ravishda intilishdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash- bu kishining xilma-xil ijtimoiy tajribani egallashga va hayotiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan axloqiy sifatlarning shakllanishiga qaratilgan harakatidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash- oldin olingan tarbiya ta’siri ostida vujudga keladigan ehtiyoj bo‘lib, shaxs bu ehtiyojni qondirishga intiladi.

Yuqorida keltirilgan ta’rifda o‘z-o‘zini tarbiyalashning mohiyati atroflicha, ayrimlarida u yoki bu tomoni ko‘proq yoritilgan.

Shaxs faoliyatida o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash uning mahorati ortib borishining eng muhim sharti hisoblanadi. Shaxs o‘z-o‘zini

tarbiyalash uchun ma’lum darajada tarbiyalangan, o‘zini boshqara oladigan kuch va qobilyatlarini o‘stirishga ehtiyoj seza oladigan bo‘lish kerak.

Bunday psixologik xislatlar shaxs faoliyatining muayyan bosqichida hosil bo‘ladi, rivojlanishda faoliyatning o‘z-o‘zini tarbiyalashga aylanish uchun zamin yaratadi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash axloqiy takomillashish jarayoni bevosita insonning kasbiy faoliyatiga kirishishda to‘laroq amalga oshadi. Chunki mehnat faoliyati davomida shaxs o‘z oldiga ancha murakkab axloqiy vazifalarni qo‘yadi, shaxsga jamiyat, jamoa, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayotning ta’siri davom etaveradi.

Shaxsning o‘z ustida ishlashi uning shaxs sifatida rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’naviy kuchlarning jadal rivojlanishni ta’minlaydi. O‘z ustida ishlash davomida o‘zini idora qilish rivojlanadi, ong bilan xulqning birligi ta’minlanadi. Nazariya amaliy faoliyatga joriy etiladi, har bir shaxsda o‘zini chuqur anglaydigan e’tiqod mustahkamlanadi. Demak o‘z-o‘zini tarbiyalash ongli, yuksak axloq va faol ijtimoiy foydali faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantiradi.

O’z-o‘zini tarbiyalashning tarkibiy qismlari qo‘yidagilar:

1.Mustaqil o‘qib bilib olish.

2.O‘zini mehnat va kasbga tayyorlash.

3.Shaxsning o‘zini ijtimoiy tarbiyalash

4.Shaxsning o‘zini axloqiy, estetik, jismoniy jihatdan takomillashtirish.

Mustaqil o‘qish yo‘li bilan o‘qituvchi o‘z bilimini oshiradi, o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llaydi, bilish qobiliyatini o‘stiradi, insoniyat to‘plagan ma’naviy boyliklardan to‘laroq va samaraliroq foydalanadi. Mustaqil o‘zlashtirilgan, o‘z ilmiy jamiyat va tabiat qonunlarini o‘rganadi, g‘oyaviy jihatdan chiniqadi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash tarkibiy qismlaridan yana biri o‘zini pedagogik kasbga tayyorlash bo‘lib, o‘qituvchi kasbini egallashga pedagogik mahoratni oshishga, kasbga oid bilimlarni takomillashtirishga jamoat ishtirokida faol qatnashishga va malaka hosil qilishga qaratilgan faoliyatidir.

O‘zini mehnat va kasb tayyorlash bilan birga o‘qituvchi o‘zini ijtimoiy tarbiyalash ham zarur.

O‘z-o‘zini ijtimoiy tarbiyalash- bu shaxsni ijtimoiy shaxs sifatida takomillashtirishga, o‘tmish avlodlari ijtimoiy tajribasin o‘zlashtirishga, jamiyat an’analari, hayot tarzi, fuqarolik va oila a’zolariga bo‘ysunishiga o‘rgatish faoliyatidir.

O‘z-o‘zini estetik jihatdan tarbiyalash -shaxsning estetik madaniyatini, badiiy estetik ehtiyojlarini, qobiliyatlarini o‘stirishga, san’at turlariga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir.

O‘z-o‘zini jismoniy jihatdan tarbiyalash shaxsning jismoniy yetuk organizmining sog‘lom va chiniqqan bo‘lishini nazarda tutadi va ish qobiliyatini uzoq yillargacha saqlashini ta’minlashga qaratilgan.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zagi axloqiy tarbiyasidir.

Bu o‘qituvchining yuksak axloqiy madaniyatga erishishida o‘z-o‘ziga baho berish, o‘zini tartibga solishi, xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarni egallashga qaratilgan irodaviy faoliyatidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyojlari.

1.Ijtimoiy burchinchi anglash;

2.O‘qituvchining o‘zida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, o‘zini yanada rivojlantirish;

3.Maktab jamoasi oldida, oilada, hamkasblari orasida obro‘ qozonishga intilish;

4.O‘ziga tanqidiy qarash, o‘z-o‘zini to‘g‘ri baholay bilish;

5.Namuna (ayrim kishilarning hatti-harakati, hulqining boshqalar uchun o‘rnak bo‘lishga intilish);

6.O‘z madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishlar.

O‘z ustida ishlash kishidan aniq maqsadlarga intilishda o‘rnak olish uchun tanlangan namunani to‘la tasavvur qilishni, o‘z hayotini qat’iy tartib asosida yo‘lga qo‘yishni, muttasil irodaviy zo‘r berishni talab etadi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari:

1. o‘z-o‘zini kuzatish
2.o‘z-o‘zini boshqalar bilan taqqoslab ko‘rish
3. o‘z-o‘zini baholash.
4. o‘z-o‘zini tahlil qilish.
5. o‘z-o‘zini nazorat qilish.
6.o‘z-o‘zini ishontirish.
7.o‘z-o‘ziga buyruq berish.
8.o‘z-o‘zini rag‘batlantirish.
9.o‘z-o‘zini jazolash, qoralash.
10.o‘z-o‘ziga hisobot berish.
11.o‘z-o‘zini ma’qullash.

12.o‘z-o‘zini majbur qilish.

13.o‘z-o‘zini mashq qildirish.

Pedagogik ijodkorlik va muloqot jarayonida vujudga keladigan zo‘riqishni, shuningdek boshqa noxush holatlarini yengishi uchun o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalash yuzasidan doimiy ish olib borish zarur. Binobarin, o‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z-o‘zini bilimidan boshlanadi.

O‘z-o‘zini bilimini-o‘zida qanday ijobiy fazilatlar mavjdudligi, qaysi fazilatlar yaxshi rivojlanayotganligi, qaysilari sekin va muvoffaqqiyatsiz o‘sayotganligi haqida doimo habardor bo‘lib turishdir.

O‘zini bilimi-o‘zini kuzatish, boshqalar bilan taqqoslab ko‘rish, tahlil qilish va baholash nazarda tutadi.

O‘zini kuzatishda o‘ziga yuksak darajada talabchan bo‘lishi kerak, aks holda kishi o‘z imkoniyatlari va qobilyatlariga ortiqcha baho berib yuborish, o‘z nuxsonlarini payqamasligi mumkin.

Shuning uchun o‘zini kuzatishi natijalarini doimo tekshirib turish ularni o‘zi xaqidagi boshqlarning fikri bilan solishtirib ko‘rish, taqqoslash kerak.

Taqqoslashda qo‘yidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

-tashqi ko‘rinish emas, balki odamlarning ma’naviy dunyosini taqqoslash:

-boshqa shaxs va o‘zi haqida gapga asoslanmasdan, amalyotga qarab fikr yuritish:

-o‘ziga nisbatan bo‘sh, tayyorgarlik darajasini, tajribasi pastroq odam bilan emas, balki o‘zidan ustunroq odam bilan taqqoslash.

O‘z-o‘zini tahlil qilish- o‘z xulq atvorini faoliyatini fikran ayrim qismlarga bo‘lib, o‘z faoliyatida namoyon bo‘lgan ichki dunyosining tahlilidir.

O‘zini tahlil qilish o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z xulqini to‘g‘ri uyushtirish vositasi bo‘lib, tanqid bilan tugatiladi.

O‘zini yetarli darajada to‘g‘ri baholash o‘zini tarbiyalash zarur shartidir. Ijobiy va salbiy xislatlarning umumiy yig‘indisi asosida o‘zini tarbiyalash dasturi tuziladi.

Kishining o‘z kuchi va qobiliyatlarini o‘stirish, o‘zini shaxs sifatida shakillantirshda belgilangan har qanday faoliyatda o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘ladi. O‘zini tuta bilish, ishontirish o‘ziga buyruq berish o‘zini tarbiyalashning muhim metodlaridir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash-bu o‘z irodasini, xis-tuyg‘ularini, kayfiyatini boshqarishga, nojo‘ya harakatlardan o‘zini tiyishga yoki to‘g‘ri harakatni har qanday sharoitlarda ham davom ettirilishga qaratilish demakdir.

Tevarak-atrofdagi muhit bilan shaxs o‘rtasida nizolar chiqishiga, o‘zaro tushunmovchiliklarga, yakkalanib qolishga ko‘pincha sabab bo‘ladigan jizzakilik, beparvolik kabi salbiy xislatlar axloqiy nuqsonlargina bo‘lmay, balki irodaviy nuqsonlar hamdir.

O‘zini tuta bilishni tarbiyalash uchun kishi o‘z xulq-atvorini nazorat qilishni o‘zidagi bevosita qiziqqonligini to‘xtatib qola olishni, o‘z harakatlarini oldindan o‘ylab bajarishga o‘rganish kerak. Mehnat va odam omilining aniq rejim asosida tashkil etishi o‘zini tuta bilishini tarbiyalashning muhim shartidir.

O‘z-o‘zini ishontirish metodini qadimgi greklar qo‘llagan, u aslida juda oddiy-kerak, xohlayman va bajaraman, degan ma’noni anglatadi.

O‘z-o‘zini ishontirish metodi izchillikni, maxsus ruhiy mashq (trening) qilishni talab etadi.

O‘z-o‘ziga buyruq berish-o‘zini majbur etish.

Kuchli irodani talab qiladi. Bunday faoliyat qabul qilingan qarorni bajarish uchun barcha kuchlarni to‘plash, o‘zini faol, astoydil ishlashga harakat qilishlarga majbur etishdan iborat.

O‘zini majbur etish ayniqsa, o‘z kamchiliklarini va nuqsonlarni bilganda va ularni bartarf qilishda qo‘llaniladi. Buning uchun esa kishi o‘z irodasini ishga solish, o‘zini ongli intizomga bo‘ysushnishga odatlantirishi zarur.

O‘z ustida ishlashda qo‘llaniladigan metodlar shaxsning qarashlari, hayotiy maqsadlari tutgan yo‘li asosiy ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog‘liqdir.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning barcha metodlarini yaxshi bilish va ulardan amaliyotda mohirona foydalanish har bir shaxsning muhim vazifasidir. Bu shaxsga, birinchidan o‘z kasbi, mahoratini oshirish uchun o‘z ustida tinmay ishlay, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan doimo shug‘ullanish, ikkinchidan, tarbiyalanuvchi shaxsni bilimi oshirishlariga, o‘z shaxsini takomillashtirishga o‘rgatish uchun ham kerak bo‘ladi.

Faqat o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari bilimi va ulardan mohirona foydalanishgina mahoratli shaxsni shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.Insonlarga xos bo‘lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta’riflash mumkin bo’lgan tushuncha-bu…?**

A.Maqsad B. Iroda S.Hissiyot D. Tuyg’u

2. Maqsadning shakllanishiga nima kuchli ta’sir o‘tkazadi?

A. sub’ektning ehtiyoj va manfaatlari

B. Hissiyot

S. O’z-o’zini anglash

D. Intilish

**3. Kimning fikricha, “jamoaviylikni siqib chiqaruvchi, individuallikni hukmron tamoyilga aylantiruvchi bu- jamiyat”?**

A. Popper

B. O.Kont.

S. A.S.Makarenko

D. V.Gyugo

**4. Kim “Inson jamoaviy harakatini nari borsa foydasiz, hatto alohida shaxsning muvaffaqiyati va baxti nuqtai nazaridan zararli”, deb hisoblaydi?**

A. Z.Bauman

B.Z.Freyd

S. Komenskiy

D. A.S,Pushkin

**5. O‘zini majbur etish ayniqsa qanday vaqtda qo‘llaniladi?**

A. o‘z kamchiliklarini va nuqsonlarni bilganda va ularni bartarf qilishda

B. o‘z shaxsini takomillashtirishda

S. o‘z ustida ishlashda

D. o‘z-o‘zini ishontirishda

**NAZORAT SAVOLLARI**

1. Orzu, maqsad deganda nimani tushunasiz?
2. Hissiyot nima?
3 O’z-o’zini anglash nima?
4 O’z-o’zini anglashning shaxs faoliyatida qanday o’rni bor?
5. O’z-o’zini ishontirish deganda nimani tushunasiz?

**15-mavzu: Milliy an’ana va qadriyatlar shaxs komolotining poydevori. Tarixiy, ma’naviy-madaniy merosga sodiqlik.**

**REJA**

1. Milliy an’ana va qadriyatlar shaxs komolotining poydevori.
2.Tarixiy, ma’naviy-madaniy merosga sodiqlik.

***Tayanch so‘zlar:*** milliy an’ana va qadriyatlar, urf-odat, rasm-rusum, diniy an’analar, tarixiy, ma’naviy-madaniy meros

### 15.1. Milliy an’ana va qadriyatlar shaxs komolotining poydevori.

Milliy an’ana va qadriyatlar o’tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o’tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo’ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat.

Milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an’analar bor. An’analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli milliy an’analarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me’yorlari, urf-odat, marosimlar sifatida namoyon bo’ladi. Milliy an’analarni:

a) ijtimoiy-tarixiy hodisa;

b) jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi;

v) kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezoni;

g) jamiyat va odamlarni boshqarishning ma’naviy omillaridan biri sifatida tavsiflash mumkin.

Milliy an’analar yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o’rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o’z milliy an’analari bo’lib, vaqt o’tishi bilan o’zgarib, mazmunan boyib boradi, ba’zilari yo’qoladi, yangilari vujudga keladi. Shuningdek, bir zamonning milliy an’analari ikkinchi zamonga mos kelmasligi mumkin. Davr talabiga javob bermaydigan milliy an’analar unutiladi. Har bir xalqning milliy an’analarida o’sha xalqning turmush tarzi, madaniy kamolot darajasi, milliy ong va qiyofasi ham aks etadi. Bir hudud aholisi yoki xalqiga xos milliy an’analarga har xil mafkuraviy nuqtai nazardan yondoshish, boshqa hudud yoki xalq nuqtai nazaridan baholash noto’g’ri.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng sobiq sho’rolar tuzumida joriy etilgan milliy an’anaviy bayram va tantanali kunlarning ko’plari o’z ahamiyatini yo’qotdi. O‘zbek xalqining qadimdan tarkib topgan, hozir ham keng amal qilinadigan milliy an’analari bor. Bular jumlasiga keksalarga hurmat, qarindosh-urug’, mahalla-ko’y bilan oqibatli, yaqin aloqada bo’lish, el-yurtga sadoqat, hashar, mehmondo’stlik, nonni e’zozlash va boshqalar kiradi. O’zbekistonda Navro’z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ro’za hayiti, Qurbon hayiti va boshqa xalq bayramlari yaxshi milliy an’analar sifatida hayotga singib ketdi.

**Qadriyat nima?** Bunga birdaniga bir so’z bilan javob berib bo‘lmaydi. Zero, u muayyan bir xalq turmush turzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning o’ziga xosligini, mentalitetini namoyon etadi. Ko’p asrlik tarixga ega o’zbek xalqining shunday qadriyatlari borki, u boshqa biror xalqnikiga o’xshamaydi. Mana shu qadriyatlar “... necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to’fon va bo’ronlardan sog’-omon asrab kelmoqda. Har qanday og’ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o’zligini yo’qotmasdan, ma’naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun barchamizga ibrat bo‘lib, kuch-quvvat bag’ishlab kelmoqda”.

**Qadriyat** (arabcha. qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

**Qadriyat - tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo’ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy – iqtisodiy, madaniy-ma’naviy mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig’indisidir.**

1.Urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, bayramlar xalqimiz hayotida nihoyatda ko’p va xilma-xildir. Ularning shakllanishi, taraqqiyot darajasi ham o’ziga xos tarixiy yo’lni bosib o’tgan. Boshqa xalqlardagi xuddi shunday urf-odat hamda rasm-rusumlar bilan mushtarak tomonlari ham, keskin farq qilib turadigan tomonlari ham bor.

Har qanday urf-odat, rasm-rusum, an’ana, marosim va bayramlarni qadriyat deb qabul qilib bo‘lmaydi. Qadriyat muayyan xalq va millatga xos xususiyatlarni o’zida to’la namoyon etadigan, ko’p asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida milliy o’ziga xoslikni mujassam etgan, millatning mentalitetini belgilab beradigan muhim omil bo’lgan ma’naviy tushunchadir. Ma’naviyat tushunchasi singari qadriyat tushunchasi ham keng bo’lib, uni har kim o’z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda turlicha izohlashi, ta’rif berishi mumkin. Lekin barcha holatlarda qadriyat o’zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan, millatning ma’naviy yetukligini ko‘rsatib turadigan mezonlardan sanaladi. Insoniyat tamadduni taraqqiyot bosqichlari tajribalarini o’zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg‘ularga yo’g’rilgan va komillik sari da’vat etuvchi ma’naviy-ruhiy tushunchalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko’tariladi. “Mana shu hayotda yashashimiz, tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, udumlarimiz, mehrliligimiz, folklorimiz, o’yinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatlardir”, deyiladi.

2. Darhaqiqat, shunday. Ularda bizning o’zligimiz, xalqimizga xos eng muhim xususiyatlar namoyon bo’ladi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz, yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitib borishimiz, kelajak avlodlarga yetkazishimiz zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shunday qadriyatlarimiz haqida fikr yuritir ekanlar, umumxalq milliy bayramimiz Navro’zga alohida to’xtalib o’tadi. “... yangilanish va ezgulik timsoli bo’lgan Navro’z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g’oyalardan bahramand bo’lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir...”

3. O’z milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni e’zozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinikam xalqparvar, millatparvar sanaladi. Ana shunday kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ta’lim-tarbiya tizimining, barcha ziyolilarning muqaddas burchidir. Bu borada mamlakatimizda keng qamrovli faoliyat olib borilmoqda va o’tgan yillar ichida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaralari yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz tiklangani, ulug’ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi xalqimizga qaytarilgani millatimiz ma’naviy-ruhiy olami behad yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida

toptalgan diniy qadriyatlarimiz ta’qiq va tazyiqlardan xalos etildi. Diniy rasm-rusumlar, bayram va marosimlar deyarli unutilayotgan edi. Masjidlar omborxonalarga aylantirilgandi, madrasalar qarovsiz qolgandi. Diniy marosimlar va bayramlar tor doirada yashirin ravishda o’tkazilardi. Holbuki, muqaddas dinimiz asrlar davomida vatandoshlarimizni mehr-oqibatli bo’lish, insof va adolat, yaxshilik, ezgulik tuyg‘ularini qadrlash ruhida tarbiyalab keldi. Bu yuksak insoniy fazilatlar xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, bular milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda Ramazon va Qurbon hayiti umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda. Bu kunlar mamlakatimizda dam olish kuni deb belgilab qo’yilgan. Diniy rasm-rusumlar, marosimlar muntazam o’tkazilib, ular orqali yuksak axloqiy fazilatlar targ’ib etilmoqda. Mana shu orqali milliy o’zlikni anglash mumkin.

O’zlikni anglash nima ekanligini tushunib yetish muhim. Chunki vatanparvarlik, millatparvalik, Vatanga, yurtga fidoyilik tuyg’ulari o’zlikni anglab yetgan taqdirdagina namoyon bo’ladi. falsafiy yo‘sinda bu tushunchaga ham har xil ta’rif beriladi, turli aspektlarda tekshiriladi.

Umuman olganda, xalqimizning uzoq asrlik tarixi davomida to’plangan ma’naviy boyliklari, shakllangan urf-odatlari, rasm-rusumlari, marosimlari, barcha qadriyatlari mohiyatini teran tushunish, anglab yetish, ularni rivojlantirishga intilish o’zlikni anglashga olib keladi. Aslida o’zlikni anglash insonning inson bo’lishi, komillikka intilish jarayonida inson sifatida burchi nimalardan iborat ekanligini his etish va ana shu mas’uliyatni o’z hayoti va faoliyati davomida to’la-to’kis namoyon eta olishdir. Inson nima uchun dunyoga keldi, uning maqsadi va vazifasi nimadan iborat, uning barcha mavjudotlardan ayricha yaralishi, unga beqiyos kuch-qudratga ega bo’lgan tafakkur ato etilishi, undan qanday foydalanishi va rohat-farog’atga erishishga intilishi hayotining mazmuniga aylanar ekan, u o’zligini topgan, anglagan hisoblanadi. Bizning milliy qadriyatlarimiz diniy aqidalar, talab va qoidalar asosida shakllangan, rivojlangan. Qadriyatlar darajasiga ko’tarilgan milliy an’analarimiz bugungi kunda yoshlarimizni milliy o’zlikni anglash ruhida tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga, beqiyos tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko’ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarga bolinadi. O’z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o’zligini belgilaydigan boshqa o’ziga xos tomonlari yig’indisidan iboratdir. Bu o’ziga xoslik moddiy, ma’naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san’ati, xalq o’yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Har qanday millat ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida o’ziga xos, betakror jihatlarga ega. O’z milliy qadriyatlarining ob’ekti va subekti sifatida har bir millat qadriyatlarini rivojlantirib, takomillashtirib boradi. Shu bilan birga o’zi ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o’zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlar kashf qilib boradi, bu ikkala hususiyat ham milliy qadriyatlarda aks etadi.

Milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo’ladi, kishilar ongiga ta’sir qiladi, ular uchun ma’naviy mezonlar rolini o’ynaydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimiy yangilanib, ya’ni zamonaviylik kasb etib, avloddan-avlodga an’anaviylik asosida o’tib boradi.

Milliy qadriyatlar kishlarning o’zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati, hatti-harakatlari hamda ular bilan bog’liq bo’lgan maqsad, ehtiyoj, qiziqish va intilishlari uchun asos bo’ladi, moddiy va ma’naviy sohalarda muayyan natijalar, ya’ni milliy-madaniy boyliklar, yutuqlar sifatida namoyon bo’lishi ham mumkin.

Mintaqaviy qadriyatlar bir-biriga yaqin bo’lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo’lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo’lishi ko’plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Mehmondo’stlik, bolajonlik, yaqin qo’ni-qo’shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug’lar, dostlar bilan yaqin aloqada bo’lish, saxiylik, halol bilan haromni farqlash Markaziy Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo’lgan ma’naviy fazilatlardir.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog’langanligining ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo’lgan tutash, umumiy bo’lgan zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hodisalar va boyliklarga aytiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o’zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o’tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o’zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o’zgarib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o’rtasidagi ko’prik vositasini o’tab, insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vazifasini o’taydi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir.

Insonparvarlik g’oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat, inson huquqlari ustunligi, xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo’lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do’stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, tinchlik, osoyishtalikni ta’minlash, tabiatni asrash va bohqalar umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

**Qadriyatlarning tarix sinovidan o'tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to'g'ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyati.**

Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta'sirini uning o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi. Demak, qadriyat sifatidagi inson ta'sirida uning qadri, ahamiyati namoyon bo'ladi, boshqa kishi esa ana shu bevosita ta'sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi. Bahoda teskari munosabat, boshqa bir kishining qadriyat sifatida qaralayotgan ob'ekt, narsa, hodisa, ideal va boshqaga nisbatan munosabati, uni anglashning biror bir darajasi o'z ifodasini topadi. Bu jarayonda sub'ekt qadriyatga munosabatini baho tarzida ifodalaydi. Qadriyatning mazmuni va ahamiyati bahoda to'la-to'kis aks etmasligi, turlicha ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo'ladigan hollar ham uchraydi. Masalan, ba'zi narsalar (san'at asarlari, obidalar, yodgorliklar va boshqalar) qadrining nihoyatda balandligi ularga "bebaho" degan sifat berilishiga sabab bo'ladi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog'liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to'g'i tushunilmasa, unga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Aynan shu ma'noda qadriyatni baholash unga bo'lgan insoniy munosabatni ham ifodalaydi, bu esa, o'z navbatida, kishilarning talab-ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liqdir. Inson nimanidir baholayotganida va qadrini anglayotganida o'z ma'naviyati, bilimi, ehtiyojlari, talablari, maqsadlaridan kelib chiqadi, o'z manfaatlarini ham unutmaydi. Bu ehtiyoj, talab, maqsadlar va biror foyda olishni ko'zlash ham ma'naviy xususiyatga ega bo'lganidan, muayyan kishilarning u yoki bu qadriyat, uning qadri va ahamiyati haqidagi fikri (bahosi) muayyan darajada nisbiydir. Kimningdir yoki nimaningdir qadrini baholashda ishtirok etayotgan turli maqsad va ehtiyojga ega bo'lgan kishilar soni ortgani sari, uning haqiqiy bahosini aniqlash qiyinlashib boraveradi. Xullas, qadr tilimizda xilma-xil ma'noni anglatadi va ma'naviy qiyofamizni ko'rsatadigan sermazmun tushunchalardan biri hisoblanadi.

Qadriyat esa inson va jamiyat ma'nayatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. "Qadriyatshunoslik (aksiologiya)"ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida qadriyat asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadriyat turli sohadlarda xilma-xil ma'noda qo'llanadi. Qadriyat so'zining turfa xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan ta'riflarning turlicha bo'lishiga olib kelgan. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida

qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif beradi.

Shunday qilib, qadriyat biror tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir.

Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko'ra bir-biriga mutlaqo zid ko'rinadigan "yaxshilik" va "yomonlik", "haqiqat" va "haqsizlik","baxt-saodat" va "g'am-kulfat", "tadrijiylik" va "inqilobiylik", "taraqqiyot" va "tanazzul", "borliq" va "yo'qlik" kabi tushunchalar hayotning bir-biri bilan qarama-qarshi bog'langan jihatlarini ifodalaydi. Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganda - ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida - istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida - sihat-salomatlikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi.

Qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e'tirof etgan yagona namunalar yo'q. Qadriyatlarni moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar o'zaro uyg'unlikda, qonuniy bog'lanishda, umumiy aloqadorlikda namoyon buladi. Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo'lak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qo'l keladi. Bunda qadriyat shakllari bog'langan obekt, jarayonlarning makon hamda zamonda zohir bo'lishi, ular o'rtasidagi bog'lanishlar va aloqalarni o'rganish, obektiv asosi, subektiv jihatdan anglanishi, umumiy, xususiy va alohida jihatlarini tahlil qilish imkoni tug'iladi. Bu esa qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqa, bog'lanish hamda ularning in'ikosi bo'lgan eng umumiy qadriyat tizimlariga xos xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi.

Mustaqillikkacha qadriyatlar mavzusi keng o'rganilmas edi. Istiqlol davrida bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda, qadriyatlar to'g'risidagi fan - qadriyatshunoslik respublikamizdagi ijtimoiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, bu yo'nalishda tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda, ko'plab asarlar nashr etilmoqda.

Mustaqillik ona-Vatanimizga va xalqimizga inson sifatida hayotdan bahra olib yashashi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib, el-yurt bo'lib, jahonda o'z o'rnini topishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bularning bari imkoniyatlar darajasida qolib ketmasligi uchun yoshlarimizni har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishishi uchun ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan tarixiy, diniy va milliy qadriyatlarimizni o'zimiz avvalo har tomonlama o'rganishimiz hamda boshqalarga targ'ib va tashviq qilishda doimo oldingi safda bo'lishimiz lozim.

Hozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik kabi g'oyalarni tarannum etuvchi mafkuralarga tayanmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan g'oyalarning rivojlanib borishi insonda juda katta umid-orzular tug'diradi. Chunki umuminsoniyat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi bunday g'oyalarning ro'yobga chiqishi jahon miqyosida tinchlik va taraqqiyot, inson erkinligi, milliy va diniy totuvlikning tantana qilishiga, oxir-oqibatda insonning baxt-saodatga erishuviga olib keladi. Bu esa insoniyatning asriy orzusidir.

Umuminsoniy yoki umumbashariy qadriyatlar insoniyat, xalqlar, millatlar erishgan oliy boylik bo'lib, chinakam milliy g'oyalar ham ana shu qadriyatlar tamoyiliga asoslanadi. Qadriyatlarning turlari ko'p va har birining ma'nosi juda keng.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning ob'ektiv olamiga nisbatan bo'lgan munosabatining ifodasi ,shu bilan birga inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligi haqida fikr yuritishdan oldin, uning ilmiy-falsafiy ma'nosi, paydo bo'lish va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ildizlari, shakllanishidagi shart-sharoit, imkoniyat va zaruriyatlar milliy, mintaqaviy, umumbashariy, diniy qadriyatlar singari turlari nimalardan iboratligini aniqlab olishga to'g'ri keladi.

Qadriyatlar deyilganida jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kundagi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti va istiqboli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy hodisalar qadriyatlar jumlasiga kiradi. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy mahsulidir. Qadriyatlar muayyan bir davr sharoit va ehtiyojning mahsuli bo'lish bilan birga uning ko'zgusi hamdir.

Qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida namoyon bo'ladi, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni o'zida aks ettiradi, o'zgarib, rivojlanib, boyib, takomillashib turadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bo'ladigan o'zgarishlar va rivojlanishlar qadriyatlarning mazmunida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat taraqqiyoti doimiy ravishda o'zgarib rivojlanib, yangilanib turgan sari qadriyatlarning ahamiyati oshib, ularni baholash mezonlari ham oldingidan boshqacha bo'lib turadi. Barcha zamonlarda ham inson eng oliy qadriyat hisoblanib kelingan. Hamma narsani qila oladigan oliy mavjudot bu inson oliy hazratlaridir. Tarix ham, tarixiy taraqqiyot ham inson faoliyotidan boshqa narsa emas.

Insonning barcha davrlar va jamiyki ijtimoiy tuzumlarda eng oliy qadriyat deb baholanishi bejiz emas, albatta. Chunki, unda boshqa jonli mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim belgilar-ong, aql-idrok, did-farosat, bilim, odob-axloq, din, tafakkur, hulq, orzu-umid va baxt-saodatga intilish, mas'uliyat tuyg'usi, imon-e'tiqod, maqsad va ehtiros, aqliy kamolot, or-nomus, ishq-muhabbat, g'urur, nafrat va boshqa ma'naviy javohirlar jamuljamdir.

Insonlar hayoti ijtimoiy munosabatlarga asoslangandir. Inson mavjudot sifatida tabiat mahsuli bo'lsa, ammo odam sifatida u faqat jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Inson inson bilan tirik. Inson borki hayot bor. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, taraqqiyot, o'zgarish va rivojlanishning asosida inson mehnati, uning yaratuvchilik amaliy faoliyati yotadi. Inson mehnati, aql zakovati, istedodi va ijodiyoti - bularning hammasi uning buyukligi, oliy qadriyat ekanligidan nishonadir. Dunyoda insondan qudratli aql-farosatli, oqilu dono mavjudot yo'q.

Tabiatni obod va ko'rkam, jamiyatni go'zal va farovon qilishni, aql idrok va tafakkuri bilan odamzotga kerakli bo'lgan jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarni shaharu-qishloqlarni, ilm fan va madaniyat maskanlarini, temir yo'lu-tosh yo'llarini, zavodu fabrikalarni bog'u-bo'stonlarni, texnika va texnologiyalarini, mikroskopu teleskoplarni, ulkan kosmik kemalarni, xullas, barcha va har qanday qadriyatlarni yaratgan va yaratib kelayotgan inson zoti oliylarining nomi dunyoda mag'rur jaranglaydi.

Insonning oliy qadriyat ekanligi, uning dastavval, o'z-o'ziga va jamiyatning insonga bo'lgan axloqiy munosabatiga aks etadi. Qadriyatlar insonlar o'rtasida o'zaro munosabatda va shaxsning o'z xulqini tartibga solishida ijobiy rol o'ynaydi. O'z qadr-qimmatini anglash shaxsning o'z-o'zini

nazorat qilishi bo’lib, uning o’z-o’ziga nisbatan talabchanligi va shunga asoslanadi.

O’z-o’zini hurmat qilish ko’p jihatdan shaxsning taqdirini belgilovchi g’oyat muhim xislatdir, chunki u insonni kamsitadigan, yerga uradigan, xo’rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko’z o’ngida o’z qadr qimmatini yo’qotishga sabab bo’ladigan qiliqlariga yo’l qo’ymaydigan to’siqqa aylanadi. Har bir inson, eng avvalo, o’z-o’zini hurmat qilishi, qadr-qimmati, or-nomusi, shaniga dog’ tushirmasligi lozim.

O’zining qadr-qimmatiga yetish, or-nomusini saqlay olish muhim insoniy fazilatdir. O’z izzat - hurmatini bilmasdan turib, ma’naviy boylikka yetishish, elda qadr-qimmat topishni tasavvur qilish qiyin. O’zini hurmat qilmaydigan kishi o’zgalarni qadrlay olmaydi. Qadr-qimmat shaxsni hurmatlashni uning huquqini e’tirof etishni ham o’z ichiga oladi. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma’naviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga keladi.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo’lib kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo’ladi va rivojlanadi. Inson yo’q joyda biron narsaning qadr - qimmati haqida so’zlash bema’nilikdir. Qadriyatlar kishilarni turli sohadagi, avvalo ishlab chiqarish mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog’liq ravishda yuzaga keladi. Barcha axloqiy normalar, yurish-turish qoidalari singari, jamiki insoniy qadriyatlar ham jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yuzaga kelib yangi mazmun, yangi shakl kasb etib, boyib va takomillashib boradi.

Jamiyatimiz har bir insonni e’zozlab, uning turmushini yaxshilash bilimi va madaniy saviyasini o’stirish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o’zida bor bo’lgan hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Keyingi yillarda insonning shaxsiy haq- huquqlarini, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi.

Qadriyatlar moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo’linadi. Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ashyolari, moddiy ne’matlar va boshqa)lar kirsa, ma’naviy qadriyatlar - siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy musiqiy, ilmiy, estetik, falsafiy, axloqiy va boshqa shu kabi qadriyatlardan iboratdir.

Har qanday milliy tafakkur darajasi, avvalo, nimalarga asoslangani bilan o’lchanadi. Bu asos qanchalik mukammal bo’lsa, milliy g’oya ham shunchalar boy bo’ladi. Albatta, bunda moddiy va ma’naviy qadriyatlar uyg’unligi juda muhim rol o’ynaydi.

Odamlarning yashashi va rivojlanishi uchun moddiy noz-ne’matlar qanchalik zarur bo’lsa, ma’naviy qadriyatlar ham shu qadar muhimdir. Odob -

axloq, urf-odatlar , marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular kishilarning o'zaro munosabatlarida, yurish-turishida, axloq va odobida ko'zga tashlanadi.

Odob-axloq, urf-odatlar sohasidagi qadriyatlar xalqimizning eng qimmatli boyligidir. Qadriyatning ana shu turi insonning ichki ma'naviy ehtiyojiga aylansa, kishilar tomonidan o'zlashtirib olinib hayotga oqilona tatbiq etilsa, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Yaxshilik, halollik, poklik, hamkorlik, xayrixohlik, hamdardlik, burchga sodiqlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar mavjudligini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Inson faqat o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilangina tirik emas. Mehnat qilish, jamiyatda yashash, o'zidan boshqa kishilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqa va munosabatda bo'lish jarayonida u inson sifatida shakllanadi, o'sib-unadi, qobiliyat, iqtidor va iste'dodlarini namoyon qiladi. Ana shu ma'noda olganda insonga xos bo'lgan ma'naviy va ahloqiy fazilatlar ajralib insoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Estetik qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ularga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar va ulardan zavqlanish kiradi.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Durbek Sa'diy va boshqa yuzlab va minglab buyuk adiblarimiz tomonidan yaratilgan nazmiy va nasriy asarlar, son-sanoqsiz badiiy adabiyot namunalari estetik qadriyat sifatida hozirgi paytda ham jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyotida katta o'rin egallab kelmoqda. Sa'natning, badiiy adabiyotning ham o'tmishda va hozirgi paytda yaratilib, voqelik aks ettirgan barcha turlari odalarning fikr va hislariga ta'sir etib, hayotni chuqurroq o'rganishlariga yordam bermoqda. Insonning murakkab ichki dunyosini, psixologiyasini, ruhiy holatlarini, ma'naviy qiyofasini tasvirlashda san'atning hech qaysi turi badiiy adabiyotga tenglasha olmaydi. Badiiy adabiyot estetik qadriyat sifatida kishilarga hayot, jamiyat to'g'risida ong-bilim beradi, hayot hodisalari va mustaqil O'zbekiston davlati to'g'risidagi tasavvurimizni boyitadi, jamiyatimizga xos bo'lgan murakkabliklar, ziddiyatlar, qiyinchilik va muammolarni obyektiv haqiqat tarzida bilib olishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yilar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda xalqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning

avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosining kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir.

O'zbek xalqi uchun asrlar bo'yi diniy qadriyatlar ham muhim rol o'ynab kelgan. Diniy qadriyatlarda, birinchi navbatda islom ta'limotida jamiki odamzodni ezgulikka, haq va haqqoniyatga, to'g'ri yo'lga da'vat etadigan, nohaqlikka qarshi kurashishga chorlaydigan shunday bebaho falsafiy g'oyalar, nodir hikmatlar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar, eng muhim yo'l-yo'riqlar borki, ularni bilib, chuqur o'zlashtirib olib, qat'iy amal qilgan, ularga suyanib faoliyat ko'rsatgan kishi hayotda hech qachon qoqilmaydi.

Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatlari nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Diniy qadriyatlar odamlarni ilm-fanga, ma'naviy va marifatga da'vat etganligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Buni islom dini misolida ko'rish mumkin. Islom - ilm demakdir. Uning muqaddas kitobi - «Qur'on»da 78000 ga yaqin so'z bo'lsa unda «ilm» so'zi turli hollarda 765 ta marta takrorlanadi. Islom faqat shar'iy ilmlarni emas, balki, barcha ilmlarni o'rganishni foydali deb hisoblagan. Qur'oni Karimning oyat va suralari, payg'ambarimizning Hadislari ilmga da'vat bilan to'la. Islom ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan, hattoki ibodatdan ilmni ustun qo'ygan.

Islom sha'riy hukmida shunday ma'naviy-axloqiy tomonlar, qoidalar borki, ularni biror millat yoki davlat chegarasi bilan cheklab bo'lmaydi. Har qanday musulmon, har bir inson bajarishi kerak bo'lgan sha'riy qoidalar sifatida o'g'rilik qilmaslik, fohishabozlik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanmaslik, insofli - diyonatli bo'lishi, ota-onaning xizmatlarini qilib, ularni rozi qilish va boshqalarni eslatib o'tish mumkindir.

Din va diniy qadriyatlarning xalqparvarlik, millatsevarlik va insonparvarlik sohasidagi tarbiyaviy ahamiyati nafaqat o'tmish davrlar uchun, balki hozirgi payt va kelajak uchun ham benihoyadir.

Diniy qadriyatlarning mafkuraviy-ma'rifiy, axloqiy ahamiyati tabiatga mehr-muhabbat, tevarak-atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabotatni asrab-avaylash haqidagi islom ta'limoti g'oyalarida to'la ifoda topgandir.

Sayyoramizdagi, O'zbekiston saxiy zaminidagi jamiki noz-ne'matlarning qadriga yetish barcha odamlarning insoniy burchidir. Tabiiy boyliklarni, yer-suv va daraxtlarni, hayvonot olamini avaylab asrash Qur'ondagi oyat suralariga, Payg'ambarimiz Hadislaridagi g'oyalarga to'la hamohangdir. Shuning uchun

ham tabiatni e’zozlash haqidagi har bir falsafiy g’oya o’zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko’ra umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Inson ma’naviyati minglab yillar tajribasi, ilm-fan natijalari va yutuqlari asosida tobora takomillashib, mazmunan boyib bordi. Insoniyat tarixida ilk bor ma’naviy adriyatlar, inson axloqi va etikaga doir ulkan ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan mutafakkirlar Platon va Aristoteldir. Albatta, bu davrda ma’naviyat tushunchasi to’g’ridan to’g’ri ishlatilmasa ham, uning qadriyatlari va mazmuni turli xil ifodalarda o’z aksini topgan edi. Qadimgi yunon mutafakkirlari o’z davrlarida etika, falsafa va siyosat fanlari vositasida ma’naviyatning turli qirralarini izohlab, ularning inson yuksalishidagi o’rni va ahamiyatini ochib bergan edilar. Platon etikaning amaliy falsafaning muhim jihatlaridan biri sifatida ifodalab, “u xarakterni tarbiyalaydi”, deb ko’rsatgan edi. Tarixda biron-bir jamiyat, davlat ma’naviy va milliy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz- avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgani tabiiy hol. Fikrimzcha, ana shu sababga ko’ra ham, xalqimiz sho’rolar davrida uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, tarixiy milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qola oldi. Qadriyatlarning mohiyatini bilish, ularni o’zlashtirish, ularga e’tiqod va ixlos qo’yish yoshlarda milliy g’urur, milliy iftixor, milliy birlik va birdamlik tuyg’usini, insonpavarlik, xalqparvarlik, adolatlilik, halollik, poklik, mehnatsevarlik fazilatlariii shakllantirishda muhim rol o’ynaydi.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millatning o’ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va ruhiy fazilatlari, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog’langandir. Milliy qadriyatlarning har bir ko’rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o’ziga xos xususiyatlarini chuqur o’rganish orqaligina to’g’ri tushunib olish mumkin. Millatlar mavjud ekan, milliy qadriyatlar ham mavjud bo’lib, ularning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma’naviy jihatdan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi. Umuman olib qaraganimizda, milliy qadriyatlar har bir millatning moxhyatini, muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Mustaqilligimizning ma’naviy zaminini mustahkamlash axloq, odob, tarbiya borasidagi milliy qadriyatlarimizni chuqur o’rganishimiz, inson faoliyatida amal qiladigan yuksak ma’naviyatlilikning ajralmas qismidir. Shu

sababli bu tamoyil mamlakat hududida istiqomat qilayotgan har bir insonning o’z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, e’zozlashi, o’zidan keyingi avlodga uni yangi-yangi an’analar bilan yetkazishi yuksak ma’naviyatning muhim qismidir. O’tmishdagi ajdodlarimiz qoldirgan milliy meros, madaniy boyliklar mumtoz qadriyat va urf-odatlarni e’zozlash, ularni obdon o’rganib ijodiy rivojlantirish har bir fuqaroning kundalik turmush tarziga singishi lozim. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtarakligini sezish kerak. Milliy qadriyatlar dunyoviy taraqqiyot tamoyillaridan orqada qolmasligiga e’tiborni qaratish davr talabidir. Jahon tajribasidagi umuminsoniy demokratik qadariyatlarning mohiyatini tah lil qilaborish va hayotga tatbiq eta borish milliy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishini unutmaslik har bir yuksak ma’naviyatli shaxsni diqqat e’tiborida turishi talab etiladi. Buning uchun har bir shaxsning, fuqaroning siyosiy madaniyatini takomillashtirish, dunyoviy muammolarni to’g’ri tushunishga yetaklash kun tartibiga qo’yiladi. Jamiyat inqirozga yuz tutganda mutafakkiru-donishmandlarning, shuningdek, bir tizimdan ikkinchisiga o’tishda davlat yetakchilarining qadriyat masalasini jiddiy tarzda maydonga tashlashi ham elni boshqarish zaruratidan kelib chiqqan. Masalan, eramizdan oldin Afina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko’targan edi. Ular ijtimoiy-siyosiy, huquqiy tafakkur tarixida birinchi bor «Inson-oliy qadriyat» - deb ko’rsatdi, olamdagi barcha jihatlarni «insoniylik mezoni» bilan o’lchashni targ’ib etdi. Buyuk mutafakkir Suqrot esa «qadriyat nima?,- degan savolga» «har bir insonning o’zligini anglashi» deb javob bergan. Ijtimoiy tafakkur rivojida qadriyatlarning jamiyatni boshqarishdagi o’rniga oid nuqtai nazarlar qadimgi yunon faylasuflari Aristotel va Epikur asarlarida ham uchraydi. Bunday qarashlar bugungi kunda ham bir qator xalqaro tashkilotlar hujjatlarida o’z ifodasini topgan. Bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy asarlarida ham qimmatli fikrlar bildirilgan. Qadimgi grek va O’rta asr Sharq mutafakkirlari ma’naviyatli va axloqli insonning jamiyat rivojidagi o’rnini yuksak baholaydi: “Ezgulikni kasb etgan inson hech kimga zarar yetkazmaydi, aksincha, ezgulikdan uzoq inson eng gunohkor va yovvoyi mavjudotdir, lazzatlanish va yeb-ichishga nisbatan u har qanday hayvondan ham tubandir. Axir, turli hayvonlardan inson ezgulik va yovuzlik, adolatlilik va adolatsizlik kabilarni idrok etishi bilan farqlanadi”. Ma’naviyatni umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy maqomi sifatida tarannum etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiydir. U “Hayrat ul-abror” asarida ma’naviyatli insonni quyidagicha tasavvur qilgan: “Sen insonlarga foyda yetkazishni o’zingga shior etding; shundan keladigan nafni o’zingga yor aylading. Sening xalqqa ko’rsatgan foydang shak-shubhasizdir; lekin bilib qo’yki, bundan o’zingga tegadigan naf ko’proqdir. ...Kimki boshqalarga zarar

yetkazishni odat qilsa, bundan elga emas, avvalo o'ziga jabr yetgan bo'ladi. ...Kimning xalq g'amidin g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema". Insoniyatning jamiyatga uyushib yashashi, kishilarning o'zaro hamkorligi, jamiyat hayotining barqarorligi va farovonligini ta'minlashning ichki manbai ham ma'naviylik, ham ma'rifiylikdir. Ma'naviy boylik chegara bilmaydi, millatni tan olmaydi, u qaysi mamlakat yoki jamiyatda bo'lmasin, bu o'sha joydagi ma'naviy komil insonlar mulkidir. Umuminsoniy qadriyatlar qaysi hududda rivojlangan bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyatning unib-o'sishi uchun muhit, har tomonlama shart-sharoitlar tug'iladi. Lev Tolstoy ma'naviy boy va ma'naviy qashshoq odamni shunday ta'riflagan edi: "Eng yaxshi odam o'z fikri va o'zgalar his-tuyg'ulari bilan yashayotganidir, insonning eng past toifasi esa – o'zgalar fikri va his-tuyg'ulari bilan yashayotganidir". Mashhur adib Chingiz Aytmatov ma'naviy qadriyatlarni quyidagicha baholaydi: "Insoniyat ideallari yutuqlari sifatidagi modellarda bizning ijtimoiy tuzumimizni xarakterlaydigan ma'naviy prinsiplarning bahridan o'tmasligimiz lozim. Bu prinsiplar ichida eng asosiylari-jamiyat farovonligi yo'lidagi halol mehnat, kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlar va o'zaro hurmat, halollik va haqgo'ylik, adolatsizlik bilan kelishmaslik kabilardir. Aslida, bular diyonatning tarkiblari bo'lib, o'z o'rnida, diyonat fuqaroviylikni harakatga keltiruvchi kuchdir... Ma'naviyat - bu inson uchun dastlabki va eng asosiy mavjudlik qonunidir. Uni har bir avlod, har bir individ o'tmish ajdodlarning muqaddas va buzilmas merosi sifatida qabul qiladilar".

Adolatli va fozil jamiyat qurish uchun davlat boshqaruvi, hokimiyat va siyosat ma'naviy qadriyatlar asosida qurilmog'i va faoliyat ko'rsatmogi' lozim. Shuning uchun ham hozirgi davrga kelib siyosat bilan ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi umuminsoniy qadriyatlar talablaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, ma'naviyat faqat merosiy, tarixiy va ma'naviy qadriyat emas, balki doimo rivojlanib, takomillashib, yangi hayot tarzi bilan uyg'unlashib boruvchi voqelikdir. Aksariyat olimlar ma'naviyatga doir uo' izlanishlarini faqat o'tmish bilan cheklaydilar, hozirgi kunning dolzarb maqsad va vazifalari bilan bog'lamaydilar. Har bir nazariy izlanish bugungi kun amaliy hayoti talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqqandagina, u yanada rivojlanish va islohotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini hayotga tatbiq etash bilan hamohang tarzda bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik qadriyatlarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini demokratik me'yorlar asosida takomillashtirish kabi yangidan-yangi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi. Yangi jamiyat qurishdagi bu omillarning barchasi umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan qaraganda ko'proq ma'naviyatga yondosh mezonlardir. Har bir

millatning turli tabaqalari o'rtasida qadriyatlar rivojlanishi va amal qilishida milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy g'oya va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilar boshqa millatlar madaniyati ta'siriga tez berilishi, o'z tili, tarixi an'analariga esa nigilistik munosabatda bo'lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi. Albatga, agar har bir millat o'z milliy qadriyatlari qobig'ida o'ralashib qolsa, shu millatning taraqqiyotiga putur yetadi. Milliy mahdudlik va kalondimog'lik hech vaqt ma'naviy kamolot omili bo'lgan emas. Boshqa millatlarning madaniyati, qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan. Ma'naviyat insonning o'z erkinligini his etishi, mutelik ruhiyatidan poklanishi, millat, jamiyat va o'z Vataniga nisbatan muhabbat va ezgulikka erishish kafolati hamdir. Faqat ma'naviyatli inson o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan past qo'ya oladi. Inson jamoa, millat va davlat manfaatlarini ifoda etish va qondirish uchun faollik ko'rsata olsa, o'zining ham manfaatlarini anglashda ma'naviyyatlilik darajasi yuksalib boraveradi. Haqiqiy barkamol va ma'naviyatli insonda jamiyatdagi barcha manfaatlar va ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga intilish, bu faoliyatni u xuddi o'zining umri mazmunidek his qilish xarakteri shakllanadi. Adabiy-madaniy meros – o'tmish moddiy-madaniy boyliklari. Ajdodlardan avlodlarga qolgan xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyoti, san'ati, me'morlik va hokazolari. Adabiy- madaniy meros uni yaratgan xalq tarixi bilan izchil va mustahkam bog'langan bo'ladi; shu xalqning qadimgi davrlardan boshlab hozir gacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma'naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining yanada boy bo'lishiga madaniy merosi yozma tarixiylar (mi l.a v.312–64), O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, turkiy (u yg' u r) qo'lyozma yodgorliklar , Turk hoqonligi (552–745),

Arab xalifaligi (632–1258) va keyingi davrlar, xususan Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, uch xonlik, Rossiya istilosi, sho'rolar tuzumi davrlarida va nihoyat, mustaqillik yillarida bunyod etilgan og'zaki, yozma va moddiy yodnoma hamda yodgorliklardan iborat. Bular o'zbek xalqining urf-odatlari, rasm-rusumlari, bayramlari, xalq ijodi namunalari, adabiyot va fan sohasida yaratilgan manbalar, tasviriy va amaliy san'at hamda musiqa asarlari qadimgi bitiklar va arxeologik topilmalar, rang-barang me'moriy obidalarni qamrab oladi. Adabiy-madaniy merosni saqlash va o'rganish ham tarixiy, ham ma'rifiy qimmatga ega. Bular o'zbek xalqining milliy iftxori hisoblanadi. Sho'rolar tuzumi davrida, xususan qatag'on qilinganlarga nisbatan butunlay noto'g'ri, mafkuraviy munosabatda bo'lindi. O'tmisida yashab ijod etgan bir qancha shoirlari ijodini o'rganish man etildi, arab yozuvida bitilgan qo'lyozmalar yo'q qilindi. Adabiy- madaniy merosning zukko bilimdonlari quvg'in ostiga olindi;

Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa adib, shoir, olim va ziyolilar qatl etildi, o'nlab masjid va madrasalar buzib tashlandi, xalq marosimlari va bayramlarini o'tkazish taqiqlandi. Bu borada turg'unlik yillari qatag'on davrining o'zi ga xos davomi bo'ldi . O'zbekiston milliy ensiklopediyasini nashr etishga kirishilganligi adabiy-madaniy merosni ilmiy o'rganish yo'lidagi muhim tadbir bo'ldi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband singari islom dinini targ'ib qilish yo'lidagi xizmatlari bilan dunyoga tanilgan buyuk vatandoshlarimiz dafin etilgan joylar obodonlashtirilib, ziyoratgohga aylantirildi. Ularning hayoti va ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan kitoblar chop etildi. Amir Temir hayoti va faoliyati, temuriylar davri madaniyatiga oid kitoblar nashr etildi. O'rta asrning noyob madaniy yodgorligi "Usmon Qur'oni " o'z egalariga – O'zbekiston Diniy boshqarmasiga qaytarildi. " Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000-yillik yubileyi o'tkazildi. Xalq me'morligining noyob namunalari bo'lgan bir qator me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Husayniy, Huvaydo, Behbudiy va boshqalari jodi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda, asarlari nashrga tayyorlanmoqda, Qur'on va Hadis ham birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib ommalashtirildi, qatag'on qilingan shoir va adiblarning asarlari ko'plab nusxalarda chop etildi, unutilishga mahkum etilgan qator hunarmandchilik sohalari qayta tiklandi va xalq bayramlari tantanali nishonlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'tmish, hozirgi zamon va kelajakni uyg'unlashtiruvchi qadriyatlar tizimi biz qurayotgan demokratik, fuqarolik jamiyatining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodni tarbiyalash, ularda milliy iftixor, ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini singdirish va yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.

Ma'naviy yetuk va barkamol insonni tarbiyalashda xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning

saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san’at, ilm- fan, ta’lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi alohida kasb etadi. Ta’lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Milliy qadriyatlar- tarbiyaning eng ta’sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalqparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shinlari, mahalla-ko‘y, hamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘uradi;

-tevarak atrofni o‘rab olgan insonlar unga kerak bo‘lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo‘lishga intiladi;

- milliy qadriyatlarni e’zozlaydi va ularga sodiq bo‘lib qoladi;

- milliy qadriyatlar asosida odob-ahloq, fe’l- atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdirdi;

-ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy- madaniy merosni qadrlaydi;

- Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni xarbiy- vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydi-

Ma’naviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to‘g‘risida so‘z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o‘z asarlarida inson ma’naviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma’rifiy qarashlarini o‘stirishga alohida e’tibor qaratganlariga amin bo‘lamiz, Ular o‘z asarlari bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma’naviy asosini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni yetishtirib bergan. Ular- xoh tibbiyotchi va dorishunos, xoh riyozotchi va falakshunos, hox tarixchi va fiqix, xoh tilshunos va munaqqil (naql qiluvchi), xoh adib va shoir, xoh tasavvuf ilmining mashxur namoyandasiyu davlat arbobi bo‘lsin yetuk ilmiy asrlar yaratganlar.Ulug‘ bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, abu nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Bahouddin Naqshband, HojaAhmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, az Zamaxshariy Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma- mutafakkirlarning shuningdek, jadichilarning ismlarini va ular tomonidan ta’lim-tarbiyaga oid asrlarini tilga olish kifoyadir.

Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga uzviy bog‘liq bo‘lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘qdir.

Diniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ajratib o‘rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo‘shilib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

Ma’lumki, yurtimiz azaldan islom dini madaniyati beshiklaridan biri sifatida olmaga mashxurdir. Bugungi kunda milliy qadriyatlar qatori diniy qadriyatlar ma’naviy va ma’rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yashab, mehnat qilayotgan turli konfessiya vakillarining e’tiqod erkinligi uchun keng yo‘l ochilishi demokratik jamiyat qurish yo‘lida davlatimiz tomonidan yuritilayotgan adolatli siyosatning amaldagi natijasi bo‘ldi.

Din xalqimiz ma’naviy-madaniy hayotining uzviy qismi. Shu bois unga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Turli e’tiqodga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda mavjud ko‘p konfessiyalikning real ijtimoiy holati ekani va uning kelajakka ham saqlanib qolishi hisobiga olingan holda diniy bag‘rikenglik uchun to‘la shart-sharoit yaratilmoqda.

Din, xususan islom dini bilan bog‘liq qadriyatlarni o‘rganish va ulardan foydalanish borasida faqatgina islom g‘oyalari va marosimlarini o‘rganish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ayni paytda din bilan bog‘liq qadriyatlarni o‘rganish dinparastlik bilan bog‘lamaslik kerak. Dinparastlik hech qaerda, hech qachon ijobiy qadriyat sifatida qiymatga ega bo‘lmagan. Dindan yuksak ma’naviy qadriyat sifatida foydalanishimiz zarur. Undan buzg‘unchilik, hokimiyat uchun kurashda qurol sifatida foydalanishga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Millatning ravnaq topishida tarixan shakllangan milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir. Milliy qadriyatlar avvalo, har bir millatning iftixori, faxri shu bilan birga ma’naviy merosining poydevori hamdir. Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, ularni yanada teranroq anglashimiz uchun keng yo‘l ochib berdi. Mustaqillik, tufayli islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar qilindi. Xalqimiz hayoti va turmushida islom dini va islomiy qadriyatlar ma’naviy va ma’rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qolgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonida diniy qadriyatlardan foydalanmaslikning iloji yo‘qdir. Islomiy qadriyatlarning eng muhim tomonlaridan biri — ota-onaga izzat-hurmat va sadoqat ko‘rsatish farzandlarning insoniy burchlari ekanligini ta’kidlashdir. Demak, farzandning muqaddas burchi volidai qiblagohlarini e’zozlash, ularning xizmatiga doimo shay turish, rozi ko‘shishdir. "Ota-onalarning keksalik vaqgida har ikkisi yoki biri bo‘lmaganida, boshqasi-ni rozi qilib, jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin", degan g‘oya Hadislarda yetakchi o‘rin tutadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida islom olamida katta shuxrat qozongan, hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, dastur amal bo‘lib kelayotgan Hadislarning o‘rni nihoyatda kattadir.

Ma’lumki hadislar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ularda ma’naviy- axloqiy poklik, iymon- e’tiqod yetukligi, ilmu hunarning inson hayotidagi o‘rni, haqiqat va diyonat singari ko‘plab masalalarga alohida e’tibor beriladi. Inson amal qilishi lozim bo‘lgan ezgu ishlar, yuksak axloqiy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Hadislarda bundan qariyb bir yarim ming yil oldin aytilgan bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi davrimiz uchun, ayniqsa, muhim va o‘ta zarur bo‘lgan, boshqacha aytganda, ayni kunlarda bozorlarimiz peshtoqiga shior qilib yozib qo‘ysa arziydigan pur hikmatlar bisyor.

Islom dini insonparvarlik, millatparvarlik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik g‘oyalarini keng targ‘ib-tashviqot qiladi, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘g‘rilik kabi qabih ishlar bilan shug‘ullanishni, zino qilishni qatgiq qoralaydi, inson mukarram zot deb ulug‘lanadi, Milliy va umumin-soniy qadriyatlar mazmun-mohiyatiga, asosiy tamoyillariga batamom zid bo‘lgan razolat, adovat, fisq-fasod, zulm-zo‘ravonlik, millatchilik, mahalliychilik, milliy nizolar, urug‘-aymoqchilik islom ta’limotida keskin qoralanadi. Madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya xususida islom ta’limotida bayon etilgan asosiy qoidalar, huquqiy me’yorlarning ahamiyatini butun dunyo allaqachon e’tirof etgan. Islom kishilarda ishonch hissini mustahkamlagan, ularni poklab yuksaltirgan, hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o‘tishlarida ko‘maklashgan. Umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlarni saqpab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam berib kelgan."Din, shu jumladan islom dini ham,-deydi O‘zbekiston Prezidenti,— ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelganligining o‘ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, aloxida shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo‘lgan din umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta’sir ko‘rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko‘maklashgan va ko‘maklashmoqda".

Shunday ekan farzandlarimizni muqaddas dinimizning moxiyati, uning insonparvarlik g‘oyalari, dinga sog‘lom munosabat masalalarini ular ongiga singdirishimiz zarur masalalardan biridir. Shu tariqa farzandlar tarbiyasidagi birinchi maqsadimiz bu xalqimizning qadimiy va boy tariximiz, yuksak madaniyatimiz va urf-odat, qadriyatlarimizga asosan mentalitetimiz asosida xayotga moslashishi, komil inson tarbiyasidagi buyuk maqsaddir. Bu insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba’zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Ushbu qadriyatlar milliy xususiyatlarni o‘zlashtirishi tavsiya etish mumkin:

Ø xalqimiz xayotida qadim qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi;

Ø jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el yurt tushunchalarning muqaddasligi;

Ø ota- ona, mahalla- kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat e’tibor;

Ø millatning o‘lmas ruxi bo‘lgan ona tiliga muhabbat;

Ø kattaga hurmat, go‘zallik va nafosat, hayot adabiyligining ramzi – ayol zotiga ehtirom;

Ø sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

Ø halollik, mehr oqibat.

Kabi masalalar ta’limning mazmuni bo‘lishi davr talabidir. Bugun biz ko‘pdan ko‘p masalalar ustida bosh qotirayapsiz. Jamiyatimiz rivoji uchun o‘z xissamizni boricha qo‘shishga harakat qilmoqdamiz. Buluraning hammasi kelajak avlod farzandlarimiz baxti saodati uchun. Albatta, shu o‘rinda ulg‘ayayotgan to‘la qonliga qabul qilishga tayyorlashimiz xam kerakdir.

Jamiyatimizda, xalqimizga xos fazilatlaridan bo‘lgan o‘zaro mehr- oqibat,qadr-qimmat, xayru-saxovat singari insoniy fazilatlarning yanada rivoj topishida mahallalar yetakchi kuchga aylangani sir emas. Zero yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari dadil odimlash tamoyili huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz yoshlarining jismonan sog‘lom, ziyoli, madaniyatli va XX1 asrga mos kadrlar qilib tarbilash davlat siyosatida ustivor vazifa qilib belgilandi. Eng avvalo barkamollik so‘zining ma’nosini tushunib, anglab olish kerak. Davlat dasturida bu sog‘lom, barkamol avlod, ijodiy va intellektual salohiyat, xar tomonlama rivojlangan shaxs, xuquqiy savodxon, sog‘lom ona – sog‘lom bola kabi muhim ma’nolar keltirilgan. Tarixan ota–bobolarimiz yoshlarga kamol topgin deb duo qilishgan. Komillikka erishish-bu-murakkab jarayon. Ilm va ma’rifat orqaligina bunga erishish mumkin. Imom Buxoriy, at -Termiziy, al-Farg‘oniy kabi buyuk allomalarni komillik darajasiga erishgan shaxslar deb aytish mumkin.

Bugungi kunda yoshlardagi milliy ruhiyat, insoniy fazilatlar, ma’naviyat, jamiyatni ma’naviy yuksaltirishdagi ishtiroki albatta, ularning barkamol insonlar bo‘lib yetishishi uchun asos bo‘ladi. Barkamol yoshlar tarbiyasi tarixiy ahamiyatga ega. Ulug‘ mutafakirlarimizning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlaridan foydalanish bugungi taraqqiyot uchun, yosh avlodni kamoloti uchun muhim ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Shu bois ham Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ mutafakkirlarning komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlaridan turmushda keng foydalanish maqsadga muvofiq. Buyuk siymolar merosidan ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda hamda o‘quvchi yoshlarning ijtimoiy yetukligini shakllantirish, komil insonni voyaga yetkazish kabi masalalarga qaratish ijobiy natijalar beradi..

Ko‘p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyatning haqiqiy boyligi-inson, inson avlodidir.

Shuning uchun ham ajdodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dinimizni, o‘zbekning o‘zligini har tomonlama asrab-avaylab barkamol avlodlarni voega yetkazib kelganlar. Chunki har bir oqil insonning muqaddas vazifasi, hayotning ma’nosi, komil farzandlar o‘stirish , kamolini ko‘rish,

ota- onasiga, oilasiga, jamiyatga, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashdan iboratdir.Chunonchi, bunday mas'uliyatni bajarishda oila, ota-ona muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**2.Tarixiy, ma'naviy-madaniy merosga sodiqlik.**

Sharqda yaratilgan qator musulmon etikasining noyob namunalari bo'lgan asarlar yoshlarni ma'naviy- axloqiy shakllantirishda asosiy mezon, qoida, qo'llanma, maslahatdan iborat pandnomalar sifatida xizmat qilib kelgan. Bu borada ayniqsa Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Abduraxmon Jomiyning "Baxoriston", Mir Alisher Navoiyning "Mahbub –ul -qulub", "Hayrat ul- abror " kabi asarlari o'zbek milliy axloqini, ma'naviyatini, qadriyatini yuksaltirishda katta e'tiborga molik shoh asarlardir.

Oilani mustahkamlash, farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashda bevosita Sharq mutafakkirlarining merosidan milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida foydalanish hozirgi kundagi oilalarda mavjud ayrim notabiiy munosabatlar, ko'rinishlar, hamda kommunistik turmush yuritish tarzining singib ketgan qonuniyatlarini o'zbek oilasiga zo'rma-zo'raki kiritilgan tarbiya usullarini bartarf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustamlakachilik davrida ayrim o'zbek oilalaridagi milliylik o'z shakli va mazmunini yo'qota bordi. Hatto men o'zbekman deyishga, o'z millatidan orlanishgacha borib yetgan vaqtlari ham bo'ldi. Bunday qarashning oqibat natijalarini nafaqat yoshlar, balki ota-onalarning o'zlarini o'zbek tilini mensimay rus tilida gaplashishadi; milliy- urf-odatlar, ya'ni qadriyatlarni mensimay eskilik sarqiti deb qarashlarida; oilada bolalar tarbiyasida g'arb va rus madaniyatiga taqlid qilishda; oilada o'zaro bir-biri bilan aloqa munosabatida; qaynona-kelin, qariya ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatda, keksalarni qariyalar uyiga topshirish va hokazolarda ko'rish mumkin.

Mana shunday nuqsonlarni yo'qotish va oldini olishda, oilani mustahkamlashda, o'sayotgan farzandlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining bebaho fikrlari, durdona asarlari, ularning pandnomalari-yu, rivoyatlaridan oqilona foydalanib, ularning maslahatlariga amal qilgan holda ish olib borish tarbiyada qo'llangan maqsadga erishishning muhim omili ekanligi nafaqat fanda, balki kundalik turmish faoliyatida isbotlandi.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy me'rosi oilada bolalarni ma'naviy tarbiyasid muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, jamiyatni ham har tomonlama ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy, ham madaniy rivojlantirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda bu masalaga nechog'lik chanqoqlik his qilinayotganligi tobora ravshanlashib bormoqda.

Shu boisdan ham keyingi paytlarda Sharq mutafakkirlarining hayotiga, faoliyatiga va ularning asarlariga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Sharq xalqlarining merosi xilma-xil, ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo‘lib, mavzu jihatdan bir-biriga chambarchas bog‘langan.

Bu asarlar o‘z muxtasarligi, ravonligi, qiziqarliligi, ohangdorligi hamda didaktik ahamiyati, g‘oyaviy mazmuni, ma’naviy to‘qligi, hayotiyligi bilan, xalqqa yaqinligi bilan insonlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o‘zgacha muhim ahamiyatga egaligi bilan ham qadrlidir.

Mutafakkirlarning hikimatli so‘zlari bilan birga, ilg‘or qarashlari va umumma’rifiy orzularini tarannum etuvchi voqea va hodisalar o‘zining tarbiyaviy mazmuni bilan yoshlarni komil insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Zero, mutafakkirlar merosida keltirilgan hikoyalarda, matalu rivoyatlarda nomus va poklik, insof va adolat, muruvvatlilik va haqgo‘ylik kabi ijobiy fazilatlarga qarama-qarshi qabixlik, tovlamachilik, riyokorlik, muttahamlik kabilar qo‘yiladi. Ko‘pgina xikoyalar zamirida inson o‘ziga kerakli xulosalar chiqarib oladi. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu o‘git va nasihatlar o‘tmishdagi ulug‘ mutafakkirlar va donishmandlarning tarixiy hikoya va hikmatli so‘zlari orqali inson ongiga yetkaziladi.Chunki donishmandlar hayot tajribalari, nafis didlari, murakkab ruhiy holatlari va bilim darajalariga tayangan holda xulosalar chiqarib chuqur mazmunli fikrlar bayon etganlar. Bu fikriy kashfiyotlar asrlar davomida insonni ma’naviy go‘zal qilib tarbiyalash uchun xizmat qilish bilan birga, o‘z fikr-mulohazalarini chuqur va nafis ifodalashga ham o‘rgatadi.

Sharq mutafakkirlari asarlarining mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlar tarbiyasi, oila muammolari, balki davlat ahamiyatidagi qator axloqiy-ma’rifiy va ijtimoiy muammolarni ham hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Mutafakkirlar merosida oilada bolalarga singdiriladigan aql, odob, hayo, insonparvarlik asosiy axloqiy mezon sifatida qaraladi. Bunday axloqiy sifatlarni bolalarda shakllantirishda asosan hikmatlardan samarali foydalanish yaxshi natijalar berishini ta’kidlab, ular o‘z nasihatlarini, o‘gitlarini rivoyatu-hikmatlar asosida bayon etishga harakat qilishgan.

Sharq mutafakkirlarining oila va oilada bola tarbiyasi yuzasidagi qarashlari bilan tanishar ekanmiz, Markaziy Osiyodagi axloqiy fikrlar tarixida, inson faoliyati uchun, farzandlar kamoli uchun, oilaviy munosabatlarni talab doirasida olib borish uchun qator uslubiy va nazariy fikrlarni uchuratish mumkinki, bu asarlar bugungi kunda oilada bolalarni ma’naviy- axloqiy tarbiyalashda dasturil amal sifatida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari asarlarining shuxrati nafaqat Markaziy Osiyoda, balki xorijiy mamlakatlarda ham keng yoyilgan bo‘lib, ko‘p tillarga tarjima qilingan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, buyuk allomalarimiz yangitdan dunyoga keldilar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xaqiqiy tariximiz tiklanib yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol ruhi mukammal singdirilmoqda. Hayotda har bir inson o‘z qadriyatlari bilan yashaydi. Mavjud qadriyatlar esa uning kimligini belgilaydi.

Agarda fan nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, odamlarni shartli ravishda beshta toifaga bo‘lish mumkin.

1- toifadagilar faqat oila muammolari bilan;

2 – toifa- oila, maxalla, tuman, shaxar muammolari bilan;

3 - toifadagilar yanada kengroq viloyat muammolari bilan;

4- toifadagilar mamlakat muammolari bilan;

5- toifadagilar dunyodagi muammolar bilan qiziqadi, o‘ylaydi va yashaydi.

Fuqarolarimiz ichida dunyoqarashi keng bo‘lgan insonlar ko‘p. Ular nafaqat o‘zlari haqida, balki boshqa insonlar haqida xam qayg‘uradilar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning “Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” so‘zlari aynan barkamol insonlarga qaratilgan. Bizning oliy maqsadimiz “Ozod, obod Vatan va farovon turmush”ga erishishdir. Bu buyuk yo‘ldan biz bormoqdamiz va xalqimiz kundan-kunga farovonlikka erishmoqda.

Har bir inson o‘z hayotida ijtimoiy faol bo‘lishlikka intilishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, o‘z shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishga erishishi, oilaviy turmushga tayyor bo‘lishi, ilm olishga intilishi, hayoti uchun zarur bo‘ladigan mehnat malakalariga ega bo‘lishi, madaniy hordiq chiqara olishi va, albatta, Vatan oldidagi burchini bajara olishga tayyor bo‘lishi lozim.

Milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz xususida gap ketganda, faqat o‘zimizga xos va mos bo‘lgan mahalla instituti xususida fikr yuritmaslik mumkin emas. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining asosiy bo‘g‘inini maxalla tashkil etadi. Mahalla- fuqarolar intilishi va sa’y- xarakati tufayli muayyan milliy, axloqiy tartib-qoidalarga rioya qilish,ma’raka- mavrid, yaxshi yomon kunlarni birga o‘tkazish, axillikni ta’minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy- iqtisodiy va hududiy jamoadir. Mahalla – hokimiyat bilan kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyatda barqarorlik, osoyishtalik hamda totuvlikni ta’minlashga xizmat qiladigan noyob tuzilmadir.

Mahalla deganda insonlarning belgilangan ma’lum bir hududda jamoa bo‘lib yashashlari tushuniladi. Ta’kidlash joizki, o‘zini-o‘zi idora qilish qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan. O‘zbek mahallalari o‘zida jamoatchilik ruxi, insonparvarlik, o‘zaro yordam, insof, diyonat, raxmdillik kabi insoniy tuyg‘ular bilan sug‘orilgan holda shakllangan katta oiladir.

O‘zbekiston hukumatining mahallani rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosati ikki muhim vazifani hal etishni ko‘zda tutadi:

birinchisi- ma’naviy vazifa bo‘lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an’analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat ;

ikkinchisi – siyosiy huquqiy vazifa bo‘lib, mahalla instituni bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat, shaxar, tuman hokimlari zimmasiga yuklatilgan ko‘pgina vazifa va huquqlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga, ya’ni mahallalarga berib, ularning maqomini ko‘tarish, shu

tariqa jamiyatimiz hayotini demokratlashtirishda yangi va juda muhim qadamlar tashlashdan iborat.

Ayni paytda o‘zini-o‘zi boshqarish, davlat hokimiyati idoralari ustidan jamoat nazoratini o‘rnatish, axolining kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda hamda ta’lim-tarbiya jarayonida mahalla institutining o‘z o‘rni bor. Bir mahallada ahil va inoqlikda yashayotgan kishilar, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga milliy qadriyatlarimizning bir qismi bo‘lmish mehr- muruvvat, sahovat ko‘rsatishni o‘zlarining sharafli burchi deb bilmoqda.

Mahallaning huquqiy- tarbiyaviy ahamiyati shundaki, insonnning kamolga erishishida asosan oilaviy muhit asosiy o‘rin egallaydi, mahalla esa mazkur oilaviy muhitga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, asrlar davomida shakllangan an’analarimizdan farzand tarbiyasiga oila bilan birga mahalla ham mas’ul bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ularning yoshlar tarbiyasidagi ishtiroki tobora susayib boryotgani ko‘zga tashlanadi. Nazarimizda, jamoat joylarida yoshlarning nojo‘ya harakatlariga, qo‘polliklariga o‘rta va keksa avlod vakillarini go‘yo kuzatuvchi bo‘lib qolayotgandek. Ba’zan o‘rta va keksa avlod vakillarining tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatish hollari ham uchrab turibdi. Bundan hulosa shuki, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari ma’naviy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashda faol ishtirok etishlari lozim. Jamoat joylarida va traesportlarda kishi o‘zini qanday tutishi haqida eslatma plakatlar, fotolavhalar va boshqa ko‘rgazmali targ‘ibot-tashviqot vositalari tashkil etilishi kerak. Chunki kishilarga jamoat transportiga chiqqanida belgilangan tartibga amal qilishi, xushmuomala bo‘lishi, yoshi katta, nogiron va yosh bolali kishilarga joy berishi va boshqalar to‘g‘risida ushbu ko‘rgazmali targ‘ibot-tashviqot vositasi orqali eslatib turilishi lozim.

Ma’naviyat sohasida mahallaning eng asosiy vazifalaridan biri, xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz milliy an’analarni, qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishdan iborat. Mahalladagi yoshlarni Vatanni sevish, uni ardoqlash ruhida tarbiyalash davr talabidir. Tarbiyaviy ishlarda yoshlar o‘rtasidagi befarqlik, loqaydlikni bartaraf etish lozim.

Insonning insoniy fazilatlari, eng avvalo, nasldan o‘tadi. Bu fazilatlar inson yashayotgan muhitda mustahkamlanadi va tarbiya orqali boshqariladi. Bu marakkab jarayon ishtirokchisi bo‘lmish odam bolasi oilada, o‘quv yurtlarida va ijtimoiy hayotda sinovdan o‘tadi. Hayot bizlar o‘ylaganchalik oddiy emas. Bola dunyoga kelgach, barcha bolalar kabi bir xil shakl va mazmun egasi bo‘ladi. Keyingi hayot uni yo yaxshi yo‘lga, yo yomon yulga olib kirib ketadi.

Mamlakatimizda barcha fuqarolar uchun bir xilda Konstitutsiyaviy xuquq va burch belgilangan. Buni hamma ham bir xil anglamasligi oqibatida kimdir nasl qurboni, kimdir muhit qurboni kimdir tarbiya qurboniga aylanadi va oqibatda ayrim insonlar hayotdagi jiddiy to‘siqlarga uchraydi.

Keyingi paytlarda uchrayotgan oilalardagi, mahallalardagi, o‘quv muassasalaridagi nosog‘lom muhit, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi

nopedagogik munosabatlar, mas'uliyatsizliklar, yoshlar taqdiriga befarqlik oqibatida har xil diniy oqimlarga kirib ketishlar yoshlar hayotiga tahdid solmoqda. Bu salbiy holat har bir sog'lom fikrlovchi insonlarni chuqur o'ylantirishi lozim.

Har qanday muammoning kelib chiqish sabablari oldindan batafsil o'rganilsa, uning yechimi oson bo'ladi. Ko'pincha bizlar muammo vujudga kelganidan so'nggina faoliyatimizni kuchaytiramiz. Bu o'z-o'zidan teskari samara beradi. Maqsadimiz yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash ekan, bunda bola tug'ilgan kundan to u haqiqiy hayotga kirguncha uning shakllanishi doimiy jamoatchilik nazoratida bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Kattalarning shaxsiy namunasi esa bunda muhim rol o'ynaydi.

Biz o'z tarixi bilan faxrlanadigan insonlarni tarbiyalashimiz va shakllantirishimiz, bunda milliy g'urur va milliy qadriyatlarimizga tayanishimiz va undan unumli foydalanishimiz zarur.

Ming afsuski, hali odamlarimiz ichida dunyoqarashi va siyosiy savodxonligi zamon talablariga javob bera olmaydigan har xil toifadagi fuqarolarning borligi achinarli holat. Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya, ayniqsa, mafkuraviy ishlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha tashkilotlar asosiy e'tiborni yoshlarning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirishga, hozirgi o'tish davrida iqtisodiy soxani inson uchun hayotiy zaruriy ustuvor masala ekanligiga qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni saqlash va unga rioya qilish dolzarb muammolardan biridir. Chunki, fan va texnikaning rivojlanishi, demografik holatning o'sishi, ya'ni jahonda insoniyat turmush tarzining takomillashib borishi milliy va ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatini oshirmoqda. Shu bois, qadriyatlar tizimida ekologik- huquqiy ong va tafakkur, ekologik- huquqiy ta'lim va tarbiya, ekologik- huquqiy ma'naviyat va madaniyat bugun hayotimizning eng zarur qismiga aylanmoqda.

Istiqlol bilan bog'liq ahamiyatli molik yana bir yangilik, milliy qadriyatlarimizdan asrlar davomida yashab kelayotgan boqiy bayramimiz-Navro'zning yurtimizga qaytgani bo'ldi. Sobiq sho'rolar davrida "diniy sarqit", "bid'at" va boshqa bir qancha tamg'alar bilan badnom qilishga urnilgan bu bayramimiz yana dunyo yuzini ko'rdi. 1990 yil 2 mayda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Farmoniga mufoviq "Navro'z" qayta tiklanib, 21 mart dam olish kuni deb belgilandi. Xalqimiz sayllarga chiqib, bir- birlarining holidan xabar olib, mexr va sahovatga muhtoj kishilarga muruvvat ko'rsatib kelmoqdalar.

Navro'zi olamning qaytishi xalqimiz ruhiyatini ko'tardi. Navro'z bayrami bilan birga arlar davomida e'zozlab kelingan urf- odatlarimiz, an'ana va o'yinlarimiz qayta tiklandi.

Mamlakatimizda yoshlarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berishda bir qator ilmiy- nazariy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida

yurtimizda ekologiya sohasidagi milliy qadriyatlar. Urf- odatlar bilan bog‘liq ta’lim-tarbiya jarayonini mustahkamlamoqda.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy-ma’naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizni milliy birlik sifatida jahon miqyosida betakrorligimizni ta’minlaydi. Tilimiz, urf- odatlar, an’ana va udumlarimiz shunchaki o‘tmishdan qolgan meros emas, balki o‘zligimizni anglashimiz shartidir. Biz bu qadriyatlarimizning naqadar muhim ekanligini anglay olsak, millat sifatida o‘zligimizni saqlab qolamiz.

## TEST TOPSHIRIQLARI.

**1.(arabcha. qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan tushuncha bu-?**

A.Qadriyat

B. An’ana

S. Ma’naviy meros

D.tarixiy meros

**2. Respublikamizda nechta diniy konfessiya vakillari ahil-inoq yashamoqdalar?**

A)16 ta

B) 20 ta

C) 15 ta

D) 22 ta

**3. Bugun yurtimizda nechtamilliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda?**

A)138 ta

B) 130 ta

C) 128 ta

D) 136 ta

**4.Harakatlar strategiyasining nechanchi ustuvor yo’nalishida milliy va diniy qadriyatlar haqidagi vazifalar o’z ifodasini topgan?**

A.1-ustuvor yo’nalishida

B. 2-ustuvor yo’nalishida

S. 5- ustuvor yo’nalishida

D. 4-ustuvor yo’nalishida

5. Xalqizning oliy maqsadi nima?

A.“Ozod, obod Vatan va farovon turmush”ga erishishdir

B. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari harakat

S. “Oz uyini va o’z bolasini asrash”

D. Tinchlik, osoyishtalikka erishish

### Nazorat savollari:

1. Inson kamolotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o’rni qanday?

2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an’anaviylik va zamonaviylik munosabatini izohlang.

3. Milliy an`analar deganda nimani tushunasiz?

4. Qadriyatlarning tarix sinovidan o‘tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to‘g‘ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyatini tushuntiring.

5.Umuminsoniy qadriyat nima?

**MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH SHAKLI VA MAZMUNI**

| № | **Mustaqil ta’lim mavzular** | **HISOBOT SHAKLI** | **SOATI** |
|---|---|---|---|
| 1 | Buyuk allomalar tarbiya haqida | Реферат тайёрлаш | Реферат тайёрлаш |
| 2 | Zamonaviy tarbiya va milliy an’analar | Тест тузиш | Тест тузиш |
| 3 | Inson va axborot kommunikatsion texnologiyalari | Интернетдан мақолалар йигъиш | Интернетдан мақолалар йигъиш |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o’rni | Адабиётлардан маълумот тўплаш | Адабиётлардан маълумот тўплаш |
| 5 | Muomala va muloqot qilish asoslari | Кейс-стадилар билан ишлаш | Кейс-стадилар билан ишлаш |
| 6 | Sog’lom muhit – sog’lom tarbiya | Муаммоли казус-савол тузиш | Муаммоли казус-савол тузиш |
| 7 | O’zgarish, mashaqqatlarni yengish | Адабиётлардан конспект қилиш | Адабиётлардан конспект қилиш |
| 8 | . Oila va salomatlik | Статистик маълумотларни ўрганиш, таҳлил қилиш | Статистик маълумотларни ўрганиш, таҳлил қилиш |
| 9 | Imkonsizlikni yengish va uning zamonaviy yechimlari. | Мини кейс тайёрлаш | Мини кейс тайёрлаш |
| 10 | Yo’lboshchilik va innovatorlik – taraqqiyot va biznesning qon tomirlari. | Тақдимот тайёрлаш | Тақдимот тайёрлаш |
| 11 | .Lider, innovator va ixtirochilarning hayot va biznes rivojidagi o’rinlari. | Реферат тайёрлаш | Реферат тайёрлаш |
| 12 | Yashashdan maqsad-munosib hayot | Тест тузиш | Тест тузиш |
| 13 | Ilm-ma’rifat. Fan. Innovatsiya | Интернетдан маълумотлар тўплаш | Интернетдан маълумотлар тўплаш |
| 14 | Orzu, maqsad va muvaffaqiyat | Адабиётлардан маълумот тўплаш | Адабиётлардан маълумот тўплаш |
| 15 | Pul, biznes va boylik | Pul, biznes va boylik | |
| 16 | 16. Ruhiy poklikning ma’naviy asoslari. | 17. Ruhiy poklikning ma’naviy asoslari. | |
| 17 | 18. Axloqiy mas’ullik va javobgarlikning ijtimoiy mohiyati. | 19. Axloqiy mas’ullik va javobgarlikning ijtimoiy mohiyati. | |
| 18 | 20. Ruhiy poklanish va uning diniy-axloqiy mezonlari. | 21. Ruhiy poklanish va uning diniy-axloqiy mezonlari. | |
| 19 | 22. Oqillik va oriyatlilikning jamiyat ma’naviy taraqqiyotida tutgan o’rni. | 23. Oqillik va oriyatlilikning jamiyat ma’naviy taraqqiyotida tutgan o’rni. | |
| 20 | 24. Halollik va fidoiylikning axloq va ma’naviyat tizimidagi o’rni. | 25. Halollik va fidoiylikning axloq va ma’naviyat tizimidagi o’rni. | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 21 | 26. Ezgulik va andishalikning shaxs ma’naviyati shakllanishidagi o’rni. | 27. Ezgulik va andishalikning shaxs ma’naviyati shakllanishidagi o’rni. | |
| 22 | 28. Saxovatlilikning inson ma’naviy kamolotidagi o’rni va ahamiyati. | 29. Saxovatlilikning inson ma’naviy kamolotidagi o’rni va ahamiyati. | |
| 23 | 30. Kamtarlik, tortinchoqlik, andishalilik yuksak ma’naviy fazilat ekanligi. | 31. Kamtarlik, tortinchoqlik, andishalilik yuksak ma’naviy fazilat ekanligi. | |
| 24 | 1. Ezgu maqsad bilan yashash-shaxs kamolotidagi muhim me’zon sifatida. | 32. Ezgu maqsad bilan yashash-shaxs kamolotidagi muhim me’zon sifatida. | |
| 25 | 2. Kasbga hurmat –yuksak fazilat. | 33. Kasbga hurmat –yuksak fazilat. | |
| 26 | 3. Oriyatlilikning axloqiy tarbiyadagi o’rni. | 34. Oriyatlilikning axloqiy tarbiyadagi o’rni. | |
| 27 | 4. Kamtarlik-fazilat, kibr-illat ekanligining axloqiy asoslari. | 35. Kamtarlik-fazilat, kibr-illat ekanligining axloqiy asoslari. | |
| 28 | 5. Ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurashning umuminsoniy va milliy ko’rinishlari. | 36. Ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurashning umuminsoniy va milliy ko’rinishlari. | |
| 29 | 6. Samimiylik-inson xulqiy go’zalligini belgilovchi asosiy mezon. | 37. Samimiylik-inson xulqiy go’zalligini belgilovchi asosiy mezon. | |
| 30 | 7. El-yurtga sadoqat tushunchalarining ma’naviy mohiyati. | 38. El-yurtga sadoqat tushunchalarining ma’naviy mohiyati. | |
| **Жами** | | | **90** |

## Glossariy

**1.AXLOQ**- kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan hatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda Axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi.

**Aqliy tarbiya**- Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o‘zi yetarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, asosiy ma’lumotni ajratib

olish kabi jarayonlarni ham faol qo‘llash lozim bo‘ladi. Aqliy mehnatni to‘g‘ri tashkil qilish o‘quvchilarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo‘lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda aqliy mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zo‘zini nazorat qilish malakasining hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirani mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o‘tkazish kabi malakalarni o‘stiradi.

**Axloqiy tarbiya-** „Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq —kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq— ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma sohalarda kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me’yorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat me’yorlariga zid hatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi.

**Axborot xavfsizligi** -a) jamiyatning ob’ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo’lishi uchun yaratilayotgan shart- sharoitlar. b) tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya’ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr ko’rishlari, bir xududdan ikkinchisiga ko’chib o’tishiga aloqador xavfsizlik. s) bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bo’lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo’naltirilgan chora-tadbirlar tizimi. d) bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo’naltirilgan ta’sir

**Axborot xurujlari-** a) bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo’naltirilgan ta’sir. b) jamiyatning ob’ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo’lishi uchun yaratilayotgan shart- sharoitlar. s) tig’iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" alokadorligi, ularning o’zaro uzviyligi va yaxlitligi. d) Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot, psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat’iy himoya qilish mexanizmini yaratish.

**Vatanparvarlik** — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan

hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir.

**Media (ing. vosita)**-aloqa vositasi sifatida, odamlar aloqa jarayonini amalga oshirish uchun foydalanadigan barcha vositalar, kanallar yoki ma'lumotlarni uzatish shakllari.

**Mehnat tarbiyasi** oldida turgan asosiy vazifa o‘quvchilarga mehnat ta’limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o‘rgatib, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo‘lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo‘lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifalari, mehnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo‘ladigan bilimlar o‘zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta’lim o‘rganiladi.

**INSONPARVARLIK** — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquklilig‘i to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik Insonparvarlikning asosiy masalasidir.

**Jismoniy tarbiya**- shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o‘z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson organizmini chiniqtirish va o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o‘g‘il bolalarni armiya safariga tayyorlash; badantarbiya va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma’lumotlardan xabardor qilish

**Estetik tarbiya-** Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya lotincha „estezio“ — go‘zallikni his qilaman) —o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. hayotda tabiat go‘zallikning estetik tuyg‘ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi.

Bundan tashqari, san’at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San’at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi.

**Ekologik tarbiya-** insonda tabiatga nisbatan to‘g‘ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o‘z oldiga o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo‘yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg‘ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi.

**TARBIYA**– shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir.

**Komil insonni tarbiyalash** – umumbashariy g`oya. Ya`ni, bu –jami odamzodga xos orzu. Lekin buni amalga oshirishda har bir xalq o`zining milliy xususiyatlari, an`ana va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir xalqning o`zi intiladigan komillik timsollari bo`ladi.

**MAQSAD** (falsafada) — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo‘lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta’riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo‘lsa, maqsad faoliyat yo‘nalishini belgilovchi elementdir.

**Ma’naviy-axloqiy tarbiya-** mohiyatiga ko‘ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o‘z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘ unligi, shuningdek, ma’naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo‘ lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarining e’tiqodga aylanishi va e’tiqodning tizimli bo‘lishini ta’minlash va ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

**Madaniy meros** - bu o’tmishdan qolgan qadriyatlar, g’oyalar, tajriba, bilimlar ularni o’zlashtirish yo’llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalaridir.

**Mas'uliyat**- bu majburiyatlarga rioya qilish va qaror qabul qilishda yoki biror narsa qilishda ehtiyot bo'lishdir. Mas'uliyat, shuningdek, kimdir yoki biror narsa uchun javobgar bo'lish faktidir.

**Mehnat tarbiyasi** - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko‘zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo‘lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo‘lgan.

**Tejamkorlik** - ne'matlarni qadrlash, me'yorida ishlatish. Tejamkorlik - yaxshi fazilat. Tejamkor insonning oilasida baraka, ishida unum bo’ladi. Kimki, o’zidagi bor narsani tejab-tergab ishlatsa, u uzoqqa yetadi.

**Isrofgarchilik** - ne'matlarni qadrlamaslik va me'-yoridan ortiqcha ishlatish. Isrofgarchilik esa eng yomon odatlardan.

**Umuminsoniy qadriyatlar**- jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog’langanligining ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo’lgan tutash, umumiy bo’lgan zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hodisalar va boyliklarga aytiladi.

**Odob** (arab. — adab so‘zining ko‘pligi) — jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o‘zgalar bilan munosabat (oila, mehnat ja-moasi, turli marosimlar)da namoyon bo‘ladi. O. negizida axloqning ba’zi tamoyil va me’yorlari, shuningdek, maqsadga muvofikdik va go‘zallik (estetika) talablari yotadi. O. kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga tegishli qoidalar (mas, sharm-xayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o‘z ichiga oladi. Insonning diniy e’tiqodi uning O.li bo‘lib kamol topishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. O. ta’lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

**OILA** — nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan.

**Xulq**, xulq-atvor — axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe’l atvori bilan bog‘liq axloqiy hodisa bo‘lib, kishi fe’lining axloqiylik doirasida namoyon bo‘lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari X.dan tashqari odob va axloqkp o‘z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o‘zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan hatti-harakatlardan iborat bo‘lsa, axloq — muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta’sir eta oladigan turli xatti-

harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa. Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o‘rtasidagi xususiyatlarga ega; u odobdan keng , axloqdan tor ma’noga ega bo‘lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta’sir ko‘rsata olmaydi.

**Qadriyat** (arabcha. qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

**Qadriyat -** tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo’ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy – iqtisodiy, madaniy-ma’naviy mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig’indisidir.

**O‘z- o‘zini tarbiyalash-** bu o‘z-o‘ziga talabchanlikni doimiy oshirib borish, yaxshi yashashgagina emas, balki yaxshi odam bo‘lishga ongli ravishda intilishdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash- bu kishining xilma-xil ijtimoiy tajribani egallashga va hayotiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan axloqiy sifatlarning shakllanishiga qaratilgan harakatidir.

**Shaxs** - alohida kishi, ijtimoiy-ahloqiy, ma’naviy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ. Kishilar shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi va rivojlanadi.

**Huquqiy madaniyat** – bu **a)** huquqiy yuqori tuzilmaning o'zlarining amaldagi faoliyatidagi tarkibiy qismlari majmui, ma'lum bir odamlar jamoasining uni amalga oshirish, davlat organlari faoliyati to'g'risidagi g'oyalari majmui; mansabdor shaxslar; **b)** huquqiy ongga asoslangan huquq sohasidagi xulq-atvorning ongli zarurati va ichki ehtiyoji sifatidagi moddiylashtirilgan g'oyalar, his-tuyg'ular, g'oyalar majmui.

**Huquqiy ong**- bu jamiyatda kishilarning huquq to’g’risidagi qarashlaridir, chunki huquqiy normalar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida kishilar o’rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o’ynaydi.

**Huquqiy tarbiya**-shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko’rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko’nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko’zlagan faoliyat yig’indisi.

**Huquqiy tarbiya** - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko’rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko’nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko’zlagan holdagi tasvir ko’rsatilishidir.

## Ilovalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

«Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Prezidentimiz yig‘ilishda maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir» degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tdi.

Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir.

Ma'lumki, murakkab o‘tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi.

Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. So‘nggi uch yilda yurtimizda 157ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, «Temurbeklar maktabi», Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o‘qituvchilarning alohida o‘rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o‘qituvchi qaytdi.

Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda», deyiladi prezident matbuot xizmati xabarida.

«Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz. Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq», deydi prezident.

Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig‘ilishda tanqid qilib o‘tildi.

Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg‘or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

«Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak», dedi Shavkat Mirziyoyev.

Videoselektorda xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, muammolarni kompleks hal qilish masalalari chuqur tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi.

Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari o‘qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

«Maktab o‘qituvchisini moddiy rag‘batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz», dedi Prezident.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, Moliya va Xalq ta'limi vazirliklariga 2020 yilda xalq ta'limi xodimlari oylik ish haqini oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Uzoq qishloqlardagi maktablarga o‘qituvchilarni jalb etishni yanada rag‘batlantirish uchun ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish ham ko‘zda tutilgan.

Bu ishlar davlatimiz tomonidan izchil davom ettiriladi. Lekin bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, o‘qituvchi va murabbiylarning o‘zi ham bilim va saviyasini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro‘sini oshirishi kerakligiga urg‘u berildi.

Nizomiy nomidagi universitet, hududlarda 6 ta pedagogika institutlari mavjud. Respublika ta'lim markazi, Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, viloyatlarda ham shunday institutlar bor. Lekin o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchilarning bilim va saviyasini yuksaltirishda, afsuski, ularning o‘rni sezilmayapti.

Yig‘ilishda pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari faoliyatini tanqidiy o‘rganib, takomillashtirish, ularni eng nufuzli ta'lim muassasalariga aylantirish, pedagoglikka moyilligi bo‘lgan yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Prezident maktablari va ijod maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning samaradorligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida alohida tuzilma tashkil etilishi ma'lum qilindi.

Maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, «Milliy g‘oya», «Odobnoma», «Dinlar tarixi», «Vatan tuyg‘usi» kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona «Tarbiya» fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta'kidlandi.

Oiladagi ta'lim-tarbiya muhiti, ota-onalarning mas'uliyati va o‘qituvchilar bilan hamkorligi masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Maktab hayoti, fidoyi o‘qituvchilar haqida badiiy va hujjatli filmlar, spektakl va videoroliklar yaratish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

«Moddiy va ma'naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo‘g‘in bo‘lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur», deb uqtirib o‘tdi davlatimiz rahbari.

Yig‘ilishda ishtirok etgan rahbar va mutasaddilar, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali va fidoyi muallimlar, ziyolilar, mahalla faollari muhokama qilingan masalalar yuzasidan o‘z fikr va takliflarini bildirdilar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

**UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qiladi:

1. Quyidagilar:

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq;

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi (keyingi o‘rinlarda Chora-tadbirlar rejasi deb ataladi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash;

ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyokarashni shakllantirish;

uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish.

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Chora-tadbirlar rejasini bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, madaniyat, ma’naviyat, ommaviy axborot vositalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyatiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,
2019-yil 31-dekabr,
1059-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga 1-ILOVA

## Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONSEPSIYASI

### I bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

2. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

3. Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

4. Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

5. Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

## II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

6. Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

7. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

## III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirish

8. Uzluksiz ma’naviy tarbiya:

davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

9. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

**birinchi bosqich** — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

**ikkinchi bosqich** — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

**uchinchi bosqich** — umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

**to‘rtinchi bosqich** — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

10. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining I — XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor majlisi bayoni (27.08.2019-y., 19750-hx-son) 5-bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi — ma’naviy tarbiyaning g‘oyaviy mohiyat va strategiya yo‘nalishini belgilashga;

Vazirlar Mahkamasi — strategiyaning ijrosini ta’minlash, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni nazorat qilib borish va moliyalashtirishga;

mutasaddi vazirliklar, idoralar va hokimliklar — belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga mas’ul ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

## IV bob. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

12. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda — hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

ikkinchi davrda — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

13. Homilador ayollar o‘qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro‘yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

14. Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma’naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o‘tkazish.

15. Oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish, ajralishlarning oldini olishda “Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida “Ota-onalik — baxt va burch” targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.

16. Oilada uzluksiz ma’naviy tarbiya xususiyatlari:

muloqot, o‘yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasiga e’tibor qaratish;

o‘zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o‘rgatish;

ilk ma’naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

o‘ziga-o‘zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘rgatish.

17. 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi.

18. Bolalarga taklif etilayotgan o‘yinchoqlarni ma’naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sirlarning oldi olinadi.

19. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida:

bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

mahallalardagi “Ota-onalar universitetlari”da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

“Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;

uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida “Yosh ota-ona kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.

20. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qoshida xalqimizning boy milliy ma’naviy tarbiya merosini keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan “Ma’naviy tarbiya” ilmiy-ijodiy studiyasini tashkil etish orqali:

ota-onalar, bolalar, o‘smirlar, yoshlar va kattalarga mo‘ljallangan hujjatli, o‘quv, tarbiyaviy va badiiy kitoblar, qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari yaratiladi;

oilalarda yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratish usullari ishlab chiqiladi.

21. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkaziladi.

## V bob. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

22. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o‘z ichiga maktabgacha 3 — 6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.

23. Ushbu bosqichda 3 — 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;

o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;

o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;

nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

24. Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga:

asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish;

muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish;

o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish;

faoliyat va sujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish;

kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;

kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish;

o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatiladi.

25. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3 — 6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg‘otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

26. Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

27. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashi tavsiyalari asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “Oilaviy”, “Bolajon” telekanallari, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

28. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo‘shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

29. Mulkchilik shakllaridan qat’i nazar barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, O‘zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

30. Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

31. Barcha turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida “O‘zbekiston — mening Vatanim!” tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish.

32. O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash.

33. Tarbiyalanuvchilarda ma’naviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

34. Bolalarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiyena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi “Ona tabiatni asraylik!” ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish.

35. Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning “Bolalar dunyosi” variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish.

36. Maktabgacha ta’lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, oliyjanoblik, mehr-shafqat, kitobxonlik namunalarini o‘zida aks ettirgan milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko‘rinishlari va lavhalari ifodalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi haykalchalar majmualarini o‘rnatish.

## VI bob. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

37. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang‘ich sinflarda;

ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o‘rta va yuqori sinflarda.

38. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

39. Boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish.

40. Umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;

ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;

ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

41. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari asosida o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

I — XI sinflar uchun “Odobnoma” , “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish.

42. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish.

43. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

44. O‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan “Fazilatli avlod” va boshqa metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish.

45. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida buyuk ma’rifatparvar siymolar merosini targ‘ib etishga qaratilgan “O‘n ikki oy — o‘n ikki alloma” kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.

46. Aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish.

47. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini o‘lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish.

48. Ta’lim muassalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

49. O‘g‘il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo‘ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g‘ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

50. Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

51. Har yili bir marotaba “Milliy tarbiya va zamon” mavzusida pedagogik simpozium o‘tkazib borish.

52. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda “Tarbiya maktabi”, “So‘rang! Javob beramiz, o‘rgatamiz” ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish.

## VII bob. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

53. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh;

ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh.

54. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma’naviy-ma’rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

55. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

namunali, ma’naviy uyg‘unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag‘batlantirish;

yosh oilalarning hayotda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga erishish.

56. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy rejalari asosida o‘quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantiriladi.

57. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;

kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;

faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish;

baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

58. “Fazilatli avlod” ruknida o‘quvchi-talabalar, murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar, vazirliklar va idoralarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullari uchun o‘quv-qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma’rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasi yaratiladi.

59. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish ishlarini amalga oshirish.

60. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari murabbiylari, professor-o‘qituvchilari, yoshlar yetakchilarini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

61. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida har yili ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilib borish.

62. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda har yili ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muhokama qilib borish.

63. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

64. Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo‘lga qo‘yish.

65. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish.

## VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

66. Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

67. Oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

68. Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

69. Oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

70. Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga 2-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA “TARBIYA” FANINI BOSQICHMA-BOSQICH AMALIYOTGA JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 — 9-sinflarda — 2020/2021 o‘quv yilidan, 10 — 11-sinflarda esa — 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning yaratilishini muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha tuzuvchilar guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi:

“Tarbiya” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

2020-yil 10-iyulga qadar 2020/2021 o‘quv yiliga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 — 9-sinflari uchun hamda 1-dekabrga qadar 2021/2022 o‘quv yiliga 10 — 11-sinflar uchun mo‘ljallangan “Tarbiya” fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirsin;

2020-yil 15-iyulga qadar 1 — 9-sinflar hamda 2021-yil 1-mayga qadar 10 — 11-sinflar uchun mo‘ljallangan “Tarbiya” fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish bo‘yicha istisno tariqasida deklaratsiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzsin;

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yangi o‘quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etsin va ularning joylarga yetkazilishini ta’minlasin;

2020-yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar “Tarbiya” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv dasturlari va darsliklar asosida umumta’lim maktablaridagi “Boshlang‘ich ta’lim”, “Milliy g‘oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida “Tarbiya” fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin;

malaka oshirish kurslari davomida “Tarbiya” fanidan tayyorlangan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan o‘tkazsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni nashrga tayyorlash va chop etish (darsliklarni nashrga tayyorlash, chop etish va yetkazib berish, tuzuvchilarga haq to‘lash) bilan bog‘liq xarajatlar darslik va o‘quv-metodik majmualarning umumiy narxiga kiritiladi;

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv majmualarini xarid qilish va yetkazib berish xarajatlari:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-sinf, Mehribonlik uylari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlari o‘quvchilarini, ijtimoiy

yordamga muhtoj oilalar farzandlarini hamda o‘qituvchilar uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar, multimedia ilovalari va o‘quv-metodik majmualar nashr etilishi, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta’minlash — O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari hisobidan;

o‘quvchilarni ijara asosida darsliklar bilan ta’minlash — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Xalq ta’limi vazirligi:

2020 — 2023-yillarda respublika oliy ta’lim muassasalarining “Boshlang‘ich ta’lim”, “Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha), “Tarix o‘qitish metodikasi”, “Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”, “Pedagogika va psixologiya”, “Dinshunoslik” va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)”, “Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)” ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilariga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarni ko‘rsin va mazkur ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab tegishli o‘zgartirishlar kiritsin;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish uchun kadrlar tayyorlanadigan yangi ta’lim yo‘nalishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflarni kiritsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev va O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri Sh.X. Shermatov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,
2020-yil 6-iyul,
422-son

## Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani KONSEPSIYASI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarini ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlari, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan hujjatlari, xususan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

3. Konsepsiyada belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi.

4. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.

5. Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog‘lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo‘l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o‘quv kurslari dasturlarini birlashtiradi.

6. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarning (keyingi o‘rinlarda — Malaka talablari) negizi hisoblanadi. Konsepsiya “Tarbiya” fanini o‘rganish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

## 2-bob. Konsepsiyaning dolzarbligi va zarurati

7. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

8. Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Bu, o‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

## 3-bob. Konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari

9. Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashdagi asosiy prinsiplar quyidagilar hisoblanadi:

milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;

ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;

sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;

ochiqlik va shaffoflik;

tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

10. Huquqiy asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “Tarbiya” fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

11. Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo‘shma qarorlarni ishlab chiqish;

ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;

“Tarbiya” fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

12. Ilmiy-metodik asoslari:

shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;

“Tarbiya” fani malaka talablari, o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini shakllantirish;

“Tarbiya” fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;

“Tarbiya” fani o‘quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo‘naltirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

13. Fanning tarkibi, mazmuni, o‘quv-metodik ta’minoti:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o‘qitish talablari quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi zarur:

boshlang‘ich sinf (A2), to‘qqizinchi sinf (A2+), o‘n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olishi lozim;

har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash;

bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimiga “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;

o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining ko‘p asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo‘ravonlik, terrorizm va ekstremizm g‘oyalari targ‘ib etilmasligini tushuntirish;

shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma’rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish.

## 4-bob. O‘quv-metodik majmuaga qo‘yiladigan talablar

14. O‘quv-metodik majmuaning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablar:

o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” prinsipi mazmun va mohiyatini o‘quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish;

o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;

faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;

mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, teran ma’rifatlilik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o‘zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

15. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratadi:

o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko‘nikmalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

umumta’lim fanlarining o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

16. O‘quv-metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari:

mazkur fan bo‘yicha o‘quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to‘g‘ri tarbiya yo‘liga yo‘naltirish, zarur bilim va hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko‘mak ko‘rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma’naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy quyidagi o‘quv-metodik majmualar kompleksini talab qiladi:

o‘quv-metodik majmua ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o‘rta ta’limining zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi;

mavzularning mazmunan izchilligi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligi.

17. Darslikka qo‘yiladigan didaktik talablar:

o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fani mazmun-mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglash va hayotga tatbiq qilish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo‘lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

rasmlar ko‘rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat mediamahsulotlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

o‘quvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta’riflar va shu kabi lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

18. Darslikka qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan bo‘lishi;

o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yo‘naltirishga oid matn va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan bo‘lishi lozim.

19. Darslikka qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri inobatga olingan holda, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olish va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzularining o‘quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma’lum bir faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog‘liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olinishi lozim.

20. Darslikka qo‘yiladigan estetik talablar:

belgilangan talablar darajasida yorqin, rangli, chiroyli bezatilgan, zamonaviy dizayniga mos bo‘lishi;

matnlar va illyustratsiyalarning uyg‘unligi va o‘quvchilar yoshiga mosligi;

bo‘lim, bob, mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, ularning mutanosibligi ta’minlanishi lozim.

21. Darslikka qo‘yiladigan gigiyenik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamenti talablariga mos bo‘lishi lozim.

**5-bob. Yakunlovchi qoida**

22. Konsepsiyada nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga erishishning moliyaviy xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti, yuridik va jismoniy shaxslarning

## NAZORAT SAVOLLARI:

**1.** Tarbiya nima?

**2**. Tarbiya fani qachondan ta’lim tizimiga kiritildi?

3. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

**4.** Tarbiya fani qaysi fanlar bilan aloqador?

**5.** Tarbiyani nega uzluksiz jarayon deyishadi?

6.Tarbiya fanining huquqiy asoslarini ayting.

7.«Tarbiya» fani Konsepsiyasi qaysi qaror asosida tasdiqlangan?

8.Ushbu Konsepsiyaning printsiplari nimalardan iborat?

9.Tarbiya fanini joriy etishda qaysi xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganilgan?

10.Qachon 11-yillik ta'lim yana qayta tiklandi?

11. Qaror bo'yicha "Ma'naviyat fidoiysi" ko'krak nishoni kimlarga berilishi nazarda tutilgan?

12. «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) asarlarining muallifi kim? (M.Behbudiy)

13. A.Avloniyning tarbiyaga oid qaysi asarlarini bilasiz?

14. I.Ibratning tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan misollar keltiring.

15."Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasining muallifi kim?

16. Globallashuv jarayoni tarbiya jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?

17.Globallashuv jarayonida farzand tarbiyasida nimalarga e'tibor qaratish lozim?

18 .I.G'azzoliy tarbiyaga jid fikrlarini qaysi asarida bayon qilgan?

19. Bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun qanday choralar ko'rish kerak?

20. "Axborot xurujlari" deganda nimani tushunasiz?

21."Albatta, to'g'rilik yaxshilikka boshlaydi. Yaxshilik jannatga boshlaydi. Yolg'on yomonlikka olib boradi. Yomonlik esa do'zaxga olib boradi"fikri kim tomonidan bildirilgan?

22."Uch kishining duosi qabuldir: otaning farzandiga qilgan duosi, mazlumning duosi va musofirning duosi" degan fikr qaysi manbada keltirilgan?

23. Alixon To'ra Sog'uniy tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish bu yon tursin, suhbatni o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi" fikri kim tomonidan bayon qilingan?

24. Olmon faylasufi Immanual Kantning “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrini ma’nosini tushuntiring.

25. «Yer yuzida kibrlanib yurma! Chunki sen (oyoqlaring bilan) zinhor yerni tesha olmaysan va uzunlikda tog‘larga yeta olmaysan» fikri qaysi manbada keltirilgan?

26. “Ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir” fikri kim tomonidan bildirilgan?

27. “Odob-axloq” kodeksi bo’yicha maktab o’qituvchilariga nimalar man etilgan?

28. “Odob-axloq” kodeksi bo’yicha maktab oshxonasida nimalarga e’tibor qaratilishi lozim?

29. Dars vaqtida sinfxonada qanday tartiblarga amal qilish kerak?

30. Maktab hududidagi qoidalardan qaysilarini bilasiz?

31. Huquqiy ong deganda nimani tushunasiz?

32. Huquqiy madaniyatni shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

33.“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oyaning mazmunini tushuntiring.

34.Harakatlar strategiyasining nechanchi ustuvor yo’nalishida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish haqida vazifalar belgilangan?

35. “O’zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?

36. 1.Insonparvarlik nima?

37. Vatanparvarlik qanday shakllanadi?

38. Axloq nima?

39. Mas’ullik va burch deganda nimani tushunasiz?

40. Mahalla qadriyatlar beshigi, oila-kichik Vatan deganda nimani tushunasiz?

41.Oilaga ta’rif bering

42.Oilada farzand tarbiyasida qanday jihatlar muhim?

43. Oilada ekologik tarbiya qanday shakllantiriladi?

44. Tejamkorlik nima?

45. Oila xo‘jaligini oqilona yuritishning muhim sharti nima?

46. Inson kamolotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o’rni qanday?

47. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an’anaviylik va zamonaviylik munosabatini izohlang.

48. Milliy an`analar deganda nimani tushunasiz?

49. Qadriyatlarning tarix sinovidan o‘tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to‘g‘ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyatini tushuntiring.

50. Umuminsoniy qadriyat nima?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik. –T.: 2016 y. – 538b.

2.M.Quronov, Sh. To’rayev va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. O’quv qo’llanma, “Muharrir” nashriyoti 2017 y. 18 b.t

3. A.Erkaev Ma’naviyatshunoslik Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent 2018

4. R. Ro’ziyeva, N. Bobonazarova Ma’naviyat asoslari. T., “O’zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi”, 2019

5. A.Qodirov, M.Quronov va boshq. Fazilatli avlod: 7-18yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash bo’yicha qo’llanma. “Muharrir” nashriyoti 2019 y. 16 b.t.

**Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. **Mirziyoyev Sh.M.** Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.– Toshkent: O’zbekiston, 2017.

2. **Mirziyoyev Sh.M.** Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017.

3. **Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.** – Toshkent: “O’zbekiston”, NMIU, 2017.

4. **Mirziyoyev Sh.M.** Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O’zbekiston”, NMIU, 2018.

5. **Mirziyoev Sh.M.** Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. –Toshkent: “O’zbekiston”, NMIU, 2019.

6.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. T, O’zbekiston, 2021.

6. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.

7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

8. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020. https://president.uz/uz/

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni.

10. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. 2019 yil 31 dekabr. O’zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh.

11. Avloniy A. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.

12. Fitrat A. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.

13. Behbudiy M. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.

14. Xodiyev M. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.

15. Ibrat. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.

16. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi.–T.:Akademiya, 2008

17. Utamuradov A. va boshqalar Shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirish. Toshkent. “Universitet” 2011

18.Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o’rni / Najmidinova Karimaxon Usmonovna. – T.: «Adolat», 2016. 224 b.

19.Kenjaboev A., Kenjaboev J. -Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. Zamonaiy ta’lim, 2015 yil, 4-son, 61-64 betlar.

20. Ishmuxamedov R. O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. - 68 6.

21. Qodirov A., Quronov M. va boshq. Yosh ota-ona kitobi: 3 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash bo’yicha qo’llanma. “Muharrir” nashriyoti 2019 y. 16 b.t.

22. Qodirov A., Quronov M.va boshq. Baxtli bola ma’naviyati: 3-7 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash bo’yicha qo’llanma. “Muharrir” nashriyoti 2019 y. 16 b.t.

**Axborot manbalari:**

1. www.tersu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www. lex.uz